

327  
Sh 22

# DIPLOMATIK TERMINLAR IZOHЛИ LUG'ATI



**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining  
Ma’naviyat va davlat tilini rivojlantirish  
masalalari departamenti**

**Isroil SHAMSIMUXAMEDOV**

# **DIPLOMATIK TERMINLAR IZOHLI LUG‘ATI**

**400 ga yaqin termin, so‘z birikmasi va nom kiritilgan**

**Toshkent  
«DONISHMAND ZIYOSI»  
2021**

**UO'K 811.512.133'373.46:327(038)**

**KBK 81.2O'zb-3**

**66.4**

**Sh 21**

**Mas'ul muharrir:**

A.A. Haydarov – Favqulodda va Muxtor elchi,  
siyosiy fanlar doktori, professor

**Taqrizchilar:**

B.A. Islamov – iqtisod fanlari doktori, professor  
H. Dadaboyev – filologiya fanlari doktori, professor  
I.A. Xamedov – yuridik fanlari doktori, professor

**Shamsimuxamedov, Isroil.**

Diplomatik terminlar izohli lug‘ati [Matn] / Izohli lug‘at. – T.: “Donishmand ziyosi”, 2021-yil. – 224 b.

Ushbu lug‘at kitobi hozirgi o‘zbek tilining xalqaro munosabat-larga oid sohasi – siyosat va diplomatiyada qo‘llanayotgan 400 ga yaqin termin, so‘z birikmasi va nomlarni o‘z ichiga olgan. Qo‘llanma xalqaro munosabatlar hamda siyosatshunoslik fanlari o‘qitiladigan universitetlar, institutlarning tadqiqotchi va talabalari, yosh diplomatlar, tarjimonlar, qolaversa, shu soha bilan qiziquvchi kito-bxonlarga mo‘ljallangan.

*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan  
chop etildi*

ISBN 978-9943-7673-2-4

© I. Shamsimuxamedov, 2021

© «Donishmand ziyosi», 2021

## So‘zboshi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrdagi “**O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi Farmoniga muvofiq davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishini, sohaga oid muammolarni tahlil etib, bu borada yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta‘minlash yuzasidan Vazirlar Mahkamasida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi va yangi so‘z va atamalarни rasmiy iste’molga kiritish borasidagi ishlarni tartibga soladigan Atamalar komissiyasi tuzildi.

Qo‘lingizdagи “Diplomatik terminlar izohli lug‘ati” ham ushbu chora-tadbirlarga javob tariqasida sohadagi ehtiyojni birmuncha qondirishga xizmat qiladi, degan maqsadda yaratildi. Kitob o‘zbek millatining xalqaro sohadagi ongi va siyosiy madaniyatining yusulsalishiga, siyosiy masalalar va diplomatik jarayonni o‘zbek tilida ifodalab berishga xizmat qiluvchi adabiyotlar, jumladan, lug‘atlar yaratish sohasiga qo‘shilgan baholiqdrat hissa bo‘ladi, deb umid qilamiz. Ushbu nashrni amalga oshirishdan ko‘zlangan yana bir maqsad – siyosat, diplomatiya, umuman, xalqaro munosabatlar sohasi mutaxassislari, JIDU talabalari va qolaversa, qiziquvchilarga shu sohadagi terminlar, birikma va nomlarni o‘rganish va o‘z faoliyatlarida qo‘llash imkoniyatini yaratishdir.

Shu o‘rinda hamma sohalar kabi diplomatiya tili ham o‘z terminlari tizimiga ega ekani, uning lug‘at boyligi diplomatik, tarixiy, madaniy, lингвistik, huquqiy va boshqa xil iboralardan tashkil topganini eslatib o‘tish lozim.

Diplomatiya tili uchun uzun jumlalar, iboralar, kirish so‘zlari va bog‘lovchilarning ko‘pligi xos. Diplomatik til rasmiy tildan, xusu-

san, xalqaro siyosat tilidan, jurnalistika tilidan, ma'lum darajada badiiy-adabiy tildan ham ancha farq qiladi.

Ta'kidlash joizki, diplomatik atamalar asosan lotin, ingliz, fransuz tillarida yaratilgan yoki ular orqali vositachi tillar sifatida kirib kelgan. Har qanday zamonaviy tilda diplomatiya va siyosatga tegishli terminlar faol rivojlanmoqda, shuning uchun insonning diplomatiya va tashqi aloqalar bilan bog'liq aqliy faoliyati natijalari terminlarda ifodalanmoqda, deb taxmin qilish mantiqan to'g'ri.

Lug'atdagi atamalarni tanlashda o'zbek tili mezonlariga, til nomaqlariga rioya qilindi. Lug'at ushbu sohadagi dastlabki izlanish sifatida uni tuzishda lug'atchilikning barcha an'ana va qoidalariga rioya qilishga hamda xalqaro hayotda, siyosatda qo'llanayotgan diplomatik terminlarni imkon qadar toplashga harakat qilindi.

## **I. Shamsimuxamedov**

## **Lug‘atda ishlatilgan qisqartmalar:**

diplomatik – dip., qarang: – q.:, lotin – lot., ingliz – ing., fransuz – fran., nemischa – nem., grekcha – grek. (ba’zan yunoncha – yunon. va qadimgi yunon – qad. yunon.), niderland tilida – nider., masalan: mas., va boshqalar – va b., va hokazo – va h.k.

Izoh: lug‘atda diplomatiya sohasida (lotin, fransuz yoki ingliz tillarida) qo‘llanadigan va tarjima qilinmaydigan terminlar uchraydi. Mas.: *Ad interim, par interim* (*lot.*), *valiza, dismisli, konkordat, legat, modus prosedendi* va boshqalar.

Matnlarda eng ko‘p uchragan hujjat nomi – “Diplomatik munosabatlar to‘g‘risidagi 1961-yil Vena konvensiyasi” va “Konsullik munosabatlari to‘g‘risidagi 1963-yil Vena konvensiyasi” rasmiy hujjat yoki boshqa manbalarda “munosabatlar” iborasi o‘rniga “aloqalar” so‘zi ishlatilgan holda ham uchrab turadi. Soha mutaxassislari “munosabatlar” iborasini qo‘llash afzalroq, deb hisoblashadi.

# A

**AVTARKIYA.** (qad. yunon. αὐτάρκεια – o‘zini o‘zi ta’minalash; o‘ziga to‘qlik) Bu jamoaning tashqi muhit bilan almashinuvga minimal bog‘liqlik bilan yopiq ishlab chiqarish tizimi; tashqi savdo aylanmasi minimallashtirilgan mamlakatning iqtisodiy o‘zini o‘zi ta’minalash rejimi. Hozirgi kunda avtarkiya tushunchasi bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan aloqa qilmay rivojlanishga, o‘z-o‘ziga yo‘naltirilgan iqtisodiyotini anglatadi. Boshqacha aytganda, bu termin ochiq iqtisodiyotning aksi bo‘lgan yopiq, mutlaq suverenitetni nazarda tutadigan iqtisodiyotni aks ettiradi.

Masalan, kichik mamlakatlarning tashqi aloqalardan ko‘proq foyda olishlari aniq bo‘lgani uchun ochiq iqtisodiyot tizimiga intilishlari va, aksincha, ulkan ichki bozori bo‘lgan yirik mamlakatlarining “avtarkiya” siyosatiga moyilliklari isbotlangan. Shu jihatdan avtarkiya siyosati mamlakatning katta-kichikligi bilan uzviy bog‘liq. Mamlakatda avtarkiyaning rivojlanishi ba’zi ekspertlarning fikriga ko‘ra, zamonaviy jahon iqtisodiyotining rivojlanish an’analalariga ziddir, bu esa ba’zi hollarda mamlakatning iqtisodiy va texnologik jihatdan orqada qolishiga olib keladi.

**AVTOKRAT.** (qad. yunon. ἀυτοκράτης – yakka hokim) Bu termin cheksiz huquqlarga ega bo‘lgan yakka hokim, mustabid rahbar ma’nosini anglatadi. Hozirgi kunda nafaqat davlat miqyosida, balki turli boshqaruv organlaridagi ba’zi rahbarlarga nisbatan ham “avtokrat rahbar” iborasi qo‘llanmoqda.

**AVTOKRATIYA.** (qad. yunon. – αὐτο-κράτεια “o‘zi” + “kuch”) Bu hokimiyat shakllaridan biri bo‘lib, uning asosini hokimiyatni bir kishi yoki kengash tomonidan cheklashsiz boshqarish tushuniladi. Masalan, bir partiyalı parlament yoki prezidentlik respublikasiga o‘xshash. Avtokratiya – bu demokratiyadan totalitar tuzumga o‘tish

va aksincha demakdir. Shu bilan birga, u har ikkala boshqaruv shaklining xususiyatlarini birlashtirgan bo‘ladi, lekin ulardan biri bo‘lolmaydi. Hukmdor avvalgi avtokratning vorisi bo‘lishi mumkin.

**AVTORITAR DAVLAT.** Ushbu davlatda g‘ayridemokratiq, avtoritar rejim hukmronlik qiladi. Avtoritar rejimdagi davlatlar uchun fuqarolarning huquq va erkinliklari cheklangan yoki butunlay tugatilganligi, muxolifatdagi partiya va boshqa tashkilotlarning taqiqlanganligi, saylab qo‘yiladigan davlat organlarining roli cheklanganligi va ijro etuvchi hamda farmoyish beruvchi davlat organlarining roli kuchaytirilishi, davlat boshlig‘i va hukumatning qo‘lida hokimiyat vakolatlarining to‘planishi, parlament va boshqa davlat hokimiyat organlarining rolini yo‘qqa chiqarilganligi xosdir.

Avtoritar rejimning eng xavfli shakllaridan biri fashizmdir. Fashistik rejim XX-asrning 30–40-yillarida g‘arb mamlakatlarda (Germaniya, Italiya) paydo bo‘lib, u yerda mavjud bo‘lgan demokratiq huquq va erkinliklarni yo‘qqa chiqardi va muxolif partiya va tashkilotlarni terroristik usulni qo‘llab yanchib tashladi. Fashizmga ijtimoiy asosni hokimiyatga intiluvchi kuchlar va aldangan ishchi, dehqonlar qatlami yaratdilar.

Fashistik rejimlarni paydo bo‘lishiga jamiyatning ichida ijtimoiy-sinfiy ziddiyatlarning keskinlashuvi, hukmron sinfning siyosiy hokimiysi inqirozi sabab bo‘ladi. Inqirozlar natijasida hukmron tabaqa o‘z hukmronligini liberal-demokratik usullar orqali ta’minalay olmaydi, shu sababli hokimiyatni qo‘ldan boy berishdan qo‘rqib, terroristik usullarni qo‘llashga o‘tadi. Ularga misol qilib, Ikkinchiji jahon urushi boshlanishi oldidagi Germaniya va Italiyadagi fashistik rejimlarni ko‘rsatish mumkin. Bu mamlakatlarda mavjud bo‘lgan fashistik rejimni xususiyatlariga quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: aholini kam ta’minlangan qatlamini himoya qilishni ro‘kach qilib boshqaruvning repressiv usullarini qo‘llash; ommaviy axborot vositalari orqali g‘ayrikommunistik va g‘ayrisemit g‘oyalarning targ‘ib qilinishi; xalq farovonligi uchun g‘amxo‘rlik qilish to‘g‘risidagi yolg‘on shiorlarni tarqatish; fashist rahbarlari siyosatiga qarshi

bo‘lganlarga davlat miqyosida kurash olib borish; hukmron doiralarning armiya, politsiya va boshqa repressiv kuchlarga tayanshi; Germaniya·va Italiya fashistlari yo‘lboshchilarining daxlsizligi, dohiylikka da’vogarligi va hokazo.

Yuqorida sanab o‘tilganlardan tashqari, fashistik rejimning yana bir qator o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Ulardan eng muhim ijro etuvchi hokimiyatning qonun chiqaruvchi hokimiyatdan mutlaq ustunligidir. Ijro etuvchi hokimiyatning mutloq ustunligi “tub islohotlar”ni o‘tkazish, “millat birligi” uchun kurashish, “haqiqiy” demokratiyani o‘rnatish, qonuniylik va adolat tantanasi uchun kurashish kabi shiorlarni o‘rtaga tashlash bilan ta’minlandi. Bunda parlament faoliyat yuritishni to‘xtatadi va siyosiy jihatdan betaraflashadi. Parlament o‘zining qonunlarni yaratish vakolatidan mahrum bo‘ladi.

**AVTORITAR TUZUM.** (lot. autoritas – hokimiyat, obro‘, nufuz va e’tibor; ta’sir etish) Davlat rejimining nodemokratik turlaridan biri bo‘lib, bunda hokimiyat yakka shaxsning yoki bir guruuh shaxslarning qo‘lida to‘plangan bo‘ladi. Avtoritar tuzumda, odatta, shaxsiy diktatura elementlari mavjud bo‘ladi. Bunday tuzumda haqiqiy hokimiyat tor doira qo‘lida bo‘lib, shaxsiy manfaatlar davlat manfaatlari yo‘lida qurban qilinadi.

Avtoritar tuzumda vakillik organlari ham mayjud bo‘ladi, referendumlar, xalq muhokamalari va h.k. o‘tkazilishi mumkin.

Bunday tuzumning mohiyati qo‘llaniladigan uslublari: jamiyatga muayyan mafkurani majburan qabul qildirishda, demokratik erkinliklarni cheklashda, bir qator konstitutsiyaviy institutlarning bekor qilinishi yoki nomigagina bo‘lishida, ma’muriy organlarning jamoat tashkilotlari ustidan nazorat qilishida, muxolifatning yo‘qligi yoxud unga yo‘l qo‘ylisa ham, uning faoliyat ko‘rsatish imkoniyatlari juda cheklanganligida, ommaviy axborot vositalariga nisbatan qattiq nazorat o‘rnatilishida, fuqarolar har tomonlama nazoratda bo‘lishi kabilarda namoyon bo‘ladi.

**AGREMAN.** (fran. agreeer dan agrément – rozilik) Diplomatik amaliyotda ishlatiluvchi bu ibora qabul qiluvchi davlat hukumati-

ning muayyan bir shaxsning (uni) yuboruvchi davlat vakili etib tayinlanishiga roziligin nazarda tutadi. Agreman faqat diplomatik missiya (vakolatxona) rahbarlariga (zamonaviy amaliyotda – elchilarga) so‘raladi va so‘rov, odatda, qabul qiluvchi tomon tashqi ishlar idorasini orqali qaytib ketayotgan elchi yoki diplomatik vakolatxona (missiya)ning katta xodimi tomonidan topshiriladi. Diplomat shaxsiy tashrifi chog‘ida mezbon davlat mas’ul shaxsiga og‘zaki ravishda tashrif maqsadini bayon etadi va yangi tayinlanayotgan vakilning qisqacha tarjimai holini topshiradi. Ba’zi mamlakatlarda tashqi ishlar idorasiga agreman berish so‘ralgan rasmiy nota yuborish amaliyoti ham mavjud. Aksariyat hollarda agreman berishga rozilik berilmagani xabar qilinmaydi: muayyan muddatning (4–8 hafta) o‘tishi taklif etilgan nomzodning to‘g‘ri kelmagani ma’nosini anglatadi. Agreman og‘zaki ravishda so‘ralganda unga ijobiy javob ham og‘zaki beriladi. Agreman olingach, diplomatik vakolatxona boshlig‘i lavozimiga tayinlanayotgan nomzod *persona grata* sifatida qaraladi; qabul qiluvchi tomonning munosabati ijobiy bo‘lmagan yoki rad javobi ushbu vakilning *persona non grata* ekanidan dalolat beradi. Mezbon davlat agremanga rozi bo‘lmagani sababini xabar qilishga majbur emas. Xalqaro amaliyotga binoan agreman to‘g‘risidagi masala bo‘yicha yozishma yoki muhokamalar ovoza (oshkor) qilinmaydi.

**AD INTERIM, PAR INTERIM.** (lot.) Akt yoki hujjat imzolayotgan diplomatik shaxs lavozimi nomi oldiga (odatda *a.i.*, yoki *p.i.* ko‘rinishida) yoziladigan va ushbu shaxs bu lavozimni vaqtincha bajarayotganini anglatadigan ibora. Vaqtincha joyida yo‘q (ta’til, kasal va boshqa sabablarga ko‘ra) diplomatik vakolatxona rahbari vazifasini bajarib turgan ishonchli vakil charge’ d’affaires ad interim (*muvaqqat ishonchli vakil*) deb ataladi.

**AD REFERENDUM.** (lot. – ma’ruza uchun, navbatda ko‘rib chiqish uchun) “Yuqori tashkilotlar ma’qullashi sharti bilan” mazmunini anglatuvchi termin. Bunday izoh muzokara o‘tkazayotgan shaxs tomonidan biror shartnoma, akt, loyiha yoki taklifni imzolash

chog‘ida qilinadi va uning imzosi shartli ravishda ma’qullanishi zarurligini anglatadi.

**AD HOS.** (lot. – mazkur holat uchun, ma’lum maqsad uchun, maxsus) Bu termin ostida diplomatiyada vaqtincha xarakterga ega maxsus vazifani bajarish uchun mo‘ljallangan maxsus missiya, maxsus vakillar, maxsus tashkilotlar, qo‘mitalar yoki ishchi guruhlar faoliyatini tartibga soluvchi me’yorlar tushuniladi. Arbitrajga yoki vasiylik sudiga Ad hos tariqasida murojaat qilinganda, tomonlar har bir alohida holatda o‘rtalarida kelib chiqqan bahsni hal etish uchun arbitraj yoki sud organi tuzadilar va u qaror chiqarib bo‘lgan zahoti yo‘q bo‘ladi. BMTda Ad hos qo‘mitalari faoliyati keng tarqalgan.

**ADOLAT PRINSIPI.** Davlatlararo munosabatlarda qo‘llanadigan prinsip bo‘lib, unga ko‘ra xalqaro muammolar xalqaro huquq asosida va davlatlar bilan xalqlarning qonuniy mansaatlariiga rioya qilgan holda hal etilishi kerak.

Adolat tushunchasi xalqaro huquqning eng asosiy prinsiplaridan biri – xalqaro nizolarni tinchlik yo‘li bilan bartaraf etishni anglatadi. Bu BMTning Nizomida tashkilotning asosiy maqsadlaridan biri sifatida o‘z aksini topgan.

**AKKLAMATSIYA.** (lot. acclamatio – qichqiriq, hayqiriq) Akklamatsiya diplomatik amaliyotda, shuningdek, ba’zi parlamentlar, konferensiya, syezd, forum va boshqalarda reglament bo‘yicha ovoz berishni o‘tkazmasdan qaror qabul qilish usulini anglatadi. Qaror ishtirokchilar reaksiysi, ya’ni masalaga munosabatlari: xitoblar, qarsaklar, joylaridan aytilgan luqma va mulohazalardan kelib chiqqan holda qabul qilinadi. O‘tkazilayotgan tadbirlarning rasmiy bayonnomma (protokol)larida, odatda, “qaror akklamatsiya yo‘li bilan qabul qilindi”, degan belgi qo‘yiladi.

**AKKREDITATSIYA.** (lot. accredere – ishonmoq) Akkreditatsiya *qabul qiluvchi davlat* tomonidan diplomatik, savdo yoki boshqa rasmiy vakilni tan olish, ro‘yxatdan o‘tkazish jarayoni. Ommaviy axborot vositalari vakillari ham boshqa mamlakatda ishlash uchun

tayinlanganlarida, shuningdek, rasmiy tadbirlar, konferensiyalar, syezd va boshqa voqealarni yoritishda akkreditatsiyadan o'tishlari shart.

Akkreditatsiya u yoki bu vakillarni o'z davlatlari, shirkatlari, ommaviy axborot vositalari va boshqalarning rasmiy vakili sifatida tan olishni nazarda tutadi.

Diplomatik vakolatxona rahbarlari uchun akkreditatsiya, odatda, o'z ichiga *agremanni* oladi va *ishonch yorliqlarini* topshirish bilan nihoyasiga yetadi. Mustaqil konsullik muassasasi rahbari tashrif buyurilayotgan mamlakat tomondan *ekzekvatura* olgandan so'nggina akkreditatsiyadan o'tgan hisoblanadi. Boshqa holatlarda akkreditatsiya *mezbon mamlakat* rasmiy idoralarining diplomat kelgani to'g'risidagi va uning o'z vazifalarini bajarishga kirishgani to'g'risidagi *notifikatsiyasi* jarayoni bilan nihoyasiga yetadi.

Jurnalistlar parlamentlar, kongresslar, forumlar va boshqa tadbirlar matbuot xizmatlari qoshida, xalqaro tashkilotlar yoki *mezbon mamlakat* matbuoti bilan aloqa qiluvchi rasmiy davlat xizmati qoshida akkreditatsiyadan o'tadilar. Akkreditatsiya jarayonida ularga matbuot uchun tadbirda ishtirok etish huquqini beruvchi guvohnoma beriladi.

Savdo va tijorat vakillari savdo-sanoat palatalari yoki assotsiyalari qoshida, shuningdek, savdo va savdo-sanoat ko'rgazmalar, yarmarkalarda akkreditatsiyadan o'tadilar.

**AKKREDITATSIYA QILUVCHI DAVLAT.** Diplomatiya-da o'rnatilgan qoidalarga binoan har qanday davlat qabul qiluvchi boshqa davlatda o'z vakillarini (elchixon, konsullik, elchi va b.) akkreditatsiyadan o'tkazishi (boshqacha aytganda, ishonch bildirishni so'rashi) shart. Vakillar o'z davlati rahbari imzolagan ishonch yorliqlarini qabul qiluvchi davlat rahbariga topshiradilar. So'rovga ijobjiy javob bo'lgan taqdirda qabul qiluvchi davlat Akkreditatsiya qiluvchi davlat vakillariga *agreman* beradi va ro'yxatga oladi.

**ALTERNAT.** (lot. alternare – navbatma-navbat) Xalqaro shart-nomaning matnini navbat bilan imzolash. Bu hozirgi xalqaro huquq-

da uchraydigan me'yor bo'lib, unga ko'ra xalqaro bitimning kelishayotgan Tomon uchun mo'ljalangan nusxasida birinchi o'rinda davlat nomi (tomonlarning umumiyligi ro'yxatida), vakil qilinganlar imzolari, muhr va shartnomaning mazkur Tomon davlat tilidagi matni joylashtirilishini anglatadi. Alternat deb yana shartnomaning imzolanganidan so'ng shu Tomonda qoladigan nusxasi ham tushuniladi.

Ikki tomonlama shartnomalar imzolanishi navbat bilan, ya'ni alternat tartibida amalga oshiriladi. Alternat tartibi davlatlar vakillarining imzolarini birining qarshisiga ikkinchisini yoki kelishilgan alfavit asosida birining ostiga ikkinchisini qo'yilishini bildiradi. Asl nusxalari (ikki tilda) saqlanadigan davlat vakili o'z imzosini chap tarafga (arab tilida bo'lsa – o'ng tarafga) qo'yadi. Bunday holatda shu davlatning nomi ro'yxatda birinchi o'rinda bo'ladi.

**ANNEKSIYA.** Bir davlat tomonidan boshqa davlatning bir qism yoki butun hududini zo'rlik bilan bir tomonlama qo'shib olish demakdir. Hozirgi zamon xalqaro huquqiga ko'ra, anneksiya tajovuz – agressiyaning bir turi bo'lib, xalqaro-huquqiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

**APARTEID.** (Afrika burlari tilidan, apartheid – alohida yashash). Biror elat yoki millatni saylov va, umuman, eng oddiy huquqlardan mahrum etish siyosati, irqiy va milliy zulmning eng qabih ko'rinishlaridan biri. Aparteid irqiy kamsitishning keskin shakllaridan biri bo'lib, irqiga ko'ra davlat aholisi guruhining huquqlari boshqa aholi guruhlariga nisbatan kamsitiladi, ular siyosiyligi ijtimoiy-iqtisodiy va fuqarolik huquqlaridan mahrum qilinadi. Bir irqning ikkinchi bir irq ustidan hukmronligini o'rnatish va ushlab turish hamda ularga doimiy ravishda zulm o'tkazish uchun aholi maxsus ajratilgan joylar (rezervatsiyalar)da saqlanadi.

**APATRID.** Bir davlat fuqaroligini yo'qotib, boshqa davlat hududida yashayotgan, ammo shu yoki boshqa bir davlat fuqaroligiga o'tib ulgurmagan shaxs. Boshqacha aytganda, davlat fuqaroligiga mansubligi to'g'risida hujjatlari yo'q, ya'ni fuqaroligi yo'q shaxs. (q.: Apolid)

**APOLID.** Fuqaroligi yo'q shaxs. q.: Apatriid

**ARAB DAVLATLARI LIGASI.** (ing. League of Arab States) Xalqaro hukumatlararo tashkilot; U 1945-yil 22-martda Qohirada Misr, Iroq, Livan, Suriya va Transiordaniya vakillari ishtirokida o'tkazilgan konferensiyada ta'sis etilgan va unda ittifoq nizomi qabul qilingan. Bosh qarorgoh Qohirada joylashgan. Tez orada Saudiya Arabiston va Yaman ham bu tashkilotga a'zo bo'ladi va keyinchalik qolgan arab davlatlari ham unga qo'shiladi. Hozirda a'zo mamlakatlar soni 22 tani tashkil etmoqda. 1947-yil BMT Arab davlatlari ligasini mintaqaviy tashkilot sifatida tan oldi va uning vakili Assambleyaning barcha majlislariga doimiy ishtirok etish huquqiga ega bo'ldi. Ittifoqning oliv organi – Kengashdir (sessiyalari har yili ikki marta chaqiriladi). Unga a'zo davlatlar vakillari teng huquqqa ega. Ijroiya organi – bosh kotib rahbarligidagi Bosh kotibiyat. O'tkazayotgan siyosati boshqa arab davlatlari manfaatiga zid kelgan taqdirda shu mamlakat a'zolikdan chiqarilishi amaliyoti mavjud. Mas., 1979-yil Misr Isroil bilan imzolagan "Tinchlik" shartnomasi tufayli tashkilotdan chiqarilgan, bosh qarorgoh Tunis shahriga ko'chirilgan. Bunday voqeal Liviya va Suriya bilan ham ro'y bergan. Ular 2011-yilda tashkilot a'zoligidan chiqarilgan. Misr 1989-yil ligaga qayta qabul qilingan va 1991-yil Bosh qarorgoh ham Qohiraga qaytgan.

**ARALASHMASLIK PRINSIPI.** Xalqaro huquqning asosiy prinsiplaridan biri bo'lib, davlatlarning o'zaro hamkorlik qilish va tinch-totuv yashashining muhim shartlaridan biri. Aralashmaslik shartlariga ko'ra, bir davlat yoki davlatlar guruhi boshqa davlatning ichki va tashqi ishlariga bevosita yoki bilvosita, ya'ni qurolli kuch, iqtisodiy, diplomatik yoki boshqa yo'l bilan aralashmaydi, o'zining ijtimoiy yoki davlat tuzumini, mafkurasini majburan qabul qildirishga urinmaydi, mustaqilligini hurmat qiladi. Aralashmaslik prinsipi BMT Nizomi, BMT Deklaratsiyalari (1965-yil) kabi muhim hujjalarda asosiy prinsiplardan biri sifatida o'z aksini topgan. U ko'p davlatlar konstitutsiyasidan ham o'rinn olgan.

**ATOM DIPLOMATIYASI.** (arxaik ibora, hozir qo'llanmaydi) Ikkinci jahon urushidan so'ng AQSh diplomatiyasida keng qo'llangan termin. Amerika hukmron doiralarining atom energiyasi

sohasidagi ilmiy-tadqiqot va kashfiyotlarni (atom, keyinroq vodorod bombasining ixtiro etilishini) ro‘kach qilib, siyosiy tazyiq o‘tkazish va boshqa davlatlarni qo‘rqitish usuli. AQSh o‘zining “atom qudratini” namoyish qilish maqsadida 1945-yil avgustida Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shaharlariga atom bombasi tashlagan. O‘scha yillar Amerika rasmiy vakillari o‘z tashqi siyosatini o‘tkazishda yadro qurolini qo‘llashdan ham bosh tortmasliklarini bayon qilgan edi. 1949-yil Sovet Ittifoqi atom quroli keyin vodorod quroli ishlab chiqqanini e’lon qilgach, “atom diplomatiyasi” barham topdi.

**ATTASHE.** (fran. attaché) Diplomatik idoradagi eng kichik lavozim yoki martaba. Diplomatik amaliyotda diplomatik lavozim va, odatda, kichik diplomat xodimlarga tegishli “attashe” martabasi (rangi) bilan bir qatorda, maxsus attashelarni tayinlash amaliyoti ham mavjud. Xalqaro diplomatik amaliyotda attashelarning quyidagi darajalari mavjud:

1. Mezbon mamlakat harbiy idorasini qoshidagi o‘zlarini tayinlagan mamlakat harbiy idorasining rasmiy vakillari hisoblangan harbiy, harbiy-dengiz, harbiy-havo attashelari, mudofaa masalalari bo‘yicha attashe; o‘z navbatida ular elchixonona tarkibiga kiradi va vakolatxona boshlig‘ining harbiy masalalar bo‘yicha maslahatchisi hisoblanadi:

– maxsus attashelar. Ma’lum soha bo‘yicha tayinlangan mutaxassis, mas. savdo, moliya, madaniyat attashesi:

– vazirlik va idoralarning chet elda o‘z davlatlari elchixonasi tarkibida faoliyat yurituvchi va mezbon mamlakatning turdosh idora va xizmatlari bilan aloqalarga javob beruvchi attashe – vakillari. Odatga ko‘ra, ular elchixonanening katta diplomatik lavozimlaridan birini egallaydi (maslahatchi, birinchi kotib va h.k.).

2. Matbuot attashesi – elchixonanining o‘z faoliyatiga ko‘ra matbuot, elektron ommaviy axborot vositalari idoralari bilan aloqalariga javob beruvchi xodim. Bu tushuncha diplomatik amaliyotdan hayotning boshqa sohalariga ham o‘tib, endi ko‘pchilik kompaniya, yirik shirkat va tashkilotlar o‘z “matbuot attashe”lariga ega.

3. Diplomatik attashelar – tashqi ishlar vazirligi markaziy apparating yoki diplomatik vakolatxonaning kichik diplomatik xodimi.

4. Faxriy attashelar – diplomatik kasbni tanlagen lekin hozircha doimiy xizmatga joylashgan va ish haqi ham olmaydigan shaxslar. Faxriy attashelar biror diplomatik vakolatxonada malaka oshirish huquqini oladi. Malaka oshirishi tugashi bilan ular diplomatik xizmatning shtatiga o'tkaziladi.

Attashe kategoriyalarining hammasi diplomatik xodimlar hisoblanadi, diplomatik korpus tarkibiga kiritiladi va barcha diplomatik immunitet va imtiyozlardan foydalanadi.

O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 3-iyulda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining diplomatik xodimlari uchun diplomatik klasslar va ranglarni belgilash to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasiga binoan boshlang'ich diplomatik attashe rangi eng kamida bir yil diplomatik xizmatda ishlagan shaxsga beriladi.

**AUTENTIK (ASLIGA TO'G'RI) MATN.** (grek. αὐθεντικός – asl, asl manbadan olingan) Biror hujjatning asl matni. Xalqaro huquqda uchraydigan xalqaro hujjatning qabul qilingan matni qat'iy, deb e'lon qilinuvchi jarayon (protsedura). Odatda, agar shartnomalar yoki undan ko'p tilda tayyorlangan bo'lsa, ularning yakuniy moddalarida "barcha matnlar bir xil kuchga ega"ligi, ya'ni autentik, har biri asl ekani ta'kidlanadi.

**AQSH DAVLAT DEPARTAMENTI.** AQSh tashqi siyosat mahkamasi bo'lib, boshqa davlatlardagi tashqi ishlar vazirligiga aynan o'xshash vazifalarni bajaradigan idora.

## B

**BAYROQ.** Davlatning asosiy ramzlaridan biri. Bayroqning tasviri maxsus qonun yoki konstitutsiya bilan belgilanadi. U gerb yoki boshqa emblema tasvirlangan bir yoki ko'p rangli alvondan iborat bo'ladi. Bayroq davlat muassasalari, elchixonalar, vakolatxonalar, bojxonalar, konsulliklar va h.k. binolarida ko'tariladi. (q.: *davlat bayrog'i*)

**BAYONOT.** Diplomatik munosabatlar, muzokaralar, xalqaro ahvol va shu kabilar haqida manfaatdor tomonlar va umum axboroti

uchun og‘zaki yoki yozma ravishda e’lon qilingan rasmiy bildirish va shu haqdagi hujjat.

**BENILYUKS.** Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg davlatlarining nomidan qisqartirib yasalgan so‘z bo‘lib, u uchchala davlatning nafaqat iqtisodiy, moliyaviy hamkorligini, balki harbiy-siyosiy ittifoqda ekanini ham ifodalaydi. Benilyuks 1943–44-yillarda vujudga keldi. Bu mamlaktlar 1949-yil Shimoliy Atlantika paktiga, 1958-yil 1-yanvardan Yevropa iqtisodiy uyushmasi – “Umumiy bozorga” kirdi. Benilyuksning oliv organi uch davlat vakillaridan iborat Vazirlar komitetidir. Qo‘mita majlislari 3 oyda bir marta chaqiriladi. Bosh qarorgoh Bryussel (Belgiya)da joylashgan.

**BILDIRISH XATI.** Bir davlat boshlig‘ining diplomatik munosabatda bo‘lgan ikkinchi davlat boshlig‘iga o‘zining shu lavozimga saylangani va vazifalarini ado etishga kirishganini bildiruvchi xat. Bildirish xatida ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarga baho beriladi va ularni kelajakda rivojlantirish istagi izhor etiladi.

**BILDERBERG KLUBI.** Yirik kapitalistik mamlakatlar sanoat va moliya doiralari vakillari va siyosiy arboblari guruhi. Uning birinchi majlislari 1954-yil 29–31-mayda Osterbekdagi (Niderlandiya) “Bilderberg” mehmonxonasida maxfiyona o‘tkazilgan. Klubning rahbar qo‘mitasi 25–30 kishidan iborat. U kapitalistik davlatlar tashqi va ichki siyosatining shakllanishiga sezilarli ta’sirini o‘tkazadi.

**BIPATRID.** (yunon. bi – ikki + patris – vatan) Bu xalqaro termin ma’lum bir shaxslarning jamiyatdagi maqomini bildirib, bir vaqtning o‘zida ikki davlat fuqarosi ekanini anglatadi. “Ko‘p fuqarolik” tushunchasi ham mavjud. Milliy qonunlarda fuqarolikni olish qoidalari turlicha belgilangan. Shu sababli bir vaqtning o‘zida bir nechta davlat fuqaroligiga ega bo‘lish mumkin.

Fuqarolikni qabul qilish, yo‘qotish va undan chiqish tartibini belgilaydigan yagona xalqaro hujjat yo‘q. Garchi inson bipatrid deb tan olinishi mumkin bo‘lsa-da, odatda har bir mamlakat ushbu shaxsni o‘z fuqarosi deb hisoblaydi.

Ba’zi mamlakatlar ikki fuqarolikka yo‘l qo‘ymaydi. Ba’zi mamlakatlar esa fuqarolikdan chiqishga yo‘l qo‘ymaydi. Bir qator Yev-

ropa davlatlari qonunchiligidagi bir kishining ikki fuqarolikni olishiga ruxsat berilgan. Bular: Bolgariya, Vengriya, Irlandiya, Italiya, Kipr, Ruminiya, Slovakiya, Turkiya, Fransiya, Shveysariya va boshqalar. (q.: *Ikki davlat fuqaroligi*)

**BLOK.** (ittifoq) Siyosiy-davlat nuqtai nazaridan qaraganda, muayyan maqsadlarga erishish va shu yo‘nalishda birgalikda harakat qilish uchun tuzilgan davlatlar, partiyalar, harakatlar birlashmasi. (q.: *Davlatlar bloki*)

**BIRTOMONLAMA AKT.** Biron-bir davlatning xalqaro sohadagi ma’lum huquqiy yutuqqa erishish uchun qaratilgan xohish-irodasi. Birtomonlama akt orqali davlat boshqa davlat e’tiborini biron-bir faktga, vaziyatga va b. qaratadi. Ba’zan birtomonlama aktni *notifikatsiya* bilan ham bog‘laydilar. Birtomonlama akt sifatida birtomonlama xalqaro majburiyatlar ham qabul qilinishi mumkin (mas. biror davlatning birinchi bo‘lib yadro qurolidan foydalanmaslik majburiyati). (q.: *Xalqaro-huquqiy e’tirof*)

**BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI (BMT).** Yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta’minalash, davlatlarning o‘zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilot. 1945-yilda tuzilgan. BMTni barpo etish haqidagi qaror 1943-yilda SSSR, AQSh, Angliya va Xitoy tashqi ishlar vazirligining Moskvadagi kengashida, Nizomi esa 1945-yilda San-Fransisko konferensiyasida qabul qilingan. BMT Nizomiga dastlab 51 davlat imzo chekkan, hozirga kelib ular soni 193 ga yetdi. BMTning doimiy qarorgohi (shtab kvartirasi) – Nyu-York. BMT Nizomida ko‘rsatilganidek, u xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, xalqlarning teng huquqli bo‘lishi va o‘z taqdirini o‘zi belgilashi qoidasiga amal qilib, millatlar o‘rtasida do‘stlik munosabatlari rivojlantirishni, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy muammolarni hal etishda xalqlar o‘rtasida hamkorlik bo‘lishini ta’minalashni ko‘zda tutib, millatlarning shu umumiy maqsadlarga erishishga bo‘lgan sa‘y-harakatini uyg‘unlashtirib turadigan markaz hisoblanadi.

BMTning rasmiy tillari – ingliz, fransuz, rus, ispan va xitoy bo‘lib, ingliz, fransuz, ispan tillarida ish yuritiladi.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e’lon qilganidan keyin ko‘p o‘tmay – 1992-yil 2-martda BMTga a’zo bo‘ldi. Shu kuni BMT Bosh Assambleyasi binosi oldida O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i ko‘tarildi, BMTning Toshkentdagi vakolatxonasi ochildi (24.08.1993-y.). Shuningdek, BMTda O‘zbekiston Respublikasi vakolatxonasi ish boshladi. O‘zbekiston Respublikasi BMTning Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi tashkiloti – UNESCOga ham a’zo bo‘ldi.

**BMT BOLALAR FONDI (UNICEF).** (ingl. United Nations Children’s Fund – BMTning Bolalar fondi) BMT shafeligida faoliyat yuritadigan xalqaro tashkilot. UNICEF o‘z faoliyatini BMTning Bolalar huquqi to‘g‘risidagi konvensiyasi asosida amalga oshirib, barcha mamlakatlarda bolalar huquqlarini himoya etish amaliyotini milliy qonunchilikka singdirishga harakat qiladi.

UNICEF hukumatlar badali va xususiy donorlar xayriyalari hisobiga ish olib boradi. Hukumatlar tashkilot ehtiyojlarining 2/3 qismini ta’minlaydi. Uning qolgan qismini xususiy guruh va shaxslar milliy qo‘mitalar orqali ta’minlaydi. UNICEF daromadlarining taxminan 92 foizi uning dasturlari uchun ajratilgan. Dasturlar asosan bolalarning sog‘lig‘i va farovonligini ta’minalashga qaratilgan. UNICEF 1965-yilda Nobel mukofotiga, 1989-yilda Indira Gandhi mukofotiga va 2006-yilda Asturiya shahzodasi mukofotiga sazovor bo‘lgan.

UNICEFning faoliyati 192 mamlakat va hududda, uning 150 dan ortiq vakolatxonalari, qarorgoh va boshqa vakolatxonalari hamda 34 ta milliy qo‘mitasi orqali mahalliy hukumatlar bilan birgalikda ishlab chiqilgan dasturlar asosida amalga oshiriladi. 36 kishidan iborat Ijroiya kengashi tashkilot siyosatini belgilaydi, dasturlarni tasdiqlaydi, ma’muriy va moliyaviy rejalarini nazorat qiladi. Ijroiya kengashi BMT Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi tomonidan, odatda, uch yillik muddatga saylanadigan hukumat vakillaridan iborat.

BMT Bolalar fondi O‘zbekiston Respublikasida 1994-yildan buyon o‘z faoliyati doirasida mamlakatning yosh fuqarolari g‘amxo‘r va do‘stona jamiyatda voyaga yetishi, rivojlanishini ta’minalashga

qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. O‘zining mandati asosida UNICEF O‘zbekiston bolalarining himoyalanishi, ularning ehtiyojlari qondirilishi hamda salohiyatlarini namoyon etishga barcha sharoitlar mavjudligini ta’minlashda o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

**BMT BOSH ASSAMBLEYASI.** BMT asosiy organlaridan biri, barcha a’zolarining umumiy yig‘ilishi. U butun BMTga tegishli vazifalar hamda vakolatlarning muhim qismini bajaradi. BMT barcha asosiy organlari orasida eng vakolatlisi. Shu organlarni shakllantirishda ishtirok etadi. BMTga a’zo hamma davlatlar o‘z vakillariga ega bo‘lgan yagona organ. Mazkur vakillar ko‘pi bilan 5 delegat va yana shuncha delegat o‘rinbosari hamda zarur miqdordagi maslahatchilar va ekspertlardan tashkil topadi. BMTga a’zo davlatlarning barchasi BMT Bosh Assambleyasida teng huquqli, ya’ni har biri bir ovozga ega. Delegatsiya majlislar zalida davlatning ingliz tilida-gi rasmiy nomiga muvofiq alifbo tartibida joylashadi. BMT Bosh Assambleyasi *BMT Nizomi* doirasidagi yoki uning har qanday organi vakolat hamda vazifalariga doir turli masala yoxud ishni, biron-bir davlat yoki Xavfsizlik Komiteti o‘rtaga qo‘ygan masalalarni muhokama qilish, shuningdek, BMT a’zolari va (yoki) Xavfsizlik Kengashiga oid tavsiyalarni berish vakolatiga ega. BMT Bosh Assambleyasi Xavfsizlik Kengashining doimiy bo‘Imagan a’zolarini (doimiy a’zolari BMT Nizomi 23-moddasida ko‘rsatilgan), Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash a’zolarini saylaydi; Xavfsizlik Kengashi bilan birga Xalqaro sud sudyalarini saylashda qatnashadi; Xavfsizlik Kengashining va BMT boshqa organlarining yillik hamda maxsus ma’ruzalarini qabul qilib ko‘rib chiqadi; BMT budgetini muhokama etib tasdiqlaydi. BMT Bosh Assambleyasi navbatdagagi yillik sessiya (u sentabr oyining 3-seshanba kuni ochiladi), shuningdek, maxsus yoki (1950-yildan) favqulodda sessiyaga yig‘iladi. Maxsus sessiyalar Xavfsizlik Kengashi, BMT a’zolarining ko‘pchiligi yoki bular ma’qullagan holda BMT a’zolaridan birining talabi bilan

chaqiriladi. BMT Bosh Assambleyasingning har bir sessiyasida rais va uning 21 o‘rinbosari saylanadi. Xavfsizlik Kengashi doimiy a’zolarining vakillari sessiya raisi etib saylanmaydi. Shuningdek, ikkita protsedura qo‘mitasi tuziladi. BMT Bosh Assambleyasingning 7 bosh qo‘mitasi va 2 doimiy qo‘mitasi bor. Bosh Assambleya tavsiya tusi-dagi rezolyutsiyalarni qabul qiladi.

**BMT BOSH KOTIBI.** BMTning Bosh kotibi diplomat, inson huquqlarining himoyachisi va tashkilotning eng birinchi yetakchisi bo‘lib, BMTning qadriyatlarini o‘zida mujassam ettiradi, butun insoniyat nomidan, ayniqsa, eng zaif bo‘lgan aholi nomidan gapi-rish, insoniyat manfaatlarini himoya qilish vakolatiga ega. Hozirda BMTning to‘qqizinchı Bosh kotibi lavozimini 2017-yilning 1-yanvaridan boshlab portugaliyalik siyosatchi Antoniu Guterrish egallab kelmoqda.

**BMT INSON HUQUQLARI BO‘YICHA KENGASHI.** (ing. The United Nations Human Rights Council, UNHRC) BMT tizimidagi xalqaro huquqni saqlash organi bo‘lib, inson huquqlari bo‘yicha qo‘mitaning o‘rniga tashkil etilgan. BMT Bosh Assambleyasingning yordamchi organi. Kengashning birinchi majlisi 2006-yilning 19-iyunida bo‘lib o‘tgan. 2020-yil oktabrda O‘zbekiston Respublikasi ushbu organga 3 yillik muddatga (2021–2023-yy.) saylandi.

**BMT NIZOMI.** 1945-yil 26-iyunda San-Fransiskoda Birlashgan Millatlar Konferensiyasining Xalqaro Tashkilot tuzish bo‘yicha yakuniy majlisida imzolangan va 1945-yilning 24-oktabrida kuchga kirgan Xalqaro Sud Statuti Nizomning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Nizomning 23, 27 va 61-moddalariga tuzatishlar Bosh Assambleya tomonidan 1963-yilning 31-avgustida kiritilgan. 1965-yilning 20-dekabrida Bosh Assambleya qabul qilgan 109-moddaga tuzatish 1968-yilning 12-iyunida kuchga kirgan.

Nizomning 23-moddasiga tuzatish Xavfsizlik Kengashi a’zolari sonini 11 tadan 15 taga oshirdi. Tuzatilgan 27-modda Xavfsizlik Kengashining tartibot masalalari bo‘yicha qarorlari ularga 9 a’zo

(ilgari – 7 ta) ovoz bergen bo‘lsa, boshqa barcha masalalar bo‘yicha esa Xavfsizlik Kengashi doimiy a’zolarining 5 ta bir xil ovozini ham hisobga olgandagi 9 ovozi (ilgari – 7 ta) berilgan bo‘lsa qabul qilin-gan, deb hisoblanishini ko‘zda tutgan.

61-moddaga tuzatish Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash a’zolari sonini 18 tadan 27 taga oshirdi. 1973-yil 24-sentabrda kuchga kirgan ushbu moddaga tuzatish Kengash a’zolari sonini 27 tadan 54 taga oshirdi.

109-moddaning 1-bandiga tuzatish a’zo davlatlarning Bosh Konferensiya Nizomni qayta ko‘rib chiqish maqsadida o’tkazadigan Bosh Konferensiya vaqtি va joyi Bosh Assambleya a’zolarining 2/3 qismi ovozi bilan va Xavfsizlik Kengashi a’zolarining har qanday 9 (ilgari – 7) ovozi bilan belgilanishini nazarda tutgan.

Nizomni qayta ko‘rib chiqish imkoniyatlarini ko‘zda tutgan 109-moddaning 30-bandi Bosh Assambleya va Xavfsizlik Kengashi tomonidan Bosh Assambleyaning 1955-yildagi navbatdagi 10-sessiya-sida ko‘rib chiqilgan va uning dastlabki shaklida “Xavfsizlik Ken-gashining 7 ta har qanday a’zosi ovozi bilan” qoldirilgan edi.

BMT Nizomi 2003-yilda O‘zbek xalqaro huquq assotsiatsiyasi (rais R. Hakimov) tomonidan shu tashkilotning Toshkentdagи vakolatxonasi bilan hamkorlikda o‘zbek tilida (tarjimonlar: A. Ayubov, I. Shamsimuxamedov) nashr ettirilgan).

**BMT TARAQQIYOT DASTURI.** Ushbu dastur va O‘zbekiston Respublikasi hukumati o‘rtasida 1993-yil 10-iyunda Toshkentda Bitim imzolangan. U 2005-yil 7-apreldan kuchga kirgan.

### *I. BMT Taraqqiyot dasturining missiyasi*

BMT Taraqqiyot dasturi 170 tadan ortiq mamlakat va hududlarda qashshoqlikni tugatish, adolatsizlikka barham berish va teng huquqlilikni ta’minalash kabi sohalarda o‘z faoliyatini olib bora-di. BMT Taraqqiyot dasturi mamlakatlarga rivojlanish sohasidagi dasturlarni ishlab chiqishda, amalga oshirishda, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilishda, turli davlat idoralarining salohiyatini oshirishda hamda keng ko‘lamdagi loyihibar doirasida erishilgan yutuqlarning turg‘unligini ta’minalashda yordam berib keladi.

BMT Taraqqiyot dasturi o‘zining O‘zbekistondagi vakolatxonasi ni 1993-yilning yanvar oyida ochib, shundan buyon respublikani mustaqil rivojlanish yo‘lida qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. BMT Taraqqiyot dasturi o‘zining faoliyati doirasida O‘zbekiston Hukumatni, fuqarolik jamiyatni tashkilotlari, xalqiga bozor iqtisodiyotiga o‘tish davridagi bir qator qiyinchiliklarni yengib o‘tishga yordam bermoqda. BMT Taraqqiyot dasturi davlat va nodavlat tashkilotlariga iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni samarali amalga oshirib, O‘zbekiston xalqining farovonligini ta’minlash uchun kerak bo‘lgan bilim, tajriba va salohiyatni orttirishda yaqindan ko‘mak beryapti.

BMT Taraqqiyot dasturining O‘zbekistonga yordam berish yo‘lidagi joriy faoliyati uning 2010-yildan 2015-yilgacha bo‘lgan davr uchun ishlab chiqilgan hamkorlik ish rejasi asosida ikkita bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan yo‘nalishlarda amalga oshirilmoxda. Mazkur yo‘nalishlardagi faoliyati doirasida BMT Taraqqiyot dasturi O‘zbekiston Hukumatini iqtisodiy va demokratik islohotlarni amalga oshirish, markaziy va mahalliy miqyoslarda boshqaruv va rivojlanish jarayonlarida fuqarolik jamiyatni tashkilotlarining ishtirokini yanada faollashtirish kabi masalalarda o‘z yordamini ayamay kelmoqda. Xususan, BMT Taraqqiyot dasturi O‘zbekiston Respublikasida samarali boshqaruv, iqtisodiy boshqaruv va aholining moddiy ahvolini yaxshilash hamda energetika va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida o‘z faoliyatini yuritib kelmoqda.

## *II. BMT Taraqqiyot dasturining asosiy faoliyat yo‘nalishlari Iqtisodiy boshqaruv va aholining moddiy ahvolini yaxshilash*

BMT Taraqqiyot dasturi O‘zbekistonni iqtisodiy yuksalishida qo‘llab-quvvatlar ekan, ayni paytda respublika o‘zi uchun muhim bo‘lgan bir palla, ya’ni bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri bilan bog‘liq masalalarni yechish yo‘lidan bormoqda. O‘zbekistonning iqtisodiy boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan faoliyati doirasida BMT Taraqqiyot dasturi fuqarolik jamiyatni va xususiy sektor bilan yaqindan hamkorlik qilib, aholini ish bilan ta’minlash, qishloq joylardagi turmush darajasini yaxshilash, mikro-moliyalashtirish, tadbirkorlar uchun maslahat markazlarini joriy etish va tadbirkor-

likni rag‘batlantirish, bilim va tajriba almashinuvini qo‘llash kabi maqsadlarga erishish yo‘lida sa’y-harakatlarni amalga oshirmoqda.

### *Samarali boshqaruv*

BMT Taraqqiyot dasturining O‘zbekistonda samarali boshqaruvni ilgari surish sohasidagi faoliyati 2010-yilning noyabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taklif etilgan “Mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish konsepsiysi”da belgilangan ustuvor tamoyillar asosida amalga oshirildi. Ushbu konsepsiya BMT Taraqqiyot dasturi va O‘zbekiston Hukumati o‘rtasidagi hamkorlikning yangi qirralarini namoyon etib, yangi yo‘nalishlariga keng yo‘l ochib berdi. BMT Taraqqiyot dasturi faoliyatining asosiy me’zoni inson manfaatlari va huquqlari bo‘lgani uchun, u bir qator milliy hamkorlar bilan birga, mamlakatning boshqaruv tizimi fuqarolarning manfaatlari, huquqlariga asoslangan bo‘lishini ta’minlashda keng ko‘lamdagи loyiha va tashabbuslarni amalga oshirib kelmoqda. Mazkur loyiha va tashabbuslar doirasida davlat xizmatlarining sifatini oshirish, fuqarolik jamiyatining boshqaruv jarayonlaridagi ishtirokini faollashtirish, elektron boshqaruv tizimini joriy etish va takomillashtirish, sudlar tizimini yanada yuqori bosqichga ko‘tarish, parlament faoliyatini jadallashtirish kabi sohalarda izchil islohotlar olib borilmoqda. Shuningdek, BMT Taraqqiyot dasturi mamlakatda kuzatilayotgan rivojlanish jarayonlarida ayollar ham yanada faolroq ishtirok etishiga yordam bermoqda.

### *Atrof-muhitni muhofaza qilish va energetika*

BMT Taraqqiyot dasturi o‘zining milliy va xalqaro hamkorlari bilan birga amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida O‘zbekistoning atrof-muhit, tabiatni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni hal etish, biologik xilma-xillikni asrash tamoyillarini turli sanoat sohalariga singdirish, yangilanuvchi, muqobil energiya manbalarini rivojlantirish hamda suv va yer resurslaridan oqilona, tejamkorona foydalanish texnologiyalarini hayotga tatbiq qilishga qaratilgan keng ko‘lamdagи ishlarni olib boradi.

**BMT XAVFSIZLIK KENGASHI.** BMTning asosiy doimiy ishlovchi siyosiy organi. BMT Nizomi 24-moddasiga binoan xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlab turish uchun asosiy javobgarlik BMT Xavfsizlik Kengashi zimmasiga yuklatilgan. BMT Xavfsizlik Kengashining faoliyat doirasi BMT Nizomi (V–VII boblar)da aniq ko‘rsatilgan va davlatlar o‘rtasidagi nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish sohasida keng vakolatlar berilgan. U xalqaro to‘qnashuvlarni yoxud nizolarni keltirib chiqarishi ehtimol tutilgan har qanday nizo yoki holatni tekshirish vakolatiga, tinchlikka har qanday tahdid va uni har qanday buzish yoki agressiya hollarini aniqlash hamda xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlab qolish yoxud tiklash yuzasidan tegishli tadbirlarni belgilash hamda tavsiyalar berish huquqiga ega. BMT Xavfsizligi Kengashi 15 ta a’zo davlat: 5 ta doimiy va 10 ta muvaqqat a’zodan iborat. BMT Nizomi 23-moddasiga ko‘ra, AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy va Rossiya BMT Xavfsizligi Kengashi doimiy a’zolaridir. Muvaqqat a’zolar esa Bosh Assambleya tomonidan 2 yillik muddatga saylanadi, uning har bir sessiyasida 5 muvaqqat a’zo qayta saylanishi shart. Muvaqqat a’zolar o‘rni quyidagicha taqsimlanadi: Osiyo va Afrika davlatlaridan – 5 a’zo, Sharqiy Yevropa davlatlaridan – 1 a’zo, Lotin Amerikasi davlatlaridan – 2 a’zo, G‘arbiy Yevropa va boshqa davlatlar (Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya)dan – 2 a’zo. BMT Xavfsizlik Kengashiga a’zo har bir davlat unda bir vakilga ega bo‘ladi. BMT Xavfsizlik Kengashi uzlusiz ishlaydi, uning majlislari orasidagi tanaffuslar 2 haftadan oshmasligi shart. Mazkur majlislarda davlatlar vakili ingliz tilidagi rasmiy nomi bo‘yicha alifbo tartibida bir oy mobaynida navbatma-navbat raislik qiladi. BMT Xavfsizlik Kengashi majlislari ochiq bo‘ladi. Uzrli sabablarga binoan majlis yopiq deb e’lon qilingan hollar bundan mustasno.

**BMT O‘N YILLIKLARI.** BMT tomonidan u yoki bu katta xalqaro muammoni hal etishga yordam ko‘rsatish maqsadida dunyo hamjamiyati e’tiborini tortish uchun e’lon qilinadigan o‘n yilliklar. Dastlabki o‘n yilliklar o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab e’lon qilingan va u BMTning taraqqiyot o‘n yilligi, deb atalgan. Yana

Qurolsizlanish o‘n yilliklari ham bo‘lib, u 70-yillardan boshlab e’lon qilingan. Keyingi o‘n yilliklar rasizm – irqchilikka qarshi kurash (1972-y.) va xotin-qizlarga (1976–85-yy.) bag‘ishlangan. Bundan boshqa o‘n yilliklar ham e’lon qilingan.

**BOJXONA IMTIYOZLARI.** Xorijiy diplomatik vakolatxonalarga, konsullik muassasalariga, xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga va xorijiy davlatlarning u yerdagi vakolatxonalariga hamda davlat chegarasidan o‘tayotgan boshqa ma’lum kategoriyaligi shaxslarga bojxona rasmiyatchiligi bo‘yicha beriladigan imtiyozlar (bojxona ko‘rigidan o‘tkazmaslik va yuklar, shaxsiy bagajni bojxona to‘lovlardan ozod etish va b.). Bojxona imtiyozlari xalqaro shartnomalar (Vena konvensiyalari, Konsullik konvensiyasi)da nazarda tutilgani kabi milliy qonunchiliklarda ham o‘z aksini topgan. Mas., O‘zbekiston Respublikasida ham diplomatlarga berilgan imtiyozlar “Diplomatik munosabatlar to‘g‘risidagi 1961 yil Vena konvensiyasi”ga asosan belgilangan. (q.: *Diplomatik aloqalar*)

**BOSH KONSUL.** (q.: *Konsullik martabalari (ranglari)*)

**BOSHPANA** (q.: *Siyosiy boshpana*)

**BRITANIYA HAMDO‘STLIGI.** (ing. The Commonwealth, 1947-yilgacha Britaniya millatlar hamdo‘stligi) Buyuk Britaniya va uning sobiq ko‘pgina dominionlari hamda mustamlakalaridan iborat birlashma. Hamdo‘stlikning huquqiy maqomi 1931-yil Westminster statuti bilan belgilab berilgan (1947-yil aniqlik kiritilgan). Unda Hamdo‘stlikka a’zo davlatlarning o‘zaro hamda Britaniya bilan munosabatlari, ularning ichki siyosatda ham, tashqi siyosatda ham mustaqil va tenghuquqli davlat sifatida faoliyat yuritishi o‘z ifodasini topgan. 1971-yil Singapurda imzolangan Hamdo‘stlik prinsiplari to‘g‘risidagi Deklaratsiya Hamdo‘stlik konsensus tamoyillari asosida ish olib boruvchi ixtiyoriy birlashma ekanligini tasdiqladi. Hamdo‘stlik 30 respublika va 21 monarxiyadan tashkil topgan. 16 monarxiya davlat boshlig‘i sifatida Buyuk Britaniya qirolini tan ola-di, bu mamlakatlarda general-gubernator qirol nomidan ish ko‘radi, 5 monarxiya o‘z qiroliga ega. Buyuk Britaniya monarxi Hamdo‘stlik

boshlig‘i va uning ramzi hisoblanadi. Hamdo‘stlik mamlakatlari har yili konferensiya o‘tkazadilar. Hamdo‘stlikning Kotibiyati mavjud. Buyuk Britaniyada hukumat tarkibida Hamdo‘stlik ishlari bo‘yicha vazir bor.

**BUYUK DAVLATLAR.** Xalqaro munosabatlarda yetakchi rol o‘ynaydigan, tinchlikni va xalqaro xavfsizlikni saqlashga alohida mas’ul davlatlarga nisbatan qo‘llanadigan termin. Xalqaro huquqda davlatlarning katta-kichikligi, siyosiy ta’siri, harbiy va iqtisodiy qudratidan qat‘i nazar teng ekani prinsipiqa qaramay, xalqaro amaliyotda ko‘pdan beri buyuk davlatlarning o‘ziga xos roli tan olib kelinadi. “Buyuk davlatlar” statusi – mavqeい dastlab 1814–15-yil Vena kongressida rasmiy ravishda tan olindi. Muqaddas ittifoq tuzilishi bilan bu status to‘rt davlatga nisbatan ishlatila boshladi. Bular – Buyuk Britaniya, Avstriya, Prussiya, Rossiya. Keyinroq Fransiya ham unga kirdi. Yevropadagi barcha masalalar bu beshlik ishtirokisiz va rozilgisiz hal bo‘lmasdi. XIX asr oxiri va XX boshiga kelib birin-ketin bu safga AQSh, Italiya, Yaponiya qo‘sildi. Urush natijasida Avstro-Vengriya bu “maqom”dan ajradi. Prussiya bilan birlashgan Germaniya buyuk davlatlar qatoridan joy oldi. Buyuk davlatlar statusini BMT Xavfsizlik Kengashining besh a’zosi saqlab qolgan. 1945-y. San-Fransisko konferensiyasidan boshlab buyuk davlatlar deb quyidagi besh davlatni atash qabul qilindi: SSSR, AQSh, Xitoy, Fransiya va Buyuk Britaniya. Ular, o‘z navbatida, BMTning Nizomiga ko‘ra Xavfsizlik Kengashining doimiy a’zolari bo‘lib hisoblanadi va jahonda tinchlikni saqlash va xavfsizlikni ta’minlashda katta mas’uliyatga ega.

**BO‘LIM KONSULI.** Diplomatik vakolatxona rahbari tomonidan konsullik bo‘limini boshqarish topshirilgan shaxs bo‘lib, u qabul qiluvchi davlat Tashqi ishlari vazirligiga (nota orqali) xabar berilgan holda tayinlanadi. Konsullik vakolatxonasi mavjud bo‘limgani tufayli bo‘lim konsulining vakolati qabul qiluvchi davlatning barcha hududiga tarqaladi. Qoidaga ko‘ra, u barcha diplomatik immunitet va imtiyozlarga ega bo‘ladi. Bo‘lim konsulini tayinlash uchun patent taqdim etish va ekzekvatura so‘rash shart emas.

# D

**DAVLAT BAYROG‘I.** Davlat ramzlaridan biri. Bu ma’lum bir tomon nisbati bilan, bir tomonidan yog‘ochga (yoki arqonga) bog‘langan, har xil shakldagi bir rangli yoki ko‘p rangli matodir.

Davlat bayrog‘ida, odatda, quyidagilar tasvirlanadi: gerb, uning alohida elementlari yoki turli xil ramziy timsollar, tarixiy voqealar, davlat tuzilishi, geografik joylashuvi, davlat yoki mamlakat iqtisodiyoti, ma’muriy bo‘linish, afsonalar, diniy e’tiqodlar, urf-odatlar bilan izohlangan (juda shartli). Zamonaviy bayroqning tavsifi, shuningdek, davlat gerbi davlat konstitutsiyasida qonun bilan belgilanadi. Maxsus hukumat hujjatlari bayroqni ko‘tarish va tushirish tartibini belgilaydi.

Mamlakat bayrog‘i bu oddiygina timsol emas, balki butun bir mafkura hisoblanadi.

Yurtimizda Davlat bayrog‘i O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 18-noyabrdagi 407-XII-sonli “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi Qonuni bilan tasdiqlangan. Unda quyidagilar ta’riflangan:

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i O‘zbekiston Respublikasi davlat suverenitetining ramzidir.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasining timsoli bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i – bayroqning butun uzunligi bo‘ylab o‘tgan to‘q moviy rang, oq rang va to‘q yashil rangli uchta endan tarkib topgan to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi matodir.

Davlat bayrog‘i davlat ramzi hisoblanadi. Bayroqning xalqaro protokoli mavjud bo‘lib, unga qat’iy rioya qilinishi shart (ayniqsa, chet ellik mehmonlar taklif etilgan bo‘lsa). Xorijiy davlatning davlat bayrog‘iga nisbatan qilingan har qanday hurmatsizlik shu davlat-

ning o‘ziga nisbatan qilingan ongli haqoratomuz harakat sifatida tushuniladi. Shunday davlatlar ham borki, ularning protokoliga ko‘ra, teskari qo‘yilgan bayroq urush holatini anglatadi.

Bir nechta davlat bayroqlarini barobar osganda ularning matolari o‘lchami bir andozada bo‘lishi kerak. Bayroqlar bir qatorda, bir xil balandlikda osiladi. Bir bayroq ustuniga ustma-ust ikki bayroqni osish mumkin emas. Qatordagi birinchi yoki o‘rtadagi joy faxrli hisoblanadi. Umumiy qoidaga ko‘ra, mehmon mamlakat davlat bayrog‘i eng faxrli joyni egallahga haqi bor, ya’ni u ikki bayroq bo‘lsa, birinchi turishi va bayroqlar ko‘proq bo‘lsa, o‘rtada bo‘lishi shart. Ko‘pincha xorijiy davlatlar bayroqlari baravar osilganda davlat nomiga muvofiq alfavit bilan (lotin alifbosida yoki bayroq osayotgan mamlakat tili bo‘yicha) osiladi.

Davlat bayrog‘i quyosh chiqqanda ko‘tarilib, botganda tushiriladi. Agar bayroq bir necha kun turishi kerak bo‘lsa, kechqurun al-batta tushiriladi va ertalab ko‘tariladi. Bayroqni tez ko‘tarish, lekin sekin tushirish kerak. Motam kunlari bayroq tushiriladi, ya’ni uni bayroq ustuni yarmigacha ko‘taradilar. Bayroq yerga, polga, suvgaga tegmasligi kerak. Osilayotgan bayroq yaxshi holatda bo‘lishi lozim.

Uncha katta bo‘lmagan bayroqni baland bayroq ustuniga osish, yoki aksincha, mumkin emas. Eng yaxshi mutanosiblik bayroq eni va bayroq ustunining 1:6 o‘lchamda bo‘lishi hisoblanadi. Rasmiy muassasa devorida bayroq ochiq holda matosi stolda o‘tirgan odamning o‘ng tarafiga qaragan holda osiladi. Agar u maxsus bayroq ustuniga o‘rnatilsa, u holda o‘ng qo‘l tarafiga qaragan bo‘ladi.

Ba‘zi mamlakatlarda fuqarolarda bolaligidanoq bayroqqa ehtiromni tarbiyalashdek yaxshi an’ana o‘rnashib qolgan. Masalan, AQShda maktablarda har kuni darsdan oldin tantanali bayroq ko‘tarish bo‘lib o‘tadi. Ko‘p mamlakatlar qonunchiligidagi bayroqni tahqirlash, hatto unga nisbatan hurmatsizlik ko‘rsatgani uchun jazo belgilangan. Davlat bayrog‘i – mamlakat tarixi, xalqning birdamligi ramzi, Vatan ramzi.

**DAVLAT GERBI.** Davlat gerbi geraldika qoidalari asosida tasvirlangan mustaqil davlatning ramzidir.

Davlatimiz gerbi O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-iyul-dagi 616-XII-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to‘g‘risida”gi Qonuni bilan tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi quyidagi ko‘rinishga ega: tog‘lar, daryolar va so‘l tomoni bug‘doy boshqalaridan, o‘ng tomoni esa chanoqlari ochilgan g‘o‘za shoxlaridan iborat chambarga o‘ralgan gullagan vodiy uzra quyosh zarrin nurlarini sochib turadi. Gerbning yuqori qismida Respublika hurligining ramzi sifatida sakkizburchak tasvirlangan bo‘lib, uning ichki qismida yarim oy va yulduz tasvirlangan. Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi – qanotlarini yozgan Humo qushi tasvirlangan. Gerbning pastki qismida O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ini ifoda etuvchi chambar lentasining bantida “O‘zbekiston” deb yozib qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining rangli ko‘rinishida: Humo qushi va daryolar – kumush rangida; quyosh, boshqalar, paxta chanoqlari va “O‘zbekiston” yozuvi – oltin rangida; g‘o‘za shoxlari va barglari, tog‘lar va vodiy – yashil rangda; chanoqlardagi paxta – oq rangda; lenta – O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining ranglarini aks ettiruvchi uch xil rangda; sakkizburchak – oltin zarhal bilan hoshiyalangan holda havo rangda; yarim oy va yulduzlar – oq rangda tasvirlangan.

Gerb davlat suvereniteti ramzlaridan biri hisoblanadi. U davlat rasmiy idoralari binolarini bezab turadi, rasmiy davlat blankalari va hujjatlariga joylashtiriladi. Gerbga ehtirom davlat bayrog‘i va madhiyasi bilan bir xil bo‘ladi. Davlat gerbiga nisbatan hurmatsizlikning har qanday ko‘rinishi haqorat hisoblanadi va ko‘p mamlakatlarda qonun tomonidan jazolanadi.

Odatda, ko‘philik mamlakatlarda davlat gerbi tasvirini blanka va boshqa yerlarda ishlatishga cheklovlar mavjud. Uni qo‘llash rasmiy davlat hokimiyyati idoralari imtiyozi hisoblanadi.

O‘z gerblari nafaqat davlatlarda, balki ba’zi shaharlar, davlat idoralari, davlat tashkilotlarida ham bo‘ladi. Ba’zi firma va jismoniy shaxslarda ham o‘z gerblari uchraydi. Ko‘p mamlakatlarda shaxsiy oilaviy gerbning mavjudligi amalda bu avlodning qadimiyligi,

ko‘pincha dvoryanlikka aloqadorligini anglatadi. Qadimdan gerbni hurmat qilish zarurligi qoida sifatida amal qiladi. Gerbga humatsizlik eng og‘ir haqorat sifatida qabul qilinadi.

**DAVLAT IMMUNITETI.** Bir davlatning boshqa davlatni sudga javobgar sifatida (davlatni o‘zi bunga rozilik bergen holdan tashqari) tortishi mumkin emasligi. Davlat immuniteti davlatga va uning mulkiga tatbiq etiladi. Davlat mulki majburiy olish (egallash), vaqtincha taqiqlab qo‘yish (xatlab qo‘yish) va boshqa chora ko‘rish obyekti bo‘lishi mumkin emas.

**DAVLAT KOTIBI.** Yevropa va Amerikadagi bir qator mam-lakatlarda davlatning oliy martabali amaldori. Masalan, AQShda Davlat kotibi – Davlat departamentining, ya’ni AQSh tashqi siyosiy idorasining rahbari. U davlatning tashqi siyosatiga rahbarlik qilish bilan birga hukumat qonunlarini matbuotda e’lon qilish vazifasini ham bajaradi. Agar Prezident, vitse-prezidentning ishdan ketishi yoki va-fot etishi sababli o‘rnii Prezident saylovidan oldinroq bo‘shab qolsa, konstitutsiyaga muvofiq Davlat kotibi avtomatik ravishda Prezident bo‘ladi. Prezident Davlat kotibini Senat palatasining roziligi bilan tayinlaydi. Davlat kotibi hukumatning boshqa a’zolari singari kongress (vakillar palatasi yoki senat palatasining) a’zosi bo‘la olmaydi. Davlat kotibi Prezidentga hisobot berib turadi. Buyuk Britaniyada ichki ishlar, mudofaa va Shotlandiya ishlari bo‘yicha, yana boshqa idoralarning boshliqlari Davlat kotibi deb ataladi. Belgiyada vazirlar muovini ham Davlat kotibi deb keltingan.

**DAVLATLAR BLOKI (ITTIFOQI).** Davlatlarning harbiy-siyosiy maqsadda tuzilgan xalqaro-huquqiy birlashmasi. Davlatlar o‘z birlashmalarini tashkil etar ekan, ularni “shartnomalar”, “itti-foqlar” va h.k. deb atashni afzal ko‘radilar. Davlatlar birlashmasini “blok” deb atash, odatda, maxsus adabiyotlar va vaqtlidagi matbuotda qabul qilingan.

**DAVLATLARNING SUVEREN TENGLIGI.** Xalqaro huquqning eng asosiy prinsiplaridan biri bo‘lib, unga ko‘ra barcha davlatlar ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tizimidan qat’i nazar

bir xil huquqqa ega va jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi hisoblanadi. Davlatlarning suveren tengligi prinsipi BMT Nizomi va boshqa xalqaro hujjalarda belgilab qo'yilgan.

**DAVLAT MADHIYASI.** (yunon. humnos – gimn, tantanali qo'shiq) Vatanni, davlatni, tarixiy voqealarни, ularning qahramonlarini ulug'lovchi she'riy-musiqiy asar, davlatning ramzlaridan biri. Madhiya tanatanali qo'shiq bo'lib, rasmiy davlat marosimlari, bayram tantanalarida, davlat delegatsiyalari, mehmonlarni kutib olish va kuzatish chog'ida ijro etiladi. Davlat madhiyasi ijro etilganda hamma ishtirokchilar o'rnidan turadi. Harbiylar qo'llarini chakkalariga tekizgancha ("chest" berib) turadi, fuqarolar bosh kiyimlarini yechib, tikka, qo'lni ko'krakka qo'yib tinglaydi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi gerb va bayroq bilan birga O'zbekiston Respublikasi Davlat suverenitetining ramzidir. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining matni va musiqasi O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 10-dekabrda-gi 768-XII-sonli "O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida"gi Qonuni bilan tasdiqlangan.

Qonunda madhiyamiz davlat suverenitetining ramzi, unga katta ehtirom bilan qarash har bir yurtdoshimizning vatanparvarlik burchidir, deb belgilab qo'yilgan. O'zbekiston fuqarolari, shuningdek, mamlakatimizda yashab turgan boshqa shaxslar ham madhiyamizni hurmat qilishi shartligi alohida ta'kidlangan.

Davlat madhiyasining muallifi O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov bo'lib, musiqasini O'zbekiston xalq artisti, atoqli bastakor Mutal Burhonov yaratgan. Madhiyada xalqimizning ezgu orzu-umidlari, kelajakka mustahkam ishonchi teran ifodalangan. Unda mardona va sharaflarga boy o'tmishimiz, milliy an'ana va qadriyatlarimiz, tinchlik, osoyishtalik, millatlararo totuvlik va birodarlik kabi umuminsoniy tuyg'ular tarannum etilgan.

Madhiya – qalbida o'z Vataniga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bor har qanday kishida milliy g'urur, o'ziga xos faxr, eng muhimi yurga mehr uyg'otadi. Bu milliy timsolda xalqning o'tmishi, buguni va kelajagi, shuningdek, ziynati, orzu-o'y, maslak-maqsadi mujassam.

O‘zbekiston Respublikasi madhiyasi yoshlarda Vatanga muhabbat, boy tariximizga, milliy o‘zligimizga chuqur hurmatni shakllantirishda, farzandlarimizning har tomonlama barkamol va yetuk insonlar bo‘lib voyaga yetishida muhim tarbiyaviy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasiga yuksak ehtirom bilan qarash O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining vatanparvarlik burchidir.

**DAVLAT TASHRIFLARI.** Davlatlar tashqi siyosatining xalqaro aloqalarini rivojlantirishga, keskin va og‘ir xalqaro masalalarni nufuzli hal etishga yordam beruvchi muhim shakllaridan biri. Davlat tashriflari qatoriga davlat, hukumat rahbarlari, oliy darajadagi rasmiy delegatsiyalar tashriflari kiradi. Diplomatik protokolga binoan davlat tashriflari o‘z klassifikatsiyasi, ularni amalga oshirishning taribi va tegishli marosimiga ega.

**DAVLAT CHEGARALARI.** Davlatlarning quruqlik va suvdagi hudud doirasini belgilaydigan chiziq. Bu chiziq ustidan o‘tdigan vertikal sath shu davlatning havo chegarasi hisoblanadi. Davlat chegaralari bir davlat hududini 2-davlat hududidan, shuningdek, ochiq dengizdan ajratib turadi. Qo‘suni davlatlar o‘rtasidagi chegara davlat tomonidan qonun yo‘l qo‘ygan tartibda belgilanadi. Delimitatsiya haqidagi qarorlar chegara, bir davlat yerini boshqa davlatga berish, tinchlik to‘g‘risidagi shartnoma va boshqa bitimlarda uchraydi. Demarkatsiya manfaatdor davlatlar tomonidan teng huquqlilik asosida tuzilgan qo‘shma komissiyaning delimitatsiya materiallariga muvofiq o‘tkaziladi. Xalqaro shartnomalar asosida belgilangan davlat chegaralari bir tomonlama o‘zgartirilishi mumkin emas. Davlat chegaralari – daxlsiz.

**DEZAVUIR.** (fran. *de savouer* – voz kechmoq, tonmoq) Hukumat yoki davlatning biror e’tiborli idorasining harakat-chorasi ifodalangan hujjat bo‘lib, unda diplomat, vakil yoki boshqa rasmiy vakolat berilgan shaxs topshiriqsiz, o‘z vakolati doirasidan chiqib, amalga oshirgan xatti-harakati bayon qilingan bo‘ladi. Davlat de-

zavuir etish orqali o‘z vakilining harakatlari uchun javobgarlik va ulardan kelib chiqadigan siyosiy yoki xalqaro-huquqiy oqibatlarni o‘z zimmasidan soqit qilishni maqsad qilib qo‘yadi. Diplomatik amaliyotda bir qancha dezavuir holatlari kuzatilgan. Bunday holatga tushgan diplomatik vakil yoki vakolatli namoyanda, odatda, hukumat yoki e’tiborli idora tomonidan chaqirib olinadi.

**DEMARSH.** (fran. de’marche) Hukumat, tashqi ishlar idorasasi yoki diplomatik vakilning boshqa davlat hukumati oldida qilgan diplomatik aksiyasi (amali), favqulodda chiqishi. Demarsh turli shakl (nota, memorandum, diplomatik vakilni chaqirib olish va b. ko‘rinishlarda) va mazmunda (so‘rov, iltimosdan boshlab norozilik-kacha) bo‘ladi.

Demarsh xalqaro huquqning umume’tirof etgan me’yorlariga rioya qilingan holda amalga oshiriladi.

**DENATURALIZATSIYA.** Chet ellikni, fuqaroligi yo‘q shaxsni davlat fuqaroligiga qabul qilishni bekor qilish. Bunday qarorni qabul qilinishiga shaxsning o‘zi to‘g‘risida ma’lumotni soxtalashtirishi sabab bo‘ladi. Bu qoida O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik to‘g‘risidagi qonunida o‘z aksini topgan.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar o‘z iltimosnomalariga ko‘ra kelib chiqishidan, irqi va millatidan, jinsi, ma’lumoti, tilidan, dinga munosabatidan, siyosiy va boshqa e’tiqodlaridan qat’i nazar O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish shartlari quyidagilardan iborat:

- 1) chet el fuqaroligidan voz kechish;
- 2) so‘nggi besh yil davomida O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaganlik.

Ushbu qoida O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lish istagini bildirgan shaxslarga, basharti ular shu yerda tug‘ilgan va hech bo‘lmasa ota-onasidan biri, buvasi yoki buvisi O‘zbekiston Respublikasi hududida tug‘ilganligini va boshqa davlatlarning fuqarosi emasligini isbotlasa taalluqli bo‘lmaydi;

- 3) qonuniy tirikchilik manbalarining mavjudligi;
- 4) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tan olish va bajarish.

Ushbu moddaning 1, 2 va 3-bandlarida qayd etib o‘tilgan talablar alohida hollardagina O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaroriga binoan O‘zbekiston Respublikasi oldida buyuk xizmatlari yoki fan, texnika va madaniyat sohasidagi katta yutuqlari bo‘lgan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasini qiziqtiradigan kasb yoxud malakaga ega bo‘lgan ayrim shaxslarga nisbatan hisobga olinmasligi mumkin.

Quyidagi hollarda O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi yo‘qotiladi:

- 1) shaxs chet davlatda harbiy xizmatga, xavfsizlik xizmati idoralariga, politsiyaga, adliya idoralariga yoki davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa idoralarga ishga kirganligi natijasida;
- 2) agar chet elda doimiy yashovchi shaxs besh yil davomida uzrli sabablarsiz konsullik hisobiga turmagan bo‘lsa;
- 3) agar O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi yolg‘onligi shashshubhasiz ma‘lumotlar yoki soxta hujjatlarni taqdim etish natijasida olingan bo‘lsa.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni chiqqan kundan boshlab O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi yo‘qotiladi.

**DENONSATSIYA.** Bir davlat tomonidan ikkinchi bir davlat bilan ilgarigi tuzilgan shartnomani bekor qilish to‘g‘risidagi ogoh-lantirish. Denonsatsiya tuzilgan shartnomada ko‘rsatilgan bo‘ladi. Denonsatsiya huquqi va qoidalari davlat tomonidan chiqarilgan qonunlarda o‘z aksini topadi.

**DEPOZITARIY.** (xalqaro huquqda). (lot. *depositum* – saqlash uchun berilgan narsa, omonat) Xalqaro ko‘p tomonlama shartnomaning asl nuxxalarini va unga tegishli barcha hujjatlarni (arizalar, tushuntirishlar, ratifikatsiya yorliqlari, qabul qilingani, qo‘shilganlik to‘g‘risidagi, *denonsatsiya* va b. to‘g‘risidagi hujjatlarni) saqlovchi bir yoki bir necha davlat, xalqaro tashkilot yoki shunday tashkilotning bosh ma’muriy mansabдор shaxsini anglatadi.

**DEPORTATSIYA.** Davlat organlarining qaroriga ko‘ra, bir shaxsnинг yoki fuqarolar guruhining o‘zlarining doimiy turar-joyidan majburiy ravishda ko‘chirib yuborish yoki mamlakatdan tashqariga chiqarib tashlash. Deportatsiya qonunlarni buzishdan, qonunsizlikka yo‘l qo‘yilishidan kelib chiqadi.

Deportatsiya keyingi paytlarda asosan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga nisbatan qo‘llanilayotgan vosita bo‘lib, mamlakatdan ixtiyoriy chiqib ketish yoki majburan (shu jumladan, eskort ostida) chiqarib yuborishni anglatuvchi ma’muriy jazo turi hisoblanadi. Deportatsiya faqat tegishli qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha amalga oshiriladi. Chet el fuqarolaring noqonuniy kirishi, mamlakatda bo‘lish qoidalarining buzilishi, shuningdek, chet el fuqarosining mezbon davlatda kelgusida qolishi uchun qonuniy asoslarning yo‘qolishi yoki bekor qilinishi deportatsiya uchun asos bo‘lishi mumkin.

**DE-FAKTO.** (fran. *de-facto* haqiqatda, amalda, fakt sifatida, mas., de-fakto e’tirof etish, tanish) Diplomatik munosabatlarda biror davlatni va uning huquqlarini shu davlat bilan rasmiy diplomatik munosabat o‘rnatmasdanoq e’tirof etish, tanish. Aksi – de-yure.

De-fakto tan olish shaklida tan olish cheklangan va to‘liq bo‘lmaydi. Ko‘proq u to‘laqonli tan olish, ya’ni de-yure shakliga o‘tish jarayonida bosqich rolini o‘ynaydi. De-fakto tan olish davlatlar o‘rtasida faqat konsullik munosabatlari o‘rnatish, ma’lum darajada savdo qilish, ayrim jamoat tashkilotlari o‘rtasida cheklangan aloqalar olib borish imkonini beradi.

**DE-YURE.** (fran. *de-jure*) Yuridik jihatdan, rasmiy suratda, qonunan, mas., de-yure e’tirof etish, tanish – xalqaro munosabatlarda biror davlat yoki hukumatni rasmiy suratda tanish. Aksi – de-fakto.

De-yure tan olish davlatlar o‘rtasida to‘liq, har tomonlama munosabatlar o‘rnatish imkonini tug‘diradi. Masalan, u diplomatik va konsullik munosabatlari o‘rnatishdan tortib, to bir-birlarining ichki huquqiy tizimlarini tan olish va qonunchiliklari hamda sudlarining qarorlarini ishlatishgacha bo‘lgan barcha huquqiy imkoniyatlardan foydalanishni beradi.

## **DIPKURYER.** (q.: Diplomatik kuryer)

**DIPLOMAT.** (fran. *diplomate*) 1. Chet mamlakatlar bilan rasmiy aloqa qilish yoki muzokara olib borish uchun hukumat tomonidan vakil qilib tayinlangan mansabdor shaxs.

Odatda, tashqi aloqalar idorasi (markaziy yoki xorijiy apparat) xodimi. Egallab turgan lavozimiga ko‘ra u o‘sha idoraning vazifalarini xorijiy davlatlar bilan rasmiy munosabatlar doirasida amalga oshirishi lozim bo‘lgan vazifalarni bajarishda bevosita ishtirok etadi. Keng ma’noda diplomat – u yoki bu tashqi siyosiy masalalarni doimiy yoki vaqtinchalik asosda bajarish vazifasi rasmiy ravishda yuklangan shaxs.

Diplomat siyosiy bilimlarni egallash, intellektual izlanish, o‘rganishga qiziqish, ilmga chanqoqlik, sezgirlik, samimiylilik, liderlik, amaliy aql sohibi bo‘lish kabi shaxsiy xususiyatlar va qobiliyat-larga ega bo‘lmog‘i lozim.

Diplomat, shuningdek, quyidagi kasbiy tajriba va malakalar sohibi ham bo‘lishi shart: muzokaralar va suhbatlar olib borish, kuza-tish, tahlil qilish va ma’ruzalar tayyorlash, vakillik qoidalarini bilish, jamoani boshqara olish, kommunikativlik va ommaviy diplomatiya malakasi, turli xalqlar madaniyatini qiyoslash va h.k. qobiliyatlar. Professional diplomat uchun zarur bo‘lgan yuqorida sanab o‘tilgan bilim va sifatlar kam hollarda bir insonga xos bo‘lishi mumkin. Bu talab, bilim va xususiyatlar diplomatlar uchun nihoyatda muhimki, bunga yetishish uchun ular o‘zlarining butun faoliyatları davomida intilishlari kerak.

2. Muomalaga usta, muzokara olib borish san’atini yaxshi biladi-gan inson.

**DIPLOMATIK.** Diplomatiyaga oid, davlatning tashqi siyosatiga, chet mamlakatlar bilan aloqasiga yoki shu sohaga tegishli tushunchalar bilan birga ishlatalidi. Mas. diplomatik munosabatlar, diplomatik korpus va b.

**DIPLOMATIK AGENT (VAKIL).** Diplomatik vakolatxonaning boshlig‘i yoki diplomatik xodimlar guruhi a’zosi, diplomatik vakolatxonaning vazifalarini bajarishda bevosita ishtirok etuvchi

mansabdor shaxs. 1815-yildagi Vena reglamentiga binoan faqat vakolatxona boshliqlarigina diplomatik agent hisoblanar edi. Diplomaticiyaning rivojlanishi bu tushunchani kengaytirdi. Keyingi vaqtarda elchixona va missiya xizmatchilari, hamma darajadagi elchilar, vakolatxonaning diplomatik xizmatchilari, xalqaro tashkilotlar va konferensiyalarga yuborilgan rasmiy vakillar, shuningdek, bir mamlakatning ikkinchi mamlakatga yuboradigan delegatsiya boshliqlari va a'zolari diplomatik agent sanaladigan bo'ldi.

Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi 1961-yil Vena konvensiyasining 29-moddasiga binoan diplomatik agentning shaxsi daxlsizdir. Uni hibsga olish yoki ushlab qolish, qanday shaklda bo'lmassis, mumkin emas.

**DIPLOMATIK AGENTLIK.** Diplomatik vakolatxonaning XVIII–XIX-asrlarga xos nomi. 1815-yil Vena reglamentida diplomatik agent nomi faqat diplomatik vakolatxonalar boshliqlariga taalluqli bo'lgan. Hozirgi xalqaro amaliyotda "dip. agent" iborasi davlatning diplomatik vakillarining (elchi, vakil, muvaqqat vakil) barchasiga va elchixona, vakillik dip. personali a'zolariiga nisbatan qo'llanadi. (q.: *Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi 1961-yil Vena konvensiyasi*)

**DIPLOMATIK AKT.** Xalqaro huquq subyektlari bo'lmish tashqi aloqalar organlari va mansabdor shaxslarning xalqaro siyosiy va huquqiy oqibatlarga olib keluvchi harakati yoki bayonoti. Boshqacha qilib aytganda, Diplomatik akt – davlatlar o'rtaсида olib borilgan diplomatik muzokara yoki maxsus konferensiya qarori. U shartnoma, bitim, pakt, konvensiya, protokol, deklaratsiya, nizom, statut kabi turli nomlar bilan atalishiga qaramay, yagona yuridik ahamiyatga ega. Diplomatik aktning keng tarqalgan formasi sulh, o'zaro yordam va savdo to'g'risidagi xalqaro shartnomalardir. Bayonot, memorandum ham diplomatik akt hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda diplomatik aktning bir necha turlari ko'zda tutilgan (diplomatik munosabatlarni o'rnatish, ishonch yorlig'ini topshirish, holatni yorituvchi bayonotlar va h.k.). Ularning hayotga

tatbiq qilinishi xalqaro an'analar, shartnomalar, protokol qoidalari va diplomatik xizmat masalalari bo'yicha davlatning ichki huquqiy me'yorlari bilan belgilanadi.

Diplomatik akt deganda yozma diplomatik hujjatlar (shartnomma, nota, memorandum) ham anglanadi. Diplomatik akt mazmuni va shakliga ko'ra zamonaviy xalqaro huquq va amaliyot talablariiga to'la muvofiq bo'lishi lozim. Mazkur talablarga javob bermaydigan diplomatik akt turlaridan foydalanish qonunga xilof. Masalan, zamonaviy diplomatik huquq, ayrim protokol masalalarini hisobga olmaganda, diplomatik korpusning ommaviy chiqishlariga yo'l qo'ymaydi.

**DIPLOMATIK ALOQALAR.** Davlat arboblari yoki maxsus vakolatga ega rahbarlarning (chet eldag'i hamkasblari bilan) shaxsiy aloqalari. Davlat rahbarlari, hukumat rahbarlari, tashqi ishlar vazirlari va diplomatlar o'rtaida diplomatik aloqalar amaliyoti mavjud. Diplomatik aloqalar doimiy uchrashuvlar, diplomatik konferensiylar, tashriflar, muzokaralar, diplomatik qabullar yo'li bilan olib boriladi.

**DIPLOMATIK ARXIVLAR.** (lot. *archivum*, grek. *arche`ion* – idora, muassasa yoki ular joylashgan joy). Tashqi ishlar idorasasi va uning chet eldag'i vakolatxonalari faoliyati natijasida to'plangan hujjatlar majmuasi. Xalqaro amaliyotda diplomatik arxivlar tushunchasi, asosan, diplomatik va konsullik vakolatxonalari arxivlarini anglatadigan bo'lib qolgan. Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi 1961-yil Vena konvensiyasiga ko'ra diplomatik vakolatxonalar arxivlari har doim va ularning qayerda ekanidan qat'i nazar daxlsizdir. Ko'p mamlakatlarda diplomatik arxivlar tashqi ishlar idorasining bo'linmasi hisoblanadi.

**DIPLOMATIK AUDIYENSIYA.** (lot. *audientia* – eshitish). Davlat rahbari, hukumat rahbari, tashqi ishlar vaziri yoki boshqa hukumat a'zosi tomonidan diplomatik vakilni qabul qilish. Mahalliy protokol qoidalari, diplomatik vakilning klassi (q.: *Diplomatik klasslar va ranglar*) va audiensiya xarakteridan kelib chiqib, qabul tantanali yoki protokol marosimisiz o'tkazilishi mumkin. Davlat

rahibariga o‘z *ishonch yorlig‘ini* topshirayotgan xorijiy diplomatik valkil qabuli tantanali ravishda o‘tkaziladi.

**DIPLOMATIK BOSHPANA.** Diplomatik boshpana – bir-on-bir shaxsga siyosiy sabablarga ko‘ra ta’qib qilinganda xorijiy diplomatik vakolatxona yoki konsul vakolatxonasida yashirinish imkonini berish. Xalqaro huquqqa muvofiq, diplomatik yoki konsullik vakolatxona binolarining daxlsizligi, yashab turgan davlat tomonidan sodir etgan qonunbuzarliklari uchun ta’qib qilinayotgan shaxslarga boshpana berish huquqini bermaydi.

Diplomatik vakolatxonaning rasmiy faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan maqsadlarda diplomatik vakolatxona binolaridan foydalanishi man qiluvchi bu qonun “Diplomatik munosabatlar to‘g‘risidagi 1961-yil Vena konvensiyasi”da o‘z aksini topgan.

**DIPLOMATIK VAKILLIK.** Davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni boshqaradigan elchixona yoki missiya. Elchi boshqaradigan Diplomatik vakillik – elchixona, vakil yoki doimiy ishlar vakili boshqaradigan diplomatik vakillik – missiya deb ataladi. Diplomatik vakillik XVI–XVIII-asrlarda Yevropada vujudga kelgan. Diplomatik vakillik elchi ayrboshlagan davlatda o‘z davlati nomidan muzokaralar olib boradi, vakillik joylashgan davlatning hayoti to‘g‘risida bundagi vakolatxona (elchixona, missiya)lar haqidagi qonun yo‘l qo‘ygan doirada ma’lumotlar to‘playdi, har ikkala davlat o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy-texnikaviy aloqalarning rivojlanishiga yordamlashadi, o‘z davlati hamda fuqarolarining huquq hamda manfaatlarini qo‘riqlaydi. Diplomatik vakillik faoliyatiga raqbarlik qiladigan elchi diplomatik imtiyoz va immunitetga ega. Diplomatik vakillikning huquqiy mavqeい Diplomatik munosabatlar to‘g‘risidagi 1961-yil Vena konvensiyasi, ikki tomonlama bitimlar, shuningdek, diplomatik vakillik joylashgan davlat ichki qonunlari bilan belgilanadi. Xalqaro tashkilotlar huzuridagi (jumladan, kuza-tuvchilar missiyasidagi) vakilliklar ham diplomatik vakillikning bir turi bo‘lib, uning huquqiy mavqeい “Davlatlarning universal tusdagi xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlari bo‘yicha vakilligi to‘g‘risidagi 1975-yil Vena konvensiyasi”da belgilab berilgan.

**DIPLOMATIK VAKILNI CHAQIRIB OLİSH.** Diplomatik vakil quyidagi holatlarda chaqirib olinadi:

- a) o‘z hukumatining tashabbusi bilan boshqa lavozimga o‘tkazilishi, kasalligi, iste’foga chiqishi va hokazo sabablarga ko‘ra;
- b) mezbon davlat tashabbusi bilan diplomatik vakilni persona non grata – nomaqbul shaxs deb e’lon qilinishi natijasida;
- d) diplomatik munosabatlarining uzilishi yoki vaqtinchalik to‘xtatilishi hollarida.

Agar diplomatik aloqalar uzilmagan yoki vaqtinchalik to‘xtatilmagan hamda persona non grata e’lon qilinmagan bo‘lsa, diplomatik vakilni chaqirib olish mezbon davlat rahbariga chaqirib olish yorlig‘ini topshirish orqali rasmiylashtiriladi.

Chaqirib olinayotgan doimiy ishlar vakili o‘z tashqi ishlar vazirining tegishli xatini mezbon davlat tashqi ishlar vaziriga topshiradi.

**DIPLOMATIK VAKOLATXONA.** O‘zaro kelishuv asosida bir davlatning boshqa davlat hududida yoki xalqaro tashkilot qoshida doimiy rasmiy aloqalarни davom ettirish maqsadida ta’sis etgan tashqi aloqalar organi bo‘lib, ta’sis etgan davlatning nomidan siyosiy va boshqa masalalar yuzasidan ish yuritadi. Diplomatik vakillar almashinuvdi diplomatik munosabatlar o‘rnatalgandan so‘ng amalga oshiriladi. Diplomatik vakolatxona doimiy asosda faoliyat ko‘rsatadi. Turli davlatlar diplomatik vakolatxonalarining tarkibi turlicha va u, asosan, o‘z davlati an’analari va ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarning spetsifikasi bilan belgilanadi.

O‘zbekiston qirqdan ortiq davlatda diplomatik vakolatxona ta’sis etgan. O‘z faoliyatida ular Diplomatik munosabatlar to‘g‘risidagi 1961-yil Vena konvensiyasini qo‘llaydilar, imtiyozlar va immunitetdan foydalanadilar.

Diplomatik vakolatxonani ta’sis etish to‘g‘risidagi rozilikka erishgandan keyin hukumat davlatning ichki qarorini qabul qildi. O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatdagi vakolatxonasi O‘zbekiston hukumati qarori asosida ta’sis etiladi. (q.: *Diplomatik vakillik*)

**DIPLOMATIK VAKOLATXONA VA UNING XODIM-LARINING IMMUNITETI VA IMTIYOZLARI.** Zimmalariiga yuklangan vazifalarni muvaffaqiyat bilan bajarishlari maqsadida mezbon davlat tomonidan xorijiy diplomatlar va diplomatik vakolatxonalarga beriladigan maxsus huquq va imtiyozlar majmui.

Diplomatik immunitet diplomatik korpus a'zolarini mezbon davlatning fuqarolik, ma'muriy, jinoiy yurisdiksiyalaridan ozod etadi. Immunitetning mavjudligi diplomatik vakolatxonalar xodimlari va ularning oila a'zolarini mahalliy sudlar tomonidan sudga tortilmashlikni bildiradi.

Diplomatik imtiyozlar bu diplomatik korpus a'zolari va ularning oila a'zolariga rasmiy xizmat o'tayotgan davlatda berilgan ayrim huquq va imtiyozlardir.

Diplomatik munosabatlар to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi fundamental xalqaro huquq hujjati hisoblanib, uning asosida diplomatlar va diplomatik vakolatxonalarning immuniteti va imtiyozlariga tegishli ko‘plab masalalar muvofiqlashtiriladi.

Ayrim davlatlarda Vena konvensiyasi milliy qonun sifatida qabul qilingan. Mazkur Konvensiya asosida “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari haqida” nomli Nizom qabul qilingan va Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 8-maydagi 207-son qarori bilan tasdiqlangan.

Konvensiyada qayd qilinganidek, diplomatik immunitet va imtiyozlar ayrim shaxslarning foydasi uchun emas, balki diplomatlar va diplomatik vakolatxonalarning o‘z vazifalarini samarali bajarishlari uchun beriladi. Immunitetlar shaxsiydir; imtiyozlarni esa kelishuv asosida bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tkazib bo‘lmaydi. Diplomat immunitetining asosi uning daxlsizligidir. Mahalliy hokimiyat diplomatning erkinligi va obro‘siga qarshi qaratilgan har qanday tajovuzdan uni darhol ogohlantirishi lozim. Agar diplomat mezbon davlatda doimiy yashash uchun qolsa, u holda o‘z daxlsizligini yo‘qotadi. Diplomatning daxlsizligi mamlakat hududiga kirishi bilan boshlanib, chiqib ketishi bilan o‘z kuchini yo‘qotadi. Mezbon davlat hukumati diplomatik vakolatxona, elchi qarorgohi, elchixon-

naga tegishli barcha binolar va diplomatlarning yashash joylari daxilsizligini ta'minlashi lozim.

**DIPLOMATIK VAKOLATXONANING XIZMAT KO'R-SATUVCHI PERSONALI.** Vakolatxonaga xizmat ko'rsatuvchi xodimlar (haydovchilar, oshpazlar va b.). Diplomatik vakolatxonaning xizmat qiluvchi personali a'zolari, ko'pincha akkreditatsiya qilingan davlat fuqarolaridan tayinlanadi. Biroq, "Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi 1961-yil Vena konvensiyasi" xizmat ko'rsatuvchi personal tarkibiga mezbon davlat fuqarolaridan ham tayinlanishga imkon berdi. Diplomatik vakolatxonaning xizmat ko'rsatuvchi a'zolariga ularning zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarishlari uchun zarur bo'lган muayyan imtiyoz va immunitetlar beriladi.

**DIPLOMATIK VAKOLATXONA XODIMLARI.** O'z ichiga diplomatik vakolatxonaning diplomatik xodimlarini (ya'ni diplomatlarni), ma'muriy-texnik xodimlarni (ish yurituvchilar, tarjimonlar, texnik kotiblar, stenografiylar, hisobxona xodimlari, shifrllovchi va b. Diplomat hisoblanmagan bunday xodimlar diplomatik pasport va rangga ega bo'lmaydi, lekin ularni xorijiy xizmat safariga TIV yuboradi. Ularga xizmat pasporti beriladi) va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar (haydovchilar, farroshlar, oshpazlar va h.k.) oladi.

Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi Vena konvensiyasining 8, 11-moddalariga muvofiq, diplomatik vakolatxona xodimlari akkreditatsiya qilingan davlat fuqarolari bo'lishi lozim. Vakolatxona diplomatik personali a'zolari mezbon davlat fuqarolaridan tayinlanishi mumkin emas, faqatgina shu davlatning roziligi bilan tayinlanishi mumkin, shunda ham bu rozilik xohlagan paytda bekor qilinishi mumkin.

Personal soni to'g'risida aniq kelishuv mavjud bo'lmasa, mezbon davlat diplomatik vakolatxona personalining soni bo'yicha yashab turgan davlatda mavjud sharoitlarni va mazkur vakolatxonaning talablarini hisobga olib puxta o'ylangan va o'rtacha miqdorni taklif etishi mumkin. Diplomatik vakolatxona o'z ichki shtatini mustaqil belgilaydi. Yollanuvchi personalga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kabi

chet davlat fuqarolari ham kirishi mumkin. Uchinchi davlat fuqarolari ni ishga qabul qilishni xohlovchi diplomatik missiya a'zolari ularni viza bilan ta'minlashlari lozim. Chet el vakolatxonalarida diplomatik mansablarda faoliyat ko'rsatuvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari "Diplomatik munosabatlari to'g'risidagi 1961-yil Vena konvensiyasi" va "Konsullik munosabatlari to'g'risidagi 1963-yil Vena konvensiyasi" ga ko'ra imtiyoz va immunitetlardan foydalanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari chet el diplomatik vakolatxona xodimi maqomini mezbon davlatning roziligi bilan vakolatxonaning diplomatik, ma'muriy-texnik personali tarkibiga qabul qilin-gan paytdan boshlab egallaydi.

Diplomatik vakolatxona xizmatiga kirishni rasmiylashtirish zim-masiga xorijiy vakolatxonalarning samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berish vazifalari yuklatilgan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining diplomatik servis xizmati orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston fuqarolarining xorijiy vakolatxonalarga ishga qabul qilinishi xodim va vakolatxona rahbari tomonidan yozma mehnat shartnomasi bilan ma'lum muddatga rasmiylashtiriladi.

**DIPLOMATIK VIZA.** Diplomat vakillar, favqulodda diplomatik missiya vakillari, xalqaro konferensiya delegatlari, hukumat a'zolari va tashqi ishlar idoralarining mas'ul shaxslari, diplomatik kuryerlarning pasportlariga qo'yiladigan maxsus belgi. Diplomatik vizalarning chet mamlakatga kirish, undan o'tishga ruxsat etadigan va tranzit turlari mavjud.

**DIPLOMATIK YOZISHMA.** Davlat, hukumat, tashqi ishlar idoralarining tegishli xorijiy davlatlar, o'sha davlatlarning diplomatik vakolatxonalar, xalqaro tashkilotlar, shuningdek, turli diplomatik vakolatxonalar o'rtaida o'zaro olib boriladigan yozishma. Diplomatik hujjat tuzilayotganda o'z davlatining yashab turgan davlatga nisbatan siyosatini to'g'ri tushunish talab qilinadi. Diplomatik hujjatlarni tuzuvchi diplomat hujjatda so'z borayotgan masa-la to'g'risida tushunchaga a'lo darajada ega bo'lishi, uning tarixini,

hujjat tuzilayotgan paytda masalaning dolzarbligi, muammoning huquqiy jihatlarini yaxshi bilishi lozim.

Diplomatik yozishma diplomatik protokolning an'anaviy qoidalariiga rioya qilgan holda olib boriladi. Diplomatik yozishmada protokol qoidalarining buzilishi tomonlar munosabatlarida salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Xalqaro amaliyotda diplomatik yozishmaning mazmuni va texnik bezaklanishiga ko'ra farqlanadigan ma'lum hujjat turlari paydo bo'lgan. Ular ichida keng tarqalgani: notalar, shaxsiy xatlar, esdalik maktublari, memorandum, xususiy xatlar.

**DIPLOMATIK IMTIYOZ VA IMMUNITETLAR.** Bu tushunchalarning asosi bo'lib 1961 va 1963-yillardagi Vena Konvensiyalari hisoblanadi. (q.: *Diplomatik munosabatlar to 'g'risidagi 1961-y. Vena konvensiyasi, Konsullik munosabatlari to 'g'risidagi 1963-y. Vena konvensiyasi*)

Bu xalqaro huquq asosida davlatlarning ahdlashuviga ko'ra diplomatik vakolatxona yoki maxsus missiyaning rahbarlariga, xodimlariga o'z vazifalarini samarali va hech qanday to'siqlarsiz amalga oshirishi uchun yaratib berilgan shart-sharoitlardir. Unga ko'ra, diplomatning shaxsiy daxlsizligi, uning turar va ish joyining daxlsizligi hamda diplomatni jinoiy javobgarlikka tortish mumkin emasligi tushuniladi. Bundan tashqari, diplomatlar faoliyat ko'rsatayotgan davlatda ma'muriy va fuqarolik-huquqiy javobgarlikka (ayrim hollardan tashqari) tortilishi mumkin emas.

Immunitet, shuningdek, chet el dipomatlari (elchi, elchixona kotiblari, attashe va b.)ning va ular egallagan binoning daxlsizligi, mahalliy sud tomonidan sud qilinmasligi, o'z hukumati bilan maxfiy aloqa qilish huquqi va h.k. lardan iborat huquq va imtiyozlar yig'indisi hisoblanadi. Diplomatik vakilni ma'muriy va sud yo'li bilan qamashga, shu mamlakat fuqarolari yoki ajnabiylar tomonidan haqoratlanishiga, unga nisbatan kuch ishlatalishiga yo'l qo'yilmaydi. Vakolatxona binosi, undagi ashyolar, vakillarning turar-joyi, mulki daxlsiz bo'lib, ular joylashgan davlatning muhofazasiga olindadi. Diplomat sud huquqi immunitetiga ham ega. Diplomatik vakil

g'ayriqonuniy harakati uchun javobgarlikka tortilmasdan, xalqaro diplomatik tartib asosida vakil qilib yuborgan davlat tomonidan ch-aqirib olinadi.

**DIPLOMATIK KLASSLAR.** (ing. diplomatic classes – diplomatik daraja, toifa) Diplomatik amaliyotda o'rnatilgan va xalqaro huquq bilan mustahkamlangan tushuncha bo'lib, diplomatik vakillarning diplomatik vakolatxonalar darajasiga mos keladigan va mezbon mamlakatdagi diplomatik vakillar orasidagi mavqeini aniqlaydigan sinflar tushuniladi. Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi 1961-yil Vena konvensiyasiga binoan vakolatxonalar rahbarlari 3 diplomatik klassga bo'lingan: davlat rahbarlari huzurida akkreditatsiyadan o'tuvchi elchilar va nunsiyalar hamda vakolatxonalarning shunga mos keluvchi rangdagi boshqa rahbarlari; davlat rahbarlari huzurida akkreditatsiyadan o'tuvchi vakil va internunsiylar; tashqi ishlar vazirlari huzurida akkreditatsiya qilinuvchi muvaqqat ishlar vakili. Vena konvensiyasiga ko'ra, vakolatxona rahbarlari o'rtasida, sardorlik va etiket qoidalarini istisno qilganda, biron-bir tafovut bo'lmasligi kerak. Vakolatxonalar rahbarlari tegishli bo'lgan klasslar shu davlatlar o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi; har bir shtatda missiya rahbarlarini qabul qilish tartib-qoidalari har bir klass – toifa uchun bir xil bo'lishi kerak. Odatda davlatlar bir xil toifadagi diplomatik vakillar bilan almashadilar.

**DIPLOMATIK KORPUS.** Bir davlatda akkreditatsiya qilin-gan xorijiy diplomatik vakolatxonalar rahbarlarining majmui. Bularga elchilar, vakillar, doimiy va muvaqqat ishlar vakillari, shuningdek, Vatikan diplomatik vakolatxonasining rahbari – *nunsiy* va internunsiylar (xorijiy mamlakatga Rim papasi tomonidan yuborilgan elchi va vakillar) kiradi.

Keng ma'noda "diplomatik korpus" tushunchasi tagzaminda diplomatik vakolatxonalarning barcha diplomatik xodimlari va ularning oila a'zolari tushuniladi.

Diplomatik korpus xalqaro huquq me'yorlari asosida tashkil top-gan institut emas, shuningdek, yuridik shaxs huquqiga ega siyosiy uyushma ham hisoblanmaydi. Shu bilan birga, diplomatik korpus

yxalit bir butunlikni tashkil qilib, yashab turgan davlat hukumati uni diplomatik vakolatxonalar sinfiga muvofiq alohida guruhlarga ajratmasligi lozim.

Agar diplomatik korpus rasmiy ommaviy tadbirga, marosimiga taklif qilinsa, ular, odatda, davlat yoki hukumat rahbari yonidan faxrli o‘rnlarga taklif qilinadi.

**DIPLOMATIK KORPUSGA SARDORLIK.** Diplomatik *protokolning* eng muhim qoidalaridan biri bo‘lib, quyidagi hollarda rioya qilinadi: ommaviy tadbirga taklif etilgan diplomatik korpusning jamoaviy sardorligi; diplomatik vakolatxonalar rahbarlari o‘rtasidagi sardorlik; mezbon mamlakat diplomatik vakillari va hukumati o‘rtasidagi sardorlik; shu diplomatik vakolatxona diplomatlari sardorligi va b. Ommaviy tadbir, marosim va shu kabilarga taklif etilgan diplomatik korpusga unda ishtirok etayotgan davlat rahbari yaqinidagi faxrli o‘rindan joy beriladi. Diplomatik korpusning birligi hurmat qilinishi kerak, ya’ni elchilar, vakillar va muvaqqat vakkarni turli joylarga bo‘lib (har xil joylarga o‘tkazib) bo‘lmaydi.

Diplomatik vakolatxonalar rahbarlari (q.: *Diplomatik klass va ranglar*)ning har bir klassi orasida mahalliy amaliyotdan kelib chiqib, diplomatik sardorlik diplomatik vakil kelgan sanaga qarab belgilanadi. Yana (q.: *Sardorlik*)

**DIPLOMATIK KORPUSGA XIZMAT KO‘RSATISH BYUROSI.** O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi qoshidagi Diplomatik korpusga xizmat ko‘rsatish byurosi xorijiy davlatlarning O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiyadan o‘tgan diplomatik vakolatxonalari, konsullik muassasalari va ularga tenglashtirilgan tashkilotlarning respublikamizda bo‘lish va faoliyat yuritish sharoitlarini yanada yaxshilash, ularning xodimlari hayoti va faoliyati uchun munosib shart-sharoitlar yaratish maqsadida tashkil etilgan.

Byuro diplomatik vakolatxonalarga va uning xodimlariga O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida quyidagi masalalarda ko‘maklashadi va vositachilik qiladi:

O‘zbekiston Respublikasida diplomatik vakolatxonalarning faoliyat olib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularga kompleks servis xizmatlar ko‘rsatish, diplomatik vakolatxonalarning tegishli ravishda ishlashini ta’minlashga qaratilgan masalalarni hal qilish va chora-tadbirlarni amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarda nazarda tutilgan diplomatik vakolatxonalarga xizmat ko‘rsatish va ularni joylashtirish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el diplomatik vakolatxonalari va O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari uchun mo‘ljallangan obyekt va uy-joylarni qurish va rekonstruksiya qilish;

diplomatik vakolatxonalar va ularning xodimlariga bino, xonalarni ijara berish, ko‘chmas mulkning ijara va oldi-sotdi shartnomalarini rasmiylashtirishda ko‘mak berish (vositachilik qilish), shuningdek, ushbu bino va xonalarning ekspluatatsiyasini ta’minlash;

o‘z vazifalariga taalluqli masalalar bo‘yicha diplomatik vakolatxonalarning manfaatlarini O‘zbekiston Respublikasining davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlarida, korxona va muassasalarida ifoda etish, shuningdek, diplomatik vakolatxonalarga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot va korxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda diplomatik vakolatxonalarda ishlaydigan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining mehnat huquqlarini himoya qilish;

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga unga yuklatilgan vazifalarni bajarishda, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar va ilg‘or texnologiyalarni jalb qilish, milliy tovar va xizmatlarni olg‘a surish, mamlakatga turistlar oqimini ko‘paytirish, protokol tadbirlarini o‘tkazish, xorijiy delegatsiyalarni kutib olish-kuzatish, chet elga xizmat safariga chiqayotgan xodimlarga aviachiptalar xarid qilish, avtotransport xizmatlarini ko‘rsatish va boshqalar bo‘yicha ko‘mak berish; bo‘sh vaqt va dam olishni tashkillashtirish, turizm, jismoniy tarbiya va sport sohasida xizmatlar taqdim etish.

**DIPLOMATIK KURYER.** Diplomatik pochtani manziliga yetkazish topshirilgan rasmiy shaxs. Kuryer maqomi diplomatik

pochtaning necha o'rindan iborat ekanini ko'rsatuvchi rasmiy hujjat bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

Diplomatik kuryer xalqaro huquq tomonidan tan olingan me'yorgarga muvofiq; o'z vazifalarini bajarishda mezbon davlat himoyasidan foydalanish huquqiga ega. Uning shaxsi daxlsiz bo'lib, qanday shaklda bo'lishidan qat'i nazar qamoqqa olinishi yoki ushlanishi mumkin emas. Bu shart O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 8-may 207-son "O'zbekiston Respublikasidagi xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsul muassasalari to'g'risida"gi qarorida ham mustahkamlangan.

**DIPLOMATIK MAROSIMLAR KIYIMI.** Maxsus kiyim turi bo'lib, diplomatlar tomonidan tantanali marosimlarda (ishonch yorliqlari topshirish, milliy bayram munosabati bilan uyushtiriladigan qabullarda, davlat rahbari audiyensiyasida) foydalanilgan. Turli davrlarda ko'p davlatlarda diplomatlarning maxsus liboslari bo'lgan. Hozirga kelib, diplomatik protokol bo'yicha kiyinishing bayramona ikki turi mavjud. Mo'tadil haroratli mamlakatlar uchun qora matodan tikilgan va issiq yurtlar uchun oq matodan tikilgan maxsus kiyim. Ayollar uchun ham protokol kiyim turlari mavjud.

Har bir diplomat xodim kiyinish protokolining o'ziga xos xussiyatlarini bilishi shart. Kiyim toza va silliq dazmollangan bo'lishi kerak. Diplomatning tashqi qiyofasiga qarab nafaqat uning o'zi haqida, balki u xizmat qiladigan idora va yurt to'g'risida xulosa qilishlarini unutmaslik kerak.

Diplomatik idora va vakolatxonaning har qanday xizmatchisi vaqt-i-vaqt bilan rasmiy tadbirdarda qatnashadi. Tadbirdan oldin qanday kiyim kiyishni aniq bilib olish kerak, chunki oliy darajadagi har qanday rasmiy uchrashuv, qabul ma'lum protokolni talab qildi. Xuddi shu narsa xorijiy davlatlarning vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tganda ham amal qiladi.

Protokol kiyimi muzokaralarda katta ahamiyatga ega, chunki bunday uchrashuv natijasiga har qanday ikir-chikirlar, jumladan, ishtirokchining tashqi ko'rinishi ham ta'sir qilishi mumkin. Tajribali diplomatlar buni yaxshi biladi va shuning uchun bunday uchrashuv-

larga tayyorgarlikka katta ahamiyat beradi. Libos tadbirga to‘liq mos kelishi kerak, shuning uchun har bir diplomat, odatda, juda katta sh-kafga ega bo‘ladi. Diplomatik idorada diplomatlarni barcha kerakli kiyim-kechaklar bilan ta’minlaydigan xizmat ham mavjud.

**DIPLOMATIK MISSIYA.** Vakil yoki ishonchli vakil tomonidan boshqariladigan doimiy diplomatik vakolatxona.

O‘tgan asrlarda diplomatik missiya kichik davlatlarda ta’sis etilgan, chunki elchixonalar bilan almashish huquqi faqat monarchiyalarda bo‘lgan.

Diplomatik munosabatlar to‘g‘risidagi 1961-yil Vena konvensiyasidagi kodifikatsiyalashtirilgan zamonaviy diplomatik huquq diplomatik missiya va elchixonalarni huquq, immunitet va imtiyozlar bo‘yicha farqlamaydi. Hozirgi kunda diplomatik missiya muassasasi amalda kam ta’sis etilmoqda.

**DIPLOMATIK MUZOKARALAR.** Davlat vakillari tomonidan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama munosabatlar doirasida siyosiy, iqtisodiy va boshqa masalalarni, tashqi siyosiy strategik taktikani yoki tegishli diplomatik aksiyalarni muvofiqlashtirish, fikr almashish, o‘zaro ma’lumot almashish, shartnomma tayyorlash va uni imzolash, munozarali masalalarni hal etish maqsadida o‘tkaziladigan rasmiy uchrashuv yoki yozishma. Diplomatik muzokaralar davlatlar o‘rtasida paydo bo‘lgan mojaroli va janjallli masalalarni tinchlik yo‘li bilan hal etishning hamda davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish va chiqurlashtirishning eng keng tarqagan va xalqaro huquqda mustahkamlangan asosiy vositasi hisoblanadi. Diplomatik muzokaralar a’zolari darajasi (davlat rahbarlari, hukumat rahbarlari, tashqi ishlar vazirlari va b.) muhokama etilayotgan muammo ahamiyatidan kelib chiqib belgilanadi. Umume’tirof etgan odatga ko‘ra davlat rahbari, hukumat rahbari, tashqi ishlar vaziri maxsus vakolatsiz ham diplomatik muzokaralar olib borish va xalqaro shartnomani imzolash huquqiga ega. Diplomatik muzokaralar uchrashuvlar asnosida yoki yozma ravishda – *diplomatik yozishma* orqali olib boriladi. Ko‘pincha muzokaralarning og‘zaki va yozma shakli parallel

olib borilishi mumkin. Diplomatik muzokaralardan avval unga katta tayyorgarchilik ishlari olib boriladi.

**DIPLOMATIK MUNOSABATLAR.** Davlatlar o‘rtasidagi rasmiy munosabatlarni xalqaro huquq me’yorlari va xalqaro mulo-qot amaliyotiga muvofiq saqlab turishning asosiy shakli. Diplomatik munosabatlardan davlatlar o‘rtasida do‘stlik munosabatlarining rivojlanishiga, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlashga xizmat qiladi.

Diplomatik munosabatlardan to‘g‘risidagi 1961-yil Vena konvensiyasiga muvofiq davlatlar o‘rtasidagi Diplomatik munosabatlardan o‘zaro rozilik asosida amalga oshiriladi. Diplomatik munosabatlarga birinchi qadam bo‘lib bir davlat va uning hukumatini boshqa davlat tomonidan de-fakto yoki de-yure tan olinishi hisoblanadi. (q.: *xalqaro-huquqiy tan olish*) Diplomatik munosabatlarning o‘rnatalishi manfaatdor davlatlar vakillari o‘rtasidagi bevosita muzokaralar natijasida yoki uchinchi davlat vakillari orqali amalga oshirilishi mumkin va davlat rahbarlari, hukumat rahbarlari, tashqi ishlar vazirlari yoki maxsus vakil qilingan shaxslar o‘rtasida maktub, telegramma, xatlar, notalar almashish yo‘li bilan rasmiylashtiriladi. Tomonlar diplomatik munosabatlarning o‘rnataligani fakti, diplomatik vakolatxonalar darajasi (elchixona yoki missiya), bitimning kuchga kirish sanasi va b. to‘g‘risida kelishib oladilar.

**DIPLOMATIK MUNOSABATLAR TO‘G‘RISIDAGI 1961-YIL VENA KONVENTSIYASI.** Hozirgi kunga qadar diplomatik amaliyotning ko‘pgina masalalarini boshqarib kelgan Diplomatik munosabatlardan to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi 1961-yilning 18-aprelida Vena shahrida BMTga a’zo aksariyat davlatlar vakillari tomonidan qabul qilingan.

Vena konvensiyasi diplomatik huquqning asosi hisoblanadi. U ko‘p davlatlarning milliy qonunchiligiga kirib borgan va hukumatlar bu konvensiya bilan bog‘liq maxsus qonunlar qabul qilishgan.

Konvensiyaga 174 dan ortiq davlat qo‘shilgan. O‘zbekiston Respublikasi ushbu konvensiyaga 1994-yilning 6-mayida qo‘sildi. Oliy Majlisning 1078 – XII son qarori O‘zbekistonning mazkur kon-

vensiyyaga qo'shilgani va undagi qonun-qoida va me'yorlar O'zbekiston uchun majburiy kuchga egaligini anglatadi. O'z diplomatik faoliyatida respublika aynan mana shu xalqaro-huquqiy hujjatlarga asoslanadi.

Konvensiya 53 ta moddadan iborat. Ularda diplomatik vakolatxona, uning rahbari va xodimlarining statusi, immunitet va imtiyozlari, imoratlari, arxivni va shu kabi masalalar yoritilgan.

### **DIPLOMATIK MUNOSABATLARNING UZILISHI.**

Vakolatli hokimiyat organining o'z davlati nomidan qilgan rasmiy bayonoti asosida davlatlararo munosabatlarning to'xtatilishi.

Davlatlarning o'zaro diplomatik munosabatni to'xtatishi diplomatik vakilini chaqirib olishni anglatadi. Bunday holat ikki davlat o'rtaida urush xavfi tug'ilganda yoki munosabatlar keskinlashib qolganda yuz berishi mumkin. Elchilarni yoki missiyalarni chaqirib olish hamma vaqt ham diplomatik aloqalarning uzil-kesil uzilishi deb hisoblanavermaydi.

**DIPLOMATIK PASPORT.** Aksariyat davlatlarda diplomatik immunitetga haqli fuqarolarga, ayrim davlatlarda esa martabali shaxslarga ham beriladi.

Xalqaro odat barcha hukumatlardan shunday pasportga ega shaxslarga alohida hurmat bilan munosabatda bo'lishlarini talab qiladi. Bunday hujjatlarni maxsus va qattiq nazorat ostiga olingan tartib asosida hamda ularning egalariga immunitetlar berilishi nazarda tutilgan holda taqdim etiladi.

Har bir davlat bunday ishni amalga oshirishda o'zining ichki qoidalariiga suyanadi.

Bir qator davlatlar borki, ularda berilgan diplomatik pasportlarda xodimlarning diplomatik darajasi (rangi) ko'rsatilmaydi. Masalan, Buyuk Britaniyada diplomatik pasport umuman yo'q. Pasport egasining diplomatik xizmatga mansub ekanligini pasportiga bitilgan "Hazrati Oliyalarining diplomatik xizmati xodimi" so'zlari guvohlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasida diplomatik pasportlar diplomatlarga uzoq va qisqa xizmat safari muddatiga beriladi.

**DIPLOMATIK PERSONAL.** Diplomatik vakolatxona shtati-dagi xodimlar diplomatik personalni tashkil etadi. U, o‘z navbatida, uch guruhga bo‘lingan:

- diplomatik xodimlar (elchilar va vakillar; maslahatchilar; savdo vakillari; maxsus attashelar; birinchi, ikkinchi, uchinchi kotiblar, attashelar);
- ma’muriy va texnik xodimlar (tarjimonlar, referentlar va boshqalar);
- xodimlar (bog‘bonlar, oshpazlar va boshqalar).

Diplomatik xodimlar tarkibiga missiya boshlig‘idan tashqari diplomatik darajaga ega bo‘lgan barcha xodimlar, ya’ni maslahatchilar, kotiblar, attashelar (harbiy, dengiz, aviatsiya va boshqa maxsus attashelar) kiradi. Diplomatik personal diplomatik imtiyoz va immunitetga ega. Attashega qarashli xodimlar shtati attashat deyiladi.

Ma’muriy va texnik xodimlar – bu vakolatxonaning ma’muriy va texnik ta’minotini amalga oshiruvchi shaxslar (tarjimonlar, referentlar va boshqalar). Ishtirokchilar tarkibiga vakolatxonaga xizmat ko‘rsatish vazifalarini bajaradigan shaxslar kiradi (bog‘bonlar, oshpazlar va boshqalar).

Diplomatik xodimlar, odatda, ular vakili bo‘lgan davlat fuqarolari, ma’muriy, texnik va yordamchi xodimlar qabul qiluvchi mam-lakat fuqarolari bo‘lishi mumkin. Ammo, Diplomatik munosabatlar to‘g‘risidagi 1961-yil Vena konvensiyasi qabul qiluvchi davlat fuqarolari orasidan xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarni tayinlash imkoniyati berdi.

**DIPLOMATIK POCHTA.** Diplomatik pochta sifatida aniq belgiga ega, faqat xizmat hujjatlari yoki xizmatda foydalanish uchun zarur buyumlar solib, muhrlangan sumka yoki konteyner tushuni-ladi.

Diplomatik pochta nimadan iboratligiga qarab ikki turga bo‘linadi: kuzatib boriladigan va kuzatib borilmaydigan. Diplomatik pochta daxlsizdir: uning ochilishi yoki to‘xtatilishi mumkin emas, uni tezda manziliga yetkazish uchun har qanday imkoniyatdan foydalanish lozim.

Diplomatik pochta diplomatik kuryer tomonidan olib o‘tilishi mumkin. Bunda u o‘z vazifalarini bajarayotgan yoki tashrif buyurayotgan davlat tomonidan himoya qilinish huquqiga ega bo‘ladi. Doimiy diplomatik kuryer yo‘q joyda, davlat yoki missiya alohida kishini, ko‘pincha xizmatchi – boshqa sabablarga ko‘ra sayohat qiluvchi munosib fuqaroni diplomatik kuryer sifatida tayinlashi mumkin. Bunday hollarda u vazirlik yoki vakolatxona rahbari tomonidan kerakli hujjatlar bilan ta‘minlanadi, undan tashqari topshirilgan diplomatik pochta unda bo‘lgan muddat davomida doimiy diplomatik kuryer kabi immanitet va shaxsiy daxlsizlikdan foydalanishi mumkin.

Diplomatik pochta ba’zi hollarda mamlakatga xizmat yo‘lagidan kirib kelib, o‘sha yo‘lakdan chiqib ketadigan samolyot ekipaji komandiriga topshirilishi mumkin. Ekipaj komandiri diplomatik pochtani tashkil qiluvchi yuk joylarining sonini tasdiqlovchi hujjat bilan ta‘minlanmog‘i lozim, lekin o‘zi diplomatik kuryer hisoblanmaydi. Uchinchi davlatlar orqali tranzit olib o‘tilganda diplomatik pochta daxlsizdir.

**DIPLOMATIK PROTOKOL** (grek. rrotokollon: protos – birinchi, kola – yelimlash). O‘rta asrlarda hujjatlarni rasmiylashtirish qoidasini, so‘ng esa arxiv yuritish qoidalari bildirgan. Keyinchalik “protokol” so‘zi diplomatik ish yuritish qoidalarda ishlatila boshlagan. Shundan hozirgi diplomatik protokol nomi kelib chiqqan.

Diplomatik protokol xalqaro munosabatlarda davlat rahbarlari, hukumatlar, tashqi ishlar idoralari va diplomatik vakolatxonalar hamda rasmiy shaxslar rioya qiluvchi qoidalari, an’analar va shartlar majmuasidir.

Diplomatik protokolning ayrim normalari *tseremonial* yoki marosim deb ataladi. Masalan, ishonch yorlig‘ini topshirish, rasmiy delegatsiyalarni kutish va kuzatish tseremoniali – marosim va h.k.

Protokol u yoki bu davlat bilan bo‘lgan munosabatlar holatini aks ettiradi va tashqi siyosatning maqsad va vazifalariga to‘liq bo‘ysunadi. Xalqaro munosabatlarning hamma shakllari va yo‘nalishlarini hayotga tatbiq etishda protokolga rioya qilinishi lozim, aks holda boshqa davlat yoki uning rasmiy namoyandalari obro‘siga putur yet-

kazilishi, pirovardida o‘zaro munosabatlariga ma’lum darajada putur yetishi mumkin.

Diplomatik protokol tseremonial qoidalarini muvofiqlashtiradi, hayotga tatbiq etadi va ularning amalda bo‘lishini nazorat qiladi, rasmiy va shaxsiy yozishma qoidalarini o‘rnatadi, shuningdek, faoliyat usullari, doiralari, xulq-atvor va etiket normalarini hamda kiyim shaklini, bir so‘z bilan aytganda har bir shaxsga uning rasmiy mavqeiga yarasha o‘rni va hurmat bo‘lishini belgilaydi.

Tarixi: Diplomatik protokol normalari biron-bir mamlakat yoki diplomatlar guruhining ixtirosi emas, balki davlatlar o‘rtasidagi ko‘p asrlik aloqalarning natijasidir. Protokol – bu tarixiy kategoriya.

Davlatlarning paydo bo‘lishi va ular o‘rtasidagi aloqalarning rivojlanishi bilan aloqa normalari, jumladan, protokol normalari shakllana boshladi. Tarixiy rivojlanish jarayonida protokol chuqur o‘zgarishlarga duch keldi, lekin har doim tantanali tseremoniallar orqasida davlatlarning katta siyosati, oliy hokimiyatning obro‘sni kabi masalalar turgan.

Diplomatik protokol, o‘z mohiyatiga ko‘ra, xalqaro tushunchadir. Uning asosiy me’yorlariga barcha davlatlar tomonidan teng ravishda rioya qilinishi kerak. Shu bilan birga, har bir mamlakatning diplomatik protokoli o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Davlatlar unga ijtimoiy-iqtisodiy tizim, mafkura, milliy xususiyatlar va tarixiy an’analarga asoslanib, o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritishadi.

Hozirgi vaqtida yangi davlatlar tan olinganda, diplomatik aloqlar o‘rnatilganda, diplomatik vakolatxonalar rahbarlari tayinlanganda, ishonch yorliqlari topshirilganda, diplomatik tashriflar amalgalashirilganda, suhbatlar, muzokaralar olib borilayotganda, shartnomalar va bitimlar imzolanganda va boshqa hollarda diplomatik protokol normalariga qat’iy rioya qilish zarur. Keyingi yillarda xalqaro protokol amaliyotida kuzatilayotgan tendensiyalar hisobga olinib, protokol normalarini sodda va qulayroq qilishga harakat qilinmoqda. Xalqaro xushmuomjalik qoidalari majburiy emas. Ammo xalqaro protokol amaliyoti guvohlik berishicha, davlatlar va diplomatlar ularga rioya qilishga harakat qilishadi.

**DIPLOMATIK RANGLAR.** Diplomatik xizmat xodimlarining xizmat unvonlari. Diplomatik ranglar aksariyat davlatlarda mavjud. Ularning nomlari, darajalarga bo‘linishi va berish tartibi davlatning ichki qonunlari asosida belgilanadi. Diplomatik lavozimlar, ko‘pincha diplomatik ranglarga o‘xshash nomlarga ega bo‘ladi. Diplomatik ranglarni o‘rnatgan davlatlarning diplomatik vakolatxonalarida diplomatik lavozimlarni diplomatik ranglari bo‘lmagan shaxslar ham egallashi mumkin (masalan, harbiylar yoki maxsus attashelar).

O‘zbekiston Respublikasida diplomatik xodimlarga diplomatik ranglar 1992-yil 3-iyulda qabul qilingan 650-XII-sonli “O‘zbekiston Respublikasining diplomatiya xodimlari uchun diplomatiya daraja va martabalari belgilash to‘g‘risida”gi Qonunga binoan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasida quyidagi diplomatik martabalar – O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi vakolatxonalarining diplomatiya xodimlariga beriladigan alohida xizmat unvonlari belgilangan:

- 1) favqulodda va muxtor elchi;
- 2) birinchi darajali favqulodda va muxtor vakil;
- 3) ikkinchi darajali favqulodda va muxtor vakil;
- 4) birinchi darajali maslahatchi;
- 5) ikkinchi darajali maslahatchi;
- 6) birinchi darajali birinchi kotib;
- 7) ikkinchi darajali birinchi kotib;
- 8) birinchi darajali ikkinchi kotib;
- 9) ikkinchi darajali ikkinchi kotib;
- 10) uchinchi kotib;
- 11) attashe.

Yana ilovada (q.: “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimi xodimlarining diplomatik martabalari to‘g‘risidagi Nizom”)

**DIPLOMATIK TASHRIFLAR.** Diplomatik tashrif – diplomatik vakolatxonalar xodimlari vakolatxonalar joylashgan davlatlarning turli, xususan, rasmiy doiralari, shuningdek, mahalliy diplomatik korpus a‘zolari bilan xizmat aloqalarini o‘rnatish va

yuritish vositasi sifatida diplomatik xizmatning muhim va faol shakli hisoblanadi. Elchi ishonch yorlig'i topshirganidan so'ng hokimiyat vakillari, ishbilarmonlar va madaniyat jamoatchiligi namoyandalar, xorijiy davlatlar diplomatlari bilan tanishadi. Diplomatik tashrif joriy diplomatik xizmat davomida ish yuzasidan ham bo'lishi mumkin. Ushbu tashrifdan maqsad, yashab turgan mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini o'rganish, o'z davlatining tashqi va ichki siyosati masalalarini tushuntirishdan iborat.

**DIPLOMATIK TIL.** Diplomatik amaliyotda ishlatalidigan ibora bo'lib, diplomatik aloqalar olib boriladigan va diplomatik hujjatlar yoziladigan til nazarda tutiladi. Diplomatik til deganda yana umum qabul qilingan lug'atga kirgan (mas.: *agreman*, *ishonch yorliglari*, *dismisl*, *modus vivendi*, *status-kvo* kabi) termin va iboralar tushuniladi.

**DIPLOMATIK ETIKET.** Protokolning muhim qismi sifatida rasmiy shaxslarning turli tadbirlar chog'ida, xususan, muzokaralar, delegatsiya uchrashuvlari, tashriflar, suhbatlar, qabul marosimlari vaqtida amal qiladigan odob qoidalarini aniq belgilaydi va tartibga soladi.

Diplomatik etiket asosida mezbon davlatning urf-odatlari, an'analari, qonunlari va o'rnatilgan tartib-qoidalariga jiddiy rioya qilish yotadi. Aslida diplomatik etiket barcha diplomatlarga ham ta-alluqli umumfuqaro etiketi qoidalarini to'ldiradi, xolos.

**DIPLOMATIK QABULLAR.** Muhim voqeа va yubileyлarni nishonlash bahonasida mezbon davlat rahbariyati, diplomatik vakillar yoki mamlakatga kelgan xorijiy delegatsiyaga ehtirom ko'rsatish va mehmondo'stlikni namoyon qilish, shuningdek, diplomatik vakovlatxonaning o'z vazifasini amalga oshirish maqsadida o'tkazadigan rasmiy tadbirlari diplomatik qabullar deyiladi. Diplomatik qabullar turlari quyidagicha bo'ladi: "bir bokal shampan" nomli qabul 12.00 dan 13.00 gacha bo'ladi va stol atrofiga o'tirilmaydi, nonushta (lanch) 12.00 dan 15.00 gacha stol atrofida bo'ladi, choy 16.00 dan 18.00 gacha (odatda, ayollar uchun tashkil qilinadi) o'rindiq qat'iy belgilanmaydi; "kokteyl" yoki "a-lya furshet" 17.00 va 18.00 oralig'ida bosh-

lanib, ikki soat davom etadi, mehmonlar o'tqazilmaydi; tushlik qabul-lar ichida eng faxrli tur bo'lib, 19.00 dan 21.00 gacha boshlanadi va asosiy mehmon ketgunga qadar 2–2,5 soat davom etadi, mehmonlar o'tqaziladi; tushlik: bufet tushlikning bir turi sanalib, alohida stollarga 4–5 kishidan o'tqaziladi; kechki ovqat 21.00 da boshlanadi va asosiy mehmon ketgunga qadar davom etadi, stol atrofida o'tiriladi.

Diplomatik qabullarning turi uning qanday munosabat bilan uyushtirilayotganiga qarab tanlanadi. Ba'zan diplomatik qabullarda o'zaro kelishgan holda so'zga chiqish va qutlovlari bo'lishi mumkin.

**DIPLOMATIK HIMOYA.** Muayyan bir davlatning xalqaro huquq asosida diplomatik yo'llar bilan o'z fuqarolarini himoya bilan ta'minlashi yoki ularning xorijiy davlat tomonidan buzilgan huquq va manfaatlarini tiklashi.

Diplomatik himoyaning asosini chet el fuqarosiga yetkazilgan zararni qoplash maqsadida huquqlarini ta'minlash yoki tiklashdan iborat harakatlar tashkil etadi. O'z fuqarosiga diplomatik himoya ko'rsatayotgan davlat boshqa davlatga da'vo yoki yetkazilgan zararni qoplash uchun fuqarolar huquqlarini tiklash yoki ta'minlash to'g'risidagi e'tiroz bilan murojaat qiladi.

**DIPLOMATIK HUQUQ.** Tashqi aloqalardagi davlat organlari maqomi va vazifalariga tegishli xalqaro-huquqiy me'yorlar tizimidir (boshqacha qilib aytganda, davlatlararo munosabatlarni o'rnatish va amalga oshirishni muvofiqlashtiruvchi tartib). Diplomatik huquqqa diplomatik vakolatxonalar almashinuvi va ularning faoliyatlarini nati-jasida paydo bo'ladigan davlatlararo aloqalarni tartibga soluvchi me'yorlar, bir davlatdan boshqa davlatga maxsus missiyalarning yuborilishi, davlatlar vakolatxonalarining xalqaro tashkilotlarda va xalqaro tashkilotlarning u yoki bu davlatlar hududlarida faoliyat ko'rsatishi, shuningdek, xalqaro tashkilotlar, ularning mansabdor xodimlari va xizmatchilarining immunitetlari va imtiyozlariga tegishli me'yorlarni hisobga olish kiradi.

**DIPLOMATIYA.** (grek. *diploma* – to'plamoq, yig'moq) Davlatning tashqi siyosatini amalga oshirish, chet mamlakatlar bilan aloqa qilish sohasidagi faoliyati, noharbiy tadbirlar majmuidir. Diplo-

matiyaning asosiy vazifasi va mazmuni – davlatlar tomonidan tashqi siyosiy maqsadlarga diplomatik usul va vositalar bilan erishish. “Diplomatiya” atamasi “tashqi siyosat” tushunchasining sinonimi sifatida ham ishlatalishi mumkin.

Davlatning tashqi faoliyatini tinch yo‘l bilan amalga oshirish vositalari, metodlari va huquqiy shakllari majmui, ya’ni muayyan davlatning xalqaro munosabatlardagi o‘z manfaatlariga mos keladigan maqsad va vazifalarni amalga oshirishni ko‘zda tutadigan faoliyati diplomatiya deb ataladi. Adabiyotda diplomatiya ba’zan “tashqi munosabat haqidagi fan” yoki muzokaralar olib borish san’ati, deb ham ta’riflanadi.

Diplomatiya davlat rahbari, hukumat, tashqi aloqalar davlat organlari va bevosita diplomatlar tomonidan davlat va tashqi siyosating maqsad va vazifalarini amalga oshirish hamda xorijda mamalakat va unga mansub ayrim fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan rasmiy faoliyat shaklida amalga oshiriladi.

Xalqaro amaliyotda diplomatiyaning quyidagi shakllari mavjud:

1. Bir davlatning ikkinchi davlat hududida joylashgan diplomatik vakolatxonasi orqali doimiy asosda olib boriladigan ikki tomonlama diplomatiya.

2. Maxsus missiyalarni yuborish yo‘li bilan amalga oshiriladigan diplomatiya.

3. Xalqaro tashkilotlar qoshidagi doimiy vakolatxonalar va yuboriladigan delegatsiyalar orqali xalqaro tashkilotlar doirasida olib boriladigan diplomatiya.

Diplomatiyaga yana quyidagi ta’riflarni berish mumkin:

1. Davlatlarning tashqi siyosatini amalga oshirish vositasi, bu hal qilinadigan vazifalarning o‘ziga xos shartlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda qo‘llaniladigan amaliy chora-tadbirlar va usullar majmui.

2. Davlat, hukumat, maxsus organlar yoki davlat vakillarining tashqi siyosatni amalga oshirish bo‘yicha rasmiy faoliyati.

3. Davlatning, uning organlari va mansabdor shaxslarining ushbu davlatning huquq va manfaatlarini, uning jismoniy va yuridik shaxs-

larining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, xalqaro huquq tartiboti va qonuniyligini saqlash bo'yicha rasmiy faoliyati.

4. Davlat, hukumat va tashqi aloqalar maxsus organlari rahbarlarining davlat tashqi siyosatining maqsad va vazifalarini amalga oshirish, shuningdek, chet elda davlat huquq va manfaatlarini himoya qilishdagi asosiy faoliyati.

**DIPLOMATIYA, KO'P TOMONLAMA.** Bir necha davlat vakillari ishtirokidagi muzokara, konsultatsiya va b.lar o'tkazish orqali amalga oshiriladigan xalqaro hukumatlararo tashkilotlar ishi va konferensiyalar bilan bog'liq diplomatik faoliyat.

Ko'p tomonlama diplomatiyaning ahamiyati Ikkinchiji jahon urushidan so'ng BMT va bir qator hukumatlararo tashkilotlar tashkil etilishi natijasida kuchaydi. Ko'p tomonlama diplomatiyaning ken-gayishi davlatlararo muloqotlarning kuchayishi bilan bog'liq.

Ikki tomonlama diplomatiyaga nisbatan ko'p tomonlama diplomatiyaning bir qator o'ziga xos xususiyatlari bor: u ko'pchilik tomonidan muhokama qilinish, norasmiy uchrashuvlar va fikr almasishlar yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin; uning forumlari ishi, odatda, o'rnatilgan protsedura bilan muvofiqlashtiriladi, ular orqali qabul qilinadigan qarorlar esa rezolyutsiya, yakuniy hujjat, konvensiya, bayonnomma va b. ko'rinishida rasmiylashtiriladi. Keyingi yillarda butun yer yuzida tinchlikni saqlash yo'lidagi sa'y-haraktlarda ko'p tomonlama diplomatiyaning ahamiyati oshib bormoqda.

**DIPLOMATIYA, NORASMIY.** Diplomatiyaning haddan tashqari bandligi va xalqaro vaziyatning murakkablashishi nodavlat subyektlarning ichki va davlatlararo munosabatlarda tobora faol ishtirok etishiga olib kelmoqda. Gap turli xil gumanitar va nodavlat tashkilotlari, inson huquqlari guruhlari, vositachilik organlari, tinchlikni saqlash dasturlari, demokratiyani rivojlantirish loyihalari va boshqalar haqida ketmoqda. Ularning tinchlikni saqlashga qo'shgan hissasi aloqalarni faollashtirish, o'zaro tushunishni yaxshilash, zo'ravonlikni qoralash, vositachilik, yarashuv va h.k.dan iborat. Nodavlat faollar tinchlikka erishish, uni saqlash va mustahkamlash uchun bir qator amaliy vositalarni ishlab chiqqan.

Norasmiy diplomatiya yoki “ikkinchi yo‘lak” an’anaviy diplomatiyadan bir qancha jihatdan farq qiladi. Hukumat diplomatlari, asosan, nizoli tomonlarning asosan siyosiy va harbiy rahbarlari bilan munosabatda bo‘ladi. Bular o‘z holicha harakat qiluvchi va/yoki hukumatlar va muxolifat harakatlarining ichki kurashda ishtirok etadigan eng yuqori rahbarlari vakillaridir. O‘z navbatida, “ikkinchi yo‘lak” diplomatlari fuqarolik sohasiga ko‘proq e’tibor beradi. Ular ikkala tomonga ham foyda keltiradigan munosabatlarni rivojlantirishga intilib, umumiy fikr izlaydi. Aksariyat hollarda ular nizolarni hal qilish va tinchlikka erishish to ularning tub sabablari aniqlanma-guncha mumkin emas, degan qoidaga amal qiladi.

Rasmiy diplomatiya an’anaviy diplomatik, huquqiy, harbiy va iqtisodiy vositalardan foydalanadi. U dunyo muammolariga “foydalarni qisqartirish” tushunchasini qo‘llagan holda yuqorida pastga qarab murojaat qilishga intiladi. O‘z navbatida, “ikkinchi yo‘lak” diplomatlari tinchlikni pastdan yuqoriga ko‘tarish muhimligini ta‘kidlamoqda. Ular tinchlikka erishish uchun mojaroni tashqi yoki elitist formulani kiritish orqali hal qilishning iloji yo‘qligi, mojaro u vujudga kelgan jamiyatga tegishli va uni hal qilish ushbu jamiyat ichida bo‘lishi kerak degan xulosadan kelib chiqadi.

**DIPLOMATIYA (SI), DALA.** Dala diplomatiyasi nohukumat diplomatiyaning yaqinda paydo bo‘lgan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Unga voqeа sodir bo‘lgan yerda bor bo‘lish, mojarolarni o‘zgartirish g‘oyasiga qat‘iy sodiqlik, ko‘p darajali yondashuv, haqiqatni aniqlash istagi, muammolarni keng miqyosda ko‘rib chiqish, mojaroning chuqur qatlamlariga e’tibor berish, qarama-qarshiliklarning oldini olishning integral siyosatiga urg‘u berish va turli ziddiyatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tan olish xosdir.

Dala diplomatlari o‘z faoliyatiga rasmiy diplomatiya tomonidan parallel ravishda olib borilayotgan tinchlikparvar harakatlarga muqobil sifatida qaramaydi. Ular har ikkala yo‘nalishni yaxshiroq muvofiqlashtirish tarafidoridir. Jumladan, bunday diplomatlar to‘qnashuvlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tan olish zarurligi va aksariyat to‘qnashuvlarni faqat ichki nizolarga ajratib bo‘lmasligi-

ni ta'kidlaydi. Ba'zi vaqtarda ular mintaqaviy yoki global mojarolar ta'sirida bo'lgan yoki ta'sirlangan. Dala diplomatiyasi joylarda tinchlikka xizmat qiluvchi odamlar tajribasidan kelib chiqqan yangi paradigma hisoblanadi. Hozirgi paytda bu idealistik bo'lib tuyulishi mumkin, ammo kelajakda, ehtimol, aynan shu yo'ldan borish kerak bo'ladi. BMT bunday yondashuvning asosiy prinsiplarining to'g'rilingini tan oladi va tinchlikni mustahkamlash uchun kurashni qo'llab-quvvatlaydigan vakolatxonalar ochmoqda. Ular anchadan buyon Liberiya, Markaziy Afrika Respublikasi va Gvineya-Bisauda faoliyat olib bormoqda va yaqin orada Tojikistonda ham shunday muassasa ochilishi kutilmoqda.

**DIPLOMATIYA, PREVENTIV.** Preventiv, ya'ni (voqeahodisa, jarayonning) oldini olish diplomatiyasi deganda Tomonlar orasida kelishmovchiliklar kelib chiqishining oldini olishga, yuzaga kelib bo'lgan janjalning kuchayib, ixtilofga aylanib ketishiغا to'sqinlik qilishga, shuningdek, mavjud ixtilofning tarqalishini cheklashga qaratilgan diplomatik harakatlar tushuniladi.

Sarf qilinayotgan manbalar miqdorini kamaytirish va xalqaro mojarolarni hal qilish samaradorligini oshirish uchun yangi konsepsiylar va usullar ishlab chiqilmoqda. Shunday konsepsiyalardan biri ixtiloflarni oldindan ogohlantirishdir.

"Preventiv diplomatiya" iborasi sovuq urush davrida BMT tomonidan ishlatila boshlagan. 1950-yillarning oxiri va 1960-yillarning boshida tashkilot Bosh kotibi Dag Xammarsheld bu iboradan ikki qutbli dunyo sharoitida tashkilot vazifalarini aniqlash uchun foydalana boshladi. 1995-yilda BMTning 50 yilligi munosabati bilan Butros Butros Goli "Tinchlik uchun kun tartibi"ga Qo'shimcha taqdim etdi. Unda oldini olish diplomatiyasi va tinchlikni saqlash muammolari to'g'risida gapirib, yaqinlashib kelayotgan mojarolar haqida erta ogohlantirishni ta'minlash uchun butun dunyodagi siyosiy jarayonlarni kuzatib boradigan Siyosiy ishlar bo'limini yaratganini aytди. Ammo, uning so'zlariga ko'ra, bunday sa'y-harakatlar jiddiy to'sqlarga duch kelmoqda. Ularning eng asosiysi – bu BMTning ehtimoliy tashabbuslari to'g'risida ma'lumot, tahliliy ko'nik-

ma yoki g‘oyalarning yetishmasligi emas, balki mojarlo qilayotgan u yoki boshqa tomonning BMTdan yordam olish istagi yo‘qligi.

Bosh kotib har yili o‘zining yillik ma’ruzasida preventiv diplomatiya va tinchlikni saqlash masalalariga ustuvor ahamiyat berishini ta’kidlaydi. 1996-yilda Butros Butros Goli “preventiv diplomatiya” iborasini nafaqat diplomatik choralar, balki preventiv joylashtirish, qurolsizlantirish, insonparvarlik harakatlari va tinchlikni mustahkamlash kabi boshqa tadbirlarni ham qamrab oluvchi “preventiv harakatlar” termini bilan almashtirish tarafдори ekanini ma’lum qildi.

**DIPLOMATIYA(SI), SUV.** Suv diplomatiyasining mazmuни, diplomatiyaning bir qismi sifatida, uning suv sohasiga taalluqli ekani bilan izohlanishi mumkin. “Suv diplomatiyasi” termini “suv sohasidagi diplomatik faoliyat” degan ma’noni anglatadi. Suv xo‘jaligini boshqarishning o‘ziga xos xususiyati suv diplomatiyasi institutining paydo bo‘lishiga olib keldi, u tashqi siyosat idoralariга davlatning tashqi siyosatidagi suv masalalarini hal qilishda yordam beradi. Shunday qilib, agar maxsus adabiyotlarda “zamonaviy diplomatiya – davlatning tashqi siyosatini amalga oshirish vositasi” degan ta’rif ishlatilgan bo‘lsa, “zamonaviy suv diplomatiyasi” deganda “davlatning suv sohasidagi (yoki “suv xo‘jaligi sohasidagi”, “suv muammolari bo‘yicha”) tashqi siyosatini amalga oshirishi”ni tushunish mumkin.

**DIPLOMATLARNING XALQARO HIMOYASI.** Diplomatlar va boshqa toifadagi shaxslarga qarshi bo‘ladigan jinoyatning oldini olish va jazolash maqsadida xalqaro-huquqiy me’yorlar, asosan, shartnomalarda ko‘zda tutilgan chora-tadbirlar majmui. Diplomatik agentlarga qarshi uyuştiriladigan jinoyatning oldini olish va jazolash to‘g‘risidagi BMT Bosh Assambleyasining 1973-yilning 14-dekabrida qabul qilingan Konvensiyasi diplomatlarning xalqaro-huquqiy himoyasini belgilovchi va xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslarga tegishli asosiy hujjat hisoblanadi.

Konvensiyaga binoan xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslar tarkibiga chet davlatlarda bo‘lish vaqtida shaxsiga, erkinligiga va qadr-qimmatiga qilingan har bir tajovuzdan himoya qilinish

huquqiga ega davlat va hukumat rahbarlari, Tashqi ishlar vazirlari va ularning oila a'zolari, shuningdek, davlatning boshqa vakillari yoki mansabdar shaxslari, hukumatlararo xalqaro tashkilotlar mansabdar shaxslari yoki agentlari kiradi. Bunday shaxslarga ular bilan birga istiqomat qiladigan oila a'zolari ham tenglashtiriladi.

Konvensiya ishtirokchi-davlatlarga o'z ichki qonunchiligiga muvofiq qotillik, odam o'g'irlash, shaxsga bo'lgan boshqa tajovuzlar, xavf-xatarlar, rasmiy yashash uylariga, transport vositalariga zo'ravonlik bilan hujum qilish, shunga o'xshash hujumlarda qatnashishni jinoyat sifatida ko'rib chiqib, jinoyatning og'irligiga qarab jazo belgilash majburiyatini yuklaydi. Konvensiyaning bir qator qonunlari yuqorida sanalgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni tutib berishga bag'ishlangan.

**DISKRIMINATSIYA.** (lot. *discriminatio* – ajrataman, bo'lamан). Fuqarolarning, ijtimoiy guruhlarning, tashkilotlarning, milliy subyektlarning huquqlarini qasddan mahrum qilish yoki cheklash, siyosiy kamsitish. Diskriminatsiya irqiy, milliy yoki davlatga mansubligi, mulkiy holati, siyosiy yoki diniy e'tiqodi asosida bo'lishi mumkin. Kamsitishning eng keng tarqalgan turlaridan biri – bu ovoz berish huquqidan mahrum qilish, fuqarolikni rad etish, kirish yoki chiqish vizalari, kitoblar, maqolalar, ommaviy nutqlarni nashr etishni taqiqlash, ishdan bo'shatish va boshqalar.

**DISMISL.** (ingl. *dismissal* – ishdan ketish, iste'fo, o'zidan nari qilish) Tashqi ishlar idorasining xorijdagi diplomatik personal a'zosi ni xususiy shaxs, deb e'lon qilinishi, diplomatik imtiyoz va immunitetining to'xtatilishi. Dismislning yuridik oqibati bo'lib tegishli shaxsga nisbatan u yashayotgan davlat tomonidan oddiy xorijiy fuqarolarga nisbatan qo'llaniladigan hajmda davlat yurisdiksiyasi ning qo'llanishi hisoblanadi. Ko'p hollarda dismisldan emas, balki uni qo'llash qo'rquvidan foydalanadilar. Bunday chora persona non grata, ya'ni nomaqbul shaxs deb e'lon qilingan diplomatning uzrli sababsiz shu davlatda qolishi hollarida qo'llanadi. Diplomatlar vatanga qaytish o'rniqa siyosiy boshpana so'rab, o'sha davlatda qolganda oddiy fuqarolar holatiga o'tadilar.

**DOMINIONLAR.** (ing. *dominion* lot. *dominium*dan – egalik) Britaniya imperiyasi tarkibidagi deyarli mustaqil davlat (hozir – Britaniya Hamdo’sligi tarkibida) bo‘lib, general-gubernator tomonidan boshqariladi va Britaniya monarxini davlat boshlig‘i deb tan oladi.

“Dominion” ta’rifi 1926-yilda bo‘lib o‘tgan imperatorlik konferensiyasida Buyuk Britaniya Tashqi ishlar vaziri, Konservativ partiya rahbari, Artur Jeyms Balfur tomonidan e’lon qilingan edi. 1931-yil 11-dekabrda u Vestminster statutida quyidagi mazmunda tasdiqlandi: “Britaniya Imperiyasining muxtor hamjamiyatlari, maqomlari teng bo‘lgan holda, ichki yoki tashqi siyosatlarining har qanday sohasida bir-birlariga bo‘ysunmaydilar, lekin shu bilan birga, o‘zlarining tojga umumiy sodiqliklari bilan birlashganlar va Britaniya Millatlar Hamdo’sligi erkin birlashmalari a’zolarini tashkil qiladilar”. Statutga ko‘ra, “dominion”ga quyidagi hududlar kirgan: Kanada dominioni, Avstraliya Ittifoqi, Yangi Zelandiya dominioni, Janubiy Afrika Ittifoqi, Irlandiya ozod davlati va Nyufaundlend dominioni.

Birinchi dominionlar ancha oldin paydo bo‘lgan – Kanada (1867), Avstraliya Ittifoqi (1901), Yangi Zelandiya va Nyufaundlend (1907), Janubiy Afrika Ittifoqi (1910) va Irlandiya (1921). Ushbu maqom, qoida tariqasida, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga berilgan bo‘lib, unda aholining ko‘p qismi Yevropadan kelgan muhajirlar bo‘lgan, bu metropolianing siyosatiga ko‘proq sodiqlikni kafolatlagan.

1931-yilda Britaniya Hamdo’sligi (1946-yildan keyin – Millatlar Hamdo’sligi) maqomi yuridik jihatdan qonuniylashtirilganidan so‘ng, unga a’zo barcha davlatlar Buyuk Britaniyaning (mustamlaka va qaram hududlardan tashqari) dominionlari deb tan olindi. Ammo, 1949-yilda Hindiston respublika boshqaruv shaklini qabul qilganidan va shunga mos ravishda Britaniya monarxini davlat rahbari sifatida tan olishdan bosh tortganidan so‘ng (Hamdo’slikka a’zolikni saqlab qolgan holda) “dominion” atamasi ishlatilmay qoldi. Buyuk Britaniya qirolichasini haligacha davlat rahbari sifatida tan olgan (Kanada, Yangi Zelandiya va boshqalar) va Hamdo’slikka a’zo bo‘lgan Buyuk Britaniyaning sobiq dominionlari va mustamlakalari endi “Hamdo’slik qirolliklari” (ingl. *Commonwealth realms*), deb nomlanmoqda.

**DUAYEN (DIP. KORPUSDA).** (fran. *doyen* – oqsoqol) Diplomatik korpus duayeni *mezbon mamlakat*dagи diplomatik korpus oqsoqoli bo‘lib, barcha akkreditatsiyadan o‘tgan diplomatlar vakili hisoblanadi; u oliv diplomatik toifaga (klassga) ega bo‘lib, *mezbon mamlakatda* hammadan avval akkreditatsiyadan o‘tgan bo‘ladi.

Duayen vazifalari aksariyat hollarda *protokol xarakteriga* ega bo‘ladi. (q.: *Protokol*) U qutlov yoki ta’ziya bildirish marosimlarida dipkorpus nomidan so‘zga chiqadi, protokol tadbirlarida dipkorpusga rahbarlik qiladi, boshqa missiyalar rahbarlari roziligi bilan mezbon mamlakat tashqi ishlar idorasi bilan diplomatik imtiyoz va daxlsizlik masalalari bo‘yicha muzokaralar o‘tkazishi mumkin. Duayen o‘zining yangi kelgan hamkasblariga mezbon mamlakat protokoli masalalari bo‘yicha maslahatlar beradi. Yangi tayinlangan elchi o‘z xizmat joyiga kelishi bilan odatda birinchi *iltifot tashrifini* duayen huzuriga qiladi, undan keyingina boshqa elchilarni ziyorat qilishi mumkin. U har xil marosimlarda dipkorpus nomidan so‘zga chiqadi, tabrik so‘zları aytadi va ta’ziya bildiradi. Bu ma’noda duayen o‘ta ehtiyyotkor va mas’uliyatli bo‘lishi kerak. Duayen turli qarashlarga ega bo‘lgan barcha hamkasblarining istak-xohishini odob bilan ifoda etishi lozim. Shu bilan birga, u o‘z hukumatining vakili ekanligini va uning manfaatlarini, tashqi siyosat prinsiplarini vakil sifatida o‘z faoliyatida aks ettirishni unutmasligi lozim. Duayen bo‘lish elchiga mezbon davlatda diplomatik vakolatxona rahbari maqomiga qaraganda yuqoriqoq, foydaliroq mavqega ega bo‘lish imkonini tug‘diradi.

Diplomatik korpus nomidan so‘zga chiqish uning hukumat doirasida ham, jamoatchilik orasida ham obro‘yini oshiradi. *Mezbon mamlakat* bilan kengroq aloqalar o‘rnatish va qo‘llab turish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yuridik nuqtai nazardan, duayenning mezbon davlat hukumatiga diplomatik korpus nomidan diplomatik imtiyozlar bilan bog‘liq barcha masalalarni ko‘tarib chiqishga haqli ekanligi haqidagi mavjud fikr asossizdir, chunki diplomatik korpus yuridik shaxs yoki siyosiy uyushma hisoblanmaydi.

*Mezbon mamlakat* hukumati, ko‘pincha duayen orqali butun diplomatik korpusga tegishli axborotni tarqatadi. Bunday holatda duayen ushbu axborot har bir missiyaga yetib borishini nazorat qilishi kerak. Duayenlikka har doim oliv toifaga ega diplomatik vakil (elchi, nunsiy) tayinlanadi. O‘rnashib qolgan amaliyotga ko‘ra diplomatik korpus bo‘yicha hamkasblar orasida o‘z ishonch yorliqlarini birinchi bo‘lib topshirgan vakolatxona rahbari duayen hisoblanadi. Ilgariroq bir qator katolik mamlakatlarda Vatikan vakili – nunsiy duayen hisoblangan.

Shunday holatlar ham bo‘ladiki, ba’zi mamlakatlar duayen vakiли bo‘lgan mamlakat bilan diplomatik munosabatlarga ega bo‘lmaydi. Bunday hollarda ular undan keyingi maqomda turadigan elchi bilan aloqada bo‘ladilar. Afrikaning ayrim mamlakatlarida duayen bo‘lishning boshqa tartiblari bor. Mas., Togoda ishlash muddatidan qat’i nazar, GFR elchisi, Burkina-Fasoda esa qachon vazifasiga kirishganidan qat’i nazar, faqat Afrika davlatlaridan birortasining elchisi shu lavozimni egallaydi.

**DUALISTIK MONARXIYA.** Konstitutsiyaviy monarxiyaning bir turi, bunda monarx davlat boshlig‘i bo‘lishi bilan birga, o‘z qo‘lida ijro etuvchi hokimiyatni ham to‘playdi va u parlamentga emas, balki monarxga hisobdor bo‘lgan hukumatni shakllantiradi, qonun chiqaruvchi hokimiyat esa yuridik jihatdan parlamentga tegishli bo‘ladi. Hozirda dualistik monarxiyaning zamonaviy, ya’ni o‘zgargan shakli Marokash, Iordaniya, Tayland, Nepal va Malayziyada saqlangan, chunki bugunga kelib, bunday boshqaruvning o‘tmishdagi an’anaviy shakli o‘z umrini yashab bo‘lgan.

**DUALISTIK RESPUBLIKA** yoki aralash tipdagи respublika (lot. *dialis* – ikki xil). Bunday davlat boshqaruvi shaklida hukumat faqat prezident oldida o‘z faoliyati yuzasidan hisob berib turadi, parlament oldida mas’ul emas. Bu shundan kelib chiqib belgilanganiki, parlament hukumat tarkibini tuzmaydi va unga ishonchsizlik huquqiga ega emas. Chunki, qonunchilik va ijro etuvchi hokimiyat prezidentlik respublikasida o‘z vakolatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri oлади. Prezident ijroiya hokimiyat boshlig‘i sifatida xalq tomonidan

saylanadi va natijada davlat boshlig‘i funksiyasini mustaqil amalga oshirish huquqiga ega bo‘ladi. Demak, dualistik respublika shaklidagi davlat boshqaruvida prezident davlat boshlig‘i funksiyasini amalga oshira borib, Bosh vazir lavozimini ham egallaydi. Ushbu davlat boshqaruvi shaklining asosiy belgisi – hukumatning o‘z siyosiy faoliyati to‘g‘risida parlament oldida javobgarligining belgilanmaganligida.

## E

**EKZEKVATURA.** (lot. *exequare* – aniqlash) Qabul qiluvchi tomon hukumati chet ellik vakilni konsul (mustaqil konsullik muassasa rahbari) sifatida tan olayotganini tasdiqlovchi rasmiy hujjat ekzekvatura deyiladi.

Ekzekvaturani berish bilan konsulning mezbon mamlakatda ishlashi uchun akkreditatsiyadan o‘tkazish jarayoni tugaydi. Ekzekvatura konsulda uni yuborgan davlat tomonidan berilgan konsullik patenti borligini anglatadi. Ekzekvatura matnida konsulning vakolatlari amal qiluvchi konsullik okrugi chegaralari va tarkibi aniqlanishi mumkin (bir qator mamlakatlarda konsullik okrugi chegaralari alohida diplomatik yozishmada belgilanadi).

Ekzekvatura mezbon davlat rahbari (yoki mahalliy amaliyotdan kelib chiqib, hukumat boshlig‘i, tashqi ishlar vaziri) imzosi va muhr bilan tasdiqlanadi.

Diplomatik amaliyotga ko‘ra, ekzekvatura berish rad etilgan taqdirda, mezbon davlat bunday qarorga kelishi sabablarini (konsuni) tayinlayotgan davlatga ma’lum qilishga majbur emas.

**EKSPATRIATSIYA.** (lot. *yex – dan – va patria* – Vatan, yurt) Shaxsning mamlakat (uning geografik yoki madaniy vatani) dan vaqtincha yoki doimiy chiqarib yuborilishi, odatda, fuqarolikdan mahrum etilish bilan bog‘liq bo‘ladi. Xalqaro ommaviy huquqda ekspatritsiya deganda, shuningdek, shaxsning iltimosiga binoan fuqaroligining bekor qilinishi tushuniladi. Ekspatriatsiyaga uchragan odamni ekspatriant – musofir deyiladi.

**EKSTERRITORIALLIK.** (lot. *yex* – dan, *territorialis* – hududga aloqador) O‘z mamlakati qonunlariga so‘zsiz bo‘ysunish va xorijiy davlat yurisdiksiyasidan to‘liq immunitetga ega bo‘lish. Hozirgi zamон xalqaro huquqi nuqtai nazaridan eksterritoriallik termini eskirgan, kamdan-kam hollarda ishlatalishi mumkin. Ilgari bu ibora xorijiy diplomat va diplomatik vakolatxonalar statusini baholashda qo‘llangan.

**EKSTRADITSIYA (JINOYATCHILARNI TOPSHIRISH).** Tegishli davlatlar o‘rtasida erishilgan o‘zaro huquqiy yordam ko‘rsatish kelishuviga binoan xalqaro miqyosdagi jinoyatni amalga oshirgan jismoniy shaxsni xalqaro huquq normalariga asoslanib, javobgarlikka tortish yoki shu shaxsga nisbatan chiqqan hukmni ijro etish maqsadida ikkinchi davlatga topshirish.

Diplomatik immunitet va imtiyozlardan foydalanuvchi shaxslarga nisbatan ekstraditsiya shuni bildiradiki, mezbon davlat hududida jinoyat qilgan diplomat o‘z mamlakatiga chiqarilib yuborilishi va o‘z davlati qonunlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi kerak.

2001-yil 8-mayda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashining 207-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida chet davlatlarning diplomatik va konsullik muassasalari” deb nomlangan Nizomning 3.15-moddasida: “diplomatik himoyadan foydalanuvchi shaxslar, agar akkreditatsiya qilingan davlatning bunga aniq ifodalangan roziligi bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasiga tortilishi mumkin”. Bu shuni anglatadiki, akkreditatsiya qilingan davlat rozilik bermasa, ularni ekstraditsiya qilishga to‘g‘ri keladi.

**ELCHI.** Elchi – diplomatik vakolatxonaning protokol jihatidan yuqori darajali rahbari.

“Elchi” atamasi, eng avvalo, diplomatik vakolatxonalar bilan almashadigan davlatlar kelishuvi bilan belgilanadigan sinflar ichidan xalqaro an‘analar tan olgan, *Diplomatik munosabatlar to‘g‘risidagi 1961-yil Vena konvensiyasi* bilan tasdiqlangan, diplomatik vakolatxona rahbarlarini tanlash yo‘li bilan tayinlangan diplomatik vakolatxonaning eng yuqori darajali rahbarini anglatadi. Rasmiy nomla-

nishi – Favqulodda va Muxtor Elchi. Elchi davlat rahbari qoshida akkreditatsiya qilinadi.

Elchining asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Diplomatik siyosatning ishlab chiqilishi;
2. Qabul qilayotgan davlat hukumatiga ikki tomon uchun umumiyl bo‘lgan manfaatlар va umumiyl siyosatlarga doir o‘z hukumatining fikrlarini yetkazish;
3. Siyosiy va iqtisodiy xarakterdagi hodisalar to‘g‘risida o‘z vazirligiga axborot berish;
4. Xizmat qilayotgan davlatning milliy hokimiyat manbalari, nufuzli kishilarini to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish;
5. O‘z davlatining obro‘yini mustahkamlash uchun lozim bo‘lgan faoliyat olib borish.

O‘zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonasi rahbarini tayinlash marosimi “O‘zbekiston Respublikasida va xorijiy davlatlarda diplomatik vakolatxona rahbarlarini tayinlash va chiqirib olish tartibi haqida”gi Qonun bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunga muvofiq, O‘zbekistondagi diplomatik vakolatxona rahbari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan tayinlanadi, ushbu lavozimga nomzod esa Tashqi ishlar vazirligi tomonidan manfaatdor tashkilotlar bilan kelishilgan holda kiritiladi.

Diplomatik vakolatxona rahbarini tayinlash marosimi to‘rt bosqichdan iborat: agreman talabnomasi, lavozimga tayinlanish, tayinlangan davlatga kelish, ishonch yorlig‘ini topshirgandan so‘ng lavozimni egallashga rasmiy kirishish.

Favqulodda va Muxtor elchi unvoni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni asosida beriladi. 2003-yil 24-aprelda Respublika Konstitutsiyasiga kiritilgan o‘zgartirishlarga binoan (93-modda, 6-band) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash uchun nomzodlarini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi. Senat rozilik bergandan so‘ng, elchini respublika Prezidenti tayinlaydi. Elchi tayinlangan mamlakatga jo‘nab ketgunga qadar boradigan davlat rahbariga topshirish uchun Prezident tomonidan imzolangan ishonch yorlig‘i tayyorlanadi.

**ELCHILAR KONFERENSIYASI.** Muayyan xalqaro masalani yoki muammolarni hal qilish uchun u yoki bu davlatning poytaxtida akkreditatsiyadan o'tgan bir qator davlatlar elchilarining vaqtincha uchrashuvi. Tarixda bir necha elchilar konferensiyasi ma'lum, masalan Parij va Vena shaharlarida Napoleon urushlari tugaganidan keyin o'tgan uchrashuv, Qrim urushi davrida Veneda o'tkazilgan konferensiya, Yunon-turk mojarosida vositachilik bilan shug'ullangan Berlin konferensiyasi, 1913-yil Londondagi Albaniya masalasini hal qilish uchrashuvlarini eslash mumkin. Birroq, zamонавиый diplomatiyada elchilar konferensiyasi termini, odatta, Versal tinchlik shartnomasini amalga oshirish vaqtida yuzaga kelgan amaliy masalalarni ko'rib chiqish uchun 1919-yil Antanta Oliy Kengash qarori bilan tashkil etilgan organini ham anglatadi.

**ELCHILIK.** Biror davlatga boshqa davlat tomonidan maxsus topshiriq bilan yuborilgan delegatsiya, missiya.

**ELCHIXONA.** Elchixonona – bu bir davlatning chet davlatdagি Favqulodda va Muxtor elchi boshchiligidagi eng yuqori darajadagi diplomatik vakolatxonasi (qabul qiluvchi davlat hududida akkreditatsiya qilingan davlatning organi). Elchixonona xodimlari turli darajalarga ega bo'ladi va ularning maqomlari turli davatlarda turlicha bo'ladi.

Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi 1961 yil Vena konvensiyasi hamda xalqaro huquq normalari va qoidalariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining diplomatiya xodimlari uchun quyidagi diplomatiya martabalari – O'zbekiston Respublikasining chet davatlardagi vakolatxonalari diplomatiya xodimlariga beriladigan alohida xizmat unvonlari belgilangan:

- Favqulodda va Muxtor Elchi;
- Birinchi darajali Favqulodda va Muxtor vakil;
- Ikkinci darajali Favqulodda va Muxtor vakil;
- Birinchi darajali maslahatchi;
- Ikkinci darajali maslahatchi;
- Birinchi darajali birinchi kotib;
- Ikkinci darajali birinchi kotib;

- Birinchi darajali ikkinchi kotib;
- Ikkinci darajali ikkinchi kotib;
- Uchinchi kotib;
- Attashe.

Favqulodda va Muxtor Elchi, birinchi va ikkinchi darajali Favqulodda va Muxtor vakil martabalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari bilan beriladi. Ana shu masalalar yuzasidan takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri kiritadi.

Boshqa diplomatiya martabalari O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri buyrug‘i bilan beriladi.

Elchi o‘zi faoliyat yuritayotgan davlatda nafaqat o‘z davlatining, balki bevosita davlat rahbarining vakili hisoblanadi va zarur deb hisoblagan paytida o‘zi faoliyat yuritayotgan davlat rahbari qabulini so‘rashi mumkin.

Elchilarga “Favqulodda va Muxtor” atamasi qo‘shilishi tarixiy an’analalar bilan bog‘liq. Gap shundaki, qadimda favqulodda vaziyatlarda boshqa davlatlarga elchilar yuborilgan va ular muayyan masalalarnigina hal qilishgan. Muxtor, ya’ni doimiy elchilar esa boshqa davlatlar hududida doimiy asosda faoliyat olib borishgan. Hozirgi kunda aksariyat davlatlar elchilari har ikki maqomni o‘zlarida saqlaydi. (q.: *Dip. vakolatxona*)

**ELCHIXONA AN’ANASI.** Diplomatik huquqning birinchi manbalari: elchilar daxlsizligi, ularga elchilik faoliyatini amalga oshirishda yordam berish an’analari qadimdan mavjud bo‘lgan. Keyinchalik bu an’analarning barchasi davlatlarning ikki tomonlama shartnomalari va ko‘p tomonlama rasmiy hujjatlarida ta’riflangan. Bunday an’analalar Qadimgi Gretsiya, Qadimgi Rim, Mesopotamiya, Hindiston, keyinchalik feodal Yevropa diplomatik amaliyotida mavjud bo‘lgan.

**ELCHIXONA HUQUQI.** Chet davlatlardagi doimiy diplomatik vakolatxonalar va ularning xodimlarining faoliyati, haq-huquqlarini muvofiqlashtiruvchi xalqaro huquq prinsiplari va me’yorlari birligi. Elchi huquqi diplomatik huquqning bir qismini tashkil qiladi.

Diplomatik aloqalar uchun zarur muayyan yuridik qonunlar yig‘indisi sifatida, elchixona huquqi davlatlar o‘zлarni xalqaro munosabatlар qatnashchisi ekanligini va ular o‘rtasidagi aloqalar zarurligini anglaganlardan so‘ng paydo bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Ungacha elchixonalar mavjud bo‘lgan bo‘lsa ham, ular to‘g‘risida huquqiy institut sifatida gapirish mumkin emas.

Hozirgi kunda elchixona huquqining asosiy manbasi bo‘lib ko‘p tomonlama xalqaro shartnomalar hisoblanadi. Elchi huquqining rasmiy kodifikatsiyasiga birinchi urinishlar bo‘lib Vena (1815) va Aaxen (1815) kongresslari qarorlari, diplomatik vakolatxona rahbarlari ning sinflarini o‘rnatalishi hisoblanadi. Elchixona huquqining ayrim masalalari ba’zi bir mintaqaviy bitimlarda, masalan 1928-yildagi diplomatik amaldorlar to‘g‘risidagi Gavana Konvensiyasida tartibga solingan. Elchixona huquqi *Diplomatik munosabatlar to‘g‘risidagi 1961-yil Vena konvensiyasida* to‘la ravishda mustahkamlangan.

Elchi huquqining rivojlanishida muhim rolni davlatning ichki qonunlari o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasida 2001-yil 8-mayda qabul qilingan “*O‘zbekiston Respublikasidagi diplomatik vakolatxonalar va konsul muassasalari to‘g‘risida*”gi Qonun amalda qo‘llanmoqda.

**ELCHIXONANING KONSULLIK BO‘LIMI.** Elchixona qoshida ta’sis etilgan bo‘lim. Mazkur bo‘lim mezbon davlat poytaxtida yoki alohida konsullik muassasasi tashkil etilmagan ayrim qismlarida konsullik vazifalarni amalga oshiradi.

Konsullik bo‘limi ishlarini bajarish uchun elchixonaning diplomatik va ma’muriy-texnik xodimlari ajratiladi. Ular ham elchixonaning xodimlari sifatida o‘z statuslarini saqlaydilar. (q.: *Konsullik*)

**EMBARGO.** (ispan tilidan *embargo* hibsga olish, taqiqlash, *embargar* – olib qo‘yish, embargo; to‘sqinlik qilmoq, xalaqit bermoq, lot. *imbarricare* – monelik qilish, xalaqit qilish)

1. Davlat tomonidan mamlakatga boshqa mamlakatlarning til-la va xorijiy valyuta, ma’lum turdagи mahsulotlar – qurol-asлаha, zamonaviy texnologiya va boshqalar olib kirishi hamda olib chiqib ketishiga taqiq qo‘yish.

2. Davlat hokimiyati tomonidan o‘z mamlakati bandargohlariga boshqa mamlakatlarga tegishli kemalarning kirishini va o‘z portlaridan boshqa mamlakatlar kemalarining chiqishini taqiqlashi; BMT yoki boshqa davlatlararo birlashma qaroriga ko‘ra biror mamlakatga nisbatan BMT Nizomini buzgani yoki boshqa noo‘rin xatti-harakatlari uchun repressiv chora sifatida savdoni qisman yoki to‘la to‘xtatish.

**EMIGRANT.** (fran. *émigré*) Fransuz tilidan kirgan termin bo‘lib, o‘z mamlakatidan chiqarib yuborilgan shaxsni anglatadi. Bu holatning sabablari turlicha bo‘lishi mumkin, ammo aksariyat holdarda xorijga ketishga siyosiy yoki diniy e’tiqod sababchi bo‘ladi.

**EMISSAR.** (lot. *emissarius* – elchi, vakil) Davlat, siyosiy tashkilot yoki maxsus xizmatlarning boshqa mamlakatlarga turli vazifalarni (asosan maxfiy) bajarish uchun yuboradigan maxsus vakili. Odatda, vakilning vazifasi rasmiy tusda bo‘lmaydi. Hozirgi vaqtida emissarlarni ko‘pincha hakamlik sudyalari deb tushuniladi.

### **ESDALIK YOZUVI, ESLATMA.**

1. Shaxsan qilingan og‘zaki murojaat va iltimosdan so‘ng (uning ahamiyatini kuchaytirish, noto‘g‘ri talqin qilishning oldini olish uchun) yoki so‘rovga javob sifatida yoziladi.

2. Kuryer orqali, tashrif qog‘ozi yoki boshqa nota bilan birga topshiriladi.

U, odatda, shaxsi ko‘rsatilmagan holda tuziladi, unda na muqaddima, na xulosa bo‘lmaydi, ammo “Shaxsiy yozuv” sarlavhasi mavjud bo‘ladi, u muhrlanmaydi, sana va joyi ko‘rsatilmaydi. Ko‘pincha kundalik masalalar o‘rin oladi.

# F

**FAVQULODDA ELCHIXONA (FAVQULODDA ELCHILIK).** Boshqa davlatga uning taklifiga binoan mamlakat mustaqilligining e'lon qilinishi, yangi tayinlangan prezidentning o'z lavozi-mini egallashi (monarxiya tuzumidagi davlatlarda davlat rahbariga toj kiydirilishi), mamlakatning milliy bayramiga aylangan yubiley tantanalarida qatnashish uchun yuboriladi. Favqulodda elchilik vafot etgan davlat rahbari va boshqa yuqori mansabdar shaxslarning dafn etish marosimlarida qatnashish uchun ham yuboriladi. Hozirgi kun xalqaro amaliyotida favqulodda elchilikni ko'proq maxsus hukumat delegatsiyasi deb ataladi.

Ba'zan favqulodda elchilik vazifalari ushbu mamlakatda doimiy asosda faoliyat ko'rsatayotgan elchixona zimmasiga yuklanadi.

Bir qator holatlarda favqulodda elchilik (maxsus hukumat delegatsiyasi), agar mahalliy tartib talab qilsa, mezbon davlat rahbariga topshirish uchun ishonch yorlig'i bilan ta'minlanadi.

**FLAGSHTOK.** (niderl. *Vlag bayroq + stok yog'och*) Bayroq yoki bayroqcha osish uchun metal, yog'och yoki plastik materialdan yasalgan tik – vertikal moslama.

**FORIN OFFIS.** Tashqi ishlar va hamdo'stlik masalalari bo'yicha vazirlik (ing. *Foreign and Commonwealth Office*; norasmiy: *Foreign Office*; ingliz tashqi ishlar vazirligi, Forin idorasi) – Buyuk Britaniya Tashqi ishlar vazirligi shunday nomlanadi.

2019-yil 24-iyuldan e'tiboran Forin offisiga Dominik Renni Raab rahbarlik qilmoqda.

**FUQAROLIGI BO'L MAGAN SHAXSLAR.** Muayyan davlat hududida doimiy yoki vaqtincha istiqomat qilayotgan, biron-bir davlat fuqaroligiga tegishliligi haqida muayyan hujjatga ega bo'l magan shaxslar. Qonunda ular quyidagicha ta'riflangan: fuqa-

roligi bo‘lماqan shaxs – O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab turgan, O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lماqan va o‘zining chet davlat fuqaroligiga mansubligiga doir dalilga ega bo‘lماqan shaxs. Xalqaro huquq fanida ularni *apolid* yoki *apartid* deb atash qabul qilingan. (q.: *apolid*, *apartid*)

**FUQAROLIK.** Shaxsnинг ma’лum bir davlat bilan barqaror huquqiy aloqa o‘rnatishi. Shaxs fuqarolikka ega bo‘lgach, davlat uning barcha huquq va erkinliklarini e’tirof etadi, ularni amalga oshirishini ta’minalash choralarini ko‘radi. Davlat fuqarolarining manfaatini ular boshqa mamlakatlar hududida turgan vaqtida ham himoya qiladi. O‘z navbatida, fuqarolar davlat, jamiyat oldida o‘z burchlarini bajaradilar. O‘zbekistonda yagona fuqarolik o‘rnatalgan, ya’ni O‘zbekiston fuqarolari bir vaqtning o‘zida boshqa mamlakatlarning fuqarolari bo‘lishi mumkin emas.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida yagona fuqarolikning o‘rnatalishiga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasining fuqarosi O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

Fuqarolikka ega bo‘lish va uni yo‘qotish asoslari hamda tartibi O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risidagi qonun bilan belgilanadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lماqan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta’milanadi. Ular Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar.

# G

**GENOTSID.** (yun. *genos* – urug‘, qabila va lot. *caedo* – o‘ldiraman) Xalqaro jinoyatlarning bir turi: irqi, millati, dini, etnik tarkibiga ko‘ra, aholi guruuhlarini yoppasiga yoki qisman jismonan qirib yuborishga qaratilgan harakat. BMT Bosh Assambleyasining Genotsid jinoyatlarining oldini olish va ularni amalgaga oshirganligi uchun jazolash to‘g‘risidagi konvensiyasiga (1948) ko‘ra, genotsid qattiq qoralanadi, aybdor shaxslarga nisbatan xalqaro jinoiy javobgarlik belgilanadi. Bunda mazkur shaxslarning ijtimoiy mavqeい, genotsid tinchlik yoki urush vaqtida sodir etilganligi hisobga olinmaydi. Konvensiyani imzolagan davlatlar o‘z hududlarida genotsidni amalgaga oshiruvchi va unga undovchi shaxslarni jazolash bo‘yicha huquqiy me‘yirlarni ishlab chiqish majburiyatini o‘z zimmalariga oladilar. Irqiy kamsitishning barcha shakllarini yo‘q qilish to‘g‘risidagi BMT konvensiyasida (1965) ham genotsid qattiq qoralanadi. (q. *Apartheid*) Ikkinchisi jahon urushi davrida gitlerchilar Germaniyasining slavyan va yahudiy millatlariga mansub aholi (taxm. 12 mln. kishi)ni om-maviy qirg‘in etishi, Pol Pot va Iyeng Sari to‘dasining Kampuchiya xalqiga qarshi vahshiyona jinoyatlari (ular oqibatida 3 mln. kishi yo‘q qilib yuborildi) va h.k. genotsidning eng ashaddiy ko‘rinishi hisoblanadi. Terminning o‘zbekcha muqobili – arxaik “qatliom” so‘zi.

**GEOSIYOSAT.** O‘tgan asr boshlarida paydo bo‘lgan va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, davlatlarning ravnaqi faqat geografik sharoit bilan belgilanadi, deb da’vo qilgan nazariya. Shu jihatdan uni ikki xil talqin qilish mumkin:

1. Geografik siyosat – siyosatshunoslikdagi nazariya. Geosiyo-sat termini muayyan bir mamlakat o‘rni, tabiiy boyliklari, iqlimi va b. geografik omillarining davlat tashqi siyosatiga (geografik-siyosiy strategiyasi va h.k.ga) muayyan ta’sirini ifodalash uchun ishlataladi. Geosiyosat tushunchasini birinchi bor R. Chellen (Shvetsiya) il-

miy muomalaga kiritgan. Geosiyosat nazariyasi 19-a. oxiri va 20-a. boshlarida F. Ratsel (Germaniya), A. Mexen (AQSh), X. Makkinder (Buyuk Britaniya) tomonidan ishlab chiqilgan, G. Kissinjer, 3. Bjezinskiy (AQSh) va b. tomonidan hozirgi dunyodagi siyosiy jarayonlarga tatbiqan rivojlantirilgan.

2. Keyingi davr siyosatchilar bu so‘zning ma’nosiga birmuncha o‘zgarish kiritganlar, ya’ni dunyo miqyosidagi siyosat ma’nosini olgan.

**GERB.** (polyak. *Herb* nem. *Erbe* – meros so‘zidan olingan) Davlatning tarixiy o‘zligi timsoli hisoblanadi. XII asrda Angliya va Fransiyada kelib chiqib, keyincha butun Yevropaga tarqalgan. U har bir davlatning o‘ziga xos xususiyati, ajralib turuvchi belgisini ramziy (majoziy) ko‘rinishda aks ettiradigan tasvir (shakl) hisoblanadi. Geraldika qoidalari asosida tuziladi va qo‘llanadi. U davlatning xos belgilardan (ramzlaridan) biri sanaladi. Davlatning boshqa belgilari (ramzlari) davlat bayrog‘i va madhiyasiidir. (q.: *Davlat gerbi*)

**GLOBAL MUAMMOLAR.** Hozirgi global muammolar – bu insoniyatning ijtimoiy taraqqiyoti va sivilizatsiyasining saqlanib qolishiga bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy va tabiiy muammolar majmui. Ushbu muammolar o‘z dinamikasi bilan ajralib turadi, jamiyat rivojlanishining obyektiv omili sifatida yuzaga keladi va ularni hal qilish uchun butun insoniyatning birligidagi sa’y-harakatlarini talab qildi. Global muammolar bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, odamlar hayotining barcha sohalarini va barcha mamlakatlarni qamrab oladi.

Ular jumlasiga jahon termoyadro urushining oldini olish, xalqaro terrorchilikka qarshi kurash va barcha xalqlar uchun tinchlikni ta’minlash; rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasidagi tafovutni bartaraf etish, ochlik, qashshoqlik va savodsizlikni tugatish, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining tez sur’atlar bilan ko‘payayotganligini tartibga solish, atrof-muhit halokatlari tarzda ifloslanib borayotganligining oldini olish; insoniyatni kerakli resurslar – oziq-ovqat, sanoat xomashyosi, energiya manbalari bilan ta’minlash, fan va texnika taraqqiyoti salbiy oqibatlarga olib kelishiga yo‘l qo‘ymaslik kabilalar kiradi. Global

**ILTIFOT TASHRIFI.** Iltifot tashrifi bu delegatsiya rahbarining o‘z tashrifining amaliy qismini boshlashidan oldin qabul qiluvchi tomonga qilgan protokol tashrifidir. Iltifot tashrifi davomida delegatsiyaning mamlakatda bo‘lish dasturi aniqlanadi.

Boshqa shahar yoki mamlakatga muzokaralar olib borish uchun tashrif buyurilganda, protokol qoidalari talabiga binoan qabul qiluvchi tomonga iltifot tashrifi bilan borish shart. Iltifot tashrifi (protokol tashrifi) bu mehmonning uni kutib olganlari uchun qilgan javob harakatidir. Ushbu protokol tadbiri nafaqat iltifot ko‘rsatish ifodasi, balki delegatsiyalar rahbarlari uchun shaxsiy uchrashuvda tashrif dasturini aniqlashtirib olish uchun zarur.

Uchrashuv joyi va aniq vaqtini tanlash mehmonlar ixtiyorida bo‘ladi. Iltifot tashrifi buyuriladigan joy, odatda, qabul qiluvchi tomonga tegishli bino bo‘ladi.

**IMMIGRANT.** Ma’lum davlatga vaqtincha yoki doimiy yashash uchun kelgan boshqa davlat fuqarolari yoki fuqarosiz shaxslarga nisbatan ishlataladigan umumlashgan nom (xalqaro termin). Bir davlatdan ikkinchi davlatga kelish sabablari turlicha bo‘lishi mumkin: masalan, ish qidirib kelish, qarindosh-urug‘lariga qo‘shilish, nikohdan o‘tish va boshqa sabablarga ko‘ra.

Agar biror kishi bir davlatni tashlab, boshqasiga o‘tgan bo‘lsa, u oldingi mamlakat uchun muhojir hisoblanadi. Shuning uchun immigrant va immigratsiya terminlari odamlarning bir mamlakatdan boshqasiga ketishi va u yerda yashashini anglatadi.

**IMMIGRATION NAZORAT.** Migratsion xizmat yoki maxsus davlat organi tomonidan, migratsion faoliyatni tartibga solish yoki mamlakat hududida nazoratsiz immigratsiyaning oldini olish uchun olib boriladigan faoliyat.

**IMMUNITET.** Diplomatik vakillar foydalanadigan alohida huquq va imtiyozlar majmui (q.: *Diplomatic immuniteit*)

**IMPICHMENT.** (ing. *impeachment* – ishonchsizlik, lot. *impediti*. – “qarshilik qildi, to‘xtatdi”). Ayrim mansabdor shaxslarни mansabdan chetlatish va javobgarlikka tortish jarayoni (tartibi).

Tushuncha dastlab XIV asrda Angliyada paydo bo‘lgan. Britaniya qonunlaridan AQSh konstitutsiyasiga o‘tgan. Shundan so‘ng impichment iborasi konstitutsiyaviy huquqqa AQSh qonunchiligi va amaliyotidan kirib kelgan. Impichment har qanday mansabdar shaxsning o‘z burchiga jiddiy yondashmagan taqdirda, har qachon va har qanday sharoitda lavozimdan chetlashtirilishi va javobgarlikka tortilishi mumkinligini bildiradi.

**INAUGURATSIYA.** (lot. *augures* dan *inauguro* (qushlarning uchishiga qarab fol ochish) Davlat boshlig‘i lavozimiga kirishishga bag‘ishlangan tantanali marosim. Bunday marosimda xorijiy davlat boshliqlari, diplomatlar ishtirok etadi.

**INSON HUQUQLARI BO‘YICHA UMUMJAHON DEKLARATSIYASI.** 1948-yilning 10-dekabrida qabul qilingan “Inson huquqlari bo‘yicha umumjahon deklaratsiyasi” bashariyat tarixida muhim hujjat hisoblanadi. BMT o‘zining bosh vazifalaridan biri sifatida jahonda inson huquqlarini ta’minlash, deb belgilagan. O‘sha davrda BMT a’zolari bo‘lgan 58 davlatdan 48 tasi bu hujjatni yoqlab ovoz bergen. Mazkur deklaratsiyaning o‘ziga xos jihatni uning umumjahon ahamiyatiga ega ekani, tarqoq tushunchalarni birlashtirganida edi.

Deklaratsiya bilan bog‘liq muhim sanalar:

1945-yil, 24-oktabr. BMT Nizomi kuchga kirdi;

1946-yil, 10-yanvar. Londonda BMTning birinchi Bosh Assambleyasi ish boshladi, inson huquqlari bo‘yicha komissiya tuzildi;

1948-yil, 10-dekabr. BMT Bosh Assambleyasi “Inson huquqlari bo‘yicha umumjahon deklaratsiyasi”ni qabul qildi;

1961-yil, iyul. Londonda Xalqaro amnistiya tashkiloti tuzildi;

1968-yil, may. Tehronda inson huquqlari bo‘yicha xalqaro anjuman o‘tkazildi. Deklaratsiyaning faol mualliflaridan biri Rene Cassen Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldi;

1971-yil. “Chegara bilmas shifokorlar” tashkiloti tuzildi;

1978-yil. Human Rights Watch – inson huquqlari bo‘yicha ahvolni monitoring qiluvchi nodavlat tashkilot tuzildi;

1993-yil, iyun. Vena shahrida Inson huquqlari bo'yicha umumjahon anjumanı (ingl. World Conference on Human Rights) o'tkazildi. Gaaga xalqaro tribunalı tuzıldı;

1994-yil. Inson huquqlari bo'yicha birinchi bosh komissar tayinlandı;

2008-yil. Xalqaro amnistiya tashkiloti deklaratsiya qabul qilinganining 60 yilligiga bag'ishlab dunyodagi inson huquqlari bo'yicha ma'ruza tayyorladi;

2018-yil noyabr. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligi munosabati bilan Samarqandda tashkil etilgan "Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi" bo'lib o'tdi.

**INSURREKSIYA.** (lot. *insurrectus* – bosh ko'targan) Diplomatning o'z vazifalarini bajarishdan bosh tortishi. Diplomatik vakilning vakolatini to'xtatish, bekor qilish asoslaridan biri.

**INTEGRATSIYA.** (lot. *integratio* – tiklash, to'ldirish, *integer* – butun so'zidan) Sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha.

Siyosatda: ikki va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish (masalan – iqtisodiy integratsiya).

**INTERVENSIYA.** (lot. *interventio* – aralashuv) Bir yoki bir necha davlatning boshqa bir davlat ichki ishlariiga zo'rlik bilan aralashushi, uning hududiy yaxlitligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi qaratilgan harakatlari. Bunday harakatlar BMT Nizomi bilan man qilingan. Harbiy (qurolli), iqtisodiy, siyosiy intervensiya bo'lishi mumkin. Qurolli intervensiya agressiya sifatida baholanadi. Bundan tashqari, intervent davlatlar soniga qarab alohida bir davlatning yoki bir necha davlatning intervensiysi bo'lishi mumkin, shuningdek, boshqa davlat hududiga qurolli kuchlar oshkora bostirib kirishi va yashirin, pinhona tarzda kirishi ham mumkin. Xalqaro huquqda intervensiyaning har qanday ko'rinishi va shakllari taqiqlangan.

**INTERNUNSIY.** (apostollik internunsiyi) Davlat rahbarlari qoshida akkreditatsiya qilinuvchi Vatikan diplomatik vakili. O'z darajasiga ko'ra ikkinchi klass (toifa) diplomatik vakillarga, ya'ni

elchilar klassiga (toifasiga) to‘g‘ri keladi. (q.: *Nunsiy va dip. klasslar (daraja, toifa va ranglar (martabalar)*)

### **ISLOM KONFERENSIYASI TASHKILOTI.** (q.: *Islom hamkorlik tashkiloti*)

**ISLOM HAMKORLIK TASHKILOTI.** Islom hamkorlik tashkiloti (u 2011-yilgacha Islom Konferensiysi Tashkiloti (IKT) deb atalgan) eng yirik va nufuzli rasmiy xalqaro musulmon hukumat tashkiloti hisoblanadi. U 1969-yil 25-sentabrda Rabotda (Marokash) bo‘lib o‘tgan musulmon davlatlari rahbarlarining konferensiyasida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda islomiy birdamlikni ta’minalash, mustamlakachilik, neokolonializm va irqchilikka qarshi kurash, shuningdek, Falastin ozodlik tashkilotini qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan.

Bunday qarorga kelishga 1969-yilning 21-avgustida Quddus shahridagi muborak Aqso masjidida qilingan yong‘in sabab bo‘lgan. Islom davlatlarining rahbarlari uchinchi Harami sharifga qilingan tajovuzga qarshi chora ko‘rish uchun Rabot shahrida yig‘ilish o‘tkazishga kelishganlar.

Bosniya va Gersegovina, Markaziy Afrika Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, shuningdek, Filippin milliy ozodlik fronti Moro va bir qator tashkilotlar (BMT, Qo‘silmaslik harakati va boshqalar) kuza-tuvchi maqomiga ega. Tashkilotning bosh qarorgohi Jidda shahrida (Saudiya Arabistonida) joylashgan.

IHTning Nizomi 2008-yil 14-mart kuni Dakarda (Senegal) qabul qilingan bo‘lib, hozirgi kunda u taxminan 1,7 mlrd. aholisi bo‘lgan 57 ta davlatni birlashtiradi. Dastlab, unga Osiyo va Afrikaning 25 davlati va Falastinni ozod qilish tashkiloti kirgani.

Tashkilot o‘z oldiga qo‘ygan vazifa va maqsadlariga binoan islom moliya institutlari, jumladan, Islom Tarraqqiyot Banki (O‘zbekiston 2003-yildan buyon unga a’zo) mablag‘larini a’zo davlatlarga jalb etishlari belgilab qo‘ylgan. O‘zbekiston IHTga 1996-yilda a’zo bo‘lgan.

2014-yil yanvar oyidan beri IHT bosh kotibi Iyad ibn Amin al-Madaniy hisoblanadi. Tashkilot rasman ingliz, arab va fransuz tillarida ish olib boradi.

ning Prezidenti o‘zining rasmiy qarorgohi – “Oq saroy”da qabul qilib oladi. Marosimda Tashqi ishlar vaziri, davlat protokoli xizmatining boshlig‘i va lozim bo‘lsa, tarjimon qatnashadilar. Elchini diplomatik vakolatxonaning bir diplomatik xodimi kuzatib keladi. Yorliq topshirilgandan so‘ng, davlat rahbari va elchi o‘rtasida suhbat bo‘ladi. Marosim Prezidentning elchiga esdalik sovg‘asini topshirishi va birgalikda rasmga tushishi bilan yakunlanadi.

**ISHONCHLI VAKIL.** (fran. – *charge d’Affaires*) Diplomatik munosabatlar to‘g‘risidagi 1961-yil Vena konvensiyasiga muvofiq diplomatik vakolatxonaning uchinchi toifaga (klassga) mansub rahbari. Ishonchli vakil o‘zining shu lavozimga tayinlangani haqidagi Tashqi ishlar vazirining maktubini mezbon davlat Tashqi ishlar vaziriga topshiradi, ya’ni Tashqi ishlar vaziri huzurida akkreditatsiya qilinadi. Odatda, unga “maslahatchi vakil” diplomatik rangi beriladi.

## J

**JENTLMENLIK KELISHUVI** (ing. *Gentleman’s Agreement* – janoblar kelishuvi) Norasmiy xalqaro shartnomaning (kelishuvning) maxsus turi. Oddiy shartnomalardan farqli o‘laroq, janoblar kelishuviga rioya qilmaslik faqat axloqiy jihatdan javobgarlikka olib kelishi mumkin. U yozma yoki og‘zaki shaklda tuzilgan va xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish prinsipiiga bo‘ysundi. Kelishuvlar ikki va ko‘p tomonlama huquqiy munosabatlarda qo‘llaniladi.

## K

**KANONERKALAR (QUROLLI KEMA) DIPLOMATIYASI.** (ing. *gunboatdiplomacy* – qurol-yarog‘li kema diplomatiyası) (kanonerka – qurolga ega kichik kemalar shunday atalgan). Hozir ko‘p qo‘llanmaydigan bu termin harbiy dengiz flotidan foydalanigan holda kuchini namoyish etish harbiy-siyosiy kursini anglatgan. Qurolli kema diplomatiyası bu harbiy-siyosiy kurs bo‘lib, uni amal-

ga oshirishda dengiz flotidan foydalanilgan holda namoyishkorona kuch ko'rsatish qo'llaniladi.

Qurolli kemalar – jiddiy artilleriyaga ega bo'lgan kichik kemalar (kanonerkalar) – XIX asrning boshlarida AQSh harbiy-dengiz kuchlarida keng qo'llanilgan, ular 1812-yilda Nyu-Orlean portini Britaniyadan himoya qilishda muhim rol o'ynagan. Shu yo'sinda ushbu termin muomalaga kirib qolgan.

**KATTA YETTILIK.** Katta yettilik yoki Yettilik guruhi G7 (ing.: *Group of eight G8*) xalqaro klub maqomiga ega bo'lib, AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Kanada, Germaniya va Yaponiya hukumatlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, ushbu tashkilotni xalqaro muammolarni hal qiluvchi jamiyat, ya'ni norasman ushbu mamlakatlar boshliqlari forumi (Yevropa Komissiyasi ishtirokida) deb ham atashadi.

Katta yettilik xalqaro tashkilot hisoblanmaydi, ushbu jamiyat xalqaro kelishuvga ham asoslanmagan va kotibiyat nizomiga ham ega emas. Yettilik qarorlari majburan qo'llanilishi kerak bo'lgan qonun hisoblanmaydi.

Ushbu siyosiy jamiyat 1975-yilning 15–17-noyabrida AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Germaniya va Yaponiya o'rtasida tuzilgan va o'sha paytda G6 deb atalgan. 1976-yilda Kanadaning qo'shilishi bilan G7 – Katta yettilik deb atala boshlandi. Rossiyaning qo'shilishidan keyin esa G8 Katta sakkizlik deb ataldi. Keyinchalik Rossiya guruhdan chiqarib yuborilgach, yana qayta G7 deb qo'llanila boshladi.

**KATTA YIGIRMATALIK.** Katta yigirmatalik (shuningdek, G20 yoki K20; rasmiy ravishda – Yigirmatalik guruhi) iqtisodiyoti eng rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar hukumatlari va markaziy banklarining rahbarlari klubi. Yigirmataliklar guruhi 1990-yillarning oxiridagi Osiyo moliyaviy inqiroziga va rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotiga ega davlatlar dunyo iqtisodiy munozaralarida va qarorlarni qabul qilishda yetarli darajada ishtirok etmayotganligi to'g'risidagi tushuncha kuchayib borganiga javoban tashkil topgan.

Birgalikda G20 dunyo yalpi ichki mahsulotining 85 foizini, dunyo savdosining (shu jumladan, Yevropa Ittifoqi ichidagi savdoning) 75 foizini va dunyo aholisining uchdan ikki qismini tashkil etadi. Ishtirokchilar 20 ta eng yirik milliy iqtisodiyot – Avstraliya, Argentina, Braziliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, Indoneziya, Italiya, Kanada, Xitoy, Meksika, Rossiya, Saudiya Arabistoni, AQSh, Turkiya, Fransiya, Janubiy Koreya, Janubiy Afrika, Yaponiya va Yevropa Ittifoqidir. Yevropa Ittifoqiga Yevropa Komissiyasi Prezidenti va Yevropa Kengashi Prezidenti vakil qilingan.

Bundan tashqari, har xil xalqaro tashkilotlarning vakillari odatda G20 yig‘ilishlarida, shu jumladan, Molivaviy barqarorlik kengashi, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon savdo tashkiloti, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Jahon banki anjumanlarida qatnashadilar.

“Katta yettilik” dan G20 formatiga o‘tish 2008-yildagi global iqtisodiy inqirozda global iqtisodiyotning falokati xavfi tufayli tezlashdi. Yana q.: *Katta yettilik*

### **KLASS (q.: *Diplomatik klass (toifa)*)**

**KOALITSIYA.** (lot. *coalitio* – birlashma) Ma’lum bir maqsadga erishish uchun siyosiy subyektlarning (guruhlarning) ixtiyoriy birlashmasi (masalan: davlatlar, tashkilotlar, siyosiy partiylar).

Boshqa birlashmalar turlaridan farqli o‘laroq, koalitsiyaning har bir a’zosi koalitsiyaning maqsadiga bog‘liq bo‘lmagan masalalar da mustaqil bo‘lib qoladi. Maqsadga erishgandan so‘ng, koalitsiya tarqab ketishi mumkin.

**KODIFIKATSIYA, XALQARO HUQUQDA.** Kodifikatsiya – bu mavjud normalarni tizimlashtirish, qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, bo‘shliqlarni to‘ldirish, eskirgan normalarni yangilariiga almashtirish jarayoni.

Bundan ko‘rinib turibdiki, kodifikatsiya qonun chiqarish jarayoniga aloqador. Davlatlar va ularning tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan rasmiy kodlash bilan davlat tashkilotlari, xususiy shaxslar ishtirokisiz ishlab chiqarilgan norasmiy kodlash o‘rtasidagi farqni aniqlash odat tusiga kirgan. Xalqaro Qizil Xoch Qo‘mitasi jamoat tashkiloti qurolli mojarolarning gumanitar qonunlarini ko-

difikatsiya qilish loyihasini tayyorlagan. Uning asosida 1949-yilda diplomatik konferensiylar urush qurbanlarini himoya qilish to‘g‘risida o‘tkazilgan to‘rtta Jeneva konvensiyasini va 1977-yildagi ikkita qo‘sishma protokollarni qabul qilishgan.

**KOLLEKTIV NOTA.** Diplomatik yozishmaning bir turi. O‘zaro kelishilgan fikrlarni bayon qilish maqsadida bir necha davlatlar tomonidan mezbon davlat hukumatiga yo‘llangan nota. U faqat bir nusxada tuzilib, unga barcha qatnashgan diplomatik vakolatxonalar rahbarlarining imzolari qo‘yiladi va imzo qo‘yanlarning bar-chasi ishtirokida topshirilishi shart bo‘ladi.

**KOMISSIYA.** Rasmiy: qandaydir maxsus topshiriq va vazifalar ni bajarish va amalga oshirish uchun biror muassasa qoshidagi vaqtincha yoki doimiy ishlaydigan organ; biron-bir muayyan funksiyani bajarish yoki maxsus tadbirlarni o‘tkazish uchun shaxslar guruhi yoki bir guruh shaxslar tarkibida shakllangan tuzilma. Masalan, BMTning Xalqaro huquq komissiyasi, Xalqaro savdo komissiyasi va b.

**KONGRESS.** Turli organ va tuzilmalarning, anjumanlarning nomi. Ba’zi mamlakatlarda Kongress parlamentning nomi hisoblanadi. AQSh, Kolumbiya, Filippinda ikki palatali parlament nomi bo‘lsa, Ispaniyada Kongress parlamentning quyi palatasining nomi sifatida qo‘llanadi. Fransiyada Kongress Prezident tomonidan chaqiriladi.

**KONDOMINIUM.** (lot. *son* – birqalikda va *dominium* – ega-lik) Bir hudud ustidan ikki yoki undan ortiq davlatlarning birqalikda, hamkorlikda hukmronlik qilishi.

**KONKORDAT.** (lat. *soncordatum* – bitim) Katolik cherkovlar rahbari Rim papasi bilan biron-bir davlat hukumati o‘rtasida imzoladigan maxsus shartnomaga, bitim bo‘lib, u o‘sha davlatdagisi katolik cherkovi maqomi va imtiyozlarini belgilaydi. Konkordat birinchi marta 1122-yilda Rim papa va german imperatori o‘rtasida imzolangan.

**KONSENSUS.** (lot. *consensus* – rozilik, hamfikrlik) Xalqaro tashkilotlar va xalqaro konferensiya va kengashlarda ovoz bermasdan va uchrashuv a’zolarining qaror qabul qilish bo‘yicha rasmiy

noroziligi bo‘lмаган holatda qaror qabul qilish protsedurasi, usuli. Konsensus BMTning bir qator idoralarida ishlataladi. U Yevropada xavfsizlik va hamkorlik kengashini tayyorlash va o‘tkazishda ham qarorlar qabul qilish uchun asos qilib olingen va qo‘llanilgan.

**KONSUL.** (lot. *consul*) Boshqa davlatning biror shahri yoki hududida ikki mamlakat o‘rtasida o‘rnatilgan konsullik munosabatlari doirasidagi vazifalarni bajarish uchun doimiy vakil sifatida tayinlanadigan mansabdor shaxs. Boshqacha ta’riflaganda konsul – o‘zaro kelishuv asosida bir davlatdan ikkinchi davlatning muayyan bir okrugiga yuborilgan mansabdor shaxsi bo‘lib, u o‘z okrugi doirasida o‘z davlati va uning yuridik shaxslari, fuqarolarini manfaatlarini himoya qilish, ikki davlat o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy va boshqa sohalarda aloqalarini rivojlantirishga ko‘makhish, ushbu okrugda mavjud iqtisodiy holat va yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni kuzatish va o‘z davlatini xabardor qilish kabi vazifalarni bajaradi.

*Konsul vazifalari* Konsullik munosabatlari to‘g‘risidagi 1963-yil Vena konvensiyasi, bir qator boshqa ko‘p tomonlama bitimlar, shuningdek, ikki tomonlama konsullik konvensiyalari va davlat ichki qonunchiligi bilan belgilanadi. Odatga ko‘ra, konsul o‘z mamlakati fuqarolariga *mezbon davlat* qonunchiligi tomonidan berilgan barcha huquqlarning to‘liq amalga oshirilishi choralarini ko‘radi, uning konsullik okrugi hududida turgan o‘z mamlakati fuqarolari ro‘yxatini olib boradi, ularga zarur huquqiy yordam ko‘rsatadi, fuqarolarning qonun bilan belgilangan hujjatlari (pasport, guvohnoma va boshqalar)ni topshiradi, uzaytiradi yoki o‘zgartirish kiritadi, xorijliklarga o‘z mamlakatiga kirish uchun viza beradi, uni yangilab va uzaytirib beradi, notarial aktlar va o‘zi vakillik qilayotgan davlat tomonidan berilgan hujjatlarni konsullik qonunlashtirilishini amalga oshiradi.

Konsullik tuzilmasi (instituti) XI-asr oxirida – asosan yevropalik savdogarlar manfaatlarini Sharq mamlakatlarida himoya qilish maqsadida yuzaga keldi. Savdogarlikning rivojlana borishi bilan u ham tarqalib bordi va 18 asrga kelib, hozirda ham saqlanib kelayotgan xususiyatlarga ega bo‘ldi.

Boshqa mamlaktda xizmat o‘tash uchun tayinlanadigan shtatda-  
gi konsullar – davlat mansabdorlari bilan shtatda bo‘Imagan, mez-  
bon mamlakat fuqarosi ham bo‘lishi mumkin bo‘lgan, o‘z vazifasi-  
ni ko‘ngilli asosda bajaradigan (faxrli) konsullarning o‘rtasida farq  
mavjud. Keyingi yillarda faxriy konsul tayinlash amaliyoti kamayib  
bormoqda.

Konsul va uning xodimlari mezbon mamlakatdagi konsullik kor-  
pusi tarkibiga kiradilar. Xalqaro amaliyotga ko‘ra, ular odatda diplo-  
matik imtiyoz bilan bir xil bo‘lgan konsullik imtiyoziga ega bo‘ladi.  
Mavqeい bo‘yicha konsullar bosh konsul, konsul va vitse-konsulga  
bo‘linadi.

Diplomatik vakolatxonalar (elchixonalar)da odatda konsullik  
vazifalarini elchixonaning xodimlaridan biri bajarib, ko‘pincha  
maxsus konsullik bo‘limini boshqaradi. U ham konsul deb nomlan-  
ishi mumkin.

Ko‘p mamlakatlarda bo‘lganidek, O‘zbekistonda ham konsullik  
xizmati xodimlari diplomat xodim hisoblanib, Tashqi ishlar va-  
zirligida xizmat o‘taydi. (q.: *Konsul vazifalari, konsullik xizmatlari*)

**KONSUL VAZIFALARI.** Konsullar quyidagi vazifalarni ba-  
jaradi:

1) konsullik okrugi hududida joylashgan vatandoshlariga qa-  
bul qiluvchi mamlakat qonunlari va urf-odatlari haqida ma’lumot  
beradi;

2) o‘z fuqarolariga pasportlar va yo‘l chiptalari, shuningdek,  
konsul vakillik qilib turgan davlatga borishni xohlovchilarga vizalar  
berishni amalga oshiradi;

3) o‘z okrugi hududida joylashgan vatandoshlarining hisob  
ro‘yxatini yuritadi;

4) muayyan yurisdiksiya, xususan, notarial harakatlarni va fuqa-  
rolik holati dalolatnomalarini qayd etishni amalga oshiradi;

5) konsullik legalizatsiyasi, ya’ni qabul qiluvchi davlat hukumati  
chiqaradigan hujjatlardagi imzolarning haqiqiyligini hamda ana shu  
hujjatlarning shu davlat qonun-qoidalariga muvofiqligini aniqlash  
va tasdiqlash bilan shug‘ullanadi;

6) yurtdosh fuqarolar vafot etgan taqdirda, ularning manfaatlarini himoya qiladi;

7) voyaga yetmagan va muomalaga to‘liq layoqatli bo‘lmagan yurtdosh fuqarolarning manfaatlarini himoya qiladi;

8) qabul qiluvchi davlat sudlari va boshqa muassasalarida o‘z davlati fuqarolarining huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida ko‘rsatma olish maqsadida, fuqarolarning o‘zлari bunga erisholmagan hollarda, tegishli ravishda vakillik qiladi yoki vakillikni ta’minkaydi;

9) o‘z davlati tergov yoki sudlov organlari topshiriqlarini bajaradi.

Konsullar o‘z davlati bayrog‘i ostida suzayotgan kemalarga, shuningdek, mazkur davlatda ro‘yxatga olingan samolyotlarga va ularning ekipajlariga nisbatan nazorat va inspeksiya ishlarini amalga oshiradi. Konsullar bunday kemalar va samolyotlarga yordam ko‘rsatadi, ularni ko‘zdan kechiradi va kema hujjatlarini rasmiy-lashtiradi, yo‘lda sodir bo‘lgan har qanday voqeа-hodisani o‘rganib chiqadi, kapitan bilan ekipaj o‘rtasida yuzaga kelgan nizolarni hal etadi.

Respublikamiz konsullik muassasalari konsullik vazifalari ni 2019-yil 17-yanvarda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konsullik ustavi asosida amalga oshiradilar. (q.: *Konsullik xizmati*)

**KONSUL, SHTATSIZ (FAXRIY).** Shtatda turmagan (faxriy) konsul – yuboruvchi davlatning diplomatik xizmati a’zosi bo‘lmagan, ammo ba’zi konsullik funksiyalarini bajaruvchi shaxs. Qoidaga ko‘ra, bular – qabul qiluvchi mamlakatning biznes hamjamiyatining vakillari. Odatta, faxriy konsullar qat’iy javobgarlik to‘g‘risidagi hujjatlarni (pasportlar, vizalar va boshqalar) berolmaydilar, ammo ular qabul qiluvchi davlat hokimiyat idoralariga (odatta ular fuqarolari bo‘lgan) murojaat qilishlari mumkin.

Yuboruvchi davlatdan konsullik vazifalarini bajarish uchun ish haqi olmasa, ular konsullik yig‘imlarining bir qismini o‘z foydalariiga o‘tkazishlari mumkin. Faxriy konsulning huquqlaridan nohaq foydalanish holatlari ma’lum (ba’zi rivojlanmagan davlatlar aslida konsullik patentlarini sotadilar).

**KONSUL HUQUQI.** Konsul tayinlangandan to vazifasini tugatgungacha uning barcha faoliyatini tartibga soladigan me'yorlar majmui. (q.: *Konsul*)

**KONSULLIK.** Konsullik mezbon davlatdag'i rasmiy konsullik vakolatxonasıdır. Konsulliklarni tashkil etish masalalari odatda, *o'zaro hurmat* asosida imzolanadigan maxsus hukumatlararo ikki tomonlama bitimlar bilan hal etiladi. Shu bilan birga, konsullik vakolatxonalarining klassi-darajasi belgilanadi, ushbu muassasalar rahbarlari (klassi) darajasiga mos ravishda bosh konsullik yoki konsullik bo'lishi aniqlanadi.

Ba'zan "konsullik" atamasi kundalik nutqda o'z mamlakatlari fuqarolari va chet elliklarga xizmat qiladigan elchixonalarning konsullik bo'limlariga nisbatan ham qo'llanadi.

Konsullik muassasalarini rahbarlari 4 sinfga bo'lingan:

1. Bosh konsul.
2. Konsul.
3. Vitse-konsul.
4. Konsullik agenti.

Shunga ko'ra, konsullik muassasasi bosh konsullik, konsullik, vitse-konsullik (kamdan-kam hollarda) yoki konsullik agentligi bo'lishi mumkin (kam hollarda). Konsullik muassasasi rahbaridan tashqari, konsulxona xizmatchilarini, odatda, konsul-maslahatchilar, konsullar, vitse-konsullar va konsullik agentlari (attashelar) deb atashlari mumkin.

Konsullik xizmatchilarining ikki toifasi mavjud, ya'ni doimiy ishlaydigan konsullik xizmatchilari va faxriy konsullik xizmatchilari.

Konsullik muassasalarini ochish tartibi, konsullik vazifalari ni bajarish tarkibi va tartiblari, konsullik xizmatchilarini tayinlash, konsullik muassasalarini va doimiy konsullik xizmatlarining imtiyozlari va immunitetlari 1963-yil 24-aprelda qabul qilingan Konsullik munosabatlari to'g'risidagi Vena konvensiyasi (1967-yil 19-martda kuchga kirgan) tomonidan tartibga solinadi.

Konsulliklar uchta asosiy funksiyani bajaradi.

Birinchidan, bu o‘z davlatining va uning fuqarolarining, shuningdek, yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilish.

Ikkinchidan, do‘stona aloqalarni, avvalambor, iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalarni rivojlantirishga ko‘maklashish.

Uchinchidan, manfaatdor fuqarolar va yuridik shaxslarga tegishli ma’lumotlarni taqdim etishni o‘z ichiga olgan konsullik faoliyati.

O‘zbekistonning Konsullik muassasalari, konsullik muassasasining xodimlari hamda ularning oila a’zolari *Konsullik munosabatlari to‘g‘risidagi 1963-yil Vena konvensiyasida*, O‘zbekiston Respublikasi bilan konsulxona joylashgan davlat o‘rtasidagi shartnomalarda, shuningdek, xalqaro huquqning umumiy normalarida nazarda tutilgan imtiyozlar va immunitetlardan foydalanadilar. Konsulning vazifasi quyidagi hollarda tugatiladi: 1) konsul chaqirib olinganda; 2) ekzekvatura bekor qilinganda; 3) konsullik patentining muddati tugaganda; 4) konsullik muassasasi yopilganda; 5) konsullik munosabatlari tugatilganda.

**KONSULLIK AGENTI.** Bosh konsul, vitse-konsul kabi konsullik agenti ham konsullik muassasasining boshlig‘i hisoblanadi.

**KONSULLIK ARXIVI.** Arxiv saqlanishi yoki saqlanishi ta’minlanishi lozim bo‘lgan barcha hujjatlar, xususan, xatlar, kitoblar, filmlar, ovoz yozilgan lentalar, konsullik muassasining ro‘yxat daftarlari, kartotekalar va b.ni o‘z ichiga oladi.

**KONSULLIK BINOLARI.** Konsullik muassasasi ehtiyojlari uchun foydalilanayotgan binolar yoki ularning bir qismi, shuningdek, ularga qarashli yer maydonlari.

**KONSULLIK BOSHQARMASI** O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi. U o‘rnatalgan tartibda tasdiqlangan shtat jadvali asosida shakllantiriladi va bo‘limlardan iborat bo‘ladi. Boshqarma xodimlari O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri buyrug‘i bilan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Boshqarma o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mah-

kamasining qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri qaror va buyruqlari, yo'riqnomalariga asoslanadi.

**KONSULLIK IMMUNITETLARI.** Konsullik immunitetlari - konsullik mansabдор shaxslari, ularning oila a'zolari va mulklarini mezbon davlat organlarining majburiy sud, ma'muriy va fiskal choralariga, shu jumladan, hibsga olish, tintuv, so'roqqa tortish, da'vo, soliqlar, embargo, rekvizitsiyaga tortmaslik uchun mezbon davlatning yurisdiksiyasidan chiqarib olish.

Konsullik immuniteti funksional xarakterga ega, ya'ni konsullik funksiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq. Konsullik immuniteti konsullik xodimining qabul qilayotgan davlat hududiga kirib kelishi bilan boshlanib, uning konsullik xizmati muddati tugab, mamlakatni tark etganidan keyingina o'z kuchini yo'qotadi. (q.: *Immunitet, Diplomatik immunitet*)

**KONSULLIK IMTIYOZLARI.** Qabul qilayotgan davlatda joylashgan konsullik muassasalari, konsullik mansabдор shaxslari va ularning oila a'zolariga huquqiy normalar yoki xalqaro ehtiram asosida beriladigan alohida imtiyoz va afzalliliklardir. Bularga quyidagilar kiradi: haqoratlardan himoyalash uchun choralar qabul qilish majburiyati; davlat bayrog'i, konsullik qalqoni, emblemadan foydalanish huquqi; turli aloqa vositalari, shu jumladan, kuryer va shifrlardan foydalanish huquqi; faxriy uchrashuvlarga bo'lgan huquq; bojxona tekshiruvlaridan ozod qilish; o'z mamlakatining samolyotlari va kemalariga chiqa olish va h.k.

Qoidaga ko'ra, konsullik imtiyozlari konsullik muassasasiga uning zimmasiga yuklatilgan funksiyalarini samarali bajarishi uchun o'zaro asosda beriladi.

Konsulxonaga, konsulxona xodimlariga o'z vazifalarini bemalol bajarishlari uchun beriladi. Konsullik imtiyozlari masalalari har bir davlatning ichki qonunchiligi, xalqaro konvensiya va tartib-qoidalar asosida boshqariladi. Konsullik munosabatlari to'g'risidagi 1963-yil Vena konvensiyasi konsullik imtiyozlari *kodifikatsiyasi* hisoblanadi. Konsullik vakillari shaxsiy daxlsizlikka ega bo'lib, og'ir jinoyat qil-

gan yoki sud hukmi qonun kuchiga kirgan taqdirda qamoqqa olinishi mumkin. Ular o‘z faoliyatida jinoiy, ma’muriy va fuqarolik yurisdiksiya imtiyozlaridan foydalanadi

**KONSULLIK YIG‘IMLARI.** Konsulning (konsullik vakolatxonasining) manfaatdor shaxslarning murojaatiga ko‘ra amalga oshirayotgan rasmiy ishlari uchun chet el fuqarolari va o‘z davlati fuqarolari, muassasa va tashkilotlardan undiradigan yig‘imlari. Konsullik yig‘imlari quyidagi konsullik harakatlari uchun olinadi: pasportlar berish yoki ularni amal qilish muddatini uzaytirish, vizalar berish, fuqarolik masalalari bo‘yicha so‘rovnomalarni rasmiylashtirish, fuqarolik holati aktlarini ro‘yxatga olish, talabga binoan hujjatlar berish va ularni legallashtirish, notarial va boshqa xil amallar. Konsullik yig‘imlari akkreditatsiya qilingan davlatning qonunchiligiga muvofiq o‘rnatilgan tariflar bo‘yicha undiriladi va ushbu mamlakatning davlat daromadiga kelib tushadi. Shtatda bo‘lmagan (faxriy) konsullar tomonidan undiriladigan yig‘imlar bundan mustasno. Bu yig‘imlar mazkur konsullarning daromadi hisoblanadi. Konsullik yig‘imlarining miqdori O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

**KONSULLIK KLASSLARI.** Konsullar egallab turgan xizmat lavozimi bilan bog‘liq konsullik unvonlari. Hozirgi kunda besh konsullik klasslari mavjud: bosh konsullar, konsullar, vitse-konsullar, konsullik agentlar, prokonsullar (tor doiradagi masalalar, jumladan, notarial harakatlar bo‘yicha konsul yordamchilari).

Konsullik klassini belgilash, konsulni tayinlovchi davlatga bog‘liq. Bunda konsulga yuklatilgan vazifalarning mazmuni va hajmi hamda davlatlar o‘rtasidagi tuzilgan ikki tomonlama shartnomada belgilangan konsullik klassi inobatga olinadi.

**KONSULLIK KONVENTSIYALARI.** Konsullik munosabatlari bo‘yicha davlatlar o‘rtasida tuzilgan bitimlar. Ular konsullik muassasalarini ochish, muassasa rahbarlarini tayinlash va chaqirib olish tartibi, konsullik mansabdor shaxslari va konsullik vakolatxona xodimlarining vazifalari, imtiyozlari va immunitetlarini belgilab

beruvchi konsullik huquqi normalaridan iborat. Umuman, konsullik konvensiyalari tuzilishi va mazmuniga ko'ra bir-biriga o'xshash.

Hozirgi kunda to'rtta ko'p tomonlama konsullik konvensiyalari mavjud. Ulardan uchtasi mintaqaviy xarakterga ega: 1911-yildagi Konsullik funksiyalari to'g'risidagi Karakas konvensiyasi, 1928-yildagi Konsullik mansabдор shaxslari to'g'risida Gavana konvensiyasi va 1967-yildagi konsullik funksiyalari to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi. 1963-yilda qabul qilingan va 1967-yil 19-martda kuchga kirgan Konsullik munosabatlari to'g'risidagi Vena konvensiyasi universal xarakterga ega.

O'zbekiston Vena konvensiyasini 1994-yil 6-mayda ratifikatsiya qilgan va uning qatnashchisi hisoblanadi.

Davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda ko'p tomonlama va ikki tomonlama konsullik konvensiya va shartnomalar katta rol o'ynaydi. Hozirgi paytda ularning soni dunyo miqyosida bir necha mingga yetadi. O'zbekiston va chet el davlatlari o'rtasida konsullik munosabatlari bo'yicha 21 ta ko'p tomonlama va ikki tomonlama shartnomalar amalda.

**KONSULLIK KORPUSI.** Mezbon davlatning ma'lum bir yerida turgan konsullik vakolatxonalari rahbarlari. Kengroq ma'nda xorijiy konsullik muassasalarining shu yerdagi barcha konsullik mansabдор shaxslari va ularning oila a'zolari. Konsullik korpusiga shtatda bo'limagan (faxrli) konsullar va diplomatik vakolatxonalarning konsullik bo'limlari xodimlari ham kiradi.

Konsullik korpusini rangi bo'yicha kattaroq (q.: *Konsullik ranglari (martabalari, unvonlari)*) hisoblangan va avvalroq ekzekturasi hisoblangan va avvalroq ekzekvaturasini olgan yoki tan olingen konsullik muassasasi rahbari boshqaradi va asosan marosimlar bilan bog'liq quyidagi vazifalarni bajaradi: butun konsullik korpusining vakili sanaladi, yangi kelgan konsullik korpusi a'zolarini mezbon davlatning o'ziga xos xususiyatlari va an'analari bilan tanishtiradi; ichki masalalarni konsullik korpusi doirasida hal etadi, mezbon davlatda huquqlari poymol bo'lgan taqdirda konsullik korpusi a'zolarini himoya qiladi. Diplomatik korpusdan farqli o'laroq mezbon davlatda bir nechta konsullik korpusi (konsullik muassasalari mavjud punktlar soni bo'yicha) bo'li-

shi mumkin. Diplomatik korpus kabi konsullik korpusi ham yuridik shaxs hisoblanmaydi.

**KONSULLIK KURYERI.** (fran. *courrier*, lat. *curro* – chopyapman) chopar, xabarchi Xalqaro huquqda, *yuboruvchi* davlat fuqarosi, qabul qiluvchi davlatda rezident bo‘limgan, diplomatiya vakolatxonalarini va vakolat berilgan davlatning boshqa konsullik muassasalarini bilan munosabatlarda konsullik muassasasining aloqa bo‘limi vazifasini bajaruvchi shaxs. Konsullik kuryeriga uning maqomini tasdiqlovchi rasmiy hujjat taqdim etiladi. O‘z vazifalarini bajarayotganda u qabul qiluvchi davlat tomonidan himoya qilinadi va shaxsiy daxlsizlikdan foydalanadi, ushlab turilishi yoki qamoqqa olinishi mumkin emas. Uning shaxsiy erkinligi hech qanday tarzda cheklanishi mumkin emas.

**KONSULLIK MANSABDOR SHAXSI.** Zimmasiga *konsul vazifalarini* bajarish yuklatilgan har qanday shaxs, shu jumladan konsullik muassasasi rahbari (bosh konsul, konsul, vitse-konsul, konsullik agenti va konsullik muassasasi kotibi), shuningdek, konsullik muassasalariga malaka oshirish va konsullik xizmatiga tayyorlanish uchun yuborilgan shaxs (stajyor).

**KONSULLIK MUASSASASI.** Xorijiy davlatning biron-bir *konsullik okrugida* konsullik vazifalarini bajarish uchun ikki davlat o‘rtasidagi shartnomaga asosida ta’sis qilingan davlatning doimiy tashqi aloqalar idorasi (q.: *Konsul vazifalari*) Konsullik muassasasi va uning mansabдор shaxslari *konsullik imtiyoz va immunitetlaridan* foydalanadilar.

Konsullik muassasasiga diplomatik vakolatxonaning konsullik bo‘limlari, bosh konsulliklar, konsulliklar, vitse-konsulliklar va konsullik agentliklari kiradi. Konsullik muassasasi TIVga qarashli bo‘ladi va mezbon davlatdagi diplomatik vakolatxonaning rahbari boshchiligida faoliyat yuritadi.

**KONSULLIK MUASSASASI KLASSI.** Konsullik idoralari quyidagi klass – sinflarga bo‘linadi: bosh konsulliklar, konsulliklar, vitse-konsulliklar, konsullik agentliklari.

**KONSULLIK MUASSASINING RASMIY YOZISHMASI.** Bunga konsullik muassasasi va uning faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha olib borilgan barcha yozishmalar, ya'ni konsullik muassasasiga kelgan va undan pochta-telegraf orqali jo'natilgan barcha yozishmalar kiradi.

**KONSULLIK MUASSASASINING XODIMI.** Konsullik muassasasiga xizmat ko'rsatish yuzasidan konsullik muassasasida ma'muriy yoki texnikaviy vazifalarni bajarish bilan shug'ullanayotgan har qanday shaxs.

**KONSULLIK MUNOSABATLARI.** Davlatlar, hukumatlar va tashqi aloqalarning maxsus organlari (konsullik muassasalari) o'rtaida tashqi siyosatni olib borishning noharbiy amaliy choralari, shakllari, vositalari va usullari majmui bo'lib, davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan rasmiy munosabatlardir.

**KONSULLIK MUNOSABATLARI TO'G'RISIDAGI 1963-YIL VENA KONVENTSIYASI.** Konvensiya davlatlar o'rta-sidagi deyarli barcha konsullik munosabatlarini tartibga soluvchi universal hujjatdir. U xalqaro konsullik huquqi normalarini sistemalashtirdi, mavjud bo'lgan konsullik amaliyotini umumlashtirdi va xalqaro konsullik huquqini rasmiy kodifikatsiyalash yo'lidagi ilk qadam bo'ldi.

Konvensiya BMT doirasida ishlab chiqilgan, u 79 bo'limdan iborat va 1963-yilda Vena shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiya qabul qilingan. 1967-yil 19-martda rasmiy kuchga kirgan.

O'zbekiston Respublikasi Vena konvensiyasiga 1992-yil 1-aprelda qo'shilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi esa uni 1994-yil 6-mayda tasdiqlagan.

O'zbekiston Respublikasi Konvensiya ishtirokchisi sifatida o'z majburiyatlarini bajarmoqda va ushbu konvensiyadan kelib chiqadigan huquqlarini amalga oshirmoqda. 2000-yil 1-yanvardagi holatga ko'ra, 160 mamlakat Vena konvensiyasi ishtirokchisi hisoblanadi.

**KONSULLIK OKRUGI.** Konsullik okrugi mezbon mamlakatdagi konsullik vakili o'z zimmasiga yuklangan konsullik vazi-

falarini (q.: *Konsul vazifalari*) amalga oshirish lozim bo‘lgan hudud hisoblanadi. Konsullik okrugi chegaralari konsulni yuborayotgan davlat va mezon davlat o‘rtasidagi o‘zaro kelishuv asosida belgilanadi. Konsullik okrugi konsulga tayinlanish vaqtida beriladigan *konsullik patentida* yoki uning lavozimga tayinlangani to‘g‘risidagi boshqa hujjatda ko‘rsatiladi. Chegaralar va okrug tarkibining o‘zgarishiga faqat ikki davlat o‘zaro kelishuvi asosidagina yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Qabul qilingan amaliyatga ko‘ra konsul o‘z okrugi doirasida mezon mamlakat rasmiy hukumatiga bevosita murojaat qila oladi. Markaziy hukumatga murojaat qilish lozim bo‘lganda esa u, odatda, o‘z davlati elchixonasi orqali harakat qiladi.

**KONSULLIK OKRUGI CHEGARASI.** Qabul qiluvchi mamlakatdagi konsullik muassasasi faoliyat hududi. Konsullik okrugi bir shahar bilan cheklanishi, tegishli ma’muriy birlikni o‘z ichiga olishi yoki undan ham kengroq hududga tarqalishi mumkin. Konsullik okrugi chegaralari *konsullik patentida* va *ekzekvatura-da* ko‘rsatilgan. Konsul konsullik okrugida mavjud shartnomalar, xalqaro huquq va qabul qiluvchi mamlakat qonunlarida ko‘zda tutilgan funksiyalarni bajarishga haqlidir. Konsullik okrugidan tashqarida uning faoliyatiga yo‘l qo‘yimasligi mumkin. Konsulliklarning soni va konsullik okrugini, odatda, qabul qiluvchi davlat va konsulni yuboruvchi davlat o‘rtasidagi kelishuv bilan belgilanadi. Ko‘pincha, konsullar soni va tumanlarning tarifi ushbu shartnomalarga tuzatish kiritish orqali qo‘srimcha bitim bilan belgilanadi.

**KONSULLIK PATENTI.** Konsullik patenti vakilning mustaqil konsullik muassasasiga rahbar etib tayinlanganini tasdiqlovchi rasmiy hujjat bo‘lib, rasmiy kanallar orqali mezon mamlakat hukumatiga yetkaziladi. Konsullik patentida tayinlanayotgan shaxsning to‘liq ismi sharifi, fuqaroligi, uning *konsullik rangi (martabasi)*, shuningdek, u vazifasini amalga oshirishiga vakolat berilgan *konsullik okrugi* tarkibi tavsifi keltirilgan bo‘ladi. Konsullik patentida ushbu konsullik vaki li tayinlangan muassasaning manzili ham ko‘rsatiladi. Shuningdek, Tashqi ishlar vazirligining ko‘rsatilgan lavozimga tayinlanayotgan

fuqaroni tan olish, unga konsullik muassasasining rahbari vazifasini bajarish uchun ruxsat berish to‘g‘risidagi murojaati ham bo‘ladi.

Konsullik patenti *yuborayotgan* davlat rahbari, hukumat rahbari yoki tashqi ishlar idorasi rahbari tomonidan beriladi. O‘zbekiston amaliyotida o‘zbekistonlik konsullik vakillari konsullik patenti ikki kishi – Tashqi ishlar vaziri va TIV Konsullik boshqarmasi boshlig‘i imzosi bilan beriladi.

Boshqa mamlakatlar amaliyotida konsullik patenti davlat rahbari, hukumat rahbari yoki tashqi ishlar idorasi rahbari tomonidan berilishi va imzolanishi mumkin.

**KONSULLIK RANGLARI.** (martabalari) (q.: *Diplomatik ranglar*) Odatda, konsullarning lavozimiga mos keladigan maxsus xizmat unvonlari bo‘lib, xuddi shu lavozim kabi nomlanadi; 4 guruhga bo‘linadi (*Konsullik munosabatlari to‘g‘risidagi 1963-yil Vena konvensiyasi* bo‘yicha klass deb nomlanuvchi): bosh konsul, konsul, vitse-konsul, konsullik agenti. Davlatlarning konsullik ranglari (martabalari) to‘g‘risidagi masalalar bo‘yicha amaliyotlari o‘xshash: tomonlar kelishuvi bo‘yicha konsullik muassasasi *klassi* belgilanadi va shu bilan uning rahbari rangi (martabasi) ham ma’lum bo‘ladi. Konsullikning boshqa mansabdar shaxslari uchun yagona tasnif yo‘q. Konsullik ranglari (martabalari) yuborgan davlat tomonidan beriladi va uning ichki ishi hisoblanadi. Bosh konsullik shtatida faqat bitta bosh konsul – konsullik muassasasi rahbari va bir nechta konsullik lavozimlari bo‘lishi mumkin.

Vakolatli davlat tomonidan o‘z xohishiga ko‘ra erkin tayinlanadigan (agar kelishuv bo‘yicha ularning soni cheklanmagan bo‘lsa) konsullik xizmatining qolgan xodimlari qat’iy xalqaro-huquqiy tasnifga ega emas; konsullik ranglarini o‘rnatish vakillik qilayotgan davlatning ichki ishi va uning qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Konsullik muassasasi boshlig‘i diplomatik vakolatxona orqali qabul qiluvchi davlatning tashqi ishlar vazirligiga konsullik mansabdar shaxslari to‘g‘risida ma’lumot beradi. Ba’zi mamlakatlarda (Fransiya, Shvetsiya, Shveysariya, Ekvador) konsullik ranglari hali ham sinflarga bo‘lingan. Rossiya Federatsiyasida maxsus konsullik

ranglari yo‘q, chunki Rossiya konsullik muassasalarining barcha xodimlari diplomatik xizmatda bo‘lib, diplomatik unvonlar berilgan.

O‘zbekistonda konsullik munosabatlariga oid barcha masalalar 1996-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining *Konsullik ustavi* bilan tartibga solinadi.

**KONSULLIK USTAVI.** Konsullik ustavi (nizomi) – davlatning chet eldag'i konsullari va konsullik muassasalari to‘g‘risida qonunchilik yo‘li bilan yoki hukumatning hujjati sifatida nashr etgan va, umuman, konsullik xizmatini tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi amaldagi qoidalarning kodifikatsiyalangan to‘plami.

Shuningdek, uni qonun kuchiga ega va konsullik muassasasining tashkil etilishi va faoliyatini muvofiqlashtiruvchi hamda konsullik mansabdor shaxslarining vazifalari va ularni amalga oshirish tartibi ni belgilovchi qoidalalar majmui deb atash ham mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi konsullik muassasalari faoliyatining asosiy me'yori hisoblangan Konsullik ustavi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.01.2019-yildagi “O‘zbekiston Respublikasining Konsullik ustavini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘RQ-517-son Qonun bilan (q.: ilova) tasdiqlangan.

Konsullik Ustavi O‘zbekiston konsullik xizmatini tashkil etish va faoliyatini huquqiy reglament doirasiga olib kirish yo‘lida qo‘yilgan muhim qadam bo‘ldi.

**KONSULLIK XIZMATI, O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSULLIK USTAVI ASOSIDA.** O‘zbekiston Respublikasida konsullik xizmatining huquqiy asoslarini “O‘zbekiston Respublikasining Konsullik ustavi” tashkil etadi. Konsullik ustavi *Konsullik munosabatlari to‘g‘risidagi 1963-yil Vena konvensiyasi* qoidalari asosida tayyorlangan. Konsullik ustavi to‘rt guruh konsullik xizmatiga oid munosabatlarni tartibga soladi: a) konsullik muassasalari va ularning faoliyatini tashkil etish; b) konsullik vazifalari va ularni bajarish tartibi; d) notarial harakatlar, konsulling hujjatlarini qonunlashtirish, konsullik yig‘imlari; e) imtiyozlar hamda immunitetlar va konsul vazifasining tugatilishi. Konsullik

nizomida konsullik xizmatiga oid quyidagi assosiy tushunchalarning mazmun-mohiyati ochib berilgan:

1) *Konsullik muassasasi* – O‘zbekiston Respublikasi diplomatiya vakolatxonasining konsullik bo‘limi, O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatda ta’sis etiladigan bosh konsulxonasi, konsulxonasi, vitse-konsulxonasi va konsullik agentligi;

2) *Konsul* – konsullik muassasasining rahbari bo‘lmish bosh konsul, konsul, vitse-konsul va konsullik agenti;

3) *Konsullikning mansabдор shaxsi* – konsullik vazifalarini bajarish ishi topshirilgan har qanday shaxs, jumladan, konsullik muassasasining rahbari, shuningdek, diplomatiya vakolatxonasi konsullik bo‘limining mudiri;

4) *Konsullik muassasasining xodimi* – konsullik muassasasiga xizmat ko‘rsatish yuzasidan konsullik muassasasida ma’muriy yoki texnikaviy vazifalarni bajarish bilan shug‘ullanayotgan har qanday shaxs;

5) *Konsullik okrugi* – konsullik vazifalarini bajarish uchun konsullik muassasasi ixtiyoriga berilgan hudud;

6) *Konsullik binolari* – konsullik muassasasi ehtiyojlari uchun foydalilanayotgan binolar yoki ularning bir qismi, shuningdek, ularga qarashli yer maydonlari;

7) *Kema* – O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i ostida suzib yurgan har qanday kema, harbiy kema bundan mustasno;

8) *Havo kemasi* – O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatga olingan har qanday havo kemasi, harbiy samolyot bundan mustasno.

O‘zbekiston Respublikasi qaysi davlatlar bilan konsullik munosabatlari o‘rnatgan bo‘lsa, shu davlatlarda konsullik muassasalarini ta’sis etadi. Konsullik munosabatlarini o‘rnatishga oid bitim bo‘lma-gan taqdirda, diplomatik munosabatlarning o‘rnatilishi konsullik munosabatlarning ham o‘rnatilishi deb hisoblanadi. Biroq, diplomatik munosabatlarning uzilishi o‘z-o‘zidan konsullik munosabatlaring ham uzilishini va O‘zbekiston Respublikasi konsullik muassasasining tugatilishini anglatmaydi. O‘zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari chet ellarda O‘zbekiston Respublikasining,

O‘zbekiston fuqarolari va yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qiladi. Konsullik muassasalari konsullik joylashgan davlatlar bilan O‘zbekiston Respublikasining do‘stona munosabatlari rivojlanishiga hamda ular bilan iqtisodiy, savdo, ilmiy-texnikaviy, madaniy va boshqa aloqalarning kengayishiga ko‘maklashadi. O‘zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi hamda konsullik joylashgan davlat ishtirokchi bo‘lgan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalarga, xalqaro prinsiplarga, ushbu Ustavga, O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga amal qiladi. Konsullik muassasalari O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga bo‘ysunadi va konsulxona joylashgan davlatlarga O‘zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonasi boshlig‘ining umumiy rahbarligida ish ko‘radi. O‘zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalarining konsullik bo‘limlarini konsullik bo‘limlari mudirlari boshqaradi. Bosh konsulxonalar, konsulxonalar, vitse-konsulxonalar va konsullik agentliklarini tegishli bosh konsullar, konsullar, vitse-konsullar va konsullik agentlari boshqaradi. O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalar bo‘lmagan davlatlarda konsulxona joylashgan davlatning roziligi bilan konsul zimmasiga diplomatik vazifalar ham yuklatishi mumkin. Konsullik muassasasining manzili, uning darajasi va konsullik okrugi konsulxona joylashgan davlat bilan kelishilgan holda belgilanadi. Konsullik muassasasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan hamda konsullik muassasasining nomi O‘zbekiston Respublikasining davlat tilida yozilgan muhrga ega bo‘ladi. Konsullik muassasasi o‘zi egallab turgan binoga O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tushirilgan hamda O‘zbekiston Respublikasining davlat tilida va konsulxona joylashgan davlat tilida konsullik muassasasining nomi yozilgan peshlavha (q.: *Konsullik shiti*) o‘rnatish huquqiga ega. Konsullik muassasasi joylashgan bino ustida O‘zbekiston Respublikasi o‘z Davlat bayrog‘ini o‘rnatishga haqli. Konsul o‘z qarorgohiga, shuningdek, o‘z xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida o‘z transport vositalarida O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘ini o‘rnatishga

haqli. Konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari va xodimlari O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida davlat xizmatida bo'ladilar. Faqat O'zbekiston Respublikasining fuqarosigina konsullikning mansabdor shaxsi bo'lishi mumkin. Konsul lavozimiga tay-inlanayotganida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligidan uning konsullik okrugi belgilab berilgan konsullik patentini oladi. Konsul konsulxona joylashgan davlatning roziliginи (*ekzektvatur-asini*) oлгандан keyin o'z vazifalarini bajarishga kirishadi. Uning bu vazifaga tayinlanganligi to'g'risida konsulxona joylashgan davlat ma'murlari xabardor qilinadi. Agar konsul biron sababga ko'ra o'z vazifalarini bajara olmaydigan bo'lsa yoki uning lavozimi vaqtinchada bo'sh bo'lsa, konsulning vazifalarini bajarish ushbu konsullik muassasasining yoki O'zbekiston Respublikasining konsulxona joylashgan davlatdagи boshqa konsullik muassasasining boshqa mansabdor shaxsi zimmasiga yoxud shu davlatdagи O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonasingdi diplomatiya xodimlaridan biri zimmasiga yuklatiladi. Konsul Konsullik ustavida hamda O'zbekiston Respublikasi bilan konsulxona joylashgan davlat o'rtaida imzolangan xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan vazifalarni bajaradi. Konsul o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni shaxsan bajaradi yoki ularning bajarilishini konsulxonaning boshqa mansabdor shaxsiga topshiradi. Konsul boshqa davlatning konsullik vazifalarini faqat O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining ko'rsatmasiga binoan va konsulxona joylashgan davlat roziligi bilan bajarishi mumkin.

Konsul o'zining konsullik okrugi doirasida konsullik muassasasining faoliyati bilan bog'liq barcha masalalar yuzasidan konsulxona joylashgan davlat ma'murlariga murojaat etishi mumkin. Konsul har yili kamida bir marta konsullik okrugini aylanib chiqishi shart. Konsul O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va yuridik shaxslarining konsulxona joylashgan davlatning qonun hujjatlariga ko'ra va O'zbekiston Respublikasi va konsulxona joylashgan davlat ishtirokchi bo'lgan xalqaro shartnomalarga, shuningdek, xalqaro prinsiplarga ko'ra ularga berilgan barcha huquqlardan foydalana olishlari uchun chora-tadbirlarni ko'rishi shart. Konsul yozma arizalarni

ham, og‘zaki arizalarni ham qabul qilishi shart. Konsul O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslarining buzilgan huquqlari tiklanishining chora-tadbirlarini ko‘rishi shart. Konsul uning konsullik okrugida doimiy yashayotgan hamda vaqtincha yashab turgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining hisobini yuritadi. Konsul O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarining konsullik okrugi doirasida turgan vakillariga o‘z xizmat vazifalarini bajarishlarida ko‘maklashadi. Konsul uning konsullik okrugida vaqtincha yashab turgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini konsulxona joylashgan davlatning qonunlari va boshqa normativ hujjatlaridan, shuningdek mahalliy urf-odatlardan xabardor qiladi. Konsulning O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elda bo‘lishlariga doir masalalar bo‘yicha farmoyishlari ular uchun majburiy kuchga egadir.

Konsullik muassasasida notarial ish yuritish O‘zbekiston Respublikasining davlat tilida amalga oshiriladi. Agar notarial harakatni bajarish iltimosi bilan murojaat qilgan shaxs ish yuritilayotgan tilni bilmasa, notarial harakatni bajarayotgan konsul yoki konsul taniydigan tarjimon rasmiylashtirilayotgan hujjatlarning matnlarini unga tarjima qilib berishi lozim. Agar O‘zbekiston Respublikasida istiqomat qilgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi foydasiga meros ochilganligi ma’lum bo‘lib qolsa, konsul meros va ehtimol tutilgan merosxo‘rlar to‘g‘risida o‘zi bilgan barcha ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga darhol xabar qilishi shart. Agar notarial harakatni bajarish O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga zid bo‘lsa, konsul bunday harakatlarni bajarishni rad etadi. Agar hujjatlar O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari talablariga mos kelmasa yoki o‘z mazmuniga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining davlat manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo‘lsa yoxud fuqarolarning sha’ni va qadr-qimmatiga putur yetkazuvchi ma’lumotlarga ega bo‘lsa, konsul bunday hujjatlarni notarial harakatlarni bajarish uchun qabul qilmaydi. Notarial harakatni bajarish to‘g‘risidagi shaxsning iltimosiga binoan, unga rad etishning sabablari bayon qilinishi va uning shikoyat qilish tartibi tushuntirib

berilishi lozim. Konsul o‘z konsullik okrugidagi mahalliy ma’murlar vakillarining ishtirokida tuzilgan yoki ana shu ma’murlardan kelgan hujjatlar va aktlarni qonunlashtiradi. O‘zbekiston Respublikasining organlari ana shunday hujjatlar va aktlarni, agar O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida yoki O‘zbekiston Respublikasi va konsulxona joylashgan davlat ishtirokchi bo‘lgan xalqaro shartnomalarda o‘zgacha hol ko‘zda tutilgan bo‘limasa, konsul qonunlashtirganidan keyingina qarab chiqish uchun qabul qiladi. Konsulning hujjatlarni qonunlashtirishining mohiyati ana shu hujjatlar va aktlardiagi imzolarning haqiqiyligini va hujjatlar bilan aktlarning konsulxona joylashgan davlat qonunlariga muvofiqligini aniqlash hamda shahodatlashdan iboratdir. Konsulning hujjatlarni qonunlashtirish tartibini O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga zid bo‘lgan yoki o‘z mazmuniga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining davlat manfaatlariga zarar yetkazishi yoxud fuqarolarning sha’ni va qadr-qimmatiga putur yetkazuvchi ma’lumotlarga ega hujjatlar va aktlar qonunlashtirilmaydi.

**KONSULLIK SHITI (PESHLAVHASI).** Bu yuboruvchi davlatning gerbi va konsullik muassasasi nomi shu davlat va qabul qiluvchi davlat tillarida aks etgan osma lavha, belgi. Konsullik shiti konsullik vakolatxonasi hududining asosiy kirish qismi tashqarisida, ko‘zga tashlanuvchi joyida osiladi.

**KONSUL(LIK) EKZEKVATURASI.** (lot. *yexsequare* – aniqlash, o‘rnatish) Chet el konsulini qabul qiluvchi davlatning hukumi tomonidan tan olinishini tasdiqlovchi rasmiy hujjat. Ekzekvaturaning yagona shakli mavjud emas. Ekzekvatura shakli qabul qiluvchi davlatning ichki qonunchiligi bilan o‘rnatiladi. U alohida hujjat yoki konsullik patentidagi yozuv, ba’zan esa ommaviy axborot vositalarida ma’lum bir shaxs konsullik muassasasining rahbari sifatida rasmiy hokimiyat organlari (qidaga ko‘ra, tashqi ishlar idorasasi) tan olinganligi va unga ko‘rsatilgan konsullik okrugi doirasida konsullik funksiyalarini bajarishga rozilik berilganligi to‘g‘risidagi axborot bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida chet el konsuli O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan ekzekvatura berilgandan so‘ng o‘z vazifasini bajarishga kirishishi mumkin.

Konsullik ekzekvaturasini olgunga qadar konsullik muassasi rahbariga o‘z vazifalarini vaqtincha bajarishiga yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Konsullik ekzekvaturasi mustaqil konsullik muassasalarini boshqarayotgan bosh konsul, konsul, vitse-konsul va konsullik agentiga muayyan davlat boshlig‘i nomidan va uning imzosi bilan yoki davlat nomidan, tashqi ishlar vaziri imzosi bilan *konsullik patenti* (konsul qilib tayinlangani haqidagi hujjat) ko‘rsatilgandan keyin topshiriladi.

**KONSULLIK HUQUQI.** Konsullik muassasalarining huquqiy holati va faoliyatini tartibga soluvchi hamda konsullik mansabdor shaxslarini tayinlash (chaqirib olish), ularning funksiyalari, huquq va majburiyatları, imtiyoz va immunitetlarini belgilovchi xalqaro huquqiy prinsip va normalar yig‘indisidir. Quyidagilar konsullik huquq manbalari hisoblanadi: xalqaro shartnoma, xalqaro odad va davlatning qonunlari.

**KONSULXONA.** Davlatning tashqi aloqalarini olib boradigan idorasi bo‘lib, muayyan vazifani bajarish uchun o‘zga davlat hududida (shu davlat ruxsati bilan) ta’sis etiladi. *Konsul* xizmat ko‘rsatadigan tuman va konsulxona turadigan joy har ikki davlat tomonidan kelishilgan holda belgilanadi. Konsulxona huquqi, imtiyozi va immuniteti: o‘z davlati bayrog‘i va gerbidan foydalanish huquqini, konsulxona binosi, konsullik arxivlarining daxlsizligini, soliqlardan ozod bo‘lishini, o‘z hukumati, diplomatik vakolatxonasi bilan, o‘z davlatining boshqa konsulxonalarini, ular qayerda joylashganidan qat’i nazar, erkin aloqa qilib turishni, ayni vaqtida shifrlar, diplomatik va konsullik kuryerlaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. (q.: *Konsullik*)

**KONSULXONA YER UCHASTKASI.** Bu tushuncha konsulxonaga tegishli hovli, bog‘, avtomobilarni qo‘yish joyini anglatadi. Konsulxona egallab turgan yer uchastkasi konsulxona davlat hududining bir bo‘lagi deb hisoblanadi va unda shu davlatning

qonunlari va qarorlari konsullik muassasining daxlsizligi va imtiyozlarini hisobga olgan holda amal qiladi.

**KONSUL QONUNIYLASHTIRISHI.** (legalizatsiya, legal-lashtirish) Konsul tomonidan konsullik okrugi organlari tasdiqlagan yoki ulardan chiqayotgan hujjatlarga qo‘yilgan imzolarning haqiqiyligi hamda hujjatlarning qabul qilayotgan davlatning qonunlariga muvofiqligini o‘zining shaxsiy imzosi va konsullik muassasining muhri bilan tayinlanishi va guvohlik keltirilishi. Shuningdek, amaliyotda yuborayotgan davlatda tuzilgan va qabul qilayotgan davlatda taqdim etishga mo‘ljallangan hujjatlarning konsul legalizatsiyasi ham mavjud. Konsul legalizatsiyasi hujjatlarning xalqaro munosabatlarda huquqiy kuchga egaligini tasdiqlaydi. Konsul legalizatsiyasi tartibi O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan o‘rnataladi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid keladigan, mazmuniga ko‘ra O‘zbekiston manfaatlariga zarar yetkazadigan yoki O‘zbekiston fuqarolarining sha’ni va qadr-qimmatini kamsitadigan ma’lumotlardan iborat hujjatlar legalizatsiya qilinmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konsullik ustavining XI bobida Konsul legalizatsiyasi masalalarining tartibi belgilangan (69, 70-moddalar).

**KONFEDERATSIYA.** (lot. *confoederatio* – ittifoq, uyushma) Federal shartnomma tuzgan va shu bilan umumiyligi muammolarni (tashqi siyosiy, harbiy, valyuta-moliya, bojxona, aloqa va kommunikatsiyalar sohalardagi faoliyatini) muvofiqlashtirish, hal qilish va birlgilikda harakatlarni amalga oshirish uchun birlashgan suveren davlatlar ittifoqi bo‘lib, xalqaro – huquqiy xarakterga ega.

Federatsiya, ya’ni birlashgan davlatlarda bitta qo‘mondonlik, bitta pul birligi va yagona qurolli kuchlari bo‘lsa, Konfederatsiyada buning aksi – turli pul birliklari va ittifoq davlatlarining o‘z qo‘mondonligiga ega qurolli kuchlari bo‘ladi. Konfederatsiya a’zolari o‘zlarining davlat suverenitetini, mustaqil boshqaruv tizimini, qonunchiligini saqlab qoladilar va cheklangan miqdordagi muammolarni hal qilish: mudofaa, tashqi siyosatni hal qilish orqali Ittifoq vako-

latiga o‘tkazadilar. Jahon tarixida konfederatsiyalar vujudga kelib, ulardan federativ davlatlar ajralib chiqqanligi bilan bog‘liq holatlar uchrab turadi.

**KONFRONTATSIYA.** (fran.: *confrontation* – qarama-qarshilik) Qarama-qarshilik, qarshilik, ijtimoiy tizimlarning to‘qnashushi, sinfiy manfaatlar, e’tiqodlar ayriligi (masalan, qarama-qarshi siyosat, harbiy qarama-qarshilik, qarashlarning bir-biriga zidligi).

**KONSESSIYA, XALQARO.** (lot. *soncessio* – ruxsat, konsessiya; ing. *international concession* – xalqaro konsessiya) Xalqaro konsessiya – davlatning chet elliklarga konsessiya shartnomasiga muvofiq o‘z hududida muayyan sanoat va iqtisodiy faoliyatni amalgalashirish huquqini berishi. Xorijiy xususiy shaxsga yoki tashkilotga xalqaro konsessiya berish uni taqdim etgan davlat qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Hozirgi amaliyotda ichki konsessiya ham mavjud.

**KONSERT DIPLOMATIYASI.** (q.: *madaniy diplomatiya*)

**KONFERENSIYA DIPLOMATIYASI.** Nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish va mojarodan keyingi vaziyatlarda siyosiy muvozanatni o‘rnatishdagi ko‘p tomonlama hamkorlikning eng samarali usullaridan biri. Bugungi kunda bu global muammolarni hal qilishda va millionlab odamlar manfaati uchun tubdan yangi inqilobiy strategiyalarga qaytishga imkon beradigan innovatsion metodologiyani topishning muhim vositasidir. Konferensiya diplomatiyasi jahon hamjamiyati tinch-totuv yashash ideallariga amal qilish usullaridan biri bo‘lib qolmoqda.

**KORPORATOKRATIYA.** (ing. *corporatocracy* – korporatsiya hokimiyyati) Davlat va siyosiy tizimining idora qilish usuli bo‘lib, quadratli va boy kompaniyalar tomonidan hokimiyatni boshqarishdir.

**KUZATUVCHILAR.** Davlatning xalqaro anjumanlarga birinchi qo‘llardan ma’lumot olish maqsadida yoki shunday bahona bilan yuborilgan, ammo ularning ishlarida rasmiy ravishda qatnashmaydigan va muzokaralar olib borish hamda tuzilgan hujjalarni imzolash vakolatiga ega bo‘lmagan vakillari. Odatda, yuboruvchi davlatning kuzatuvchi tayinlashiga ushbu konferensiyada prinsipial yoki amaliy sabablarga ko‘ra ishtirok etishni va bundan tashqari,

qabul qilingan qarorlar bilan o‘zini bog‘lashni istamagan holatlarda qo‘l uriladi, lekin boshqa tomondan u muhokama qilinayotgan masalalarga o‘z qiziqishini ta’kidlashni zarur deb biladi va ishtirokchilarga sahna ortidan bosim o‘tkazishga intiladi.

**KURYER VARAG‘I.** Diplomatik kuryerning maqomi va diplomatik pochtani tashkil qiluvchi joylarning soni ko‘rsatilgan, diplomatik pochtani olib borish huquqini beruvchi rasmiy hujjat. Kuryer varag‘i tashqi aloqalar idorasi yoki diplomatik pochta tegishli bo‘lgan davlatning diplomatik vakolatxonasi tomonidan berilib, tashqi ishlar idorasi yoki pochta jo‘natilgan davlatning diplomatik vakolatxonasi tomonidan vizalashtirilishi lozim. Davlatlar o‘rtasida kelishilgan yoki chet davlat qoidalari talab qilmagan hollarda vizalashtirishning hojati yo‘q.

## L

**LEGAT.** Qadimiy davlatlarda rim-katolik cherkovi vakili. Legatning huquqiy maqomi diplomatik huquq me’yorlari, *konkor-datlari* (biror davlat hukumati va Vatikan o‘rtasida tuzilgan shart-noma) va yashab turgan davlatning qonunchiligi bilan belgilanadi. Legatlar muvaqqat, favqulodda va doimiy vakolatga ega bo‘lishlari mumkin. Legatlarning quyidagi uch turi bo‘ladi: 1. Rim papasi tomonidan katolik davatlarga cherkov ishlari bo‘yicha jo‘natiladigan kardinallar. 2. Papaning diplomatik vakillari (nunsiylar). 3. Prelatlar – unvonini martabasiga ko‘ra olgan katolik cherkovining oliy marta-bali ruhoniylari.

**LOBBI (LOBBISTLAR).** (ing. *lobby* – yo‘lak, sahna orti) Ko‘proq AQSh, Kanada va kamroq boshqa kapitalistik davlatlarda faoliyatlari davlat idoralari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga ta’sir o‘tkazishga qaratilgan guruh yoki alohida shaxslarni anglatadigan termin. Eng kuchli lobbistlar yirik kapital manfaatlarini, xususan, harbiy-sanoat kompleksini yoqlashadi.

Zamonaviy demokratik jamiyatda o‘zlarining talablarini kuch tuzilmalariga yetkazishga intilayotgan odamlarning turli xil ixti-

yoriy birlashmalari (qiziqish guruhlari) mavjud. Ulardan ba’zilari iqtisodiy dastaklardan foydalanishadi, boshqalari unchalik sezilarli bo‘lмаган hokimiyat yo‘laklarida harakat qilishadi. Ushbu uyushgan (qiziqish) guruhlarning hokimiyatga ta’siri eng keng tarqalgan shakli bu lobbidir.

G‘arbning rivojlangan mamlakatlarida lobbichilar yuqori malakali mutaxassislardan iborat bo‘lib, ular kerakli ma’lumotlarni to‘plashi va rasmiylarni o‘zlarining manfaatlarini himoya qiladigan guruh foydasiga qaror qabul qilishlariga ishontirishlari mumkin. Ko‘pincha, lobbistlar foiz belgilovchi guruhlar va siyosiy arboblar, shu jumladan qonun chiqaruvchilar va hukumat a’zolari o‘rtasida turli xil bitimlar tuzishda vositachi rolini o‘ynaydilar va shu orqali mamlakat siyosiy yo‘nalishini shakllantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadilar. Shunday qilib, lobbizm demokratiya mexanizmida muhim o‘rin tutadi.

**LONDON KLUBI (YADROVIY KLUB).** Yadroviy qurolni tarqatmaslik rejimiga rioya qilish maqsadida yadroviy materiallar, uskunalar va texnologiyalar ishlab chiquvchi davlatlarning kelishuv asosida tashkil etilgan guruhi. Bunday shartnomaga 1975-yilda Londonda SSSR, AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, GFR, Yaponiya va Kanada tomonidan erishilib, “Yadro eksporti bo‘yicha asosiy prinsiplar”ga imzo qo‘yilgan. 1976–77-yillarda klubga GDR, ChSSR, PXR, Italiya, Niderlandiya, Belgiya, Shvetsiya, Shveysariya a’zo bo‘lishgan.

## M

**MADANIY DIPLOMATIYA.** Xalq diplomatiyasi turi va “yumshoq kuch” siyosatining ajralmas qismi bo‘lib, u “o‘zaro tushunishni mustahkamlash uchun davlatlar va ularning xalqlari o‘rtasida fikr, ma’lumot, san’at asarlari va madaniyatning boshqa tarkibiy qismlarini almashishni” o‘z ichiga oladi. Madaniy diplomatiyaning vazifasi xalqlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash,

ijtimoiy-madaniy hamkorlikni kengaytirish va siyosiy-iqtisodiy maqsadlarga erishishga ko‘maklashib, milliy manfaatlarni ilgari surishdir. Ko‘pincha, e’tibordan chetda bo‘lsa ham, madaniy diplomatiya milliy xavfsizlik maqsadlariga erishishda muhim rol o‘ynaydi. Madaniy diplomatiya obyektlari sirasiga kinematografiya, xoreografiya, musiqa, suratkashlik, haykaltaroshlik, ko‘rgazmachilik faoliyati, ta’lim dasturlari, ilmiy almashuvlar, kutubxonalar ochish, badiiy tarjimachilik, madaniy dasturlarni TV orqali namoyish va boshqalarni kiritish mumkin.

1992-yil 15-mayda Toshkentda MDHning 11 mamlakati tomonidan imzolangan Madaniyat sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim ko‘p tomonlama madaniy diplomatiyani tartibga soluvchi birinchi huquqiy hujjatlardan biri bo‘ldi. O‘zining barcha kamchiliklariga qaramay, Sharhnama, masalan, havaskor xalq san‘atini rivojlantirish, milliy madaniy markazlarni tashkil etish va h.k.ga chaqiradi.

Insoniyatning butun tarixi madaniy diplomatiya bilan bog‘liq. “Madaniy diplomatiya” atamasi esa yaqindagina paydo bo‘lgan. Sayohatchilar, musiqachilar, savdogarlar, shoirlar, yozuvchilar, san‘atkorlar doimo “norasmiy madaniy diplomatlar” bo‘lib, o‘z mamlakating urf-odatlari va an‘analarini boshqa odamlarga targ‘ib qilishgan. Qizig‘i shundaki, birinchi oddiy savdo yo‘llarining paydo bo‘lishi va birlashishi madaniy diplomatiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan.

**MAXSUS ATTASHE.** Diplomatik amaliyotda diplomatik vazifalarni ado etuvchi attashe diplomatik rangiga ega lavozimlar bilan bir qatorda, quyidagi maxsus attashelarni tayinlash tajribasi ham bor:

1. Harbiy, harbiy-dengiz, harbiy – havo, mudofaa masalalari bo‘yicha attashelar. Mazkur attashelar ularni tayinlagan davlat harbiy idorasining mezbon davlat harbiy idorasi qoshidagi rasmiy namoyandalari hisoblanadi. Ular diplomatik vakolatxona tarkibiga kiradi va shu vakolatxona rahbarining harbiy masalalar bo‘yicha maslahatchilari hisoblanadi.

2. Press-attashe – elchixonanining matbuot, elektron ommaviy axborot organlari bilan aloqa olib boruvchi xodimi.

3. Attashe – muayyan bir davlatning vazirliklari va idoralarining chet ellardagi o‘z davlati elchixonalarining tarkibida xizmat qiluvchi namoyandalari. Ular mezbon davlatning kasbiy o‘xshash vazirliklari va idoralari bilan aloqa qilib turishga javob beradilar. Odatda, ular elchixonaning yuqori lavozimlarini (maslahatchi, bиринчи котиб) egallashadi.

**MAXSUS MISSIYA.** Tashqi munosabatlarning muvaqqat xorijiy organi. Maxsus missiya haqidagi 1969-yil Konvensiyasining 1-moddasida aytishicha, maxsus missiya vakillik va muvaqqat xarakterdagи missiya bo‘lib, bir davlatdan o‘zga davlatga belgilangan masalalarni muhokama qilish yoki o‘sha davlatda ma’lum vazifani bajarish uchun yo‘llanadi. Maxsus missiyaning vazifalari *qabul qiluvchi va yuboruvchi* davlatlarning o‘zaro kelishuviga ko‘ra belgilanib, doimiy diplomatik vakolatxona vazifalariga qaraganda cheklangan bo‘ladi, shunga ko‘ra ular shu maxsus missiyani yuborgan davlatning umumiyligini amalga oshirolmaydi. Maxsus missiya davlatlararo diplomatik yoki konsullik munosabatlar mavjudligidan qat’i nazar yo‘llanishi va qabul qilinishi mumkin, mazkur munosabatlarning to‘xtatilishi esa maxsus missiyaning faoliyatini to‘xtata olmaydi.

**MAXFIY SHARTNOMALAR.** Hukumatning xalqdan yashirin ravishda tuzgan shartnomalari. Diplomatiya tarixida bu nom ostida, odatda, Birinchi jahon urushi arafasida va urush vaqtida imperialist kuchlarning hukumatlari o‘zaro tuzgan maxfiy shartnomalar tushuniladi. Yashirin shartnomalarni e’lon qilish bolsheviklar partiyasining urushning imperialistik mohiyatini fosh qilish maqsadida Muvaqqat hukumatga qo‘ygan talablaridan biri bo‘lgan.

**MEZBON MAMLAKAT.** Elchixona, missiya, konsullikni qabul qilgan va akkreditatsiya bergen mamlakat.

**MEMORANDUM.** (lot. *memorandum* – yodda tutish kerak narsa) Ma’lum bir davlatning diplomatik hujjati. Memorandumning o‘ziga xos belgisi – bu hujjatda biror masalaning faktlari va huquqiy tomonlari batafsil bayon etilgan bo‘ladi. Misol uchun bir davlat hu-

kumatining boshqa davlat hukumatiga xalqaro vaziyat va tashqi siyosatning asosiy muammolari bo'yicha memorandumi.

Memorandum diplomatik notaga ilova bo'lishi mumkin. Alohida hujjat sifatida memorandum tashqi ishlar idorasi yoki xorijiy muassasa (elchixona) blankasiga yoziladi, murojaat va maqtov so'zлari bo'lmaydi, matn oxirida uning jo'natilgan kuni va joyi ko'rsatiladi.

Memorandumda xalqaro masalaning asl mohiyati batafsil bayon qilinadi, u yoki bu holatlar tahlil qilinadi, davlatning tutgan yo'li asoslab beriladi. Memorandum ikki xil bo'ladi: matnni qisqartmaslik yoki undagi masalaga to'liq izoh berish maqsadida shaxsiy yoki verbal notaga ilova qilingan holda yoki kuryer orqali topshiriladigan mustaqil hujjat sifatida.

**MILLATLAR LIGASI.** Millatlar Ligasi – dunyo davlatlarining xalqaro tashkiloti hisoblangan. Tashkilotning asosiy vazifasi – tinchlikni va xalqaro xavfsizlikni ta'minlashdan iborat bo'lishi kerak bo'lgan. Bunday tashkilotni tuzish tashabbusi bilan AQSh Prezidenti V. Vilson chiqqan va bu uning 14 moddali tinchlik dasturida o'z ifodasini topgan. Antantaning yetakchi davlatlari (Buyuk Britaniya va Fransiya) bu tashabbusni qo'llab-quvvatlagan.

1919-yilning 14-fevral kuni dunyoning 44 davlati tashkilotning Nizomini tasdiqlagan. Tashkilotning oliv organi Assambleya hisoblangan. Uning ishida barcha a'zo davlatlar ishtirok etgan. Assambleyalar oralig'ida Liga Kengashi uning ishiga rahbarlik qilgan. Unga katta vakolatlar berilgan. Besh davlat (AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya va Yaponiya) Kengashning doimiy a'zolari bo'lgan.

Nizom aggressor davlatga nisbatan birgalikda harbiy va iqtisodiy sanksiyalar (choralar) qo'llashni ham ko'zda tutgan. Biroq, Nizomda qanday davlat aggressor davlat deyiladi, degan savolga aniq javob bo'limgan. Bu esa har bir davlatga xalqaro nizomlar xarakterini o'zicha talqin etish imkonini beradi.

Millatlar Ligasi o'zi faoliyat ko'rsatgan 1946-yilgacha amalda biror marta ham jazo choralarini qo'llay olmagan. Bunga Liganing amalda Buyuk Britaniya va Fransiya siyosatining quroliga aylanib

qolganligi sabab bo‘lgan. (AQSh kongressi Versal shartnomasini tasdiqlamaganligi uchun Liga a’zolidigan chiqqan.)

Nizomda uning a’zolari zimmasiga “barcha a’zolarning hududiy yaxlitligini hurmat qilish va asrash” vazifasi ham yuklatilgan. Biroq, amaldagi Liganing hech bir a’zosi bu vazifani bajarishga astoydil intilgan emas.

Millatlar Ligasining Nizomida “Mandat tizimi” deb atalgan xalqaro huquqning yangi bir normasi belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra, Millatlar Ligasi mustamlaka bo‘lib kelgan yoki bo‘lib qolayotgan hududni boshqarish huquqini u yoki bu davlatga topshirishi mumkin edi. Bunday huquqni olgan davlat o‘sha mustamlakani mustaqillikka tayyorlashi lozim edi. Aslida bu ayyorona tizim mustamlakalarini bo‘lib olish siyosatini niqoblovchi mash’um vosita vazifasini o‘tagan.

**MILLATLAR SALYUTI.** Millatlar salyuti davlat yoki hukumat rahbari rasmiy tashrifi munosabati bilan chet el kemasining rasmiy do‘stona tashrif bilan port – bandarga kirib kelishi chog‘idagi va boshqa qator hollardagi salomlashish yoki ehtirom bildirishning o‘ta tantanali shakli. Odatda, bu 21 martalik artilleriya salyuti hisoblanadi.

**MILLIY REJIM.** Davlatda chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga nisbatan o‘rnataladigan rejim turlaridan biri (boshqa turlari: diplomatik rejim, mumkin qadar qulaylik berish rejimi).

Boshqacha aytganda xorijiy kompaniyalar va jismoniy shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi huquqiy tushuncha. Muayyan mamlakatda milliy rejim ostida ishlaydigan xorijiy yuridik yoki jismoniy shaxslar, ma’lum bir mamlakatda yuridik va jismoniy shaxslar kabi bir xil imtiyozlarga ega bo‘lib, odatda soliq imtiyozlari va import soliqlarini to‘lash qobiliyatini nazarda tutadi. Jismoniy shaxslarga milliy rejimning berilishi chet el fuqarolariga ushbu davlat fuqarolari bilan bir qatorda mulk huquqini, yuridik yordamni, sudda o‘z manfaatlarini himoya qilish qobiliyatini kam hollarda ijtimoiy yordamni taqdim etishi mumkin.

**MISSIYA (VAKOLATXONA).** Elchixona va vakolatxona ikki xil diplomatik vakolatxona hisoblanadi. Hozirgi vaqtda elchixonalar sifatida diplomatik vakolatxonalar sonini ko‘paytirish tenden-

siyasi kuchaydi. Diplomatik vakolatxonalarini bir darajadan ikkinchi darajaga o'tkazish alohida davlatlar o'rtasidagi munosabatlar yana-da yaqin va do'stona holga kelganida ro'y beradi. Bunday holatlarda tegishli davlatlar hukumatlari do'stona xalqaro munosabatlar hola-tini ta'kidlashni istab, diplomatik vakolatxonalar darajasini oshirish uchun vakolatxonani elchixonaga aylantirishga qaror qilishadi va vakillarni elchilar darajasiga ko'tarishadi.

Doimiy diplomatik vakolatxona davlatlarning o'zaro roziligi va diplomatik aloqalar o'rnatilishi natijasida tashkil etilgan (*Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi 1961-y. Vena konvensiyasining 2-moddasi*). Davlatlar o'rtasidagi doimiy diplomatik aloqalarni dav-latning tashqi aloqalar organi sifatida ishlaydigan diplomatik vako-latxonalarini amalga oshiradi.

**MISSIYANI QO'SHISH** (kumulyatsiya) (lot. sumulo to'play-man, ingliz tilida cumulating mission iborasi qo'llanadi).

Bu: a) bir shaxsning o'z davlati vakilligini bir necha davlatlarda o'tishi;

b) bir shaxsning bir necha davlatlar – o'z davlati va ayrim boshqa davlatlar nomidan uchinchi davlatda vakillik vazifalarini o'tashi;

d) bir davlatning o'z apparati orqali ikkinchi davlatda xalqaro vakillik vazifalarini ado etishi.

Diplomatik huquqda vakolatlarni birlashtirish instituti mavjud. Bu atama ikki xil hodisani anglatadi. Bitta shaxs o'z mamlakatini bir necha mamlakatda namoyish etganda missiyaning birlashishi deb tushuniladi. Bu, aslida, ushbu vakilning vazifasini murakkablashti-radi. Ushbu misol amalda kam emas.

Xalqaro huquq ushbu munosabatlarni *Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi 1961-yil Vena konvensiyasining 5-moddasida ifoda etil-gan norma asosida tan oladi va tartibga soladi*. Unda aytishicha, agar biron-bir qabul qiluvchi davlat bir mamlakat vakolatxona rahbariga nisbatan e'tiroz bildirmasa, u bir yoki bir necha mamlakatlardagi va-kolatxona rahbari sifatida akkreditatsiya qilinishi mumkin. Xullas, ku-mulyatsiya – bu ushbu shaxsning bir necha davlat – o'zining davlati va boshqa davlatlarning uchinchi davlatdagagi vakilligini o'tashi.

Ba’zi davlatlar amaliyotida davlat boshlig‘i huzuridagi diplomatik vakolat lavozimini va doimiy vakili lavozimini har qanday xalqaro tashkilot bilan birlashtirish holatlari mavjud (Vena Konvensiyasining 5-moddasi, 3-band). Agar diplomatning faoliyati mavjud tuzumga, qabul qiluvchi mamlakatdagi hukumatga qarshi qaratilgan bo‘lsa, bu davlat *dismissal* (q.: *Dismisł*) deb nomlangan qoidani qo‘llashi mumkin. Bu vakilga xususiy shaxs sifatida qarashni anglatadi. Buni esa zudlik bilan mamlakatni tark etishga taklif sifatida tushunish kerak.

### **MODUS OPERANDI.** (q.: *Modus prosedendi*)

**MODUS PROSEDENDI.** (lot. *modus prosedendi* – harakat tarzi) Diplomatik amaliyot atamasi bo‘lib, manfaatdor tomonlar kelishgan holda olgan yoki bir tomon taklif etgan u yoki bu majburiyat yoki harakatni qay tarzda va qanday tartibda amalga oshirish tarzini anglatadi. Sinonim sifatida ba’zan xuddi shu ma’noni anglatuvchi “*modus operandi*” tushunchasi ham qo‘llanishi mumkin.

**MORATORIY.** Xalqaro huquqda, shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishini kechiktirish yoki ushbu huquqiy munosabatlarga ta’sir qiluvchi holatlar boshlanguncha yoki tugamaguncha, har qanday xatti-harakatlardan voz kechish bo‘lib, ular bo‘yicha xalqaro huquqning manfaatdor subyektlari o‘zaro kelishib olishlari mumkin. Ko‘pincha bunday kelishuvga o‘zaro tushunish tamoyili asosida erishiladi, garchi diplomatiya tarixida moratoriyning ayrim hollarda bir tomonlama e’lon qilingani to‘g‘risida ko‘plab misollarni keltirish mumkin: masalan, faqat 1985-yilning o‘zida SSSR o‘zining o‘rta masofali harbiy raketalarini joylashtirish va har qanday yadro sinovlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi moratoriyni ikki marta e’lon qilgan. 1977-yilda Antarktika shartnomasi ishtirokchilari tomonidan ushbu mintaqada sanoat manbalarini qidirish va foydali qazilmalarни o‘zlashtirishning huquqiy rejimi to‘g‘risida xalqaro kelishuvga erishilgunga qadar moratoriylar e’lon qilgan.

**MUVAQQAT ISHLAR VAKILI.** Muvaqqat ishlar vakili – diplomatik vakolatxona rahbarining vazifalarini vaqtincha bajaruvchi shaxs. Bu lavozimga vakolatxonaning yuqori diplomatik rang-

dagi xodimlaridan biri vakolatxona rahbarining yo‘qligida uning vazifalarini ado etish uchun tayinlanadi.

Muvaqqat ishlar vakili diplomatik vakolatxona rahbarining ayrim protokol ehtiromlaridan tashqari hamma huquq va imtiyozlaridan foydalanadi.

Muvaqqat ishlar vakilini tayinlash uchun agreman so‘ralmaydi. Muvaqqat ishlar vakilini tayinlanishi haqidagi xabarni diplomatik vakolatxona rahbari mamlakatdan chiqib ketish arafasida o‘z shaxsiy xati bilan mezbon davlat tashqi ishlar vaziriga bildiradi.

**MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO‘STLIGI.** (MDH, rus. Содружество Независимых Государств (СНГ)) – davlatlararo tashkilot.

1991-yil 8-dekabrda Minskda Belarus Respublikasi, Rossiya, Ukraina tomonidan tuzilgan. Ana shu davlat rahbarlari imzo chekkan Bitimda SSSR chuqur tanazzulga uchrab parchalanib ketish natijasida yo‘q bo‘lganligi qayd qilindi, uchchala davlat siyosiy, iqtisodiy, gumanitar, madaniy va boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirishga intilishini bayon etdi.

1991-yil 21 dekabrda Bitimga Ozarbayjon, Armaniston, Qozog‘iston, Qирг‘изистон, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston qo‘sildi, ular Belarus, Rossiya va Ukraina bilan birga MDHning maqsad va qoidalari to‘g‘risidagi Deklaratsiyaga Olmaota shahrida imzo chekdilar.

1993-yil MDHga Gruziya qo‘sildi. 1993-yil MDH Ustavi qabul qilindi, u davlatlarning inson huquqlari va erkinliklarini ta’milash, tashqi siyosiy faoliyatini muvofiqlashtirish, umumiyligi iqtisodiy makonni vujudga keltirish, transport va aloqa tizimlarini rivojlantirish, aholi sog‘lig‘i va atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy masalalar va immigratsiya siyosati, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, mudofaa siyosatida hamkorlik qilish va tashqi chegaralarni qo‘riqlashda birgalikda faoliyat yuritishni nazarda tutadi.

MDHda haqiqiy a’zolari bilan birga MDH faoliyatining ayrim turlarida qatnashuvchi a’zolar bo‘lishi mumkin.

MDHning quyidagi organlari tashkil qilingan: Davlat boshliqlari kengashi, Hukumat boshliqlari kengashi, Tashqi ishlar vazirlari ken-

gashi, Davlatlararo iqtisodiy qo‘mita, markazi Sankt-Peterburgda bo‘lgan Parlamentlararo Assambleya va boshqalar.

MDHning doimiy ishlovchi organi Minsk shahrida joylashgan Muvofiglashtiruvchi-maslahat qo‘mita hisoblanadi. Uning qoshida doimiy kotibiyat ishlaydi. Davlat boshliqlari kengashi 1 yilda kamida 2 marta o‘tkaziladi. MDH organlarining faoliyati MDH Nizomi bilan tartibga solinadi.

MDH sobiq SSSR hududida fuqarolik urushi kelib chiqishining oldini oldi, mamlakatlarni bosqichma-bosqich xalqaro munosabatlar tizimiga kirib, mustaqilliklari, suverenitetini mustahkamlashga ko‘mak berdi. MDH o‘z faoliyati davomida haddan tashqari ko‘p qarorlar qabul qildi-yu, lekin aksariyat hollarda ularning ko‘pi bajarilmadi. Hozir MDHga kiruvchi davlatlarning aholisi 283 million kishini tashkil etadi. Bu aholining 120,5 million iqtisodiyotda mashg‘uldir. ularning 29,4 foiz sanoat va qurilishda, 21,5 foiz qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik sohasida ishlaydi.

#### *MDH doirasida O‘zbekiston faoliyati*

O‘zbekiston o‘z milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda MDHda ishtirok etmoqda. U MDHga davlatlar ustidan tuzilgan tashkilot sifatida emas, balki mustaqil davlatlarning harakatlarini muvofiglashtiruvchi organ sifatida qaraydi. MDH hududida davlatlarning teng huquqligi asosida yagona iqtisodiy makonni yaratish, tashkilotda umuman iqtisodiy munosabatlarning ustuvorligiga erishish, davlatlar o‘rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun harakat qiladi.

2019-yil martida O‘zbekiston cheklangan miqdorda badal to‘lash sharti bilan MDH parlamentlararo Assambleyasiga a’zo bo‘ldi.

2020-yil 6-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi raisligida MDH Hukumat rahbarlari kengashining navbatdagi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

**MUXTOR VAKIL.** RSFSR va SSSR davridagi diplomatik va killar nomi (полномочный представитель, полпред). (q.: *Diplomatik klasslar va ranglar*)

# N

## **NATO, SHIMOLIY ATLANTIKA SHARTNOMASI TASHKILOTI (ALYANSI)** (ing. *North Atlantic Treaty Organization, NATO*; fran. *Organisation du traité de l'Atlantique Nord, OTAN*).

Yevropa, AQSh hamda Kanada kabi ko‘pchilik mamlakatlar birlashgan jahondagi eng yirik harbiy-siyosiy tuzilma. Ushbu tashkilotga 1949-yil 4-aprelda “Yevropani tashqi ta’sirlardan himoya qilish” bahonasi bilan AQShda asos solingan. Tashkilot yaratilgan paytda 12 ta mamlakat a’zo bo‘lgan, hozirgi kunda esa a’zolar soni 30 taga yetgan: AQSh, Albaniya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Bolgariya, Estoniya, Ispaniya, Niderlandiya, Xorvatiya, Islandiya, Italiya, Kanada, Gretsiya, Litva, Lyuksemburg, Latviya, Norvegiya, Polsha, Portugaliya, Fransiya, Ruminiya, Germaniya, Shimoliy Makedoniya, Slovakiya, Sloveniya, Daniya, Chexiya, Turkiya, Vengriya, Chernogoriya.

### *Tashkilot maqsadi*

Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkilotiga qo‘shilgan mamlakatlar 1949-yilda o‘z tinch aholilari xavfsizligini mustahkamlash maqsadida birlashishgan. Ittifoqqa a’zo mamlakatlar yaxlit mudofaa tizimini yaratish va dunyo xavfsizligini saqlashni o‘z oldilariga maqsad qilishgan. 2010-yilda NATO “Zamonaviy mudofaaning ilg‘or ishtiroki” ijtimoiy harakatining uchta muhim vazifasini taqdim etdi, bular: jamoaviy mudofaa, inqirozning oldini olish va hamkorlik asosida xavfsizlikni kuchaytirish.

### *Tuzilmasi*

NATO hozirgi kunda 30 mamlakatni o‘z ichiga olgan tashkilotdir. Ushbu tashkilot qamrovida yuzlab qo‘mitalar, guruhlar, xizmat boshqaruvlari yoki harbiylar va fuqarolar doirasi ostidagi rejalashtirish bo‘linmalari mavjud. Shuning bilan birga, tashkilot tarkibida mu-

taxassislarni tayyorlash va tayyorgarlikdan o‘tkazish o‘quv markazlari faoliyat ko‘rsatadi. NATO zarur qarorlar yoki choralar ko‘rish bo‘yicha shartnomalar qabul qilish uchun mamlakat a’zolarini ikki toifaga bo‘ladi – vositachilar hamda zahiralar guruhlari. Uchrashuvlar o‘tkazish va boshqa vazifalarni hal etish uchun alyansga a’zo mamlakatlarning umumjamoa manfaatlaridan kelib chiqqan holda qaror qabul qiladi. Doimiy operatsiyalar o‘tkazish uchun, tashkilot tizimidagi harbiylarga, zarar ko‘rgan fuqarolarga NATO budgetidan mablag‘, pul ajratiladi. NATO budgeti ishtirokchi mamlakatlar bilan birgalikda hal qilinib, moliyalashtiriladi.

#### *Yadroviy barqarorlik guruhi*

NATO davlatlarining mudofaa vazirlari va mudofaa rejalash-tirish qo‘mitasi ishida qatnashadiganlar ba’zi muhim hollarda yoki favqulodda vaziyatlarda yadroviy rejalashtirish guruhi tarkibi ostida uchrashadilar. Bu guruh a’zolari yig‘ilganda yadroviy siyosat (xavfsizlik, himoya, axborot tizimlari, boshqaruv, yadroviy qurollar) keng doirada muhokama qilinib, amalda targ‘ib qilinadi.

#### *Oliy darajali guruhi*

Bu guruh NATOning rejalashtirish masalalari va yadroviy siyosat organlari bo‘yicha oliy konsultativ organ sifatida ish yuritadi. NATOning eng asosiy rejalar ko‘rib chiqilishida bu guruhning ahamiyati alohida rol o‘ynaydi.

#### *Tezkor tahliliy guruhi*

Ilk bor NATO mamlakatlari hokimiyat boshliqlari 1999-yilning aprel oyidagi Washington uchrashuvida Bolqon, Somali, Gaiti va boshqa hududlarda o‘tkazilgan alyans harakatlaridan NATOga a’zo mamlakatlarda inqiroz kelib chiqqani qayd etilgan. Tahlilchilar 1990-yillarda jahoning har bir burchagida tanilgan NATO tashkiloting bu xatti-harakatlarini Shimoliy Atlantika kuchlarining behuda yo‘qotilishi sifatida baholashdi. Hozirgi vaqtda tahliliy guruh NATO va Yevropa davlatlari hokimiylari faoliyatini o‘rganmoqda. Tahliliy guruh a’zolari bosh kotib o‘rinbosarlarining nazorati ostida yig‘ilishlar o‘tkazib turadi va jahonda bo‘lib o‘tayotgan hodisalarni tahlil qiladi hamda ularga qarshi maxsus choralar qabul qiladi.

## *Oliy bosh qo'mondonlik*

Oliy bosh qo'mondonlik organi NATO tashkiloti doirasida bajarilgan barcha harbiy yurishlar va hududlardagi barqarorlikni saqlash uchun qat'iy javobgardir. Bu organ javobgarlikni o'z bo'yninga olgani bois NATOdagi siyosiy va harbiy savollarga javob berish hamda tegishli tavsiyalar joriy etish huquqiga ham ega. Oliy bosh qo'mondonlik organi bir vaqtning o'zida a'zo mamlakatlar bosh kotiblari ta'siridan erkin holda ish yuritadi va milliy hokimiyatga tegishli barcha savollarga yechim topib berishga javobgardir.

## *NATO Maslahat organi*

Shimoliy Atlantika shartnomasi roziligi assosida tashkilotga a'zo davlatlarning doimiy ishtiroki qat'iyligi bilan saylangan a'zolari dan iborat bo'lган NATO Maslahat organi nomli bosh organ mavjud bo'lib, ushbu organ vakillari tegishli muddatda uchrashuv e'lon qilib, oldiga qo'yilgan muammolarning yechimini muhokama qilish uchun yig'iladi.

Maslahat organi yig'ilishlariga a'zo mamlakatlarning tashqi ishlar vazirlari (yiliga kamida ikki marta), mudofaa vazirlari (zarurat tug'ilganda) va NATOning boshqa mas'ullari qatnashadilar. Nato Maslahat organi uchrashuvlarida tashkilot olib borayotgan ishlar strategiyasi va ustuvorligi ko'rib chiqiladi. Bu organ NATOning hamma darajalarda olib borayotgan ishlarini tashkilotga a'zo mamlakatlarga yetkazish va muammolarni hal qilish, shuningdek asosiy qarorlar yechimini hal qilish huquqiga ega.

Shimoliy Atlantika shartnomasiga a'zo mamlakatlar tashkilot ichida teng huquqli sanaladi. NATO maslahat qo'mitasi yig'ilishlari doira stol atrofida o'tkazilib, qo'yilgan masalalar barchaning bir ovozlik roziligi bilan qabul qilinadi. NATO Maslahat organi raisi har yili alifbo tartibida o'tkaziladigan tashqi ishlar vazirlari darajasidagi yig'ilishda saylanadi. Organ Tashkilotning faoliyatini muvaffaqiyatli va barcha tuzilmalarini yaratish uchun mas'ul etib tayinlangan. NATO Maslahat organining Konsultativ bo'limi, bunda ishtirok etgan barcha mamlakat vakillari va Bosh kotib qo'l ostidagi yordamchilar siyosiy savollar bo'yicha Siyosiy qo'mitaga yondashgan holda masalalarni bahamjihat ko'rib chiqadilar.

### *“Tinchlik yo‘lida hamkorlik”*

NATO tashkilotga a’zo bo‘lgan Yevropa mamlakatlaridan tashqari, yana bir necha davlatlar bilan bitim tuzgan va uni Tinchlik yo‘lida hamkorlik nomi bilan atagan.

“Tinchlik yo‘lida hamkorlik” ishtirokchilari: Avstriya, Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Bosniya va Gersegovina, Gruziya, Irlandiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Makedoniya, Malta, Moldova, Rossiya, Serbiya, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston, Ukraina, Finlyandiya, Chernogoriya, Shveysariya, Shvetsiya.

### *O‘zbekistonning NATO bilan hamkorligi*

O‘zbekiston va NATO o‘rtasidagi hamkorlik 1994-yil 13-iyulda tasdiqlangan NATOning “Tinchlik yo‘lida hamkorlik” dasturining Doiraviy bitimiga muvofiq hamda 1996-yildan boshlab har yil ishlab chiqariladigan hamkorlikning muhim sohalarini qamrab oladigan (harbiy ta’lim, mudofaa siyosati, terrorizmga qarshi kurash, ilmiy izlanishlar, favqulorra holatlarda fuqarolar muhofazasini ta’minlashni rejalashtirish) sherikchilik bo‘yicha individual dasturlar doirasida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston NATOning Yevroatlantika hamkorlik kengashi (Ye-AHK) doirasidagi maxsus yig‘ilishlarida, jumladan, YeAHKning tashqi ishlar va mudofaa vazirlari, elchilar, siyosiy qo‘mitalar, oliy harbiy-siyosiy qo‘mitalar, “Tinchlik yo‘lidagi fan” bo‘yicha qo‘mitasi va fuqarolar muhofazasi bo‘yicha Qo‘mitasi yig‘ilishlarida ishtirok etib kelmoqda.

Xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirishda NATOga a’zo mamlakatlar bilan hamkorik, ya’ni NATOning Fan qo‘mitasi alohida ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillardagi O‘zbekistonning NATOga a’zo davlatlar bilan hamkorligi tajribasi uning juda samarali ekanligini ko‘rsatmoqda. Hozirgi paytda O‘zbekistonda NATO bilan axborot texnologiyalari, tibbiyot sohasida va boshqa qator loyihibar amalga oshirilmoqda. 2007-yil may va 2008-yil oktabr oylarida NATOning Fan qo‘mitasi raisi K. Uspelerning O‘zbekiston ga tashrifi hamkorlikning yanada yangi bosqichlarga ko‘tarilishiga turki bo‘lgan.

2008-yil 3-aprelda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov NATO Bosh kotibi Ya. Sxefferning taklifiga binoan NATO/YeAHKning Buxarest shahridagi sammitida ishtirok etdi va Afg‘onistonda barqarorlikni ta’minlash maqsadida “6+3” guruhini tashkil etish tashabbusini ilgari surdi.

O‘zbekiston va NATO o‘rtasidagi ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirish masalalarini muhokama qilish maqsadida Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlari bo‘yicha NATO Bosh kotibining maxsus vakili R. Simmons respublikamizga bir necha bor tashrif buyurgan.

**NATURALIZATSIYA.** Chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning ixtiyoriy ravishda davlat boshlig‘i nomiga yoki davlat hokimiyatining boshqa oliv organiga iltimosnomasi berish orqali mazkur davlatning fuqaroligini qonuniy qabul qilishi. Fuqarolikka qabul qilish qoidasi davlat qonunchiligi tomonidan tartibga solinadi.

**NE VARIETUR.** (lot. – o‘zgarishi mumkin emas) Diplomatik amaliyotda shartnomasi matnnini oxirgi muvofiqlashtirish yoki tasdiqlash (parafirovaniye) asnosida ishlatiladigan termin bo‘lib, hujjatga boshqa o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish mumkin emasligini anglatadi.

**NEYTRALITET.** (nem. *neutralitet*, lot. *neuter* – u ham, bu ham emas) Ikki va undan ortiq tomonlarning nizo va tortishuvlariga aralashmaslik. Davlatning urushda va harbiy-siyosiy ittifoqlarda qatnashmaslik siyosati va o‘ziga xos huquqiy maqomi. Betaraflikning quyidagi turlari mavjud: eventual betaraflik (urush vaqtida) – davlatning biron-bir urushda qatnashmasligi; doimiy betaraflik (Shveysariya 1825-yildan va Avstriya 1955-yildan) – davlatning hech qachon urushni keltirib chiqaruvchi siyosatni olib bormasligi; shartnomaviy betaraflik; an’anaviy betaraflik (uzoq vaqt davomida Shvetsiya amal qilayotgan betaraflik siyosati); ijobiy betaraflik – Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda rivojlanayotgan mustaqil davlatlarning harbiy va siyosiy ittifoqlarga qo‘silmaslik siyosati. Biron-bir davlatga

harbiy hujum qilingan holatda ular BMT Nizomiga muvofiq yakka yoki jamoa bo‘lib, o‘zini himoya qilish huquqiga ega.

**NON PAPER.** (ing. – mavjud bo‘lmagan qog‘oz) Zamonaviy diplomatiya va siyosiy amaliyatda keng qo‘llanuvchi hujjat turi. U memorandum, ya’ni muhokama etilayotgan hujjat bo‘yicha taklif etilayotgan tushuncha bilan masalaning mohiyati bayon etilgan qisqa matnni anglatadi. Odatda, bunday hujjat sarlavha va imzoga ega bo‘lmaydi, binobarin texnik tagsarlavhalari mavjud bo‘lishi mumkin.

Bu turdagи hujjatlardan foydalanish kiritilgan taklifni, muzokaralarda yuzaga kelgan vaziyatni bermalol (yetarli darajada) erkin shaklda belgilab qo‘yish, ikkinchi (kelishuvchi) tomon ko‘rib chiqishi uchun yangi elementlar kiritish imkonini beradi. Odatda, bu kabi hujjatlar rasmiy qog‘oz sifatida ko‘rilmaydi va ishchi material sifatida xizmat qiladi.

**NOROZILIK NOTASI.** Davlat rahbariga yo‘llangan bo‘ladi, hukumat va jo‘natuvchi davlat nomidan tuzilib, unda bir hukumat boshqa hukumatga xalqaro tusdagi mojarlo (nizo) tufayli taqdim etadigan talab bayon qilinadi. Bunday notalar yo‘llovchi mamlakatning yer usti, suv yoki havo chegaralarining buzilishi, “norozilik notasi” yuborilgan mamlakatda yashovchi insonlarning huquqlari buzilishi sababli tuziladi. Notada ifoda etilgan kuch ishlatalish to‘g‘risidagi shamaga (ishoraga) qaramasdan, unda albatta ehtiromni anglatuvchi so‘zlar ham bo‘ladi.

**NOTA.** (lot. *nota* – belgi, mulohaza) Diplomatik yozishma hujjati. Xalqaro amaliyatda bu hujjatning ikki turi: shaxsiy va verbal nota ishlataladi (to‘liq ma’lumot uchun q.: *Shaxsiy nota, verbal nota*). Zamonaviy amaliyatda muhim xalqaro masalalar bo‘yicha hukumatlararo bevosita nota yozishmasi kundan kunga kengayib bormoqda.

**NOTALAR (XATLAR) ALMASHUVI.** Xalqaro tashkilotlar va davlatlar tashqi aloqalar organlari o‘rtasidagi diplomatik yozishmaning odatiy shakli, xalqaro shartnomalar tuzishning shartlaridan

biri. Odatda davlatlar o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatish, diplomatik missiyaning elchixona qilib o‘zgartirilishi, biron-bir shartnomaning ayrim qoidalarini aniqlash, uning amal qilishini to‘xtatish va boshqa shu kabi masalalar bo‘yicha bitimlar tuzishda ishlataladi. Notalar almashuvida xalqaro bitimlarni tuzishda almashinayotgan hujjatlar faqat nota tarzida emas, balki memorandum, telegramma ko‘rinishlarida ham bo‘lishi mumkin. Notalar almashuvi shaklidagi bitimlar diplomatik munosabatlarni o‘rnatish jarayoniga xosdir.

**NOTIFIKATSIYA.** (lot.: *notificare* – xabar qilmoq) Diplomaticiya va shartnoma amaliyotida keng tarqalgan harakat. Tashqi ishlar vazirligi, diplomatik (konsullik) vakolatxona, xalqaro tashkilot yoki uning mansabdor shaxsi tomonidan biror xalqaro masala bo‘yicha davlatning nuqtai nazari bayon qilingan va u yoki bu siyosiy faktlar yoki voqealar to‘g‘risida rasmiy xabar berilgan nota, rasmiy bildirish (xati) yoki boshqa hujjat.

Notada davlatning biror xalqaro masala bo‘yicha tutgan mavqeい, biron-bir voqeа, fakt bo‘yicha nuqtai nazari ma’lum qilinadi, xalqaro shartnomalarning imzolangani, *ratifikatsiya* qilingani, ularga qo‘shilganlik yoki *denonsatsiyasi* to‘g‘risida bildiriladi. Notifikatsiyaning zarurligi xalqaro shartnomalarda ko‘zda tutilgan bo‘ladi.

**NUNSIY.** (lot. *nuntius* – chopar, xabarchi) Rim papasining Vatikan bilan diplomatik aloqalarga ega mamlakatlardagi diplomatik vakili. Nunsiy diplomatik vakillarning oliy toifasiga tegishli. Bir qator katolik mamlakatlarda nunsiy boshqa elchilarning qachon ishonch yorliqlari topshirganidan qat‘i nazar diplomatik korpusning duayeni hisoblangan. Hozirgi davrda bunday amaliyot eskirib qolgan. Yana q.: *internunsiy*

Diplomatik munosabatlar to‘g‘risidagi 1961-yil Vena konvensiyasiga muvofiq, nunsiy diplomatik rangiga ko‘ra elchiga tenglashtiriladi. Nunsiy davlat rahbari qoshida akkreditatsiya qilinadi.

**NYURNBERG PROTSESSI.** Asosiy natsist – harbiy jinoystchilar ustidan o‘tkazilgan sud jarayoni.

Nyurnberg shahri (Germaniya)da 1945-yilning 20-noyabri – 1946-yilning 1-oktyabrida bo‘lib o‘tgan. Fashistlar Germaniyasing oliy davlat va harbiy arboblari javobgarlikka tortilgan. Nyurnberg sudi jarayonida natsional-sotsialistlar partiyasining rahbar tarkibi va bu partiyaning soqchi otryadlari (SS), xavfsizlik xizmati (SD), davlat maxfiy politsiyasi (gestapo) jinoyatchi deb topilgan. 12 kishi (G. Gering, E. Kaltenbrunner, A. Yodl va b.) o‘limga, 7 kishi uzoq, muddatli yoki umrbod qamoq jazosiga hukm qilingan. Tarixda 1-marta Nyurnberg sud jarayonida agressiya insoniyatga qarshi eng og‘ir jinoyat ekanligi e’tirof etilgan. Sud jarayonini ittifoqchilar tomonidan tuzilgan Xalqaro harbiy tribunal amalga oshirgan.

## O

### **OLIY KOMISSAR.** (q.: *BMT*)

**OPTATSIYA.** (lot. *optatio* – istak, tanlov; ing. *choice of citizenship, optation* – fuqarolikni tanlash, optimallashtirish) Konstitutsiyaviy va xalqaro huquqda hududiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq tarzda fuqarolikni olish yoki tugatish usullaridan biri.

Qo‘sish fuqaroligi bo‘lgan yoki fuqaroligini o‘zgartirgan hududda istiqomat qiluvchi shaxslar tomonidan fuqarolikni tanlash. Keng ma’noda tanlov har qanday sababga ko‘ra fuqarolikni tanlash huquqini anglatadi va fuqarolikni olishning umumiy tartibidan istisno hisoblanadi.

Hududiy o‘zgarishlar yuz berganda, tanlash huquqi quyidagi holarda yuzaga keladi: boshqa davlatdan ajralib yangi davlatning paydo bo‘lishi; bitta davlatning bir nechta yangi shtatlarga bo‘linishi; xalqaro shartnomaga muvofiq bir davlat hududining bir qismini boshqa davlatning suverenitetiga o‘tkazish. Tanlash huquqiga ega bo‘lgan shaxslar oldindan belgilangan muddat ichida bir to‘xtamga kelishlari kerak: yular avval yashagan davlat fuqaroligini saqlab qolishi; yoki yashab turgan hududi qo‘shilayotgan davlatning fuqaroligini olish. Bolalar, qoidaga ko‘ra, ota-onalarining fuqaroligiga o‘tadilar. Shuningdek, optatsiyada shaxslar mulk huquqlari saqlanib qoladi.

**OCHIQ VARAQAsi**. (fran. *laissez-passar* ruxsatnoma, kirish-chiqishga ruxsat) Tashqi ishlar idorasi yoki diplomatik vakolatxona tomonidan diplomatik imtiyoz va immunitetlardan foydalanuvchi xorijiy shaxsga yoki mamlakat mehmoni hisoblangan shaxsga beriladigan hujjat bo‘lib, o‘z mamlakati bojxona va chegara xizmatlariga ochiq varaqasohibiga chegaradan o‘tish chog‘ida imkon qadar yordam berish iltimos qilingan bo‘ladi. Odatda, ochiq varaqasohibi bojxona ko‘rigidan ozod etiladi. Diplomatik pasportga ega xorijiliklarga ochiq varaqasohibi berish amaliyoti to‘xtatilgan.

**OCHIQ DENGIZ**. Dunyo okeanining hududiy dengiz (yoki suv)dan tashqari bo‘lgan suv qismi, shuningdek, biron-bir davlatning yurisdiksiyasiga yoxud suverenitetiga tegishli bo‘lmagan, ularga tutash bo‘lgan hudud. Ushbu hududdan foydalanish Xalqaro huquq normalariga asosan “ochiq dengiz erkinligi” prinsipi asosida amalga oshiriladi, ya’ni unga ko‘ra hech bir davlat ushbu hududda va uning havo havzasida o‘z suverenitetini kengaytirish yoki tatbiq etish yoxud boshqa bir davlatning ushbu hududdan foydalanishiga to‘sqinlik qilish huquqiga ega emas. Ushbu prinsip 1958-yildagi Dengiz huquqi bo‘yicha Jeneva konvensiyasi va BMTning Dengiz huquqi konvensiyasiga (1982-yil) muvofiq mustahkamlangan va amal qiladi.

**“OCHIQ ESHIKLAR” SIYOSATI**. AQShning Xitoyda XX asr boshida yuritgan siyosati bo‘lib, undan ko‘zlangan maqsad bu mamlakatga kirish uchun o‘tkazgan siyosiy va iqtisodiy tazyiqi orqali Xitoyni “ta’sir doiralariga” bo‘lib olishda boshqa imperialistik davlatlar maqeini kuchsizlantirish bo‘lgan. 1899-yilda AQSh Davlat kotibi J. Xey e’lon qilgan doktrinaga asoslangan.

Shuningdek, “Ochiq eshiklar” siyosati iborasi ostida u yoki bu mamlakat hukumatining turli to‘siqlarni olib tashlab, sezilarli imtiyozlar taqdim etib, xorijiy kapitalning ko‘proq kirib kelishiga harakat qilish siyosati ham tushuniladi.

# P

**PAKT.** (lot. *pactum* – shartnoma, bitim) Yirik siyosiy ahamiyatga ega xalqaro bitim; xalqaro shartnomalar nomlaridan biri.

**PARAFIRLASH (PARAF QO‘YISH).** (fran. *ra-raghe* – qis-qartirilgan imzo, bosh harflar) Xalqaro shartnomalar tuzish amaliyotida qo‘llanadigan protsedura shakllaridan biri bo‘lib, muayyan shartnomaning matni ostida yoki har bir sahifada uni ishlab chiqishda qatnashgan shaxslarning ism-sharifi bosh harflari – paraf qo‘yilishi. 1969-yilda imzolangan *Xalqaro shartnomalar huquqi to‘g‘risidagi Vena konvensiyasining* 10-bandiga binoan paraf qo‘yish shartnomaning ishlab chiqilgan matning haqqoniyligini, haqiqiyligini aniqlashga va uning yakuniy mohiyatini tasdiqlashga xizmat qiladi. Bundan davlatning xalqaro shartnoma majburiyatini olishga roziligidini ifodalash shakli sifatida ham foydalanish mumkin. Bunday holda, ishtirokchi davlatlar tomonidan shartnomaga qo‘shilish uchun roziliklarini bildirish, ratifikatsiya, qabul qilish yoki tasdiqlash kabi boshqa protsedura shakllaridan foydalanish talab qilinmaydi.

**PARITET.** (lot. *paritas* – “tenglik”dan) Paritet – har qanday tarzda ikki yoki undan ortiq tomonlar o‘zaro munosabatlarining tengligi. Bu nisbiy kuchlar tengligi holatini, maqsadlarning bir xil ekanini, to‘lov vositalarining ekvivalentligini, huquq va majburiyatlarning tengligini anglatishi mumkin.

**PERSONA GRATA** (lot. *persona grata* – kerak, maqbul shaxs) Diplomatik termin bo‘lib, *qabul qiluvchi* davlat tayinlanishiga va kelishiga rozi bo‘lgan diplomatik vakil tushuniladi. Elchi yoki kon-sullik vakolatxonasi rahbariga nisbatan *agreman* yoki *ekzekvatura* olish protsedurasi qo‘llaniladi. Boshqa diplomatik xodimlar uchun mamlakatga kirish vizasi berilishining o‘zi ularning persona grata hisoblanishlarini bildiradi.

**PERSONA NON GRATA.** (lot. *persona non grata* – istalma-gan shaxs) Mezbon mamlakat hokimiyati tomonidan istalmagan shaxs, deb e’lon qilingan diplomat. Bunday holatda *akkreditatsiya so’ragan* davlat uni vatanga chaqirib oladi va u mamlakatni tark etishi kerak bo‘ladi.

Diplomatning persona non grata deb e’lon qilinishiga sabab bo‘lib uning mezbon mamlakat ichki ishlariga aralashgani, uning qonun va odatlarini buzgan yoki hurmat qilmagani, diplomat daxlsizligi va imtiyozlarini suiste’mol qilgan bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha buning orqasida “diplomat maqomiga zid ruxsat berilmagan faoliyat uchun” degan ibora tushunilib, undan josuslikda ayblashni ham kutilus mumkin.

Bunday vaziyatda mezbon mamlakat hukumati *Konsullik munosabatlari to ‘g’risidagi 1963-yil Vena konvensiyasida* belgilangan normalarga binoan diplomatning persona non grata deb e’lon qilin-gani sabablarini tushuntirishga majbur bo‘lmaydi.

**PLEBISSIT** (lot. *plebiscitum, plebs* – oddiy xalq va *scitum* – qaror). Muayyan huquqiy yoki siyosiy masala bo‘yicha to‘g’ri-dan-to‘g’ri xalq ovozini aniqlash uchun ishlatalidigan termin. Aslida bu ibora tom ma’noda ikkita so‘z: pleblar (oddiy odamlar) va skitum (qaror) ning birlashmasidan iborat bo‘lib, ularni qo‘shib o‘qiganda xalq qarori, deb talqin qilish mumkin.

**PREAMBULA.** (fran. *pre ‘ambule* – so‘zboshi) Xalqaro shart-nomaning kirish qismi. Konvensiyaning maqsadlarini yoritib beruvchi tushuncha bo‘lib, uning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Preambleda, odatda, shartnomasi imzolayotgan tomonlar sanab o’tiladi, shartnomani imzolashga undagan narsa, undan maqsad bayon etiladi Bundan tashqari preambledan konvensiyaga izoh berishda ham foydalaniladi. Preamble xalqaro hukumatlararo va boshqa tashkilotlar va konferensiyalar qarorlari (rezolyutsiyalari)da ham bo‘lishi mumkin.

**PROLONGATSIYA.** (fran. *prolongation* – uzaytirish, lot. *pro-longare* – cho‘zish) Biror narsa, qandaydir jarayonning amal qilish

muddatini uzaytirish: tibbiyotda davolanish jarayoni, dorilarni qabul qilishni uzaytirish; ish yuritishda, huquqda esa cheklangan amal qilish muddati bo‘lgan qandaydir shartnoma, majburiyat, hujjatning amal müddatini uzaytirish. Rus tilida “prolongatsiya” atamasi ba’zan nafaqat tibbiy, huquqiy va moliyaviy sohalarda, balki biror narsani uzaytirishning umumiy ma’nosida ham qo‘llaniladi, masalan “shartnomani uzaytirish”.

**PROMULGATSIYA.** (lot. *promulgatio* – e’lon qilish) Bir qator xorijiy davlatlarning konstitutsiyaviy huquqiga ko‘ra, vakolatli organ tomonidan qabul qilingan va tasdiqlangan qonunning davlat boshlig‘i tomonidan konstitutsiyada yoki qonunda belgilangan muddatda rasmiy bosma nashr orqali e’lon qilinishi. Promulgatsiya deganda qonunni rasmiy e’lon qilish haqidagi farmoyishni o‘zida aks ettirgan maxsus aktning e’lon qilinishini tushunish mumkin. Odatda, promulgatsiya davlat boshlig‘ining farmoni, farmoyishi, buyrug‘i yoki shunga o‘xhash huquqiy akti bilan amalga oshiriladi. Bunda davlat boshlig‘ining huquqiy akti ommaviy nashrlarda promulgatsiya qilinayotgan qonun akti bilan birga e’lon qilinadi. Qonun promulgatsiyadan keyingina majburiy kuchga ega bo‘ladi.

**PROTOKOL.** (qad. yunon. πρωτόκολλον; πρώτος “birinchi” + κόλλα “elim”) Dastlab – biror voqeа, fakt yoki kelishuvni tasdiqlovchi hujjat tushunilgan. Keyincha ushbu so‘zning semantikasi seziylarli darajada kengaygan. O‘rta asrlarda “protokol” atamasi ostida hujjatlarni yuritish va arxivlash qoidalari tushunilgan. Keyinchalik “protokol” so‘zi diplomatiya va diplomatik xizmatga nisbatan ishlatala boshlangan. Uning tarkibi ham kengayib borgan: diplomatik hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalariiga qo‘srimcha ravishda, odob-axloq qoidalari va marosimlar diplomatik protokolga kiritildi. Hozirga kelib esa, diplomatik protokol siyosiy voqealar, ilm-fan, texnika yutuqlari va xalqaro hayot omillari ta’siri ostida yildan yilga o‘zgarib bormoqda. (q.: *Dip. protokol*)

**PROTOKOL BOSHQARMASI.** Har bir davlat Tashqi ishlar vazirligida Protokol (ba’zan Davlat protokoli) boshqarmasi mavjud. Bunday xizmatning zimmasiga quyidagi majburiyatlar qo‘yilgan:

1. Mamlakatda yagona protokol amaliyotini ta'minlash, o'z hududidagi xorijiy davlatlarning diplomatik va konsullik vakolatxonalari to'g'risidagi Vena konvensiyalariga rioya etilishini nazorat qilish.

2. Xizmat, mamlakat qonun-qoidalariga chet ellik diplomatlar tomonidan rioya etilishini nazorat qilish bilan bog'liq vazifalarni bajar-ganda, mamlakat va uning fuqarolarining manfaatlarini himoya qilishi.

3. Protokol va tashkiliy xarakterdagi tadbirdilar bo'yicha takliflarni ishlab chiqishda, mamlakat Prezidenti, Bosh vaziri, Tashqi ishlar vaziri tomonidan chet elga tashriflar chog'ida, shuningdek, davlat va hukumat delegatsiyalari, davlat rahbarlari, xorijiy davlatlar hukumat rahbarlari, tashqi ishlar vazirlarining mamlakatga tashriflari chog'ida ishtirok etish.

4. Xorijiy davlatlarning milliy bayramlari va boshqa unutilmas sanalari munosabati bilan davlat rahbari nomidan telegrammalar tayyorlash va yo'naltirishni nazorat qilish.

5. Mamlakatning xorijdagi diplomatik vakolatxonalari bilan doimiy ishchi aloqalarini olib borish, ularga protokol ishlarida zarur yordam berish.

6. Departament vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha mamlakat hududidagi xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari bilan ish aloqalarini olib borish.

7. Xalqaro protokol amaliyotini o'rghanish va umumlashtirish.

*Protokol boshqarmasi vazifalari:*

Xalqaro protokol amaliyoti shuni ko'rsatadiki, diplomatik protokol xizmati turlicha nomlanishi va turli xil bo'ysunishga ega bo'lishi mumkin bo'lsa-da, shunga qaramay bir xil vazifalar bajarilishini ta'minlaydi.

Mamlakat Prezidenti yoki, umuman, davlat rahbarining farmoniga binoan Davlat Protokoli boshqarmasi o'sha mamlakatdagi yagona protokol amaliyotini ta'minlaydi.

Yuqorida sanab o'tilgan asosiy vazifalardan kelib chiqib, protokol (Davlat protokoli) boshqarmasi:

1. Tashqi ishlar vazirligining boshqa bo‘linmalari bilan kelishgan holda mamlakatda chet el delegatsiyalarini oliy darajada qabul qilish uchun hujjatlar tayyorlaydi, ularning tashrif dasturlari loyihalarini ishlab chiqadi va ular tegishli tarzda tasdiqlangandan so‘ng protokol tadbirlarini (delegatsiyalarni kutib olish va kuzatish, gulchambarlar qo‘yish, nonushta, tushlik, teatrga borish va b.) tashkil etadi.

2. Xorijiy diplomatik vakolatxonalar rahbarlarini akkreditatsi-yadan o‘tkazishni tashkil etadi.

3. Xorijiy diplomatik va ma’muriy-texnik xodimlarning diplomatiq imtiyozlari va immunitetlari, shuningdek, ularning boj imtiyozlari bilan bog‘liq masalalar bilan shug‘ullanadi.

4. Mamlakatning chet elga yuborilayotgan elchilarining ishonch yorliqlari va chaqiruv yorliqlarini tayyorlaydi.

5. Diplomatik korpus xodimlarini hisobga olish va tegishli hujjatlar berishni tashkil qiladi.

6. Mamlakat fuqarolari va tashkilotlarining diplomatik vakolatxonalar va ularning xodimlariga qarshi da’volarini hal qilishda o‘z vakolati doirasida qatnashadi.

7. Diplomatik korpusning mamlakat Prezidenti, shuningdek, mamlakatga rasmiy tashriflar bilan kelgan davlat rahbarlariga (ularning xohishiga binoan) taqdimotini tashkil etadi.

8. Diplomatik vakolatxonalar rahbarlarini davlat miqyosidagi tadbirlar va marosimlarga, shuningdek, mamlakatda bo‘lib o‘tadigan xalqaro tadbirlarga (festival, ko‘rgazma, yarmarka va b.) taklif qilishni tashkil etadi.

**PROTOKOL MAROSIMLARI.** Diplomatik protokol va uning qoidalari bu diplomatik xizmatning butun majmuasi bilan bir vaqtida paydo bo‘lgan va rivojlangan tarixiy kategoriylar hisoblanadi.

Ular qandaydir shaxslarning qarorlari va xohish-irodalari nati-jasida paydo bo‘lmasligan va rivojlanayotgani yo‘q, balki muvaffaqiyatli diplomatik amaliyotni amalga oshirish uchun zarur shart sifatida paydo bo‘lgan.

Diplomatik protokol o‘z ichiga etiket va tseremonial (marosim) ni olgan.

Etiket – ya’ni odob-axloq qoidalari – turli diplomatik tadbirlar (muzokalar, tashriflar, qabullar) chog’ida diplomatlar va boshqa mansabdor shaxslarning o‘zlarini tutish qoidalari majmuasi. Xulq madaniyati, turmush madaniyati, muomala va boshqalar bilan bog‘liq normalar va urf-odatlarni o‘z ichiga oladi.

Seremonial, ya’ni tantanali marosim – tantanali rasmiy akt (davlat rahbarlarining uchrashuvlari va b.)ni o‘tkazishning belgilangan tartibi.

**PROTOKOL TASHRIFI.** Protokol tashriflari (ba’zan iltifot tashrifi deb ataladi) biron-bir muammo yoki savolni muhokama qilish yoki hal qilish uchun emas, balki tashrif buyurgan kishiga e’tibor berish va u bilan shaxsiy tanishuvni yo‘lga qo‘yish uchun amalga oshiriladi. (q.: *Tashriflar*)

## Q

**QABUL QILUVCHI DAVLAT (MAMLAKAT).** Diplomatik amaliyot va xalqaro huquqda qabul qiluvchi davlat deb hududi da xalqaro tashkilot idorasи va boshqalarning xalqaro konferensiya, kengash, sessiyasi o‘tkazilayotgan, xalqaro tashkilot qarorgohi yoki xorijiy davlat vakolatxonasi joylashgan davlatga aytildi. Qabul qiluvchi davlat termini *Maxsus missiyalar to ‘g‘risidagi 1969 yil Vena konvensiyasida uchraydi*. Xalqaro shartnomalarda boshqa atama ham mavjud. Bu ham bo‘lsa “mezbon davlat” terminidir. Uni *Diplomatik munosabatlar to ‘g‘risidagi 1961-yil, shuningdek Davlatlar vakolatxonalar... to ‘g‘risidagi 1975-yil Vena konvensiyalarida ham uchratish mumkin*. Diplomatik vakolatxonani qabul qiluvchi davlat ko‘pincha “akkreditatsiyalovchi davlat”, konferensiya yoki boshqa bir xalqaro uchrashuvga taklif etgan davlatni esa “tashkilotchi davlat” yoki “taklif etuvchi davlat” deb ham ataladi.

Qabul qiluvchi davlat huquq va majburiyatlarini tegishli shartnomaviy hujjatlarda belgilangan: ko‘p tomonlama, mas. yuqorida tilga olingan 1961 va 1975-yillardagi Vena konvensiyalarida yoki ikki tomonlama shartnomalarda qayd etilgan bo‘ladi.

**QARORGOH/REZIDENSIYA.** (kech lot. *residentia*) Davlat rahbari, hukumat, xorijiy davlat elchisi yashovchi joy.

**QOCHOQLAR /QOCHQINLAR.** Qochqinlar – siyosiy, irqiy yoki mafkuraviy sabablarga ko‘ra yoki ocharchilik yoki bechoralik kabi ofatlar natijasida o‘z vatanlarini tark etishga majbur bo‘lgan odamlar.

Qochqinlar – iqtisodiy beqarorlik, milliy-etnik ziddiyatlar va davlatchilik jarayonlarining chuqurlashishi natijasida paydo bo‘lgan majburiy muhojirlar. Qochqinlar ma’lum psixologik xususiyatlarga ega bo‘lib, ular ma’lum bir dunyoqarashda, ruhiy tushkunlikda va adolatsizlikka nisbatan sezgirlikda namoyon bo‘ladi.

**QO‘YIB YUBORISH YORLIG‘I.** (fran. *letters de recreance*) Diplomatik vakilni tayinlagan davlat rahbariga qabul qiluvchi davlat boshlig‘i tomonidan yuboriladigan, chaqirib olingan diplomatik vakil ortidan jo‘natiladigan hujjat.

Yorliqda davlatlararo munosabatlarni mustahkamlashda diplomatik vakilning roliga baho beriladi. Ba’zan davlat rahbarining diplomatik vakilga “ketishga ruxsat” iborasi ham yorliqqa yozildi. Qo‘yib yuborish yorlig‘iga javob berishning zarurati yo‘q.

**QO‘SHILMASLIK HARAKATI.** Harbiy-siyosiy bloklar va guruhlarda qatnashmaslikni o‘z tashqi siyosatining asosiy yo‘li deb e’lon qilgan mamlakatlarni birlashtiruvchi harakat. Bu tuzilma Ikkinchi jahon urushidan keyin paydo bo‘lgan va hozirda 100 dan ortiq davlatni birlashtiradi. Ushbu harakatda mustamlakachilik asoratidan ozod bo‘lgan davlatlarning ko‘pchiligi ishtirot etadi. Qo‘shilmaslik harakatida qatnashuvchi davlatlar 1961-yilda “*Qo‘shilmaslikning besh tamoyili*”ni e’lon qilishgan. Ular quyidagilardan iborat:

- turli tuzumdagи davlatlar bilan tinch-totuv yashash, qo‘shilmaslik;
- xalqlarning mustamlakachilarga qarshi qaratilgan milliy ozodlik harakatini qo‘llab-quvvatlash;
- buyuk davlatlar o‘rtasidagi nizolarga taalluqli harbiy ittifoqlarda qatnashmaslik;
- harbiy kelishuvlarda qatnashmaslik;
- o‘z hududida xorijiy harbiy bazalarni joylashtirmaslik.

# R

**RASMIY VA ISH TILLARI.** Xalqaro tashkilotlarda yoki xalqaro konferensiyalarda, shu jumladan, xalqaro muzokaralar paytida ish olib boriladigan tillar. Rasmiy tillar – bu konferensiya yoki tashkilotning asosiy organlarida muhokama qilinadigan, rasmiy hujjatlar (bayonnomalar, qarorlar, yakuniy aktlar va boshqalar) rasmiylashtiriladigan va e’lon qilinadigan tillar. Ish yuritiladigan tillar bu konferensiya yoki tashkilotning ishlaydigan yordamchi organida hujjatlar matnlari ustida ishlanganda muhokama qilishda ishlatiladigan tillardir. Birlashgan Millatlar Tashkilotida ingliz, ispan, xitoy, rus va fransuz tillari BMT Bosh Assambleyasi, uning qo’mitalari va quyi qo’mitalarining rasmiy va ish yuritadigan tillari hisoblanadi. Arab tili Bosh Assambleyaning rasmiy va ish yuritadigan tili hisoblangan holda, faqat uning asosiy qo’mitalari uchun tegishlidir. Ushbu tillarning har birida qilingan nutq boshqa beshta tilga tarjima qilinadi. Ularda Bosh Assambleyaning protokollari, rezolyutsiyalari va boshqa hujjatlari nashr etiladi.

**RATIFIKATSIYA.** Davlatning oliy hokimiyat organi tomonidan vakolatli davlat organlari tuzgan xalqaro shartnomalarni tasdiqlash shakli, ya’ni davlat nomidan ish olib boruvchi prezident yoki hukumatning tuzgan shartnomasining parlament tomonidan tasdiqlanishi, shartnoma ratifikatsiya qilinganligini bildiradi.

Shuningdek davlatning xalqaro shartnomaning majburiyatiga nisbatan roziliginibildirishning shakllaridan biri.

**REZOLYUTSIYA** (lot. *resolution* – qaror, ruxsat). Rasmiy shaxs yoki maslahat organi, xalqaro tashkilot (masalan, BMT Bosh Assambleyasi yoki UNESCO Bosh konferensiyasi) tomonidan qabul qilingan qaror.

Konstitutsiyaviy huquqda qaror deb parlament tomonidan qabul qilingan aktni aytadilar. Qarorlarni muhokama qilish qonun loyihalas-

rini muhokama qilishdan shunisi bilan farq qiladiki, qarorlar qonun loyihalari kabi davlat rahbari tomonidan imzolanmaydi.

Hujjat aylanishida rezolyutsiya – bu qaror, mansabdar shaxs tomonidan imzolangan va u qabul qilgan qarorni o‘z ichiga olgan yozuvdan iborat hujjat.

**REKVIZITSIYA.** Konsullik muassasalari, konsullik muassasalari mansabdar shaxslari va ularning oila a’zolariga tegishli mulkni haq to‘lash asosida yoki ma’lum muddatga davlat ixtiyoriga majburiy o’tkazish.

**REPARATSIYA.** Urushning sababchisi bo‘lgan mag‘lub davlatning g‘olib davlatga yetkazilgan yo‘qotishlarni qoplashi. Reparatasiya birinchi marta 1919-yil Versal tinchlik shartnomasida tayinlangan.

**REPATRIATSIYA.** (lot. *repatriate* – uyga qaytish) Ushbu atama odatda harbiy asirlar, ko‘chirilgan shaxslar, qochoqlar, muhojirlar, davlatlarning qulashi natijasida noqonuniy ravishda bosib olin-gan hududlarning qaytarilishi va fuqarolari huquqining tiklanishi va boshqalarga nisbatan qo‘llaniladi.

Harbiy harakatlar natijasida o‘z yurtidan tashqarida bo‘lib qolgan harbiy asirlar va tinch aholining vataniga qaytishi *Harbiy asirlar-ni davolash to‘g‘risidagi Jeneva konvensiyasining* 109-moddasida ko‘zda tutilgan bo‘lib, unga muvofiq, urushayotgan davlatlar urush yillarida “og‘ir kasal va og‘ir yaralangan harbiy asirlarni vatanlariga ularning harbiy unvon va sonidan qat’i nazar, ularni tashishga imkon beradigan holatga kelgandan keyin yuborishlari shart”. Harbiy harakatlar to‘xtatilgandan so‘ng, urushayotgan davlatlar harbiy asirlarni so‘zsiz qaytarishga majburlar, vataniga qaytarilishi mumkin bo‘lмаган shaxslar bundan mustasno (masalan, jiddiy kasallik tufayli, ular tomonidan sodir etilgan jinoiy huquqbizarlik yoki ilgari chiqarilgan sud hukmiga muvofiq jazo o‘tagan bo‘lsa).

**RETORSIYA.** Bu termin nodo‘stona harakatlarga javob tariqasida belgilangan, ammo xalqaro huquqni buzmaydigan siyosiy choralarни anglatadi.

**“RIM KLUBI”.** Rim klubи 1968-yil 6–7-aprelda italiyalik sanоatchи Aurelio Peccei (uning birinchi prezidenti bo‘lgan) va Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining ilmiy ishlar bo‘yicha bosh direktori Aleksandr King tomonidan tashkil etilgan xalqaro ijtimoiy tashkilot bo‘lib, dunyoning siyosiy, moliyaviy, madaniy va ilmiy sohadagi oliy tabaqa vakillarini birlashtirgan. Ushbu tashkilot biosferaning rivojlanish istiqbollarini o‘rganishga va inson-tabiat munosabatlarini uyg‘unlashtirish g‘oyasini ilgari surishga katta hissa qo‘shgan.

## S

**SALYUT.** (lot. *salus* – salом, salomlashish) Salyut salomlashishning ko‘p mamlakatlar amaliyotida qabul qilingan tantanali shakli bo‘lib, tashrif bilan kelayotgan shaxslarga alohida ehtiromni anglatadi yoki milliy bayramga bo‘lgan yoki buyuk arboblar vafotida bildiriladigan hurmat ramzi hisoblanadi. Salyut miltiq yoki to‘p otish orqali amalga oshiriladi. Salyutning boshqa turlari ham bor.

**SANKSIYALAR (JARIMALAR), XALQARO HUQUKDAGI.** (lot. *sanctio* – qat‘i qaror) Davlatning sodir etgan xalqaro jinoyatlari, masalan tajovuzi uchun siyosiy mas’ulligining alohida shakli bo‘lib, shu davlatning yurisdiksiyasini cheklash (harbiy kuchlari sonini kamaytirish yoki ularni ushlab turishni man etish, bosib olinishi yoki hududining bir qismini olib qo‘yish, suverenitetini vaqtincha cheklash va b.) tushuniladi.

Ushbu turdagи majburlov choralar yakkta tartibda yoki jamoaviy ravishda o‘zini o‘zi himoya qilishda (BMT Ustavining 51-moddasi), shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan tinchlik va xavfsizlik buzilgan (yoki buzilish tahdidi) holatlarda qo‘llanilishi mumkin. BMT Nizomiga binoan, tinchlik va xavfsizlikka har qanday tahdid, tinchlik buzilishi yoki tajovuzkor harakat sodir bo‘lgan taqdirda, BMT Xavfsizlik Kengashi qarori bilan qurolli kuchlardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘limgan choralar ko‘riliishi mumkin: iqtisodiy

munosabatlarni to‘liq yoki qisman to‘xtatish, temir yo‘l, dengiz, havo, pochta, telegraf, radio yoki boshqa aloqa vositalari, shuningdek diplomatik aloqalarni uzish yoki havo, dengiz yoki quruqlikdagi kuchlarni, ishlatish bilan bog‘liq harakatlar, blokada va boshqalar.

**SARDORLIK.** Diplomatik va konsullik amaliyotida sardorlik (ing. *seniority*, ruscha *старшинство*) diplomatik va konsullik vakillarining klassi (darajasi) va ularning lavozimiga kirishishlari sanasi bilan (masalan, elchilar uchun ishonch yorliqlarini topshirish sanasi ga qarab), shuningdek, umum qabul qilingan diplomatik qoidalarga binoan egallagan lavozimiga ko‘ra belgilanadi. Shaxsiy diplomatik yoki xizmat martaba (rang)lari va unvonlari bu holda hisobga olinmaydi. Sardorlik qoidalariiga diplomatik va konsullik korpusi a’zolalrini joy-joyiga o‘tqazishda, ularning boshqa rasmiy marosimlardagi ishtiroki vaqtida rioya qilinadi. Bunda biron-bir subyektivlikka yo‘l qo‘yish va davlatning rasmiy vakilini ranjitish mumkin emas.

Turli mamlakatlar protokol amaliyoti bir-biridan qandaydir farqqa ega. Shuning uchun bahsli hollarda tashqi ishlar idorasining protokol bo‘limiga murojaat qilish to‘g‘ri bo‘ladi.

**SEPARAT TINCHLIK.** Urushayotgan koalitsiya ishtirokchilarning biri tomonidan ittifoqchilarining roziligesiz tuzilgan tinchlik shartnomasi. Separat tinchlik, odatda, urushning to‘liq tugashidan oldin tuziladi. Separat tinchlik shartnomalarining tarixiy namunalari:

- 1795-yil Bazel tinchlik shartnomasi – Prussiya va Ispaniya Birinchi koalitsiyani tark etib, Fransiya bilan suhl tuzganlar;

- Brest Tinchlik shartnomasi (1918) – Rossiya Germaniya bilan Antanta ittifoqchilaridan ayri shartnoma tuzgan.

**SIYOSIY BOSH PANASI.** Tegishli shaxsga davlat hududida cheklanmagan vaqt mobaynida bo‘lish (yashash), mazkur shaxsning ham, oila a’zolarining ham shu davlat himoyasidan foydalanish imkoniyatini berish. Bunday imkoniyatning berilishi umume’tirof etgan xalqaro huquq normalariga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

**SOVUQ URUSH.** 1946–1980-yillar o‘rtasidagi SSSR va AQSh boshchiligidagi davlatlarning ikki bloki o‘rtasidagi global geosiyosi,

harbiy, iqtisodiy va mafkuraviy qarama-qarshilikda ishlatilgan siyosiy atama. Ushbu qarama-qarshilik xalqaro huquqiy ma'nodagi urush emas edi. Qarama-qarshilikning asosiy tarkibiy qismlaridan biri kapitalistik va sotsialistik davlat tuzumi modellari o'rtasidagi ziddiyatlar natijasida kelib chiqqan mafkuraviy kurash.

**STATUS.** Bu termin jismoniy yoki yuridik shaxsning huquqiy holatini anglatadi.

**STATUS-KVO.** (lot. *status quo* – holatda) Status-kvo – yurisprudensiyada keng qo'llaniladigan huquqiy holat. Boshqacha aytganda, "hozirgi yoki mavjud bo'lgan holat"ni anglatadi. "Status-kvo" ni saqlab qolish hamma narsani avvalgidek qoldirish demakdir.

Xalqaro huquqda esa status-kvo termini tiklanishi yoki saqlanishi to'g'risida so'z ketgan ma'lum bir muddatda mavjud yoki ilgari mavjud bo'lgan aniq, huquqiy holatni anglatadi.

Xalqaro huquqiy amaliyotda "*status quo ante bellum*" atamasi ham ishlatilib, urush boshlanishidan oldin mavjud bo'lgan holatni bildiradi.

**STATUT.** (ing. *statut*, lot. *statutum, statuo* – qaror qilaman, hal qilaman)

1. Buyuk Britaniya parlamenti, AQSh kongressi va bir qator anglo-sakson huquq tizimi mamlakatlarining ayrim qonun hujjatlari nomi. Statut tarkibidagi normalar statut huquqini tashkil etadi.

2. Biron-bir tashkilotning nizomi (o'rta asr ustaxonalari Statuti) yoki hududiy, odatda, avtonom tuzilmaning nizomi (masalan, Italiyada har bir hududning o'z Statuti mavjud).

3. Biror narsa haqida qoida, masalan, mukofotlash tartibini belgilovchi Statut. Bu ma'noda ushbu atama Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida foydalanilgan.

4. Xalqaro huquqda, ko'proq, organ faoliyatini to'g'risidagi qoidalari. Xalqaro organ statuti uning maqsadlarini, tuzilishini va funksiyalarini belgilaydi (masalan, BMT Xalqaro Sudining Statuti).

**SUVERENITET.** (nem., fran. *souveranitat* – oliv hokimiyat) Davlatning tashqi ishlarda mustaqilligi va ichki ishlarda ustunligi.

Suverenitetga hurmat zamonaviy xalqaro huquq va xalqaro munosabatlarning asosiy prinsipidir. Bu tushuncha BMT Nizomi va boshqa xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan.

**SEREMONIAL.** (qad. lot. πρωτόκολλον – tantanali) Bu so‘z marosim tushunchasini anglatib, ma’lum rasmiyatlarga qat’iy rioya qilishni anglatadi.

Protokol (yunon tilida – mehmonlar ro‘yxati yozilgan, papirusga old tomoni bilan yopishtirilgan varaqni anglatib, XVIII asrning boshlarida rus tiliga lotin tilidan kirgan) – bu iyerarxik tartibning shakli, cherkovlararo va davlatlararo munosabatlarda xushmuomalilik ifodasi, shuningdek, rasmiy va norasmiy holatlarda xalqaro arboblar uchun o‘zini tutish qoidalari to‘plamidir.

Jamiyatda mayjud bo‘lgan iyerarxiya odamni muayyan xatti-harakatlar qoidalariга rioya qilishni majbur qiladi, ularsiz tartibsizlik va anarxiya muqarrar.

Diplomatik tantanali marosimlar va protokollar, umuman, xalqaro munosabatlarning normal holatini ta’minlashga xizmat qiladi.

## T

**TASHRIFLAR.** Tashriflarni amalga oshirish, aloqalar, munosabatlarni qo‘llab-quvvatlash diplomatning kasbiy burchidir. Tashriflar diplomatik xizmatning faol shaklidir.

Barcha tashriflar quyidagilarga bo‘linadi:

- protokol va aloqalarni saqlab turish uchun;
- ish bilan bog‘liq.

Protokol tashriflari diplomatik vakolatxonalar rahbarlari va boshqa barcha diplomatik xodimlar, shuningdek ularning turmush o‘rtoqlari tomonidan amalga oshiriladi. Rasmiy jihatdan protokol tashriflari chog‘ida ish bilan bog‘liq aniq bir masala muhokama qilinmaydi, deb hisoblanadi. U taxminan 20 daqiqa davom etadi.

Tashriflarni o‘tkazish holatlari va tartibi diplomatik protokol qoidalari bilan belgilanadi va tartibga solinadi.

Xizmat tashrifi ham diplomat, ham qabul qiluvchi mamlakat va-kilining tashabbusi bilan amalga oshirilishi mumkin. Bunday tashrif chog‘ida ish bilan bog‘liq masalalar muhokama qilinadi. Xizmat tashrifi bir necha soat davom etishi mumkin.

Har bir davlat ichki qonunchiligi va milliy an’analariga asoslanib, tashriflarning o‘ziga xos tasnifiga ega. Ammo, ushbu farqlarga qaramay va tashriflarni rasmiylashtirish amaliyotini umumlashtirgan holda, ularning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

1. Davlat tashrifi.
2. Rasmiy tashrif.
3. Ish (ish yuzasidan (amaliy)) tashrifi
4. “Galstuklarsiz” uchrashuv.
5. Norasmiy tashrif.
6. Yo‘l-yo‘lakay tashrif.

7. Delegatsiya yoki davlat arboblarining yubiley tadbirlari yoki muhim voqeа munosabati bilan kelishi.

Sanab o‘tilgan tashriflarning har biri o‘zining protokol xususiyatlari ega. Masalan, rasmiy tashrif protokolga binoan davlat rahbarining va hukumat rahbarining tashrifiga bo‘linib, ularga tegishli darajada qutlov va sharaf ko‘rsatiladi.

Diplomatik tashriflarning asosiy qoidalari quyidagicha umumlashtirilishi mumkin:

1. Tashrifning kuni va soati oldindan kelishib olinadi. Majburiy va qat’iy protokol qoidasi – tashrif buyuradigan vaqtning aniq rioya qilinishi.
2. Kiyinishda protokol qoidalariga qat’iy rioya qilish kerak.
3. Tashrif davomida oldindan tayyorgarlik ko‘rilgan masala bo‘yicha suhbat bo‘ladi. Suhbatda tashabbus mezbonga tegishli bo‘ladi.
4. Mehmonni to‘g‘ri joylashtirish juda muhim. Divan sharaflı joy deb hisoblanadi. Uy egasi divanning chap tomonidagi kresloga o‘tiradi, shunda mehmon uning o‘ng qo‘li tomonida bo‘ladi. Mezbon divanda mehmon bilan o‘tirishi mumkin, lekin faqat uning chap tomonida. Uy egasi o‘tirgandan keyin mehmon o‘tiradi.

5. Mahalliy sharoitga qarab, tashrif paytida qahva, choy, sharob va yengil ovqat beriladi.

6. Har qanday tashrifni tugatish tashabbusi – u xoh protokol, xoh ish tashrifi bo‘lsin – har doim mehmon izmida bo‘ladi.

Diplomatik etiket nuqtai nazaridan, protokol tashriflarida rasmiylarni transport vositalari bilan ta’minalash, ularda joylarni taqsimlash va o‘tkazish tartibi muhim ahamiyatga ega.

**TASHRIF QOG‘OZI.** Diplomatik protokol amaliyotida keng tarqalgan element. Tashrif qog‘ozida ism va familiya, ularning tagida esa lavozim yozilgan bo‘ladi. Odatga ko‘ra, tashrif qog‘ozini shaxsan berish, berib yuborish va qoldirish qabul qilingan. Agar tashrif qog‘ozi adresatga shaxsan yetkazib berilsa, lekin tashrif (uchrashuv) mo‘ljallangan bo‘lmasa, u holda tashrif qog‘ozining o‘ng tarafni eni bo‘ylab bukiladi. Qanday sababga ko‘ra tashrif qog‘ozi berilayotganiga qarab, uning chap tomoni ostidagi burchagiga qalam bilan lotin alifbisining quyidagi harflari yoziladi: **p.f.** – tabriklaganda, **p.r.** – minnatdorchilik bildirilganda, **p.c.** – ta’ziya bildirilganda, **p.p.** – yangi ishga kelgan diplomatik xodimni g‘oibona tanishtirganda; **r.r.s.** – mezbon mam-lakatdan butunlay ketayotganda (shaxsiy tashrif o‘rniga).

**TASHQI MUNOSABATLAR IDORALARI.** Bu organlar diplomatik huquqda bir davlatning boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan tashqi aloqalarini amalga oshiradi, shuningdek, ushbu davlatning xalqaro munosabatlardagi huquq va manfaatlarini himoya qiladi. Tashqi munosabatlar organlari quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Ichki davlat organlari. Bunga parlament, davlat rahbari, hukumat rahbari, tashqi ishlar idorasi, tashqi iqtisodiy aloqalar idorasi kiradi.

2. Xorijdagi davlat organlari. Ular, o‘z navbatida, doimiy va muvaqqat organlarga bo‘linadi. Doimiy larga elchixonalar, konsulxonalar, xalqaro tashkilotlar qoshidagi vakolatxonalar va muvaqqat organlarga maxsus missiyalar kiradi.

**TASHQI ISHLAR.** Davlat tomonidan xalqaro maydonda hal qilinadigan tashqi siyosiy (ya‘ni, boshqa davlatlar va xalqaro tash-

kilotlar bilan siyosiy munosabatlar), tashqi iqtisodiy (q.: *Tashqi iqtisodiy faoliyat*), shuningdek, qisman harbiy tusdagi masalalarning umumlashgan nomi.

**TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI.** Davlatning tashqi aloqalarini boshqarish bilan shug‘ullanuvchi ijro organi. TIV tizimi markaziy apparat, shuningdek, chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari hamda xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalardan iborat. O‘zbekiston Tashqi ishlar vazirligining asosiy vazifalari Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan *O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi to‘g‘risidagi Nizomda belgilab berilgan*. (q.: *Tashqi ishlar idorasi*)

**TASHQI ISHLAR IDORASI.** Davlatning diplomatik faoliyatini bevosita amalga oshiruvchi, tashqi munosabatlarini tashkil etuvchi va muvofiqlashtiruvchi markazlashtirilgan davlat boshqaruv apparati.

Tashqi ishlar idorasi o‘z davlatining diplomatik vakolatxonalari va konsulxonalariga direktivalar va ko‘rsatmalar yuboradi, ularning faoliyatini kuzatadi, yo‘llaydi va nazorat qiladi.

Tashqi ishlar idorasi xorijiy diplomatik vakillar va delegatsiyalar bilan munosabatda bo‘ladi, muzokaralar olib boradi, bitimlar loyihibarini tayyorlaydi, kelayotgan ma‘lumotlarni qayta ishslash, tashqi siyosat bilan bog‘liq barcha muhim masalalarni hal qilish uchun hukumatga taqdim etadi.

Tashqi ishlar idorasiga xalqaro huquq subyekti va uning chet ellardagi fuqarolari manfaatlarini himoya qilish yuklangan.

Aksariyat davlatlarda tashqi ishlar idoralari tashqi ishlar vazirligi deb ataladi. Boshqacha nomlar ham uchraydi, masalan: AQShda – Davlat departamenti, Angliyada – Forin ofis, Fransiyada – Tashqi munosabatlar vazirligi.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi – tashqi siyosatni amalga oshiruvchi, xalqaro maydonda hamda boshqa davlatlar bilan aloqalar bog‘lashda o‘z davlati namoyandaligi vazifasini o‘tovchi organ. Vazirlik zimmasiga xalqaro holat bilan bog‘liq

ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish, davlatning tashqi siyosati bo'yicha takliflar tayyorlash vazifalari yuklangan. Shu maqsadda vazirlik o'zining chet eldag'i elchixonalari, xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalari va konsulxonalari bilan doimiy aloqada bo'lib, ularning ishiga rahbarlik qiladi, Toshkentdagi diplomatik vakolatxonalar bilan aloqalarni amalga oshiradi, chet el davlat va hukumat delegatsiyalarini qabul qilishda hamda O'zbekiston Respublikasi davlat namoyandalarining chet davlatlarga tashriflarini tayyorlashda ishtirok etadi.

**TASHQI ISHLAR KOLLEGIYASI.** Rossiya imperiyasi tashqi ishlar kollegiyasi yoki Rossiya imperiyasi xorijiy kollegiyasi – Rossiya va xorijiy davlatlar o'rtaisdagi munosabatlarni boshqarishning markaziy boshqaruvi organi. Tashqi ishlar kollegiyasi 1718-yilda Petr I islohotlariga muvofiq elchixona buyrug'i asosida tashkil etilgan. 1720-yilda maxsus tartibga solingan.

**TASHQI IQTISODIY BITIM.** Turli mamlakatlar o'rtaida iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, bir mamlakat savdo korxonalari, shirkatlari, yuridik shaxslarining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida xorijiy hamkorlar bilan tuziladigan shartnomalar.

**TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT.** 1991-yil 14-iyunda qabul qilingan, 2000-yil 26-mayda o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilib, yangi tahrirda tasdiqlangan "*Tashqi iqtisodiy faoliyat to 'g'risida*"gi *O'zbekiston Respublikasi Qonuniga* muvofiq, tashqi iqtisodiy faoliyat deganda, O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

**TASHQI RAZVEDKA (XIZMATI).** Xavfsizlikni ta'minlash kuchlarining tarkibiy qismi sifatida davlat tomonidan maxsus tuziladigan, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini tashqi tahdidlardan himoya qilishni ta'minlashi lozim bo'lgan organlar majmui.

**TASHQI SAVDO.** Tegishli davlatda ishlab chiqarilgan tovarlarni oldi-sotdi qoidalari bo'yicha boshqa mamlakatlarga eksport

qilish (olib chiqish) va boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarni tegishli davlatga import qilish (olib kirish).

**TASHQI SIYOSAT.** Davlatning boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarining majmui, shuningdek, davlatning xalqaro munosabatlardagi umumi tutgan yo‘li. “Tashqi siyosat” iborasi davlatlarning Konstitutsiyalarida ham, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ham qo‘llaniladi. Ba’zan Konstitutsiya ga tashqi siyosat to‘g‘risida maxsus bob kiritiladi. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IV bobi tashqi siyosatga bag‘ishlangan bo‘lib, unda shunday deyiladi: “O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariiga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi”.

Hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo‘silmashlik, boshqa davlatlarning harbiy bazalari va obyektlarining O‘zbekiston hududida joylashuviga, harbiylarimizning chet ellardagi operatsiyalar da ishtirok etishiga yo‘l qo‘ymaslik davlatimizning qat’iy siyosiy pozitsiyasi bo‘lib qoladi.

**TASHQI SIYOSIY AXBOROT.** Tashqi siyosiy ma’lumot davlatning chet eldag‘i diplomatik vakolatxonasining asosiy vazifalaridan biri. Uning ikki maqsadi bor: o‘z hukumatini qabul qiluvchi mamlakatdagi vaziyat va voqealar to‘g‘risida xabardor qilish va qabul qiluvchi mamlakatni o‘z davlatining siyosati to‘g‘risida xabardor qilish.

**TASHQI SIYOSIY VOSITALAR.** Tashqi siyosiy faoliyat oldinga qo‘yilgan maqsadlarga erishish bo‘yicha turli xil usullar bilan amalga oshiriladi: siyosiy, iqtisodiy, harbiy, axborot va targ‘ibot orqali.

Siyosiy vositalarga, avvalambor, diplomatiya kiradi. Diplomatiya – bu davlatning maxsus tashkilotlar va maxsus tadbirlar, qabullar, xalqaro huquq nuqtai nazaridan yo‘l qo‘yilgan va konstitu-

tsiyaviy-huquqiy mavqega ega bo‘lgan metodlar yordamida amalga oshiradigan rasmiy faoliyatni hisoblanadi.

Diplomatiya muzokaralar, tashriflar, maxsus konferensiya va muhokamalar, uchrashuvlar, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama bitimlarni, diplomatik yozishmalarni tayyorlash va imzolash, xalqaro tashkilotlar ishtirok etish orqali amalga oshiriladi. (q.: *Diplomatiya*)

**TASHQI SIYOSIY DOKTRINALAR.** Tashqi siyosiy doktrina tashqi siyosiy faoliyatning maqsadlari, vazifalari va mohiyati, shuningdek, muayyan davlatda qabul qilingan va uni amalga oshirish va qo‘llab-quvvatlash usullari to‘g‘risidagi qarashlar tizimi.

Tashqi siyosiy doktrinalarda hozirgi paytda xalqaro ishlarda tegishli davlat tomonidan ta’kidlab o‘tilgan asosiy muammolar yoritilgan.

Tashqi siyosiy doktrinalar mamlakatning xalqaro munosabatlardagi harakat tamoyillarini aniqlash uchun ishlab chiqilgan. Ular, odatda, harbiy (harbiy-siyosiy) doktrinalar bilan bog‘liq.

**TA’ZIYA (DIP. AMALIYOTDA).** Mamlakat boshiga tushgan falokat: davlat rahbari, hukumat rahbari va boshqa ko‘zga ko‘ringan rahbar arbobning vafoti, katta yo‘qotishlarga, o‘limlarga olib kelgan tabiiy ofat, halokat munosabati bilan bildirilgan rasmiy hamdardlik. Bunday munosabat bilan ta’ziyanomalar yuboriladi (telegramma, xat, noma).

Davlat rahbari vafot etganda, yozma ta’ziyanomadan tashqari, aza (shu jumladan, diniy) marosimida ishtirok etish uchun maxsus yuborilgan xorijiy davlatlar vakillari (hay’atlar) ham bo‘ladi. Ular mamlakat rahbariyatiga og‘zaki hamdardlik bildiradi. Mamlakatdagi diplomatik korpus ham o‘z ta’ziyasini izhor etadi. Diplomatik vakolatxona rahbarlari (har biri alohida yoki duayen dipkorpus nomidan TIVga tegishli notalar (shaxsiy, verbal), tagdagi chap burchagiga “r.s” (pour ejndole’ance) yozuvi bilan tashrif qog‘izi yuboradi.

Marhumning tobuti poyiga hay’atlar va dipkorpus gulchambar qo‘yadi. Aza kunlari elchixonalar ustidagi davlat bayroqlari flagshtokning yarmigacha tushiriladi.

Aza e'lon qilgan mamlakat diplomatik vakolatxonasi nota (shaxsiy, verbal) orqali hukumat, dipkorpusga yuz bergan voqealiga to'g'risida, ta'ziya kitobining ochilish vaqtiga joyi yuzasidan xabar qiladi, elchixonasi bayrog'ini tushiradi, ta'ziya bildiruvchi mamlakat vakillari va diplomatlar qabulini tashkil qiladi.

**TINCH-TOTUV YASHASH VA UNING BESH PRINSIPI (PANCHA SHILA).** 1949-yilda boshlangan Xitoy va Hindiston o'rtaasidagi Tibet mojarosidan so'ng 1954-yilda Tibet bo'yicha Xitoy-Hindiston bitimi imzolanishi bilan munosabatlar tiklandi. Hindiston Tibetni Xitoyning bir qismi sifatida tan oldi. Ushbu shartnomada "pancha sila" (tinchlikda yashash) deb nomlangan besh prinsip e'lon qilindi:

- hududiy yaxlitlik va suverenitetni o'zaro hurmat qilish;
- bostirib kirmaslik;
- ichki ishlarga aralashmaslik;
- tenglik va o'zaro manfaat;
- tinchlikda yashash.

Keyinchalik, ushbu prinsipler 1955-yildagi Bandung konferensiyasining yakuniy hujjati va, umuman, qo'shilmaslik harakati asosini tashkil etdi.

Javoharlal Neru davrida "hindlar va xitoylar – birodarlar" shiori ilgari surildi ("hindi chini bhai bhai"; 1955-yilda sovet-hind do'stligi haqida yana shunga o'xshash shior paydo bo'ldi: "hind rusi bhai bhai").

1962-yilda Xitoy-Hindiston chegara urushi natijasida tinch-totuv hayotga barham berildi.

**TEHRON KONFERENSIYASI.** Ikkinci jahon urushi davridagi uch ittifoqchi davlat rahbarlarining konferensiyasi. SSSR (I.V. Stalin), AQSh (F. Ruzvelt) va Buyuk Britaniya (U. Cherchill) qatnashgan. 1943-yilning 28-novabr – 1-dekabr kunlari Tehronda (Eron) bo'lib o'tgan. Germaniyaga qarshi urushda birgalikda harakat qilish va uch davlatning urushdan keyingi hamkorlik aloqalari haqidagi Deklaratsiyalar hamda 1944-yil 1-mayidan kechiktirmasdan Yevropada 2-front ochish, Polshaning urushdan keyingi chegaralari

haqida va b. qarorlar qabul qilingan. SSSR delegatsiyasi ittifoqchilar istaklarini inobatga olib, Germaniya armiyasi tor-mor etilgandan so'ng, Yaponiyaga qarshi urush e'lon qilishga va'da bergan.

**TRANZIT, XALQARO.** Xalqaro bojxona tranziti – bu chet el tovarlarining davlatning bojxona hududi orqali davlatning bojxona hududiga kirish joyi va ushbu hududdan chiqib ketadigan joyi o'rta-sidagi bojxona nazorati ostida bojxona to'lovlari va soliqlarni to'lamasdan, shuningdek, tovarlarga taqiqlar va iqtisodiy cheklovlar sиз olib o'tiladigan bojxona rejimi.

**TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR.** Transmilliy korporatsiya (TMK) – xorijiy aktivlarga ega bo'lgan, operatsiyalarining kamida 1/4 qismini mamlakat tashqarisida, o'zi ro'yxatga olingan chet mamlakatda amalga oshiradigan yirik korporatsiya. Tashkiliy jihatdan bosh kompaniya asosiy kapitalining sho'ba korxonalar kapitalida qatnashuvi tamoyiliga asoslanadi. TMK ishlab chiqarishni uzluksiz o'stirish hamda integratsiyalashuv siyosati, firma, kompaniyalarning bir maqsadni ko'zlab qo'shilishi (qo'shilish, sotib olish, moliya, ishlab chiqarish, guruhlarni tashkil qilish) hisobiga paydo bo'ladi. Ixtisoslashuviga ko'ra sanoat, xizmat ko'rsatish, savdo-sotiq, bank, sug'urta va boshqa tarmoqlarda faoliyat olib boradi:

Birinchi transmilliy kompaniyaga 1600-yilda (Gollandiyaning Ost-Indiya kompaniyasi asosida) Britaniyaning Ost-Indiya kompaniyasi sifatida asos solingenan. Ikkinci jahon urushi (1939–45) dan keyin ularning roli yanada oshdi. XXI asr boshida jahon ishlab chiqarishining katta qismi TMK qo'lida to'plangan. Amerikaning G'arbiy Yevropa va Kanadada, bir qancha rivojlanayotgan mamlakatlarda o'z korxonalarini tarmoqlariga ega bo'lgan TMKlari faoliyat ko'rsatadi. Mas., "Ford" avtomobil konserning 30 ta mamlakatda filiallari bor. Yirik ingliz kompaniyalari ("British petroleum", "IKI" va boshqalar), Germaniya ("Xerst", "Simens" va boshqalar), Gollandiyaning "Filips" konsernlari TMKlardir. TMK faoliyati ham milliy (ichki), ham tashqi bozorga yo'naltiriladi. Odatda, TMK kuchli ilmiy-texnikaviy salohiyatga ega bo'ladi. Mac., "Ford motor"ning Detroyt shahrida 100

mingdan ko‘proq muhandis-texnik xodimlar, olimlar, texnologlar, dizaynerlar ishlaydigan ilmiy-texnika markazi bor. TMK o‘z tarkibini va faoliyat yo‘nalishlarini muntazam yangilab turadi. Ularning asosiy maqsadi bozorlarning bir segmentini emas, balki jahon bozorlarida mustahkam ustuvorlikni egallashdan iborat.

## U

**UTI POSSIDETIS.** (lot. -- o‘zingiz ega bo‘lgan) Xalqaro amaliyotda ishlab chiqilgan prinsip bo‘lib, mustaqillikka erishgan yangi davlatlar mustamlaka davridagi qaram hududlarga, ya’ni ma’muriy, o‘zлari ega bo‘lgan hudud va avvalgi chegaralariga ega bo‘lishlarini anglatadi. Qoidaga ko‘ra, yangi tashkil etilgan mustaqil davlat huddida ilgari mavjud bo‘lgan eski ma’muriy chegara xalqaro chegara ga aylanadi.

Bu tamoyil mustaqil huquqiy prinsip emas, chunki u o‘zining huquqiy mavqeini faqat chegaralar daxlsizligi to‘g‘risidagi xalqaro huquqiy prinsip doirasida oladi.

Bundan tashqari, uni mavjud vaziyatni saqlab qolish prinsipi deb atash mumkin.

## V

**VAKIL.** Elchi yo‘qligida diplomatik vakolatxonani boshqarib turadigan diplomatik shaxs. Vakil mezbon davlat rahbari qoshida akkreditatsiyadan o‘tadi, shu maqsadda u o‘zining, ya’ni akkreditatsiya so‘ragan, davlat rahbari tomonidan imzolangan ishonch yorlig‘ini topshiradi.

Vakilning rasmiy, to‘liq nomi – Favqulodda va Muxtor vakil. 1815-yildagi diplomatik agentlarni tasniflash to‘g‘risidagi Vena reglamentiga ko‘ra, vakil diplomatik vakillarning huquqiy maqomiga ko‘ra elchidan pastroq bo‘lgan ikkinchi rangga kiritilgan.

1961-yilda qabul qilingan diplomatik munosabatlar to‘g‘risidagi Vena konvensiyasida qayd etilgan zamonaviy diplomatik huquq

me'yorlariga muvofiq, vakil diplomatik *sardorlik* va etiket masalalaridan bo'lak boshqa sinfga mansub diplomatik vakolatxonalar rahbarlariga tegishli barcha huquq va imtiyozlarga ega.

**VAKOLATLAR.** Xalqaro, ayniqsa, diplomatik amaliyotda qo'llaniladigan hujjat bo'lib, unda nomi keltirilgan shaxs (shaxslar) ning davlat, hukumat yoki boshqa rasmiy idora nomidan gapirish va muzokaralar olib borish, xalqaro anjumanlarda ishtirok etish, shartnomaga va bitimlarni imzolash, davlatning xalqaro tashkilotlardagi vakili ekani huquqlarini tasdiqlaydi.

Vakolatlar matnida vakolatlari shaxsning to'liq ism-sharifi va unga berilgan vakolatlar (muzokaralar o'tkazish, shartnomaga imzolash, konferensiya ishtirok etish va b.) ko'rsatiladi. Diplomatik vakolatlar matni, odatda, maxsus qog'ozga yoziladi va muhr bilan tasdiqlanadi hamda unga tashqi ishlar vaziri yoki muovininining imzosi qo'yiladi.

Ikki tomonlama shartnomaga va bitimlar imzolash chog'ida Tomonlar vakillari, odatda, bir-biriga o'z vakolatlarini taqdim etadilar, ko'p tomonlama shartnomaga va bitimlar imzolash chog'ida esa Tomonlar vakolatlari depozitariylarga topshiriladi. Xalqaro tashkilotlar konferensiya, sessiyalarida vakolatlarni tekshirish bo'yicha qo'mita tashkil etiladi. Bunda davlatlar vakillari o'z vakolatlarini tashkilotning eng asosiy shaxsi (bosh kotib, bosh direktor va b.)ga topshiradilar. Vakolatlarni tekshirish qo'mitasi nutqi (ma'ruzasi, hisoboti) kun tartibining birinchi qatorida turadi va konferensiya u yoki bu ishtirokchilarning vakolatlarini qabul qiladi yoki rad etadi.

Umume'tirof etgan amaliyotga ko'ra, davlat rahbarlari, hukumat rahbarlari, tashqi ishlar vazirlari va o'z vakolatlari doirasida diplomatik vakolatxonalar rahbarlari qo'shimcha vakolatlarsiz muzokaralar o'tkazish va xalqaro bitimlarni imzolashga haqli.

Vakolatlar maxsus xat ko'rinishida zamonaviy biznes amaliyotida ham uchrab, odatda, muzokaralarni firma rahbari o'mniga uning xodim yoki vakili olib borgan taqdirda rasmiylashtiriladi. Vakolatlar yoki maxsus xat-ishonchnomalar, shuningdek, shirkat nomidan muzokara olib borayotgan yoki uning tashqi aloqalari bo'yicha vakili bo'lgan huquqshunoslar uchun ham rasmiylashtiriladi.

## **VAKOLATXONA.** (q.: *Diplomatik vakillik, elchixona*)

**VALIZA.** (diplomatik, konsullik valizasi) (fran. *valise* – jomadon) Diplomatik kuryerning surg‘uchlangan va plombalangan pochta qop (qop, qog‘oz xalta, konvert). Valizaga faqat rasmiy xatlar va hujjatlar yoki rasmiy foydalanishga mo‘ljallangan buyumlar solinishi mumkin. Daxlsizlik huquqiga ega. (q.: *Diplomatik pochta*)

**VENA.** (diplomatiya tarixida) Yevropaning markazida joylashgan Avstriya davlati poytaxti xalqaro hayotda, diplomatiya tarixida eng ko‘p voqealar sodir bo‘lgan mashhur shahar. U yerda imzolangan mashhur hujjatlar:

- 1735–38-yy. Vena tinchlik shartnomalari (Avstriya va Fransiya) imzolangan;
- 1814–15-yy. Vena kongressi Yakuniy akti (diplomatik vakillar ranglari *sardorligi* nomenklaturasini belgilab bergen) imzolangan;
- 1815-yil Vena reglamenti (“Diplomatik agentlar borasidagi qoidalar”) imzolangan; (q.: *Vena reglamenti*)
- Gelvetik ittifoq ishlari to‘g‘risidagi 1815-yil Vena deklaratсиyasi qabul qilingan;
- 1855-yil Vena konferensiyasi (Qrim urushi bo‘yicha 5 ta davlat diplomatlari uchrashuvi) bo‘lib o‘tgan;
- 1876-yil Vena ultimatumi (Turkiyaga nisbatan) e’lon qilingan;
- 1938-yil va 1940-yil Vena Arbitrajlari (Vengriya hududiga oid) kiritilgan;
- Yadroviy zarar uchun fuqarolik mas’uliyati to‘g‘risidagi 1963-yil Vena konvensiyasi bo‘lib o‘tgan;
- “Diplomatik munosabatlар to‘g‘risidagi 1961-yil Vena konvensiyasi” qabul qilingan; (q.: *Vena konvensiyalari*)
- “Konsullik munosabatlар to‘g‘risidagi 1963-yil Vena konvensiyasi” qabul qilingan; (q.: *Vena konvensiyalari*)
- “Xalqaro shartnomalar huquqi to‘g‘risidagi 1969-yil Vena konvensiyasi”;
- “Maxsus missiyalar to‘g‘risidagi 1969-yil Vena konvensiyasi” qabul qilingan.

**VENA KONVENTSIYALARI.** Diplomatiya va konsullikning asosini tashkil qiluvchi ikki konvensiya – diplomatik va konsullik munosabatlari bag‘ishlangan konvensiyalar xalqaro munosabatlarda asosiy huquqiy hujjatlardan hisoblanadi. Diplomatik munosabatlar to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi 1961-yil 18-aprelda Vena shahrida, diplomatik munosabatlar va immunitetlar masalalari bo‘yicha BMT konferensiyasida qabul qilingan. Davlatlar boshliqlari huzuridagi diplomatik vakolatxonalar maqomi va vazifalarini belgilab beruvchi bu asosiy xalqaro hujjat 53-moddadan iborat bo‘lib, jumladan davlatlar o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatish tartibiga, diplomatik vakolatxonalar rahbarlarini ta’minalash va chaqirib olishga, mazkur vakolatxona xodimlarining diplomatik maqomlari ga, ularning o‘zi va oila a’zolariga beriladigan imtiyoz va daxlsizliklarga, vazifaga tayinlangan mamlakatga kelish va qaytishlariga, qabul qiluvchi mamlakat hududida o‘zlarini qay yo‘sinda tutishlariga oid qoidalardan iborat. Vakolatxonalarning muayyan diplomatik maqomga ega rahbarlari va vakolatxona diplomatik xodimlari orasidan duayenni, vakolatxonaning muvaqqat ishlar vakilini tayinlash masalalari yuzasidan ham qoidalalar bayon qilingan. Konsullik munosabatlar to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi 1963-yil mart – aprelda, BM-Tashkiloti xalqaro huquq hay‘atining loyihasini ko‘rib chiqish uchun 92 ta davlat vakillari qatnashgan Vena konferensiyasida qabul qilingan. Mazkur konvensiya xalqaro muomalada ishtirok qiluvchi barcha davlatlar o‘rtasidagi konsullik aloqalarini tartibga solib turadi.

**Vena konvensiyasi, diplomatik munosabatlar to‘g‘risidagi 1961-yil.** (q.: “*Diplomatik munosabatlar to ‘g‘risidagi 1961 yil Vena konvensiyasi*”)

**Vena konvensiyasi, konsullik munosabatlari to‘g‘risidagi 1963-yil.** (q.: “*Konsullik munosabatlari to ‘g‘risidagi 1963-yil Vena konvensiyasi*”)

**VENA REGLEMENTI, 1815-YIL.** Siyosatchilar orasida bunday nom bilan 1815-yil 19-martda 8 ta davlat (Avstriya, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Portugaliya, Prussiya, Rossiya, Fransiya, Shvetsiya) vakillari imzolagan Vena kongressi aktining 17-sonli ilovasi

mashhur. Vena reglamenti diplomatik vakillar rang (martaba)lari ketma-ketligi bo'yicha nomenklaturani tayinladi. Vena reglamenti tomonidan diplomatik ranglar to'g'risida o'rnatilgan qoidalar xalqaro muomalaga xalqaro huquq me'yori sifatida kirib, umumjahon e'tirofini qozondi va u yoki bu diplomatik vakillarning nomlanishi masalasidagi, ayniqsa, ularning *sardorligi* xususidagi bahs va mu-nozaralarga chek qo'ydi.

Vena reglamenti diplomatik agentlarning sardorlik tartibiga ko'ra quyidagi klass (daraja) va ranglarini o'rnatdi: 1. Elchi, papa legati va nunsiy. 2. Monarx qoshida akkreditatsiya qilingan vakil, vazir va boshqa shaxslar. 3. Ishonchli vakil (*chargé d'affaires*). 1818-yilgi Aaxen bayonnomasi (Aaxen kongressi) bu ro'yxatga ministr-rezident rangini qo'shib, uning vakil va ishonchli vakil o'rtasidan joy olishini belgilab qo'ydi. Hozirgi kunda ministr-rezidentlar juda kam uchraydigan hol.

Yuqorida sanab o'tilgan 4 darajadagi diplomatik vakillar ularni tayinlagan davlat rahbari tomonidan mezbon davlat rahbari qoshida akkreditatsiya qilingan hisoblanadi. Ishonchli vakillar esa o'zining tashqi ishlar vazirining mezbon davlat tashqi ishlar vaziri huzuridagi vakili hisoblanadilar.

Vena reglamenti hamma davlatlarda har bir darajadagi diplomatik agentni qabul qilishning yagona tartibi bo'lishini taqozo etadi va davlatlar o'rtasidagi yaqin munosabatlar diplomatik agentlarga hech qanday ustunlik bermasligini ta'kidlaydi.

Vena reglamenti qoidalari bizning kunlarda ham kuchda qolmoqda. Ammo, *elchi* bilan *vakil* o'rtasida avvallari yaqqol bo'lgan farq hozirga kelib yo'qolib ketdi. Katta davlatlar o'rtasida vakil o'mniga elchilar bilan almashish amalda ko'proq uchraydi.

**VERBAL NOTA.** Diplomatik yozishmada keng tarqalgan hujjat turi. Verbal notada vazirlik yoki chet el diplomatik vakolatxonasining faoliyati davomida paydo bo'ladigan turli savollar bayon qilinadi. Unda turli ma'lumotlar (diplomatlar tarkibidagi o'zgarish) aks etgan, iltimos (viza berish, biror masalani hal etish), norozilik, e'tiroz, biror masalaga qayta e'tibor berish istagi bildirilgan bo'li-

shi mumkin. Verbal nota matni uchinchi shaxs nomidan tuzilib, nota blankida yoziladi. U imzolanmaydi, ammo ba'zan matn tagida notani yuboruvchilar ism-shariflarining bosh harflari qo'yilishi mumkin. Manzil birinchi varaqning pastki chap burchagida ko'rsatiladi. Nota matni tagida uni jo'natish joyi va sanasi ko'rsatiladi. Verbal notaga Tashqi ishlar vazirligi yoki diplomatik vakolatxonaning maxsus muhri qo'yiladi. Chiqish raqamining bo'lishi shart. Uch qismidan iborat bo'ladi: xat boshi iltifot so'zлari, notaning mazmuni, yakuniy iltifot so'zлari.

**VETO.** 1. Qonun chiqaradigan organlarning qarorlarini to'xtatish yoki bekor qilish huquqi. 2. Taqiqlash, man qilish. (q.: *Yakdillik prinsipi*)

**VIZA.** (lot. *visus* – ko'rib chiqilgan) (ruxsatnama, rozilik, imzo) Davlatlararo munosabatlarda va diplomatiyada – shaxsga davlatdan chiqib ketish, davlat hududiga kirib kelish yoki davlat hududi orqali tranzit o'tib ketish uchun ruxsat etilishi to'g'risida pasportga yoki uning o'rнига о'tadigan hujjatga qo'yilgan belgi.

Vizalar chegaradan o'tib keluvchi chet elliklar oqimini tartibga solish va ro'yxatga olish uchun xizmat qiladi.

Vizalar quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) diplomatik, xizmat, oddiy va turistik;
- 2) kirish, kirish-chiqish, chiqish-kirish, chiqish va tranzit vizalar;
- 3) bir, ikki, uch va ko'p martalik vizalar.

Bulardan tashqari guruh vizalari ham bo'ladi.

Diplomatik va xizmat vizalari ish yuzasidan chet elga ketayotgan, diplomatik yoki xizmat pasportlariga ega shaxslarga beriladi. (q.: *Diplomatik viza*) Bunday vizalar Tashqi ishlar vazirligi orqali rasmiylashtiriladi.

Vizalar aksariyat hollarda konsullik muassasalari (konsulliklar, elchixonalarning konsullik bo'limlari) tomonidan beriladi. Viza olish uchun elchixona yoki konsullikkа oldindan (ba'zan bir necha hafta avval) viza berish so'ralgan anketa-ariza topshiriladi. Ko'pchilik mamlakatlar bu xizmat uchun ma'lum viza to'lovi oladi.

Vizalar ma'lum muddatga (bir necha kundan bir yilgacha yoki undan ham ko'proqqa) beriladi va tashrif buyurayotgan mamlakatga bir martalik, bir necha martalik yoki ko'p martalik kirishga ruxsat berishi mumkin. Odatda viza matnida shaxsning mamlakatda bo'lishi mumkin bo'lgan muddat ko'rsatilgan bo'ladi.

Vizalar sayyohlik maqsadida, ish yuzasidan safarga chiqqanda, doimiy yashash uchun ketayotganda va boshqa hollarda beriladi.

Bir qator mamlakatlar o'rtasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama kelishuvlarga binoan o'ziga xos bitimlar mayjud. Masalan, turistlar uchun viza elchixona yoki konsullikka murojaat qilmasdan mamlakatga kirib kelishda bevosita aeroportda berilishi mumkin. Bir qator Yevropa mamlakatlari tomonidan yagona viza makoni ("Shengen guruhi" deb nomlangan mamlakatlar) yaratilgan bo'lib, bir mamlakatga kirish shu guruhga tegishli boshqa mamlakatlarga ham borish imkoniyatini beradi (bu xohish anketa to'ldirilganda ko'rsatilishi shart).

### **VIZA, DIPLOMATIK.** (q.: *Diplomatik viza*)

**VIZA, YASHASH HUQUQINI BERUVCHI.** Basharti chet elliq boshqa mamlakatda uzoq muddat yashamoqchi bo'lsa, u holda o'sha davlat Ichki ishlar vazirligi yoki immigratsiya xizmatidan maxsus ruxsat – yashash uchun huquq (ruxsatnoma) olishi kerak bo'ladi. Bunday ruxsatnoma vaqtiga vaqtiga bilan uzaytirib turilishi shart. O'qish, shartnoma asosida ishslash yoki uzoq muddatli davolanish yashash huquqi (ruxsatnomasi)ni olish uchun asos bo'lishi mumkin.

**VITSE-KONSUL.** Konsullarga beriladigan unvon (klass). Vitse-konsul qabul qiluvchi davlat hududida faoliyat ko'rsatayotgan vitse-konsullik muassasasining rahbari yoki klass jihatidan yuqori bo'lgan bosh konsulxona yo konsulxona rahbarining o'rinnbosari hisoblanadi. (q.: *Konsullik martabalari (ranglari)*)

### **VOSITACHILIK.** (q.: "Xayrli xizmat", *xalqaro huquqda*)

# X

**XAYRLI XIZMAT (XALQARO HUQUQDA).** Xalqaro huquqda davlatlar o‘rtasidagi nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish vositalaridan biri.

“Xayrli xizmat” deganda nizoni tinch yo‘l bilan hal etishga qaratilgan, nizolashayotgan tomonlar o‘rtasida aloqa o‘rnatish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzokaralarni boshlash uchun davlat yoki xalqaro tashkilotning yordami tushuniladi. “Xayrli xizmat” maslahat xarakterida bo‘lib, bahslashayotgan tomonlar uchun majburiy emas.

“Xayrli xizmat” ko‘rsatayotgan davlat amalda muzokaralarda yoki nizoni ko‘rib chiqishda qatnashmaydi. Shunisi bilan “Xayrli xizmat” vositachilikdan farq qiladi.

“Xayrli xizmat” tinchlik sharoitida ham, harbiy nizolarda ham qo‘llanilishi mumkin. Xalqaro aloqlar uchun juda ilg‘or ahamiyatga ega bo‘lgan bunday xizmatlarga misol tariqasida sobiq Ittifoqning 1966-yildagi tashabbusini keltirish mumkin; uning natijasi o‘laroq kelishmovchilikka ega ikki qo‘shni davlat – Hindiston va Pokiston vakillarining uchrashuvi bo‘lib o‘tgan va Toshkent deklaratsiyasi imzolangan.

“Xayrli xizmat”dan foydalanishning asosiy qoidalari 1899 va 1907-yillardagi Gaaga konvensiyalarida qayd etilgan. BMT Nizomiga binoan, BMT Xavfsizlik Kengashi nizolashayotgan tomonlarga “xayrli xizmat” ko‘rsatishi mumkin (BMT Nizomining 33, 36, 38-moddalari).

**XALQARO DENGIZ HUQUQI.** (Xalqaro dengiz ommaviy huquqi) Dengiz bo‘shliqlari rejimini o‘rnatadigan va davlatlar o‘rtasidagi okeanlardan foydalanish bo‘yicha munosabatlarni tartibga soladigan prinsiplar va huquqiy normalar to‘plami. Hozirgi vaqtida xalqaro dengiz huquqi normalarining aksariyati 1982-yilda BMTning Dengiz huquqi to‘g‘risidagi konvensiyasida birlashtirilgan.

Ushbu sohaga tegishli qoidalarni o‘z ichiga olgan boshqa barcha xalqaro shartnomalar (shu jumladan ikki tomonlama va mintaqaviy bitimlar) ushbu Konvensiya normalarini to‘ldiradi yoki batafsil bayon etadi.

**XALQARO DIPLOMATIYA AKADEMIYASI.** Xalqaro nohukumat tashkilot 1926-yilda Parijda ta’sis etilgan. Akademiya turli davlatlar arboblari va diplomat xodimlari tomonidan xalqaro muammolar yuzasidan birgalikda tadqiqotlar o‘tkazishga sharoit yaratish maqsadida ochilgan. Akademiyaga a’zolikka hukumatlar, hukumat boshliqlari, tashqi ishlar idoralari rahbarlari, elchilar va vakillar qabul qilinadi. Unga jahoning 100 ga yaqin davlatidan mingga yaqin vakili a’zo bo‘lgan. Akademiyaga bosh kotib va Ijroiya qo‘mita rahbarlik qiladi. Budjet yillik a’zolik badallar hisobidan tashkil topadi.

**XALQARO JINOYATLAR.** Xalqaro tinchlik va xavfsizlikka xavf tug‘diruvchi, xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini buzuvchi, davlatlar va millatlarning mavjud bo‘lish asosiga tahdid soluvchi, og‘ir va o‘ta og‘ir xalqaro huquqqa qarshi qaratilgan harakat. Xalqaro huquqning komissiyasi tomonidan tayyorlangan davlatlarning javobgarligi to‘g‘risidagi moddalar loyihasida ko‘rsatilishi-cha, “davlatlar tomonidan xalqaro majburiyatlarni buzishi natijasida vujudga keladigan xalqaro huquqqa zid qilmish, agarda xalqaro hamjamiyatning hayotiy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan majburiyatlarni buzish bo‘lsa, bunday holatlarda xalqaro hamjamiyat oldidagi jinoyat deb e’tirof etiladi”. Xalqaro jinoyat obyekti bo‘lib, butunjahon tinchligi, xalqaro xavfsizlik; xalqlar va davlatlar o‘rtasidagi yaxshi qo‘sning shinchilik munosabatlari; xalqlar va millatlarning o‘zini o‘zi belgilash huquqi; urushning qonun va odatlari bo‘la oladi. 1945-yilgi Xalqaro harbiy tribunal Nizomi va boshqa xalqaro huquqiy aktlarga binoan, xalqaro jinoyatlar toifasiga tinchlikka qarshi qaratilgan jinoyatlar, insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyatlar, harbiy jinoyatlar hisoblanib, ular orasidan, kollonializm, genotsid, aparteid, atrof muhitni yoki dengizni ommaviy ifloslantirish (ekot-

sid)ni kiritish mumkin. Bu kabi jinoyatlar xalqaro tinchlik va xavfsizlik, xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi, inson shaxsini himoya qilish, atrof muhitni himoya qilish prinsiplarini o‘ziga asos qilib olgan xalqaro majburiyatlarning jiddiy buzilishi natijasida sodir etilishi mumkin.

**XALQARO ZONA.** Manfaatdor tomonlarning kelishuviga binoan maxsus xalqaro boshqaruв rejimi o‘rnatalган hudud. Xalqaro zonaga misol tariqasida Tanjer zonasini keltirish mumkin, uning rejimi bir qator xalqaro aktlar, shu jumladan, 1906-yildagi “Alxeciras” akti, shuningdek, 1923-yilda imzolangan konvensiyalardagi tuzatishlar bilan belgilab qo‘yilgan. Tanjer xalqaro zonası Marokash Sultonligining rasmiy suvereniteti ostida, Fransiya protektorati va xalqaro boshqaruв ostida bo‘lgan. U qurolsizlantirilgan va neytral-lashtirilgan.

**XALQARO KAFOLATLAR (GARANT).** Xalqaro huquq talablariga rioya etilishini va xalqaro majburiyatlarning bajarilishini ta‘minlash usullari. Xalqaro kafolatlar asosiy ko‘rinishi – bu muayyan bir davlatning boshqa bir davlat o‘zi oлgan majburiyatlarini bajarishi bo‘yicha kafolati. Bunday kafolatni bir davlat berganda yakka tartibda bo‘lishi mumkin yoki uni bir necha davlat birlashib bersa, kollektiv kafolat hisoblanadi. Kafolat, odatda, kafolat shartnomasi deb nomlangan maxsus shartnoma shaklida rasmiylashtiriladi. Bunday shartnomaga muvofiq, bir yoki bir nechta davlatlar xalqaro huquqning muayyan normalariga yoki boshqa davlatlar o‘rtasida tuzilgan shartnomalarga rioya qilinishini ta‘minlash majburiyatini oladi.

**XALQARO MUNOSABATLAR.** Jahon sahnasida harakat qilayotgan davlatlar va davlatlar tizimi, asosiy sinflar o‘rtasidagi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy kuchlar, tashkilotlar va harakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, huquqiy, diplomatik, harbiy va boshqa aloqalar hamda o‘zaro munosabatlarning yig‘indisi.

Boshqacha aytganda, bu ijtimoiy munosabatlarning ichki ijtimoiy munosabatlar va hududiy birliklar doirasidan tashqariga chiqadigan alohida turi.

Xalqaro munosabatlar qadimgi davrlardan buyon mavjud bo‘lishiga qaramay, terminning o‘zi nisbatan yaqinda paydo bo‘lgan

– bu ingliz faylasufi J. Bentam tomonidan kiritilgan tushuncha bo‘lib, asosan yirik milliy davlatlarning o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan siyosiy aloqalarini tashkil etuvchi munosabatlarni anglatadi.

### **XALQARO MUNOSABATLARDA GEGEMONIZM.**

XIX asrdan boshlab, ayniqsa, tarixiy ommabop maqolalarda, “gegemonlik” termini ko‘p uchrab, bir davlatning boshqa davlat ustidan ustunligini anglatgan (masalan, Birinchi Fransiya imperiyasining Yevropa gegemonligi).

Xalqaro munosabatlar tizimlari rivojlanib borishi bilan ularda turli davlat tuzilmalari gegemonlik qilgan.

### **XALQARO MUNOSABATLARDA KUCH ISHLAT-MASLIK.**

Zamonaviy xalqaro huquqning asosiy prinsiplaridan biri – davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarda kuch ishlatishni yoki kuch ishlatish tahdidini taqiqlash. U xalqaro huquqda Birinchi jahon urushidan keyin ildiz otishni boshladi. Urushni milliy siyosat vositasi sifatida taqiqlovchi birinchi ko‘p tomonlama shartnomaga 1928-yil 27-avgustdagи Parij shartnomasi (Brian-Kellogg shartnomasi) edi. Rivojlanishning muhim bosqichi BMT Nizomining qabul qilinishi bo‘ldi.

### **XALQARO MUNOSABATLAR NAZARIYASI.**

Xalqaro munosabatlar nazariy jihatdan ko‘rib chiqiladigan fan. Ushbu fan xalqaro munosabatlarning umumiy qonuniyatlarini tushunchalar shaklida kuzatib boradi va tahlil qiladi. Ole Xolsti xalqaro munosabatlar nazariyasining ishlashini odamga butun voqelikni emas, balki atrof dunyoning turli xil ranglarini ko‘rishga imkon beradigan quyosh ko‘zoynaklariga o‘xshatadi. Masalan, realist xalqaro munosabatlardagi muayyan hodisani e’tiborsiz qoldirishi mumkin, konstruktivist esa xuddi shu hodisani juda muhim, deb bilishi mumkin. Xalqaro munosabatlardagi eng mashhur uchta nazariya – bu realizm, liberalizm va marksizm.

### **XALQARO NIZOLAR.**

Xalqaro huquq subyektlari o‘rtasida rasmiy hisoblangan kelishmovchilik bo‘lib, huquq yoki mavjud yuz bergen fakt masalalari yuzasidan kelib chiqishi mumkin. Xalqa-

ro nizolar ikki tomonlama yoki ko‘p tomonlama bo‘ladi. Ma’lum davlatlar va boshqa davlatlar faoliyatining javobgarligida, turli tar-mog‘ida u yoki bu xalqaro shartnomalarni qo‘llash yoki tuzish, tus-huntirish jarayonidagi munosabatlarda vujudga keladi.

**XALQARO NIZOLARNI TINCH YO‘L BILAN HAL ETISH.** Xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish xalqaro huquq sohalaridan hisoblanib, uning prinsip va normalari xalqaro huquq sub-yektlari (davlatlar va xalqaro tashkilotlar) o‘rtasidagi nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish tartibini belgilaydi.

Xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish majburiyati yuzaga keladigan barcha kelishmovchiliklarni kuch ishlatmasdan hal qilish majburiyatini, shuningdek, vijdonan harakat qilish va hamkorlik qilish majburiyatlarini o‘z ichiga oladi.

**XALQARO NOHUKUMAT TASHKILOTLAR.** (ing. *Non-governmental organizations* – nodavlat tashkilotlar) Xalqaro tashkilotning turlaridan biri bo‘lib, quyidagi uchta mezonga javob beradi-gan hududiy bo‘lmagan tuzilma hisoblanadi: birinchidan, ularning tarkibi va maqsadlari xalqaro xarakterga ega; ikkinchidan, ta’sis-chilikning ko‘ngilli xarakterda ekani; uchinchidan, faoliyatning ix-tiyoriy tabiatni. Yana bir muhim belgi – transmilliy korporatsiyalarni (TNC) bu guruhga kiritishga imkon bermaydigan faoliyatning noti-jorat xususiyati.

O‘zbekistonda mahalliy va xorijiy nohukumat tashkilotlarining faoliyatining yagona qonun hujjati – “Nodavlat nohukumat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonun bilan tartibga solinadi.

**XALQARO SUD.** BMTning asosiy organlaridan biri va shu tashkilotning asosiy sud organi. 1945-yil 25-iyun kuni imzolangan va 1945-yilda kuchga kirgan xalqaro sudning Statuti BMT Nizoming ajralmas qismidir. BMT a’zo davlatlari Statutning *ipso facto* a’zolari hisoblanadi. BMT a’zosi deb hisoblanmaydigan davlatlar esa, BMT Xavfsizlik Kengashining taqdimnomasi asosida, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan belgilangan shartlar bo‘yicha Statutga a’zo bo‘la olishadi.

**XALQARO TANGLIKNI YUMSHATISH** (fran. *détente* – tanglik, keskinlikni yumshatish) Xalqaro tanglikni yumshatish – bu sotsialistik va kapitalistik lagerga kirgan mamlakatlar o‘rtasidagi qarama-qarshilikni kamaytirishga qaratilgan siyosat.

Ushbu ibora asosan SSSR va AQSh o‘rtasida 60-yillarning oxi-ridan (yadro quroli bo‘yicha barobarlikka erishilganda) 1970-yillarning oxirigacha bo‘lgan munosabatlarda aks etgan siyosiy jarayonda qo‘llanilgan. Xalqaro munosabatlarning bundan oldingi davriga nisbatan “Xalqaro munosabatlarning isishi” iborasi qo‘llanilgan, chunki qurollar tengsizligida munosabatlarni “yumshatish” befoyda bo‘lgan. 1969–1979 yillar ikki tizim o‘rtasidagi ziddiyatning yumshashi va SSSR bilan G‘arbning turli sohalardagi hamkorligining kengayishi bilan ta’riflanadi. Sovet rahbari L.I. Brejnev AQSh prezidentlari – Nikson, Ford va Karter, Fransiya prezidentlari Pompidu va, ayniqsa, Jiskar d’Esten, Germaniya kanslerlari Brandt va Shmidt bilan yaxshi aloqalar o‘rnatishga harakat qilgan.

**XALQARO TASHKILOTLAR.** Davlatlarning yoki hukumat qaramog‘ida bo‘lmagan milliy jamiyat (assotsiatsiya)larning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, fan-texnika, madaniyat va shu kabi sohalarda umumiy maqsadlarga erishish uchun tuzilgan uyushmasi; davlatlar o‘rtasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikning eng muhim shakllaridan biri. Xalqaro tashkilotlar XIX asrda vujudga keldi va Ikkinchi jahon urushidan keyin ko‘plab tuzila boshladi. Hozirgi kunda Xalqaro tashkilotlarning soni 4 mingdan ortiq bo‘lib, ularning 300 tasi hukumatlararo tashkilotlardir. Xalqaro tashkilotlar o‘ziga xos bir qancha xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jumladan, Xalqaro tashkilotlarning tuzilmasi, asosiy maqsad va tashkilot faoliyatining yo‘nalishlarini belgilab beruvchi ta’sis hujjati (nizomi) bo‘ladi; bunday tashkilotlar doimiy yoki vaqt-i-vaqt bilan faoliyat yuritadi; ko‘p tomonlama muzokaralar va muammolarni muhokama qilish ular faoliyatining asosiy usuli hisoblanadi; qarorlar ovoz berish yoki konsensus yo‘li bilan qabul qilinadi; qarorlar, odatda, tavsiyaviy kuchga ega bo‘ladi. Hukumatlararo xalqaro tashkilotlar va *xalqaro nohukumat tashkilotlar*, shuningdek, umumjahon va mintaqaviy tashkilotlar farqlanadi.

Mas., XMT, MAGATE, BMT Xalqaro Sudi, BMT Qochoqlar ishi bo'yicha oliy komissari, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti va b.

Xalqaro tashkilotlar tashkilot, ittifoq, jamg'arma, bank, agentlik, markaz va shu kabi nomlar bilan ataladi.

O'zbekiston Respublikasi 50 dan ortiq nufuzli Xalqaro tashkilotlarning teng huquqli a'zosidir. Bular, Markaziy Osiyo Hamkorlik tashkiloti, Toshkent shartnomasi (ODKB), TurkSoy, Turkiy davlatlar ittifoqi va b.

**XALQARO TASHKILOTLAR IMTIYOZ VA IMMUNITETLARI.** Davlatlar hududida, qoida tariqasida, o'zlarining nizom vazifalarini mustaqil bajarilishini ta'minlash maqsadida beriladi. Hukumatlararo tashkilotlarga berilgan imtiyozlar va immunitetlar hajmi, odatda, ularning nizomlari bilan tartibga solinadi va har bir tashkilot tomonidan a'zo davlatlar va uning muassasalari joylashgan mamlakat bilan tuzilgan maxsus shartnomalarda, maxsus xalqaro konvensiyalarda (masalan, *Birlashgan Millatlar Tashkilotining imtiyozları va immunitetları to 'g'risidagi 1946-yildagi konvensiyasi, 1975-yildagi universal xarakterdagı xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarda davlatlarning vakolati to 'g'risidagi Vena konvensiyasi* va boshqalar) belgilanadi. Odatda, xalqaro tashkilotlarga binolar, mulklar, arxivlar, hujjatlar va yozishmalarning daxlsizligi, aloqa erkinligi, shu jumladan, shifrlar, kodlar, kuryerlar va valizalardan foydalanish huquqi, yurisdiksiya daxlsizligi, fiskal immunitet, boj imtiyozları, gerb va bayroq huquqi va boshqalar beriladi. Bundan tashqari, qabul qiluvchi davlatlar ushbu tashkilotlarga barcha a'zo davlatlar delegatsiyalari a'zolari, tashkilotlar xodimlari va boshqa mansabdor shaxslarning to'siqsiz kirishini ta'minlash majburiyatini oladi.

**XALQARO TASHKILOT NIZOMI.** Xalqaro tashkilotning faoliyat mazmuni, asosiy vazifalari va maqsadlarini belgilaydigan xalqaro ko'p tomonlama shartnoma yoki boshqa ta'sis hujjati. Hujjat odatda, tashkilotning asosiy idoralari (umumiy yig'ilish, ijroiya organi, kotibiyat va boshqalar) huquqlari, har birining vakolatlari,

ularni tuzish tartibi hamda tashkilot a'zolarining vakilligini belgilaydi. Xalqaro tashkilot nizomida tashkilot a'zolari o'rtasidagi hamkorlikning asosiy tamoyillari va uning oldida turgan vazifalarni hal qilish usullari bayon qilingan. Unda yana qoida tariqasida, qarorlar va ularni amalga oshirish usullarini ishlab chiqish va qabul qilish tartibi ko'rsatilgan. Bundan tashqari, ushbu hujjatlar tashkilot a'zoliga qabul qilish va a'zolikdan chiqish yoki chiqarib yuborish tartibini belgilaydi. Ba'zan tashkilot a'zolari o'rtasidagi, shu jumladan, ta'sis hujjatini talqin qilishda kelib chiqadigan nizolarni hal qilish tartibi belgilanadi.

**XALQARO TERRORIZM.** Terrorizmning 60-yillarning oxirlarida paydo bo'lgan va XX asr oxiri – XXI asr boshlariga kelib ancha rivojlangan o'ziga xos shakli. Xalqaro terrorizmning asosiy vazifalari bu davlat boshqaruvini izdan chiqarish, iqtisodiy va siyosiy zarar yetkazish, ijtimoiy tuzum asoslarini buzish. Bu esa terrorchilar rejasiga binoan hukumatning o'z siyosatini o'zgartirishga undash demakdir.

Xalqaro terrorizmning umume'tirof etilgan ta'rifi hali ishlab chiqilmagan. Ko'pincha, bu termin siyosiy kurash vositasi sifatida ishlatiladi, chunki har bir mamlakat ma'lum bir guruhning "terrorchilar" yoki "ozodlik kurashchilari"ga tegishli ekanligini aniqlaydi, terrorchilik harakatlarining o'zi esa hududiy holda amalga oshiriladi.

**XALQARO URF-ODATLAR.** Xalqaro odat – bu xalqaro huquq subyektlarining bir xil turdag'i takrorlanuvchi vaziyatlarda uzoq vaqt va bir xilda qo'llanilishi natijasida shakllangan va ular tomonidan yuridik jihatdan majburiy norma sifatida tan olingan xulq-atvor qoidalari.

BMT Xalqaro Sudining Statutida ("b" paragraf, 38-moddaning 1-band) ushbu odat "huquqiy norma tariqasida tan olingan umumiyl amaliyotning dalillari" sifatida belgilangan.

Xalqaro odat, umuman olganda, xalqaro huquq subyektlarining so'zsiz kelishivi bo'lib, u xalqaro amaliyot tomonidan ishlab chiqilgan va ular tomonidan xalqaro-huquqiy normaning sifatini qo'llaydigan qoidalarni beradi. Xalqaro urf-odatlar xalqaro munosabatlarning

huquqiy tartibga soluvchisi sifatida qadimgi davrlardan boshlab shakllana boshlagan (masalan, elchilarning daxlsizligi, savdo erkinligi, chet elliklarning himoyasi, davlatlarning urush huquqi, harbiy o'ljalar huquqi, urush paytida ibodatxonadan boshpana olgan shaxslarning himoyasi, diniy bayramlarda harbiy harakatlarning bir muddat to'xtatib turilishi, qarama-qarshi tomonlar parlamenti a'zolarining daxlsizligi va b.). Xalqlar va davlatlar o'rtaisdagi munosabatlarning rivojlanishi va kengayishi bilan xalqaro ijtimoiy munosabatlarning tobora yangi sohalari odatiy-huquqiy tartibga solinmoqda (masalan, ochiq dengizlarning erkinligi, hududiy dengizning 3 millik eni, xususiy lashtirish, protektoratlar tizimi va b.).

Asrlar davomida xalqaro urf-odatlar xalqaro huquqning asosiy manbai bo'lib kelgan. (q.: *BMT Nizomi*)

**XALQARO XAVFSIZLIK.** Xalqaro munosabatlar tizimi; hamma davlatlar tomonidan rioya qilinadigan xalqaro huquqning prinsip va normalari; davlatlar o'rtaisdagi janjalli masalalarni va keshishmovchiliklarni kuch va kuch ishlatalish xavfi bilan bartaraf etishni istisno qilishga asoslangan. Xalqaro xavfsizlik prinsiplari quyidagilarni nazarda tutadi: hamma davlatlar uchun bab-baravar xavfsizlikni ta'minlash; harbiy, siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalarda amaliy kafolatlarni yuzaga keltirish; har bir xalqning suveren huquqlarini so'zsiz hurmat qilish; xalqaro tanglik va mintaqaviy nizolarni siyosiy yo'l bilan adolatli bartaraf etish; davlatlar o'rtaida ishonchni mustahkamlash; xalqaro terrorizm oldini olishning samarali usullarini ishlab chiqish; genotsid, aparteidni tugatish, fashizmni targ'ib qilmashlik, diskriminatsiyaning har qanday shakllarini xalqaro amaliyotdan yo'qotish; qamal va sanksiyalardan (jahon hamjamiyati tavsiyalarisiz) voz kechish. Xalqaro xavfsizlikning ajralmas qismi BMT Nizomi bilan mustahkamlangan amaldagi kollektiv xavfsizlik mexanizmidir.

Xalqaro xavfsizlik har bir davrda turli omillarga: xalqaro aloqalarning rivojlanish yo'nalishlari va xususiyatiga, sivilizatsiya darajasi, ma'naviyat va shu kabilarga bog'liq bo'ladi. Shaxs, sinf, jamoat tashkilotlari va xalqaro tashkilotlarning faoliyati Xalqaro xavfsizlikka jiddiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi jahonda,

xususan, Markaziy Osiyoda xavfsizlik ta'minlanishiga katta hissa qo'shib kelmoqda. O'zbekiston muomalaga kiritgan "Mintaqaviy xavfsizlikdan xalqaro xavfsizlikni ta'minlash sari" konsepsiysi Xalqaro xavfsizlikni ta'minlashning yangi qoidasi sifatida jahon miqyosida tan olinmoqda.

**XALQARO XUSHMUOMALALIK.** Davlatlar va ularning fuqarolariga nisbatan xalqaro-huquqiy normalar talablaridan kelib chiqib emas, balki ko'ngildan chiqarib yaxshi qo'shnichilik, do'stona munosabat, mehmonnavozlik, chuqur ehtiromni bildiruvchi harakatlarni namoyish qilish, shuningdek, o'rtadan rasmiyatshilikni chetga surish, ularga yaxshi shart-sharoit va imtiyozlar yaratib berish, xizmatlar ko'rsatishni anglatadi.

**XALQARO SHARTNOMALAR.** Bu davlatlarning ikki yoki ko'p tomonlama tuzilgan kelishuvlari. Xalqaro shartnomalarda davlatlar asosiy tomonlar hisoblanadi. Xalqaro shartnomalar davlatlar yoki xalqaro birlashmalarning o'zaro kelishuvi natijasida yozma ravishda tuziladi. Xalqaro shartnomalarning asosiy manbai xalqaro huquq hisoblanadi. Xalqaro shartnomalar xalqaro huquqning manbai hisoblanib, turli nomlarga ega bo'lishi mumkin (bitim, deklaratsiya, pakt, protokol, konvensiya va b.). Shartnomalarni tuzish, uning ijrosi va denonsatsiyasi tartibi xalqaro shartnomalar huquqi bilan muvofiqlashtiriladi. *Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi 1969-yil Vena konvensiyasi* va boshqa hujjatlar xalqaro shartnomalarga bag'ishlangan. Bu masala konstitutsiyalarda ham o'z o'rmini topgan. Xalqaro shartnomalar xalqaro huquqqa zid kelgan taqdirda noqonuni deb topiladi. (q: *Shartnomalar huquqi to'g'risidagi 1969-yil Vena konvensiyasi*)

**XALQARO SHARTNOMALAR TALQINI (IZOHLASH).** Xalqaro shartnomani izohlash deganda shartnomaning asl ma'nosini tiklash jarayoni tushuniladi. Xalqaro shartnomaning shartnoma tuzish jarayonida nazarda tutilgan ma'nosi haqiqiy deb tan olinadi. Xalqaro shartnomani izohlash jarayonida ishtirokchi davlatlarning uni tuzish chog'ida bayon etgan va tasdiqlagan fikrlari, ko'zlagan maqsadlari va qanday natijalarga erishishni istaganlari

hamda kelishuv chog‘i bildirgan irodasini aniqlash uchun muhim bo‘lgan barcha holatlar o‘rganiladi.

*Xalqaro shartnomalar huquqi to‘g‘risidagi 1969-yil Vena konvensiyasining 31-moddasida shartnomaning mazmunida, shuningdek, shartnomaning obyekti va maqsadi nuqtai nazaridan beriladigan odatdagi ma’noga muvofiq vijdonan talqin qilish kerakligi haqidagi umumiy qoidalar bayon qilib berilgan.* Xalqaro shartnomaning talqini xalqaro huquqiy majburiyatlarni talqin qilishning alohida holati hisoblanadi.

**XALQARO SHARTNOMANI PARAFIRLASH.** Vakolat berilgan shaxslarning ism-sharifini qo‘ygan holda xalqaro shartnomalarni umuman, yoki bir qismini dastlabki imzolash. (q.: *Parafirlash*)

**XALQARO SHARTNOMANI PROLONGATSIYA QILISH.** (lot. *prolongare* – uzaytirish) Xalqaro shartnomaning amalda bo‘lishini, uning muddati tugagunicha shartnoma muntazamligini ta’minlash maqsadida uzaytirish.

**XALQARO EHTIROM.** Davlatlararo munosabatlarda rioya qilinadigan, xalqaro amaliyotda hammaga rasm bo‘lib qolgan etiket qoidalari, izzat, hurmat majmuasi. Xalqaro ehtirom davlatning ramzlari va vakillariga daxldordir. Xalqaro ehtiromning ataylab buzilishi davlatni haqorat qilish va uning obro‘siga zarar yetkazish deb tushuniladi.

**XALQARO HUKUMATLARARO TASHKILOTLAR.** Suveren davlatlar va xalqaro tashkilotlar ixtiyoriy birlashmalari ning xalqaro huquqqa muvofiq davlatlararo bitim yoki xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning umumiy vakolati to‘g‘risidagi qaroriga asosan hamkorlikning muayyan sohasida davlatlar faoliyatini muvofiqlashtirish uchun tuzilgan tashkilot.

**XALQARO HUQUQ.** Xalqaro huquq – bu davlatlar tomonidan individual yoki jamoaviy ravishda yaratilgan va ta’milanadigan davlatlararo munosabatlarni va ularning umumiy manfaatlar sohasidagi boshqa munosabatlarini tartibga soluvchi mustaqil huquq tizimi.

Xalqaro huquq xalqaro sohaning maxsus ijtimoiy normalarining xalqaro axloq normalari, xalqaro tashkilotlarning qarorlari va rezolyutsiyalari, xalqaro siyosiy hamda xalqaro huquqiy normalardan iborat ajralmas qismidir. Faqat xalqaro huquqiy normalargina xalqaro huquq subyektlari uchun majburiy yuridik kuchga ega bo‘ladi.

Xalqaro huquq davlatlar tomonidan tuziladigan va mustaqil huquqiy tizimni tashkil etuvchi, davlatlararo va boshqa xalqaro munosabatlар bilan bir qatorda, ichki munosabatlarga asoslangan huquqiy normalarning murakkab majmuidir.

**XALQARO HUQUQ INSTITUTI.** (fran. *Institut de Droit International, IDI*) Dunyoda birinchilardan bo‘lib xalqaro huquq prinsiplarini aniqlagan, uning kodifikatsiyasini yaratgan va xalqaro muammolarni hal qilish yo‘llarini taklif etgan muassasa. 1904-yil uchun Nobel Tinchlik mukofoti sovrindori. Xalqaro huquq instituti xalqaro norasmiy xususiy ilmiy birlashma bo‘lib, uning maqsadi xalqaro huquqning izchil rivojlanishiga ko‘maklashish, ya’ni: umumiy prinsiplarni rivojlantirish, kodifikatsiya bo‘yicha hamkorlik qilish, tinchlikni saqlashga hamda urush olib borish qonun-qoidalari va odatlariga rioya qilishga ko‘maklashish, munozarali yoki shubhali ishlarda sud maslahatlari berish, shuningdek, nashrlar, xalq ta’limi va xalqaro munosabatlarni tartibga solish yo‘li bilan adolat va insonparvarlik tamoyillari muvaffaqiyatga erishishiga hissa qo‘shish.

**XALQARO-HUQUQIY E’TIROF.** Xalqaro huquqiy e’tirof – davlatning xalqaro munosabatlар sohasida muayyan huquqiy harakatlar boshlanganligini ko‘rsatuvchi (niyatini anglatuvchi) rasmiy hujjati;

majud davlatlar tomonidan yangi davlatlar yoki hukumatlar yoki boshqa tan olinuvchilarini ular bilan rasmiy yoki norasmiy, to‘liq yoki to‘liqsiz, doimiy yoki vaqtincha aloqalar o‘rnatish maqsadida tan olish.

**XALQARO HUQUQNING ASOSIY PRINSIPLARI.** Xalqaro munosabatlар subyektlarining xalqaro hayotning ma’lum tarixiy bosqichidagi umume’tirof etgan xatti-harakat normalari-

ning yaxlit ko‘rinishidir. Asosiy prinsiplar *xalqaro munosabatlar*-ning bosh muammolarini hal etishda, davlatlar o‘rtasida tinchlik va hamkorlikni saqlashda katta ahamiyatga ega. Asosiy prinsiplarning ko‘pchiligi BMT Nizomida ta’riflangan, unga muvofiq 1970-yilda qabul qilingan “*Davlatlar o‘rtasidagi do’stona munosabatlar hamda hamkorlikka oid xalqaro huquq prinsiplari to‘g‘risidagi deklaratsiya*”da rivojlantirilgan va mustahkamlangan.

Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari:

- davatlarning suveren tengligi;
- kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;
- davlat chegaralarining daxlsizligi;
- davatlarning hududiy yaxlitligi;
- xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish;
- ichki ishlarga aralashmaslik;
- inson huquqlariga umumiyl hurmat;
- xalqlar va millatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi;
- hamkorlik;
- xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish;
- davatlarning suveren tengligi.

**XALQARO HUQUQ SUBYEKTLARI.** Bu xalqaro huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan, ularni xalqaro huquq asosida amalga oshiradigan va zarur hollarda xalqaro huquqiy javobgarlikka ega bo‘lgan xalqaro munosabatlarning qatnashchilarini anglatadi.

Ichki qonunchilikda bo‘lgani kabi, xalqaro huquqda ham subyektlarning turli toifalari mavjud.

Xalqaro huquqning asosiy subyektlariga mustaqillik uchun kurashtayotgan davlatlar, millatlar, shuningdek, xalqaro (davlatlararo) tashkilotlar kiradi. Ushbu subyektlar xalqaro shartnomalar tuzish, xalqaro tashkilotlarga a‘zo bo‘lish, o‘zlarining rasmiy vakolatxonalariga (diplomatik, konsullik va boshqalar) ega bo‘lish, xalqaro konferensiyalarda qatnashish kabi muhim huquqlarni o‘z ichiga olgan xalqaro huquqiy subyektning barcha elementlari (huquqiy va huquqiy layoqat)ga ega bo‘ladi.

**XALQARO HUQUQIY TAN OLİSH, E'TIROF.** Muayyan bir davlatning siyosiy-huquqiy akti bo'lib, u orqali yangi davlatning vujudga kelganidan o'zining xabardor ekanligini tasdiqlaydi va yangi davlatning boshqa davlatlar bilan aloqa o'rnatish yoki o'zga shaklda munosabatda bo'lishga qaratilgan niyatlariga ijobiy qarashini izhor etadi.

Tan olish tartibi, ko'p jihatdan, yangi davlatlarning paydo bo'lishi, sobiq mustamlakalarning mustaqillikka erishishi, davlatlarning bir-biri bilan qo'shilishi yoki parchalanishi sababli shakllangan.

Davlat ijtimoiy-siyosiy tizimining o'zgarishi holatida ham uni yangitdan tan olish talab qilinadi.

Hozirgi zamon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, tan olish, asosan, diplomatik kanal orqali yoki mustaqillikni e'lon qilishi marosimida maktub topshirish shaklida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining suverenlik statusini 165 ta davlat tan olgan.

**XALQARO JINOIY SUDNING RIM STATUTI.** (ing. *Rome Statute of the International Criminal Court*) Xalqaro jinoiy sudning Rim statuti Xalqaro jinoiy sudni tuzgan xalqaro shartnomadir. 1998-yil 17-iyulda Rimda bo'lib o'tgan diplomatik konferensiyada qabul qilingan va 2002-yil 1-iyulda kuchga kirgan. Boshqa narsalar qatori, hujjatda sudning vazifalari, vakolat doirasi va tuzilishi belgilab qo'yilgan.

2016-yil mart holatiga ko'ra 139 ta davlat shartnomani imzolagan, ammo 124 ta davlat uni ratifikatsiya qilgan.

*Tarixi.* 1990-yillarda faoliyat yuritgan xalqaro sudlar (sobiq Yugoslaviya va Ruanda bo'yicha xalqaro tribunal) xalqaro hamjamiyatga genotsid, harbiy jinoyatlar va insoniyatga qarshi jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni hal qilish uchun mustaqil va doimiy sud zarurligini ko'rsatdi. 1998-yil iyun oyida BMT Bosh Assambleyasi "xalqaro jinoyat sudini tashkil qiluvchi konvensiyani yakunlash va qabul qilish uchun" konferensiya chaqirdi. 1998-yil 17-iyulda Rim statuti ovoz berish orqali qabul qilindi, unda 120 ta davlat ovoz berdi, 7 ta qarshi chiqdi va 21 ta betaraf qoldi.

Statutning kuchga kirishi sharti sifatida u kamida 60 ta davlat tomonidan tasdiqlanishi belgilangan edi. Ushbu to'siq 2002-yil 11-aprelda bartaraf etildi. Shartnoma 2002-yil 1-iyulda kuchga kirdi.

2010-yilda Rim statutiga kiritilgan ikkita o'zgartirishning matni qabul qilindi.

**XELINKI YAKUNLOVCHI AKTI.** Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashining Yakunlovchi akti (ing. *Final Act of the Conference on Security and Cooperation in Europe*), shuningdek, Xelsinkи Yakunlovchi Akti (ing. *Helsinki Final Act*) yoki Xelsinkи bitimlari Akkordlari (ing. *Helsinki Accords*) deb ham nomlanuvchi akt yoki Xelsinkи Deklaratsiyasi (ingl. *Helsinki Declaration*) – 1975-yil 30-iyul – 1-avgustda Finlyandiya poytaxti Xelsinkи shahrida 35 ta davlat rahbarlari tomonidan imzolangan hujjat. Majlis 1968-yilda Varshava shartnomasi ishtirokchilari bo'lgan sotsialistik davlatlarning taklifiga binoan chaqirilgan. (q.: *YeXHK yakunlovchi hujjati*)

**XORIJY YURIDIK SHAXS.** Bir qator mamlakatlarda qabul qilingan soliq qonunchiligi va qonunlari asosida xorijiy davlat hududida tashkil etilgan subyekt – yuridik shaxs, degan ma'noni anglatadi. Korxonalar va tashkilotlarning daromad solig'i bo'yicha xorijiy yuridik shaxslarni soliqqa tortishning xususiyatlari ham qonunchilikda belgilangan.

**XUSUSIY (SHAXSIY) XAT** (q.: *Shaxsiy (xususiy) nota yoki birinchi shaxs nomidan nota*)

## Y

**YADRO KLUBI.** Siyosatshunoslik klischesi bo'lib, yadro qurolini ishlab chiqarish va sinovdan o'tkazish bilan shug'ullangan yadro davlatlari deb atalmish guruhning ramzi tushuniladi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, hozirda AQSh, Rossiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy, Hindiston, Pokiston, Isroil va KXDR yadro quroliga ega.

**YADRO QUROLINI TARQATMASLIK.** (ing. *Treaty on the Non-Proliferation of Nuclear Weapons*, qisqacha – *Non-Proliferation Treaty, NPT*) BMTning Qurolsizlantirish bo‘yicha qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan ko‘p tomonlama xalqaro hujjat bo‘lib, yadro quroliga ega bo‘lgan davlatlar doirasining kengayishini, ushbu quroldan foydalangan holda qurolli mojaroni keltirib chiqarish ehtimolini cheklash hamda davlatlar tomonidan o‘zlarini imzolagan shartnomaga majburiyatlarini bajarilishi ustidan zarur xalqaro nazoratni ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan akt. U atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

1968-yil 12-iyunda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan ma’qullangan va 1968-yil 1-iyulda Moskva, Vashington va Londonda imzolash uchun ochilgan. 1969-yil 24-noyabrdagi SSSR tomonidan ratifikatsiya qilingan (Rossiya Federatsiyasi shartnomani bajarish uchun SSSRning vorisidir). 1970-yil 5-martda ratifikatsiya yorliqlari depozitariy davlatlar (SSSR, AQSh, Buyuk Britaniya; 1968-yilda imzolangan) va 40 ta davlat tomonidan saqlash uchun topshirilgandan keyin kuchga kirdi. Fransiya va Xitoy 1992-yilda shartnomani imzolagan. 1995-yil 11-mayda 170 dan ortiq ishtirokchi davlatlar hech qanday qo‘sishma shartlarsiz shartnomani muddatsiz uzaytirishga kelishib oldilar.

Shartnomaga Isroil, Hindiston, Pokiston, Shimoliy Koreya va Janubiy Sudandan tashqari deyarli barcha mustaqil davlatlar qo‘shilgan.

**YAKDILLIK PRINSIPI.** Bu prinsip BMT Xavfsizlik Kengashi doimiy a’zolari tomonidan 1945 yil Qrim (Yalta) konferensiyasida tasdiqlangan. Anjuman qarori bilan 1945 yil San-Fransisko konferensiyasida ishlab chiqilgan bu prinsip, BMT Nizomiga kiritilgan (27 modda). Yakdillik prinsipiiga ko‘ra Xavfsizlik Kengashidagi protsedura masalasi, shuningdek Xalqaro Sud a’zolarini saylashdan tashqari har qanday masala yuzasidan qaror faqat unga 9 dan kam bo‘lmasligi ovoz berilishi sharti bilan va bunda Xavfsizlik Kengashining doimiy besh a’zosi – Rossiya (SSSR), Xitoy, AQSh, Buyuk Britaniya va Fransiyaning bir xil ovoz bergen taqdirdagina, qabul

qilinadi. Demak, basharti Xavfsizlik Kengashining bitta doimiy a'zosi "veto huquqi" dan (lot. *veto* – qarshiman, man etaman) foydالangan holda qarshi ovoz bersa, Xavfsizlik Kengashi protseduraga kirmaydigan masalalar bo'yicha birorta qaror qabul qilolmaydi.

Yakdillik prinsipi nafaqat Xavfsizlik Kengashining, balki butun BMTning samarali faoliyati uchun yagona mumkin bo'lgan va zarur shart hisoblanadi. U hamkorlikni amalga oshirish va birinchi navbatda, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlashga taalluqli masalalarda kelishilgan choralar ni qabul qilishga qaratilgan. Xavfsizlik Kengashi vakolatiga kiradigan boshqa masalalar yakdillik prinsipi nafaqat Xavfsizlik Kengashi muhim masalalar ni hal qilishda, balki muayyan masala protsessual yoki yo'qligini aniqlashda ham qo'llaniladi. Shunday qilib, amalda Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyasi loyihasi protsessual xususiyatga ega yoki yo'qligi haqidagi dastlabki savolni hal qilishda dastlab veto qo'yilishi mumkinligi, keyin esa loyihaning o'zi voto bilan rad qilinishi mumkinligi ayon bo'ladi. Yakdillik prinsipi BMT Xavfsizlik Kengashining xalqaro hamjamiyat manfaatlariga zid kelishiga qarshi ishonchli to'siq bo'lib xizmat qiladi.

**YAKUNIY AKT.** (ing. *final act*) Xalqaro huquqda xalqaro konferensiya (kongress, anjuman) natijalarini tasdiqlovchi hujjat. Xalqaro konferensiya ishini hisobga olish va munozarali masalalar bo'yicha erishilgan kelishuvlarni qayd etish zarur bo'lgan hollarda qo'llaniladigan xalqaro shartnomacha shakli.

Yakuniy aktning mazmuni, tuzilishi va huquqiy ahamiyati yakuniy aktning qabul qilinishiga olib kelgan konferensiya yoki ikki tomonlama muzokaralarning xarakteri, maqsadlari va ish jarayoni bilan belgilanadi. Ba'zan yakuniy akt kelajakdag'i xalqaro konferensiada yana bir bor ko'rib chiqilishi kerak bo'lган masalalar bo'yicha istaklarni aks ettiradi. Xalqaro uchrashuvlarning yakuniy hujjatiга Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha konferensiyaning yakuniy hujjati (1975-yil) misol bo'la oladi. "Yakuniy akt" atamasi ba'zi xalqaro shartnomalarning nomi sifatida ham qo'llaniladi. (q.: *YeXHT Yakunlovchi hujjati*)

**YAKUNIY PROTOKOL.** Ixetuanlar qo‘zg‘olonini bostirishda ishtirok etgan Xitoy va 11 kuchli davlat (Germaniya, Avstriya-Vengriya, Belgiya, Ispaniya, AQSh, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Yaponiya, Gollandiya va Rossiya) o‘rtasida 1901-yil 7-sentabrdagi kelishuv.

**YEVROPA ITTIFOQI.** Yevropaning 27 davlatidan iborat siyosiy va iqtisodiy birlashma yoki boshqacha aytganda, o‘zida xalqaro tashkilot va federativ davlat xususiyatlarini mujassam-lashtirgan davlatlararo uyushma.

U dastlab Yevropa hamjamiyati (“Umumiy bozor”) nomi bilan atalgan. Yevropa Ittifoqi to‘g‘risidagi shartnomaga 1992-yil Maastrixt shahrida (Niderlandiya) Yevropa hamjamiyatiga a’zo bo‘lgan 12 davlat va hukumat boshliqlari imzo chekkan. Yevropa mam-lakatlarining siyosiy va valyuta-iqtisodiy ittifoqini vujudga keltirish to‘g‘risidagi bu shartnoma 1993-yil 1-noyabrdan kuchga kirgan. Uning tarixi 1957-yilga, 6 Yevropa davlatlari orasida imzolangan Rim bitimi va undan so‘ng paydo bo‘lgan Yevropa Iqtisodiy Hamkorligiga borib taqaladi. 2005-yilda Ittifoqning birinchi yirik kengayishi yuz berdi. Unda Ittifoqqa 10 ta yangi davlat qo‘sildi. Ikki yildan so‘ng ular qatoriga Bolgariya hamda Ruminiya qo‘silib, Yevropa Ittifoqi 27 davlatdan iborat bo‘ldi.

Yevropa Ittifoqining maqsadlari: Yevropa xalqlarining mustahkam ittifoqini vujudga keltirish, ichki chegaralari bo‘lmagan makon yaratish, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zaro ta’sirni kuchaytirish yo‘li bilan muvofiqlashtirilgan uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyotga yordam berish; iqtisodiy va valyuta ittifoqini tashkil qilish va yagona valyuta yaratish; birgalikda tashqi siyosat olib borish va xavfsizlik borasida siyosat yuritish, kelgusida esa birgalikda mudofaa siyosatini ham olib borish yo‘li bilan xalqaro sohada o‘ziga xos bir xillikni qaror toptirish; adliya va ichki ishlar sohasida hamkorlikni rivojlantirish; umumiy boylikni saqlab qolish va ko‘paytirish.

Yevropa Ittifoqi organlari: Yevropa Kengashi, Yevropa parlamenti, Yevropa Ittifoqi Kengashi, Yevropa komissiyasi, Yevropa Ittifoqi sudi, Yevropa markaziy banki, Yevropa hisob palatasi. Tashkilotga 15

mamlakat (Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yunoniston, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Portugaliya, Finlyandiya, Fransiya, Shvetsiya) a'zo (2002-yil, yanvar). Qarorgohi – Strasbur shahri (Fransiya). O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik alohida o'rIN tutadi. Tashkilot TASIS dasturi doirasida O'zbekiston ga texnikaviy yordam ko'rsatadi. 1999-yil 1-iyulda O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasida Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim ratifikatsiya qilindi. Bu bitim siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy aloqalar rivoji uchun imkoniyat tug'dirdi.

**YEVROPA KENGASHI.** Yevropa davlatlarining har tomonlama hamkorlik qilishiga ko'maklashuvchi xalqaro tashkilot. 1949-yilda ta'sis etilgan. Yevropa Kengashining maqsadi: a'zo mamlakatlar o'rtasida yaqin aloqalarni ta'minlash; Yevropaning demokratik va xavfsiz makonga aylanishiga, plyuralistik demokratiyani va inson huquqlarini mustahkamlashga, yevropacha o'zini o'zi anglash va madaniy bir xillikni rivojlantirishga yordam berish. Unga Yevropadagi 40 dan ortiq davlat a'zo hisoblanadi. Yevropa Kengashiga a'zo bo'lib kirishni istagan davlat muayyan talablarga javob berishi kerak: uning davlat muassasalari va huquqiy tuzilishi demokratiyaning asosiy prinsiplariga, inson huquqlariga rioya etilishiga muvofiq bo'lishi lozim, xalq vakillari esa erkin, teng va umumiylay saylovlari yo'li bilan saylanishi kerak. Yevropa Kengashiga qabul qilishda, jumladan, fikrni ifodalash erkinligi bo'lishi, milliy ozchiliklar himoyalanishi, xalqaro huquq me'yorlariga rioya etilishi mezon hisoblanadi. Yevropa Kengashi a'zosi inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasining qatnashchisi bo'lishi shart. Yevropa Kengashining quyidagi organlari bor:

1. Vazirlar qo'mitasi.
2. Parlament assambleyasi.
3. Tarmoq vazirlari kengashi.
4. Kotibiyat.

Vazirlar qo'mitasi Yevropa Kengashining oliy organidir. U a'zo mamlakatlar tashqi ishlar vazirlaridan tashkil topadi va Yevropa

Kengashining ish dasturi yuzasidan qarorlar qabul qiladi, turli hukumatlararo ixtisoslashgan qo'mitalar, tarmoq vazirlar kengashlari takliflari bo'yicha qarorlar chiqaradi, Yevropa Kengashi budgetini qabul qiladi va inson huquqlari bo'yicha Yevropa komissiyasi a'zolarini tayinlaydi. Odatda, yiliga 2 marta vazirlar darajasida yig'ilish o'tkazadi. Bosh kotibni va uning o'rinnbosarini, inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi sudyalarini saylaydi. Kotibiyatni 5 yil muddatga saylanadigan Bosh kotib boshqaradi. Yevropa Kengashi organlari Strasbourg shahri (Fransiya)da joylashgan.

**YEVROPA PARLAMENTI.** Yevropa Parlamenti (Yevroparlament, YeP) – Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar fuqarolari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri saylanadigan Yevropa Ittifoqining (YeI) qonun chiqaruvchi va vakillik organi.

Yevropa Parlamenti Yevropa Ittifoqi Kengashi bilan birgalikda Yelning ikki palatali qonunchilik tarmog'ining prototipidir va dunyodagi eng nufuzli qonunchilik organlaridan biri hisoblanadi.

Yevropa Parlamenti 1957-yilda tashkil etilgan bo'lib, avvaliga Yevropa Hamjamiyatlari Assambleyasi deb nomlangan. Dastlab, a'zolar Yevropa Ittifoqiga kirgan davlatlar parlamentlari tomonidan tayinlangan. 1979-yildan beri parlament xalq tomonidan saylanib kelinmoqda. Saylovlar har 5 yilda bir marta o'tkaziladi.

Yevropa Parlamenti mustaqil ravishda prezidentni 2,5 yil muddatga saylaydi. 2019-yil 3-iyuldan boshlab bu lavozimni David-Mariya Sassoli egallab kelmoqda.

Parlament 1952-yilda tashkil etilganidan beri, ayniqsa 1992-yilda Maastricht shartnomasi va 2001-yildagi Nitssa shartnomasidan keyin, uning vakolatlari doimiy ravishda kengayib bormoqda.

Yevropa Parlamenti Strasburgda, yana Bryussel va Lyuksemburgda yig'iladi. Hozirgi kunda Parlamentda 8 fraksiya, shuningdek qo'shilmagan bir qator deputatlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Organning tashkiliy va ishslash prinsiplari Yevropa Parlamenti Reglamentida bayon etilgan.

**YEVROPA XAVFSIZLIGI.** (ing. *European security*) Yevropada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash uchun barcha manfaatdor davlatlar tomonidan ko'riladigan qo'shma choralar majmui, davlatlarning tinch-totuv yashash tamoyillari asosida o'zaro manfaatli hamkorlikni ta'minlash, harbiy tanglikni yumshatish, qurolsizlanish va Yevropada tinchlikning boshqa kafolatlari uchun qabul qilgan chora-tadbirlari va majburiyatlari.

Ikkinci jahon urushining sahnasi bo'lgan Yevropada kollektiv xavfsizlikni ta'minlash Ikkinci jahon urushidan keyin AQSh va boshqa NATO mamlakatlarining tajovuzkor siyosati tufayli alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

**YEVROPADA XAVFSIZLIK VA HAMKORLIK KENGASHINING YAKUNLOVCHI HUJJATI** – xalqaro shartnomma. 1975-yil 1-avgustda Xelsinki shahrida Yevropaning 33 davlati, AQSh va Kanada rahbarlari imzolagan. Yakunlovchi hujjatning to'la hajmda va bir butun holda bajarilishi lozim bo'lgan asosiy qoidalari:

- 1) Yevropada xavfsizlikni ta'minlash;
- 2) iqtisodiyot, fan va texnika sohalarida hamkorlik, atrof-muhitni muhofaza qilish;
- 3) gumanitar va boshqa sohalarda hamkorlik qilish;
- 4) kengashdan keyin yanada olg'a qadamlar qo'yish.

Yakunlovchi hujjatda o'zaro munosabatlar va hamkorlik normalarini belgilovchi 10 ta tamoyil bo'lib, ular quyidagilar:

- suveren tenglik;
- suverenitetga xos huquqlarni himoya qilish;
- kuch ishlatmaslik yoki kuch ishlataman deb po'pisa qilmaslik;
- chegaralar daxlsizligi;
- hududiy butunlik;
- janjallarni tinch yo'l bilan hal qilish;
- ichki ishlarga aralashmaslik;
- inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmatlash;
- xalqlar teng huquqligi va ularning o'z taqdirini o'zi xohlagancha hal qilish huquqi;
- davlatlar o'rtasida o'zaro hamkorlik qilish;
- xalqaro huquqiy majburiyatlarni bajarish.

Yakunlovchi hujjat – Yevropani mustahkam tinchlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlari o'rnatilgan qit'aga aylantirishning muhim omiliga aylandi. 1992-yil martgacha 51 davlat Yakunlovchi hujjatga imzo chekkan. (q.: *Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti*)

**YEVROPA XAVFSIZLIK VA HAMKORLIK TASHKILOTI (YeXHT).** Davlatlar o'rtasida xavfsizlik va hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan harakatlarni muvofiqlashtiruvchi va ularning rivojlanish tamoyillarini belgilab beruvchi, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni demokratlashtirishga ko'maklashuvchi xalqaro tashkilot. Dastlab umum Yevropa kengashi (AQSh va Kanada ishtiroki) sifatida faoliyat ko'rsatib Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha kengash nomi bilan atalgan (1973–91). 1973-yil 3–7-iyulda Xelsinki shahrida kengashning 1-bosqich (Yevropadagi 33 davlat tashqi ishlar vazirlari ishtirokida), 1973-yil 18-sentabrdan 1975-yil 21-iyulgacha Jeneva shahrida 2-bosqich (35 davlat vakillari ishtirokida) va 1975-yil 30-iyuldan 1-avgustgacha Xelsinki shahrida 3-bosqich (35 mamlakat siyosiy va davlat rahbarlari ishtirokida) uchrashuvlari bo'lgan. Pirovardida *Yakunlovchi hujjat* qabul qilinib, u Yevropada tinchlikni ta'minlashning muhim omiliga aylangan. Kengashning Madrid konferensiyasi (1991-yil, aprel)da YeXHT Parlament assambleyasini tashkil etishga qaror qilindi (1991-yil, iyulda ta'sis etilgan). Yevropada yuz bergen jarayonlar, "sovuq urush"ning tugashi natijasida vujudga kelgan o'zgarishlar kengashning tashkilot sifatida to'liq shakllanishiga olib keldi. YeXHTga 54 davlat a'zo (2002-yil, yanvar). Tashkilotga a'zo davlat rahbarlari 2 yilda bir marta oliy darajada uchrashuv o'tkazadilar. YeXHTning Istanbul shahrida bo'lgan sammitida (1999-yil 18–19-noyabr) Yevropada xavfsizlik va hamkorlikni mustahkamlashning XXI asrdagi yangi tamoyillari belgilandi. Tashkilotga a'zo davlatlar tashqi ishlar vazirlari har yili uchrashib turadilar (Vazirlar kengashi). Tashkilotning yana bir organi – Boshqaruvchi kengash har yili 3 marta Praga shahrida yig'iladi, bir marta iqtisodiy forum o'tkazadi. Muntazam ishlovchi doimiy kengashning majlislari haftada 1 marta bo'ladi.

Xavfsizlik va ishonchni mustahkamlash, qurollanish ustidan nazorat masalalarini muhokama qiluvchi Xavfsizlik bo'yicha hamkorlik fozumi mavjud. Uning majlislari har haftada o'tkazib boriladi. YeXHT qarorgohi Vena shahrida joylashgan.

O'zbekiston 1992-yil 30-yanvarda YeXHTga qabul qilindi. Bu bilan O'zbekistonning Yevropa davlatlari, shuningdek, AQSh, Kanada bilan har tomonlama hamkorlik qilishiga yangi yo'l ochildi. YeXHTning ko'plab tadbirlari orqali O'zbekiston rahbariyati xalqaro miqyosdagi tashabbuslarni, dunyoning dolzARB masalalariga munosabatini jahon hamjamiyati e'tiboriga havola qiladi. O'zbekiston YeXHT rahnamoligidagi ko'plab anjumanlarga mezbonlik qilib keladi. Toshkentda YeXHT byurosi ish olib boradi.

**YEVROPA HAMJAMIYATLARI.** (ing. *European Communities*) Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YeIH), Yevropa ko'mir va po'lat uyushmasi (EKPU), atom energiyasi bo'yicha Yevropa hamjamiyati (Evroat) ko'pincha Yevropa hamjamiyati nomi ostida uchraydi. Yevropa hamjamiyatlari umumiy rahbar organlarga ega: Yevropa Kengashi, Vazirlar Kengashi, Yevropa jamoalari komissiysi, Yevropa parlamenti – bular ko'pincha 10 ta g'arbiy Yevropa mamlakati ("o'nlik")ning yagona integratsiya majmuasi sifatida qaraladi. Yevropa hamjamiyatlarining umumiy boshqaruv organlari bor. Yevropa hamjamiyatlari mamlakatlari iqtisodiy integratsiyani siyosiy integratsiya bilan to'ldirishga harakat qilmoqda. Yevropa hamjamiyatlari rahbar organlari majlislari Bryusselda (Belgiya), Lyuksemburgdagi, Strasburgda (Fransiya) o'tkaziladi.

**YUNESKO** (*United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization* – BMTning ta'lim, fan va madaniyat tashkiloti) BMTning xalqaro hukumatlararo tashkilotlaridan biri bo'lib, ikkinchi jahon urushidan so'ng 1946-yilda tashkil qilingan. BMTning ixtisoslashgan muassasasi. Davlatlar o'rtaida maorif, fan, madaniyat va kommunikatsiyalar sohasida hamkorlikni rivojlantirish yo'li bilan tinchlikka va xalqaro xavfsizlikka ko'maklashish maqsadida tuzilgan. YuNESKO dasturlari 2015-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish kun

tartibida belgilangan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga hissa qo'shamdi.

Bu tashkilotning tuzilishiga 1945-yilning noyabrida Londonda 44 davlatning vakillari qatnashgan holda qaror qilingan. Tashkilotning markazi Parijsda. Uch organ – Umumiy yig'ilish, Boshqaru, Kotibiyatdan iborat bo'lgan YuNESKO tashkilotining asl maqsadi – ta'lif, fan va madaniyatni unga a'zo bo'lgan har bir davlatdagi Milliy komissiyalar orqali amalga oshirish.

YuNESKO Nizomiga ko'ra, "... irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar, barcha xalqlar uchun adolatga, qonuniylikka, inson huquqlari va asosiy erkinliklariga umumiylar hurmatni ta'minlash maqsadida ta'lif, fan va madaniyatni rivojlantirish orqali xalqlar hamkorligiga" ko'maklashish tashkilotning ustuvor vazifasidir. Yalpi savodsizlikka qarshi kurashish, maorif tizimini rivojlantirish, milliy madaniyatlar ni o'rganish, atrof-muhit va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish va boshqa shu kabi keng qamrovli masalalarni hal etishda mazkur tashkilotning hissasi katta. YuNESKOga 193 ta mamlakat (2019), shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi a'zodir. Mazkur tashkilot tomonidan tuzilgan Jahon merosi ro'yxatiga yer yuzidagi 1073 ta tabiiy va madaniy obyektlar kiritilgan. 400 ga yaqin xalqaro nohu-kumat tashkilotlar va jamg'armalar, xalqaro va hududiy birlashmalari YuNESKO bilan hamkorlik qiladi. YuNESKO budjeti a'zo mamlakatlar badallaridan tashkil topadi.

YuNESKO doirasida O'zbekistonda ham ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Xususan, Abu Rayhon Beruniy (1973), Abu Ali ibn Sino (1980) tavalludining 1000 yillik, Mirzo Ulug'bek (1994) tavalludining 600 yillik, Amir Temur (1996) tavalludining 660 yillik tantanalari keng nishonlangan. Xiva (1997), Buxoro (1997), Termiz (2002) shaharlarining 2500 yilligi, Shahrisabzning 2700 yilligi (2002) munosabati bilan maxsus dasturlar doirasida yirik tadbirlar uyushtirilgan. Imom al-Buxoriy, Ahmad al-Farg'oniy, Burhondin Marg'inoniy, Imom Moturudiy, Imom at-Termiziyy, Bahouddin Naqshband kabi qator siymolarning yirik tavallud sanalari ham mustaqil O'zbekistonda YuNESKO shafe'ligida keng nishonlandi.

# O'

**O‘ZARO KELISHUV PRINSIPI.** O‘zaro kelishuv prinsipi – bu xalqaro huquqning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi va har bir tomonning qonunlari va odatlariga teng hurmatni anglatadi. O‘zaro kelishuv tamoyili xalqaro munosabatlarning umumiy ahamiyatidan, xususan, davlatlarning suveren tengligi prinsipidan kelib chiqadi. O‘zaro kelishuv tamoyiliga binoan, xalqaro shartnomalar faqat o‘zaro kelishuv va ikki tomonning, ya’ni ikki xorijiy davlatning teng huquqligi asosida tuzilishi kerak. O‘zaro kelishuv prinsipi tushunchasining yana bir ma’nosи bo‘lib, xususiy xalqaro huquqqa muvofiq, bunday prinsipga rioya qilgan holda bir davlat xorijiy fuqarolarga muayyan huquq va imtiyozlar bergen taqdirda ikkinchi davlat ham xuddi shunday prinsipga amal qilishini bildiradi.

O‘zaro kelishuv prinsipi mamlakatlar o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning diplomatik protokol va etiket normalarida o‘z aksini topgan asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi. Aksariyat mamlakatlar qonunchiligidagi boshqa mamlakatlar diplomatik va konsullik vakillariga diplomatik imtiyoz va daxlsizliklar o‘zaro hurmat prinsipi asosida berilishi bevosita belgilab qo‘yilgan.

Diplomatik protokol va etiketga amal qilishda o‘zaro hurmatdan chekinish nodo‘stona harakat sifatida qaralishi va javob choralar ko‘rishga olib borishi mumkin.

Mamlakat(lar)ning ikki tomonlama munosabatlardagi o‘zaro kelishuv prinsipi asosida cheklov choralarini ham qo‘llanishi mumkin: ikki tomonlama diplomatik missiya xodimlarini *persona non grata* sifatida ayblab, ularga mezbon malakatni tark etishni taklif etgan o‘zaro harakat hollari ma’lum. Odatda, bunday harakatlar ikki tomonlama munosabatlardagi inqroz va tanglikka olib keladi.

**O‘NLIK – ДЕСЯТКА.** (q.: *Katta yettilik* (*katta yigirmatalik*))

**SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI (SHHT).** Mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik tashkiloti. Xitoyning Shanxay shahrida 6 mamlakat – Qozog‘iston, Xitoy, Qirg‘iziston, Rossiya, Tojikiston va O‘zbekiston davlat rahbarlari uchrashuvida tuzilgan (2001-yil 15-iyun). ShHTning vujudga kelish tarixi “Shanxay beshligi” deb atalgan uyushma faoliyati bilan bog‘liq. Dastlab Qozog‘iston, Xitoy, Qirg‘iziston, Rossiya, Tojikiston davlatlari rahbarlari (“Shanxay beshligi”) uchrashuvi bo‘lib o‘tgan. Unda chegaradosh mamlakatlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash (1996) va qo‘shma chegarada qurolli kuchlar va qurol-yarog‘larni qisqartirish (1997) to‘g‘risida 2 ta bitim imzolangan edi. 1998-yildan “beshlik” mamlakatlarining o‘zaro hamkorligi sobiq Sovet Ittifoqi – Xitoy chegarasi bo‘ylab harbiy-siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish masalalaridan mintaqaviy xavfsizlik va ko‘p tomonlama iqtisodiy hamkorlikni ta’minlash choralariga o‘tishga qaratildi. ShHTning Dushanbe (2000) sammitida O‘zbekiston Respublikasi birinchi marta kuzatuvchi sifatida qatnashdi. Ana shu sammitda “beshlik” negizida ko‘p tarmoqli tashkilot tuzish to‘g‘risida taklif ilgari surildi. ShHT ta’sischilaridan biri sifatida ishtirok etish haqidagi qarorni O‘zbekiston o‘z milliy manfaatlaridan kelib chiqib, Markaziy Osiyo mintaqasidagi harbiy-siyosiy vaziyatni hisobga olgan holda qabul qildi. Shanxay sammitida (2001-yil, iyun) yangi tashkilotning maqsad va prinsiplarini e’lon qilgan Deklaratsiya, shuningdek, Terrorizm, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risidagi konvensiya qabul qilindi. Tashkilotning Sankt-Peterburgda bo‘lgan 2-sammitida (2002-yil, iyun) ustav hujjati – ShHT Xartiyasiga imzo chekildi. ShHTning oliv organi Davlat boshliqlari kengashidir. Tashkilot tuzilmasi Hukumat boshliqlari (bosh vazirlar) kengashi, Tashqi ishlar vazirlari kengashi, Tarmoq vazirliklari va idoralari rahbarlari kengashi, Milliy muvofiqlashdiruvchilar kengashi va doimiy ish-

lovchi Kotibiyat (Pekin shahrida joylashgan) hamda Mintaqaviy aksilterror tuzilmasidan (MATT; Toshkent shahrida joylashgan) iborat. Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi 2004-yil 1-yanvardan faoliyat ko'rsatadi. Mazkur tuzilma zimmasiga axborot almashish, chegara va bojxona qo'mitalarining, maxsus xizmatlarning hamkorligini muvofiqlashtirish, shu orqali terrorchilikning oldini olish vazifasi yuklangan. Shu maqsadda tuzilma tarkibida kengash va ijroqo'mita faoliyati yo'lga qo'yilgan. Kengashga 6 ta davlat maxsus xizmatlari rahbarlarining vakillari kiritilgan. Ijroqo'mda esa o'zaro tasdiqlangan lavozim o'rinaligiga muvofiq ShHTga a'zo davlatlardan vakillar ishlaydi. ShHTga a'zo davlat rahbarlari kengashining 2004-yil 17-iyunda Toshkentda bo'lgan majlisida Tashkilotning shakllanish davri yakunlanganligi qayd etildi. Majlis yakunlari bo'yicha Toshkent deklaratsiyasi, ShHTning vakolatlari va immunitetlari to'g'risidagi konvensiya, Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda hamkorlik to'g'risidagi bitim, tashkilot va uning organlari faoliyatiga doir hujjatlar imzolandi. O'zbekiston Respublikasining Tashkilotga a'zo davlatlar Xavfsizlik kengashlari kotiblarining tegishli milliy mahkamalar yangi taxdid va xurujlarga qarshi turishdagi hamkorligini mustahkamlash maqsadiga qaratilgan doimiy uchrashuvlarini o'tkazib turish haqidagi tashabbusi qo'llab-quvvatlandi. ShHT a'zo mamlakatlarni xavfsizlik orqali hamkorlik sari boshlaydigan tashkilotdir. Iqtisodiy hamkorlik borasida oldinda transport infratuzilmasini rivojlantirish, tabiiy, mineral xomashyo zaxiralarini o'zlashtirish, suv energetika zaxiralaridan unumli foydalananish, ekologiyaga oid va boshqa masalalar bor.

Tashkilot bugungi kunga kelib Yevrosiyo mintaqasida muhim rol o'ynayotgan to'laqonli tuzilmaga aylandi. Xalqaro hamjamiyat tomonidan eng muvaffaqiyatli "yosh" tashkilotlardan biri sifatida qabul qilinmoqda.

Yevroosiyoning uchdan ikki qismini egallagan ShHT ulkan salohiyatga ega. Tashkilot mamlakatlarida 2 milliarddan ziyod iqtisodiy faol aholi istiqomat qiladi. Bu yerda barcha texnologik klasterlar, tabiiy boyliklar mavjud. "ShHT oilasi"ga mansub davlatlar yalpi ichki

mahsulotining umumiy hajmi dunyo ko'rsatkichining 20 foizidan ko'pini tashkil qiladi.

O'zbekiston diplomatiyasining ShHT doirasida yaqin istiqboldagi vazifalaridan biri ShHTning samarali va o'zaro bog'langan iqtisodiy va transport koridorlarini rivojlantirish bo'yicha strategiyasi, "aqlii" qishloq xo'jaligi va agroinnovatsiyalarni joriy qilish sohasidagi hamkorlik konsepsiysi, "Yashil kamar" dasturi va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish bilan bog'liq.

2019-yil 1-yanvardan 2021-yil 31-dekabrgacha Shanxay hamkorlik tashkiloti bosh kotibligi O'zbekiston vakili Vladimir Norov zimmasiga yuklatildi.

**SHARTNOMA.** Ikki yoki undan ortiq tomonlarning o'zaro huquq va majburiyatlari to'g'risidagi kelishuv.

Xalqaro shartnoma xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan davlatlar va/yoki xalqaro huquqning boshqa subyektlari tomonidan tuziladigan shartnoma.

Shartnomani xalqaro shartnoma sifatida belgilash uchun uning og'zaki yoki yozma ravishda tuzilganligi yoki bunday bitim bir yoki bir nechta hujjatlarda mavjudligi muhim emas. Xalqaro shartnomaning maqomi uning aniq nomiga, ya'ni bitim, konvensiya, xalqaro tashkilotning nizomi, bayonnomma ekaniga bog'liq emas. Hujjat shartnoma ekani yoki emasligini aniqlash uchun uning tarkibini tahlil qilish kerak, ya'ni tomonlar xalqaro huquqiy majburiyatlarni olish niyatida bo'lganligini bilish kerak. An'anaviy ravishda bunday nomga ega hujjatlar shartnoma bo'lmasa ham, shartnomalar hatto deklaratsiya yoki memorandum deb ham atalgan holatlar mavjud.

Xalqaro shartnoma bitta hujjat yoki bir nechta hujjatlar ko'rinishida bo'lishi mumkin (masalan, notalar almashinuv).

Shartnoma barcha ishtirokchi tomonlarning tillarida yoki ular o'rtasida kelishilgan bir yoki bir nechta tillarda tuziladi. Xalqaro tashkilotlar doirasida tuzilgan shartnomalar ushbu tashkilotlarning rasmiy tilida tuziladi.

Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi yoki qo'shimcha ichki tartib (ratifikatsiya va boshqalar) nazarda tutilishi

mumkin. Ikkinchı holda, bunday tartiblarni amalga oshirish to‘g‘risida hujjatlar almashgandan so‘ng kuchga kiradi. Ko‘p tomonlama shartnoma, qoida tariqasida, ma’lum miqdordagi davlatlar tomonidan ichki tartiblarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hujjatlar depozitariyga (shartnomada ko‘rsatilgan davlatning tashqi ishlar vazirligi yoki tegishli xalqaro tashkilotning kotibiyati) topshirilgandan keyin kuchga kiradi. Keyinchalik, bunday hujjatlar taqdim etilganidan keyin har bir keyingi holat uchun kuchga kiradi.

**SHAXSIY (XUSUSIY) NOTA YOKI BIRINCHI SHAXS NOMIDAN NOTA.** Diplomatik yozishmaning bir turi. Nota blankasiga birinchi shaxs nomidan yozilgan, imzolangan, indeks va raqam qo‘yilmaydigan, muhr bosilmaydigan xat. Tanish rasmiy shaxslarga yoziladigan yarim rasmiy shaxsiy xat. Uni, odatda, verbal yoki shaxsiy nota yuborish mo‘ljallanmagan paytda yoziladi.

Shaxsiy xatda rasmiy yozishma yoki muzokara olib borishga sabab bo‘lgan masalalarning yechimini topishda ko‘mak berish iltimosi, shuningdek, u yoki bu mansabdor shaxsning xususiy va oilaviy voqeleti (tug‘ilgan kun, xizmat doirasida yangi pog‘onaga ko‘tarilish, bola tug‘ilishi, ta’ziya bildirishi) kabi protokol masalalar ifodalanadi.

Unda muhim, prinsipial masalalar bo‘yicha davlat nomini o‘zgartirish, ikki tomonlama munosabatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar yoziladi, shuningdek, diplomatik korpusdagi yoki tashqi ishlar vazirligidagi hamkasblariga ta’tilga chiqish, ishonch yorliqlarini topshirish, mamlakatdan vaqtincha ketish va ishonchli vakillar tayinlash to‘g‘risidagi shaxsiy ma’lumotlar xabar qilinadi, shuningdek, protokol masalalari bo‘yicha, tabriklar, ta’ziya bildirilgan bo‘lishi mumkin.

Shaxsiy notalar protokol xarakterdagi voqealar: milliy bayram hamda elchi yoki diplomatik xodim yaqindan tanish bo‘lgan davlat rahbari, hukumat rahbari, tashqi ishlar vaziri va boshqa shaxslar hayotida yuz bergen tantanali voqealar munosabati bilan tabriklab yoki motam sababli ta’ziya bildirib yuboriladi. Blankning o‘ngdagagi yuqori burchagida yuboriladigan shahar (poytaxt)ning nomi va notanining jo‘natilish sanasi yoziladi. Faqat kuryer orqali yuboriladi.

Shaxsiy xat siyosatchilar tomonidan, agar nota yuborish zarurati bo‘lmasa, madaniyat arboblari, ishbilarmon doiralar, jamoat tashkilotlari bilan munosabatlarda ishlataladi. Bu ilova xati, minnatdorchilik, tabrik, shaxsiy taklif yoki so‘rov bo‘lishi mumkin. Ammo, nima bo‘lganda ham, xatning shaxsiy xarakteri – shaxsiy masala ekani ta’kidlanadi. U jo‘natuvchining shaxsiy blankida yoki yaxshi qog‘ozda yoziladi. “Hurmatli janob” deb murojaat qilinadi. “Hurmat bilan”, “Sizga bo‘lgan chuqur hurmatimni qabul qiling” kabi ta’rif so‘zлari yoziladi. Xat yuborilayotgan shaxs bilan bo‘lgan munosabat hisobga olinadi. Uni qo‘l bilan yozish va imzo qo‘yish afzalroq. Manzil konvertda yoziladi. Sana va joyni (yuqori o‘ng, ba’zida pastki) va ba’zan yuboruvchining manzili (shaxsiy blank bo‘lsa, chap tomonda yoki imzo qo‘ygandan keyin pastki qismida) ko‘rsatiladi.

**SHIMOLIY ATLANTIKA KENGASHI (PAKTI), NATO KENGASHI.** 1949-yil 4-aprelda Vashingtonda G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari tomonidan Shimoliy Atlantika mintaqasida kollektiv mudofaa, tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun kuchlarni birlashtirish maqsadida tuzilgan xalqaro shartnomasi. Shartnoma NATOni yaratishda asos hujjat bo‘lib xizmat qilgan.

Kengashning dastlabki ishtirokchilari – AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya, Daniya, Islandiya, Italiya, Kanada, Lyuksemburg, Norvegiya, Gollandiya, Portugaliya. Shartnomaning 10-moddasi qoidalariiga muvofiq unga, keyinchalik 1952-yilda – Gretsiya va Turkiya, 1955-yilda – Germaniya (1990-yilda shartnomaning amal qilishi sobiq GDR hududiga yoyilgan), 1982-yilda – Ispaniya, 1999-yilda – Vengriya, Polsha, Chexiya, 2004-yilda – Bolgariya, Latviya, Litva, Ruminiya, Slovakiya, Sloveniya, Estoniya, 2009-yilda – Albaniya, Xorvatiya, 2017-yilda – Chernogoriya qo‘shilgan. Sharqiy Yevropaning bir qator davlatlari ham ushbu shartnomaga qo‘shilish niyatini bildirgan.

**SHTAT KONSULI.** Bu yuborayotgan davlatning fuqarosi bo‘lgan va davlat xizmatida ishlaydigan mansabdor shaxs. U doimiy ravishda maosh oladi va konsullik funksiyalarini bajarishdan tashqari hech qanday daromad keltiradigan faoliyat bilan shug‘ullanmasligi lozim.

**SHTATSIZ KONSUL.** Konsulxona ochilgan davlat fuqarosidan tayinlangan konsul.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi konsulxona joylashgan davlat bilan kelishib turib, ayrim konsullik vazifalari ni bajarishni shtatsiz konsullarga topshirishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ham, uning fuqarosi bo‘limgan shaxslar ham shtatsiz konsul bo‘lishlari mumkin. Shtatsiz konsullar O‘zbekiston Respublikasi davlat xizmatida turmaydi. Ularning vazifalarini O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi belgilab beradi.

## CH

**CHAQIRIB OLISH YORLIG‘I.** (fran. *Letters de rappel*) Diplomatik vakolatxona rahbarining egallab turgan lavozimidan chaqirib olinishi haqida xabar beruvchi hujjat.

Chaqirib olish yorlig‘i diplomatik vakil akkreditatsiya qilingan mezbon davlat rahbari nomiga yoziladi va ushbu diplomatik vakilni tayinlangan davlat rahbari imzolaydi.

Yuborish tartibi ishonch yorliqlari kabi bo‘ladi. Chaqiriq yorliqlarining kirish qismida chaqiriq to‘g‘risida qisqacha ma’lumot beriladi, keyin asosiy qismida sababi bayon qilinadi, diplomat davlatlararo diplomatik munosabatlarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlan-tilishga o‘z hissasini qo‘sghaniga umid bildiriladi.

Qoidaga ko‘ra, chaqirib olish yorlig‘ini yangi tayinlangan diplomatik vakil o‘z ishonch yorlig‘i bilan birgalikda topshiradi. Chaqirib olinayotgan diplomatik vakil o‘zi ham chaqirib olish yorlig‘ini mezbon davlat rahbariga shaxsan topshirishi mumkin, biroq amaliyotda bu holat kamroq uchraydi.

**CHET EL FUQAROSI.** Yashab turgan davlatning fuqarosi bo‘lmay, chet davlat fuqarosi ekanligini tasdiqlovchi dalili bor shaxs. Xorijiy fuqaroning huquqiy holati yashab turgan davlatning milliy qonuniyati, xalqaro shartnomalar hamda xalqaro huquqning umumiyligi prinsiplari tomonidan belgilanadi.

### **Ilova:**

1. “Diplomatik darajalar va martabalarni o‘rnatish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (1992).
2. “O‘zbekiston Respublikasining chet davatlarda diplomatik vakolatxona boshliqlarini tayinlash va chaqirib olish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (1992).
3. “O‘zbekiston Respublikasining diplomatik xodimlari uchun diplomatik klasslar va ranglarni belgilash to‘g‘risida”gi 1992-yil 3-iyulda qabul qilingan Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining Konsullik ustavi.
5. Davlatlarning universal tusdagi xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlari bo‘yicha vakilligi to‘g‘risidagi 1975-yil Vena konvensiyasi.
6. Diplomatik agentlarga qarshi uyushtiriladigan jinoyatning oldini olish va jazolash to‘g‘risidagi BMT Bosh Assambleyasining 1973-yilning 14-dekabrida qabul qilingan Konvensiyasi.
7. Birlashgan Millatlar Tashkilotining imtiyozlari va immunitetlari to‘g‘risidagi 1946-yildagi konvensiya, 1975-yildagi universal xarakterdagi xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarda davlatlarning vakolati to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi.
8. 1928-yildagi diplomatik amaldorlar to‘g‘risidagi Gavana Konvensiyasi.
9. “O‘zbekiston Respublikasidagi diplomatik vakolatxonalar va konsul muassasalari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 8-maydagi 207-son qarori.
10. “O‘zbekiston Respublikasida chet davatlarning diplomatik va konsullik muassasalari” Nizomi. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagisi 550-son qaroriga ilova.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi  
PQ-3654-son qaroriga 4-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimi  
xodimlarining diplomatik martabalari to‘g‘risidagi  
N I Z O M**

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik) markaziy apparati xodimlariiga, O‘zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalarini, konsullik muassasalari rahbarlari va diplomatik personali a’zolariga hamda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar huzuridagi missiyalari va vakolatxonalarini (keyingi o‘rinlarda – chet el muassasalari), O‘zbekiston Respublikasi uchun ajratilgan kvotali lavozimlarda ishlash uchun xalqaro tashkilotlarga yuborilgan Vazirlik xodimlariga, Vazirlikning hududiy bo‘linmalari, shuningdek, Tahlil va prognozlashtirish markazi, “Dunyo” Axborot agentligi (keyingi o‘rinlarda – “Dunyo” AA) xodimlariga, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining ma’muriy-boshqaruv va professor-o‘qituvchilar tarkibiga hamda diplomatik xizmat organlari zimmasiga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish maqsadida mansab vakolatlari va maburiyatlarini bajarayotgan boshqa quyi tashkilotlarning xodimlariga diplomatik martaba – farqlash darajalarini berish tartibini belgilaydi.

Diplomatik korpusga xizmat ko‘rsatish byurosi rahbariyatiga, shuningdek, istisno hollarda, mehnatdagi alohida xizmatlari uchun mazkur byuro xodimlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan belgilangan tartibda tashkil etiladigan Vazirlik tizimiga kiruvchi boshqa quyi tashkilotlarning xodimlariga ham diplomatik martabalari beriladi.

2. Vazirlik markaziy apparatining xodimlariga, chet el muassasalari rahbarlari va diplomatik personali xodimlariga, O‘zbekiston Respublikasi uchun ajratilgan kvotali lavozimlarda ishlash uchun

xalqaro tashkilotlarga yuborilgan Vazirlik xodimlariga, shuningdek, mazkur Nizomning 4-bandida nazarda tutilgan, diplomatik xizmat organlari zimmasiga yuklangan vazifa va funksiyalarini amalga oshirish maqsadida mansab vakolatlari va majburiyatlarini bajarayotgan quyi tashkilotlarning alohida toifalari xodimlariga quyidagi diplomatik martabalar beriladi:

Favqulodda va Muxtor Elchi;

Birinchi darajali Favqulodda va Muxtor Vakil;

Ikkinci darajali Favqulodda va Muxtor Vakil;

Birinchi darajali maslahatchi;

Ikkinci darajali maslahatchi;

Birinchi darajali birinchi kotib;

Ikkinci darajali birinchi kotib;

Birinchi darajali ikkinchi kotib;

Ikkinci darajali ikkinchi kotib;

Uchinchi kotib;

Attashe.

3. Vazirlik markaziy apparati xodimlariga, chet el muassasalarini diplomatik personali a'zolariga, O'zbekiston Respublikasi uchun ajratilgan kvotali lavozimlarda ishlash uchun xalqaro tashkilotlarga yuborilgan Vazirlik xodimlariga, Vazirlikning hududiy bo'linmalari, shuningdek, Tahlil va prognozlashtirish markazi, "Dunyo" AA xodimlariga, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining ma'muriy-boshqaruv va professor-o'qituvchilar tarkibiga hamda diplomatik xizmat organlari zimmasiga yuklangan vazifa va funksiyalarini amalga oshirish maqsadida mansab vakolatlari va majburiyatlarini bajarayotgan boshqa quyi tashkilotlarning xodimlariga ijobjiy xizmat tavsifnomasi, malakasiga, egallab turgan lavozimiga muvofiq oliy ma'lumotga va ish stajiga ega bo'lgan taqdirda yuqorida ko'rsatilgan ketma-ketlikda diplomatik martabalar beriladi.

4. Quyidagi lavozimlarni egallab turgan shaxslarga diplomatik martabalar beriladi:

Favqulodda va – Muxtor Elchi	O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziriga, O‘zbekiston Respublikasining Favqulodda va Muxtor Elchisiga, O‘zbekiston Respublikasining BMT huzuridagi Doimiy vakolatxonasi boshlig‘iga, O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri o‘rnbosariga, O‘zbekiston Respublikasining alohida topshiriqlar bo‘yicha Elchisiga, vazir maslahatchisi – Ijro etuvchi apparat rahbariga.
Birinchi darajali – Favqulodda va Muxtor Vakil	O‘zbekiston Respublikasining Favqulodda va Muxtor Elchisiga, O‘zbekiston Respublikasining Favqulodda va Muxtor Vakiliga, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilot huzuridagi doimiy vakiliga, O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri o‘rnbosariga, O‘zbekiston Respublikasining alohida topshiriqlar bo‘yicha elchisiga, vazir maslahatchisi – Ijro etuvchi apparat rahbariga.
Ikkinchi darajali – Favqulodda va Muxtor Vakil	O‘zbekiston Respublikasining Favqulodda va Muxtor Elchisiga, O‘zbekiston Respublikasining Favqulodda va Muxtor Vakiliga, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilot huzuridagi doimiy vakiliga, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri o‘rnbosariga, O‘zbekiston Respublikasining alohida topshiriqlar bo‘yicha Elchisiga, vazir maslahatchisi – Ijro etuvchi apparat rahbariga.
Birinchi darajali – maslahatchi	Bosh konsulga, maslahatchi vakilga, chet el muassasasi maslahatchisiga, xalqaro tashkilot huzuridagi doimiy vakil o‘rnbosariga, xalqaro tashkilot rahbari o‘rnbosari / maslahatchisiga (kvota asosida), chet el muassasasining maxsus attashesiga, tarkibiy bo‘linmalarining rahbarlariga, quyi tashkilotlar va hududiy bo‘limlarning rahbarlar tarkibiga.
Ikkinchi darajali – maslahatchi	Mustaqil bo‘lim rahbariga, Vazirlik tarkibiy bo‘linmasining rahbariga, tarkibiy bo‘linma bo‘limi boshlig‘iga, chet el muassasasining maxsus attashesiga, tarkibiy bo‘linmalarining rahbarlariga, quyi tashkilotlar va hududiy bo‘linmalarining rahbarlar tarkibiga.

- Birinchi darajali – O‘zbekiston Respublikasi uchun ajratilgan kvotali lavozimlarda ishlash uchun xalqaro tashkilotlarga yuborilgan Vazirlik xodimiga, chet el muassasasi birinchi kotibiga, konsuliga, bo‘limmalarning rahbarlariga, quyi tashkilotlar va hududiy bo‘limlarning rahbarlar tarkibiga.
- Ikkinci darajali – O‘zbekiston Respublikasi uchun ajratilgan kvotali lavozimlarda ishlash uchun xalqaro tashkilotlarga yuborilgan Vazirlik xodimiga, chet el muassasasining birinchi kotibiga, konsuliga, tarkibiy bo‘limmalarning rahbarlariga, quyi tashkilotlar va hududiy bo‘limlarning rahbarlar tarkibiga.
- Birinchi darajali – O‘zbekiston Respublikasi uchun ajratilgan kvotali lavozimlarda ishlash uchun xalqaro tashkilotlarga yuborilgan Vazirlik xodimiga, chet el muassasasining ikkinchi kotibiga, vitse-konsuliga, Vazirlikning ikkinchi kotibiga, Tahlil va prognozlashtirish markazining bosh ilmiy xodimiga hamda quyi tashkilotlar va hududiy bo‘limlarning unga tenglashtirilgan lavozimlariga.
- Ikkinci darajali – O‘zbekiston Respublikasi uchun ajratilgan kvotali lavozimlarda ishlash uchun xalqaro tashkilotlarga yuborilgan Vazirlik xodimiga, chet el muassasasining uchinchi kotibiga, konsullik agentiga, Vazirlikning uchinchi kotiblariga, Tahlil va prognozlashtirish markazining bosh ilmiy xodimiga hamda quyi tashkilotlar va hududiy bo‘limlarning unga tenglashtirilgan lavozimlariga.
- Uchinchi kotib – O‘zbekiston Respublikasining chet el muassasasi uchinchi kotibiga, vitse-konsuliga, konsullik agentiga, Vazirlikning uchinchi kotibiga, Tahlil va prognozlashtirish markazining yetakchi ilmiy xodimiga hamda quyi tashkilotlar va hududiy bo‘limlarning unga tenglashtirilgan lavozimlariga.
- Attashe – chet el muassasasi attachesiga, Vazirlik attachesesi hamda quyi tashkilotlar va hududiy bo‘limlarning unga tenglashtirilgan lavozimlariga.

5. Favqulodda va Muxtor Elchi, birinchi va ikkinchi darajali Favqulodda va Muxtor Vakil diplomatik martabalari O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan beriladi.

Birinchi va ikkinchi darajalardagi maslahatchi, birinchi va ikkinchi darajalardagi birinchi kotib, birinchi va ikkinchi darajalar-dagi ikkinchi kotib, uchinchi kotib va attashe diplomatik martabalar Vazirlilik Hay’atining qarorlari asosida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirining buyrug‘i bilan beriladi.

6. Har bir diplomatik martaba uchun diplomatik lavozimni egal-lab turish quyidagi muddatlarni tashkil etadi:

Attashe	2 yil
Uchinchi kotib	2 yil
Ikkinchi darajali ikkinchi kotib	2 yil
Birinchi darajali ikkinchi kotib	2 yil
Ikkinchi darajali birinchi kotib	3 yil
Birinchi darajali birinchi kotib	3 yil
Ikkinchi darajali maslahatchi	4 yil
Birinchi darajali maslahatchi	4 yil

Boshlang‘ich attashe diplomatik martabasi Vazirlilik tizimidagi diplomatik lavozimda kamida bir yil ishlagan shaxsga (xodimga) beriladi.

Favqulodda va Muxtor Elchi, birinchi va ikkinchi darajalardagi Favqulodda va Muxtor Vakil martabalari umrbod muddatga beriladi.

Boshqa diplomatik martabalarga ega bo‘lgan mansabdor shaxslar Vazirlilik tizimidan pensiyaga chiqqan taqdirda ushbu diplomatik martabalar mazkur shaxslarda (xodimlarda) saqlanib qoladi.

Vazirlik yo‘li bilan uzoq muddatga o‘qishga yuborilgan xodimlarning diplomatik martabalari saqlanib qoladi. Xodim o‘qishdan va diplomatik lavozimdagи mehnat faoliyatiga qaytganidan so‘ng navbatdagi diplomatik martaba ushbu Nizomda belgilangan muddatlarda beriladi.

Ilgari diplomatik martabaga ega bo‘lgan va boshqa davlat tashkilotlariga ishga o‘tganligi munosabati bilan Vazirlik tizimidan ozod qilingan shaxslar (xodimlar) Vazirlik tizimiga takroran ishga joylashganida ularning hozirgi diplomatik lavozimda bo‘lishi muddatini hisobga olgan holda navbatdagi diplomatik martabalar berilishi mumkin.

Diplomatik martabalarga, shu jumladan, Favqulodda va Muxtor Elchi, birinchi va ikkinchi darajalardagi Favqulodda va Muxtor Vakil diplomatik martabalariga ega bo‘lgan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradigan nojo‘ya ishlarni sodir etganlikda aybdor deb topilgan taqdirda diplomatik martabadan mahrum qilinishi mumkin.

7. O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri, o‘z vakolatlari doirasida, quyidagi hollarda alohida tartibda diplomatik martabalar berish huquqiga ega:

a) mamlakatning milliy manfaatlarini himoya qilish va respublikaning obro‘sini oshirish ishida (to‘g‘ridan-to‘g‘ri lavozim majburiyatlaridan tashqari) ko‘rsatgan xizmatlari uchun avvalgi diplomatik martabada belgilangan xizmat muddati tugamasdan avval, ammo Vazirlik tizimidagi ish davrida ko‘pi bilan ikki marotaba;

b) navbatga rioya etilmagan holda, ammo xodim yuqoriq lavozimga ko‘tarilish vaqtida ega bo‘lgan diplomatik martabadan ko‘pi bilan ikki pog‘ona yuqori;

d) diplomatik martaba berishga ilk marotaba taqdim etilgan xodimlarga u egallab turgan lavozim bo‘yicha nazarda tutilganiga nisbatan bir pog‘ona past diplomatik martaba berish;

e) xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli ado etganligi va ishda erishgan salmoqli yutuqlari uchun Vazirlikning mustaqil, shu jumladan, xo‘jalik hisobidagi bo‘linmalari rahbarlariga;

f) ilgari Vazirlik tizimida diplomatik lavozimlarda ishlagan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining, Vazirlar Mahkamasining, davlat muassasalari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining xodimlariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyaning tegishli tarkibiy bo‘linmasi, Vazirlar

Mahkamasi kompleksi rahbarining, shuningdek, davlat muassasasi va mahalliy davlat hokimiyati organi rahbarlarining tavsyanomalari asosida. Bunda, mazkur organlardagi ish vaqtি diplomatic martaba berish uchun zarur bo‘lgan ish stajiga qo‘shiladi.

8. Bir diplomatik martabada belgilangan xizmat muddatini o‘tagan, biroq xizmat faoliyatida yoki xulq-atvorida jiddiy kamchiliklari bo‘lgan Vazirlik tizimi xodimlariga navbatdagi diplomatik martaba berilmaydi.

9. Xizmat vazifalarini qo‘pol ravishda buzganligi yoki muntazam ravishda lozim darajada bajarmaganligi uchun xodimning martabasi pasaytirilishi mumkin.

10. Favqulodda va Muxtor Elchi, birinchi va ikkinchi darajalar-dagi Favqulodda va Muxtor Vakil martabasiga ega bo‘lgan shaxslar (xodimlar)ga nisbatan diplomatik martabani pasaytirish yoki undan mahrum qilish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan amalga oshiriladi.

11. Vazirlik markaziy apparatining xodimlariga, chet el muassasalari diplomatik personali xodimlariga, hududiy bo‘limlar, shuningdek, Tahlil va prognozlashtirish markazi, “Dunyo” AA xodimlariga, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining ma’muriy-boshqaruv va professor-o‘qituvchilar tarkibiga hamda diplomatik xizmat organlari zimmasiga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish maqsadida mansab vakolatlari va majburiyatlarini bajarayotgan boshqa quyi tashkilotlarning diplomatik martabaga ega bo‘lgan xodimlariga o‘rnatalgan tartibda belgilanadigan miqdorlarda lavozim maoshlariga qo‘shimcha haq tayinlanadi.

**17.01.2019-yildagi “O‘zbekiston Respublikasining  
Konsullik ustavini tasdiqlash to‘g‘risida”  
O‘RQ-517-son Qonun**

**O‘zbekiston Respublikasining Konsullik ustavi**

Ushbu Konsullik ustavi konsullik faoliyatini amalga oshirishning asosiy vazifalarini va huquqiy asoslarini, konsullik mansabdon shaxslarining O‘zbekiston Respublikasining huquqlari va manfaatlarini, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda yuridik shaxslarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida himoya qilishga doir vazifalarini belgilaydi.

**1-bob. Umumiy qoidalar**

**1-modda. Konsullik faoliyatining asosiy vazifalari.**

Konsullik faoliyati O‘zbekiston Respublikasining huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari va yuridik shaxslari konsullik muassasasi joylashgan davlatning qonun hujjatlarida, O‘zbekiston Respublikasi va konsullik muassasasi joylashgan davlat ishtirokchi bo‘lgan xalqaro shartnomalarda berilgan barcha huquqlardan to‘liq hajmda foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi uchun O‘zbekiston Respublikasi tomonidan choralar ko‘rish maqsadida amalga oshiriladi.

Konsullik faoliyati O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan yaxshi qo‘sniqchilik hamda do‘stona munosabatlarni rivojlantirishga, iqtisodiy, savdo, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalarni va boshqa aloqalarни kengaytirishga ko‘maklashish uchun yo‘naltirilgandir.

**2-modda. Konsullik faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asosi.**

Konsullik faoliyati O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalariga, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga, ushbu Konsullik ustaviga, O‘zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjaliga muvofiq, konsullik muassasasi joylashgan davlatning qonun hujjatlari hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

**3-modda. Konsullik munosabatlarini o‘rnatish.**

O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan konsullik munosabatlarini o‘rnatish o‘zaro kelishuvga ko‘ra amalga oshiriladi.

Ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarni o‘rnatishga doir keli shuv, agar boshqacha qoida shartlashilmagan bo‘lsa, konsullik munosabatlarini o‘rnatishga bo‘lgan rozilikni bildiradi.

Diplomatik munosabatlarning uzilishi konsullik munosabatlarining avtomatik uzilishini va O‘zbekiston Respublikasi konsullik muassasasi faoliyatining tugatilishini anglatmaydi.

#### **4-modda. Konsullik faoliyatini amalga oshirish.**

Konsullik faoliyati O‘zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari (bundan buyon matnda konsullik muassasalari deb yuritiladi), shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalarining konsullik bo‘limlari tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi o‘z vakolatlari doirasida konsullik faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

#### **2-bob. Konsullik muassasasi**

##### **5-modda. Konsullik muassasasining maqomi.**

Konsullik muassasasi O‘zbekiston Respublikasining konsullik muassasasi joylashgan davlat hududida konsullik okrugi doirasida O‘zbekiston Respublikasi nomidan konsullik funksiyalarini bajaruvchi tashqi aloqalar bo‘yicha davlat organidir. Konsullik muassasasi O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimiga kiradi.

Konsullik muassasasi konsullik muassasasi joylashgan davlatdagi O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonasi boshlig‘iga bo‘ysunadi va uning umumiy rahbarligida faoliyat ko‘rsatadi. Konsullik muassasasi joylashgan davlatda O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonasi mavjud bo‘lmagan taqdirda, konsullik muassasasi bevosita O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga bo‘ysunadi.

Konsullik muassasasi yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi, o‘ziga biriktirilgan mol-mulkka, rekvizitlarga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbinining tasviri tushirilgan va o‘z nomi yozilgan muhrga (muhrlarga), tegishli shtamplar va blankalarga, shuningdek banklarda hisobvaraqlarga ega bo‘ladi.

Konsullik xonalaridan, shu jumladan binolardan yoki binolarning qismlaridan hamda bunday binolarga yoki ularning qismlariga xizmat qiluvchi yer uchastkasidan, ularga bo‘lgan mulk huquqidan qat‘i nazar, konsullik vazifalarining bajarilishiga muvofiq bo‘lmagan maqsadlarda foydalanimasligi kerak.

## **6-modda. Konsullik muassasalarining darajalari.**

Konsullik muassasalari quyidagi darajalarga bo‘linadi:  
bosh konsullik muassasalari;  
konsullik muassasalari;  
vitse-konsullik muassasalari;  
konsullik agentliklari.

## **7-modda. Konsullik muassasasini ochish.**

Konsullik muassasasi konsullik muassasasi joylashadigan davlat hudu-dida shu davlatning roziligi bilan ochiladi.

Konsullik muassasasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror-iga binoan ochiladi.

Konsullik muassasasining joylashish yeri, ushbu muassasaning daraja-si va konsullik funksiyalarini bajarish uchun konsullik muassasasiga ajratiladigan konsullik okrugi konsullik muassasasi joylashadigan davlat bilan kelishuvga ko‘ra belgilanadi.

Konsullik muassasasining joylashgan yerini, ushbu muassasaning dara-jasini va konsullik okrugini keyinchalik o‘zgartirish faqat konsullik muassa-sasi joylashgan davlatning roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin.

## **8-modda. Konsullik muassasalarining imtiyozlari va immunitetlari.**

Konsullik muassasalari konsullik muassasasi joylashgan davlatda xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan prinsiplari hamda normalari-ga, O‘zbekiston Respublikasi va konsullik muassasasi joylashgan davlat ishtirokchi bo‘lgan xalqaro shartnomalarga hamda konsullik muassasasi joylashgan davlatning qonun hujjaligiga muvofiq imtiyozlar va immu-nitetlardan foydalanadi.

## **9-modda. Konsullik muassasalari tomonidan O‘zbekiston Res-publikasining davlat ramzlaridan foydalanish.**

Konsullik muassasasi o‘zi egallab turgan binoga O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan hamda qoida tariqasida, O‘zbekiston Respublikasining davlat tilida va konsullik muassasasi joylashgan davlat tilida konsullik muassasasining nomi yozilgan peshlavha o‘rnatish huquqiga egadir.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i doimiy ravishda kon-sullik muassasalarining binolarida yoki hududlarida va transport vositalarida, shuningdek konsullik muassasalari boshliqlarining xizmat xonalarida ko‘tariladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri doimiy ravishda konsullik muassasasi binosining old tomoniga, shuningdek konsullik muassasalarini boshliqlarining xizmat xonalariga joylashtiriladi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan huquqlarni amalga oshirishda xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan prinsiplari va normalari, diplomatik protokol qoidalari, shuningdek konsullik muassasasi joylashgan davlatning qonun hujjatlari hamda urf-odatlari inobatga olinishi kerak.

### **10-modda. Konsullik arxivi.**

Konsullik muassasasining barcha hujjatlari, xat-xabarlar, kitoblari, audio va videomateriallari, elektron axborot tashuvchilar, reyestrlari, shifrlar va kodlar, muhrlar va shtamplar, kartotekalar hamda ularning but saqlanishi yoki asralishini ta’minlash uchun mo‘ljallangan har qanday ji-hozlash ashyolari bilan birgalikda konsullik arxivi hisoblanadi.

Konsullikning mansabдор shaxslari konsullik arxivining daxlsizligini ta’minlash bo‘yicha choralar ko‘rishi shart.

### **3-bob. Konsullikning mansabдор shaxslari**

#### **11-modda. Konsullikning mansabдор shaxsi.**

Konsullikning funksiyalarini bajarishga vakolatli bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi konsullikning mansabдор shaxsi bo‘lishi mumkin.

Konsullikning mansabдор shaxsi lavozimiga nomzodlarga doir talablar qonun hujjatlarida belgilanadi.

Konsullikning mansabдор shaxsini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan amalgga oshiriladi.

#### **12-modda. Konsullik muassasasining boshlig‘i.**

Konsullik muassasalarining boshliqlari quyidagi darajalarga bo‘linadi: bosh konsullar, konsullar, vitse-konsullar, konsullik agentlari.

Konsullik muassasasining boshlig‘i konsullik muassasasi ishiga bevosita rahbarlik qiladi, konsullik muassasasining zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilishi uchun shaxsan javobgar bo‘ladi, konsullik muassasasi xodimlarining lavozim majburiyatlarini belgilaydi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Konsullik muassasasining boshlig‘i O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan lavozimga tayinlanadi va konsullik muassasasi joylashgan davlatning roziligi (ekzekvaturasi) olinganidan keyin o‘z

funksiyalarini bajarishiga yo'l qo'yiladi. Uning tayinlanganligi to'g'risida konsullik muassasasi joylashgan davlatning hokimiyat organlari xabardor qilinadi.

Konsullik muassasasining boshlig'i lavozimga tayinlanayotganida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligidan konsullik patentini oladi, patentda uning konsullik okrugi ko'rsatiladi.

Konsullik muassasasining boshlig'i konsullik funksiyalarini shaxsan bajaradi yoki ularni bajarishni konsullikning boshqa mansabdon shaxsiya topshiradi. Agar konsullik muassasasining boshlig'i biron-bir sababga ko'ra o'z vazifalarini bajara olmaydigan bo'lsa yoki konsullik muassasasining boshlig'i lavozimi vaqtincha bo'sh turgan bo'lsa, konsullik muassasasining boshlig'i majburiyatlarini bajarish ushbu konsullik muassasasining yoki O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasasi joylashgan davlatdagi boshqa konsullik muassasasining boshqa mansabdon shaxsi zimmasiga yoxud shu davlatdagi O'zbekiston Respublikasi diplomatik va kolatxonasi diplomatik xodimlaridan birining zimmasiga yuklatiladi.

### **13-modda. Konsullik mansabdon shaxslarining imtiyozlari va imunitetlari.**

Konsullikning mansabdon shaxslari, shuningdek ularning akkreditatsiya qilingan oila a'zolari konsullik muassasasi joylashgan davlatda xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari hamda normalariga, O'zbekiston Respublikasi va konsullik muassasasi joylashgan davlat ishtirokchi bo'lgan xalqaro shartnomalarga hamda konsullik muassasasi joylashgan davlatning qonun hujjatlariga muvofiq imtiyozlar va imunitetlardan foydalanadi.

Konsullikning mansabdon shaxslari va ularning oila a'zolari konsullik muassasasi joylashgan davlatning qonunlari va qoidalariga rioya etishi, mahalliy urf-odatlarni hurmat qilishi hamda konsullik muassasasi joylashgan davlatning ichki ishlariga aralashish deb qaralishi mumkin bo'lgan har qanday xatti-harakatlardan tiyilishi shart.

### **4-bob. Konsullikning funksiyalari**

#### **14-modda. Konsullikning mansabdon shaxslari tomonidan konsullik funksiyalarini bajarish.**

Konsullikning mansabdon shaxsi ushbu Konsullik ustavida, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida hamda O'zbekiston Respublikasi va konsullik muassasasi joylashgan davlat ishtirokchi bo'lgan xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan funksiyalarini bajaradi.

Konsullikning mansabдор shaxsi, agar O'zbekiston Respublikasining hamda konsullik muassasasi joylashgan davlatning qonun hujjatlariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi va konsullik muassasasi joylashgan davlat ishtirokchi bo'lган xalqaro shartnomalarga zid bo'lmasa, ushbu Konsullik ustavida nazarda tutilmagan boshqa funksiyalarini bajarishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonasi mavjud bo'lмаган davlatlarda konsullikning mansabдор shaxsi zimmasiga konsullik muassasasi joylashgan davlatning roziligi bilan diplomatik funksiyalar ham yuklatilishi mumkin.

Konsullikning mansabдор shaxsi tomonidan boshqa davlatning konsullik funksiyalarini bajarish faqat O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining ko'satmasiga binoan va konsullik muassasasi joylashgan davlatning roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Konsullikning mansabдор shaxsi konsullik funksiyalarini uchinchi davlatda faqat O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining topshirig'iga binoan, konsullik muassasasi joylashgan davlat va uchinchi davlat xabardor qilinganidan keyin, agar mazkur davlatlar bunga qarshi e'tiroz bildirmasa, bajaradi.

Konsullikning mansabдор shaxsi konsullik funksiyalarini bajarish chog'ida o'z konsullik okrugi doirasida konsullik muassasasining faoliyati bilan bog'liq barcha masalalar yuzasidan konsullik muassasasi joylashgan davlatning hokimiyat organlariga murojaat etishi mumkin.

Zarur hollarda, konsullikning mansabдор shaxsi konsullik okrugini aylanib chiqadi.

Konsullik mansabдор shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) yoki qarorlari ustidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq konsullik muassasasining boshlig'iga, O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasasi joylashgan davlatdagи diplomatik vakolatxonasi boshlig'iga va (yoki) O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga yoxud sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

### **15-modda. Konsullikning fuqarolarga va yuridik shaxslarga taalluqli funksiyalari.**

Konsullikning mansabдор shaxsi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslariga O'zbekiston Respublikasi hamda konsullik muassasasi joylashgan davlat ishtirokchi bo'lган xalqaro shartnomalarda, xalqaro

urf-odatlarda, shuningdek konsullik muassasasi joylashgan davlatning qonun hujjatlarida berilgan barcha huquqlardan foydalanishi uchun, agar bunday huquqlar O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga zid bo‘lmasa, choralar ko‘rishi shart.

Konsullikning mansabдор shaxsi O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda jismoniy va yuridik shaxslarning og‘zaki, yozma yoxud elektron shakldagi murojaatlarini qabul qiladi hamda ko‘rib chiqadi.

Konsullikning mansabдор shaxsi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslarining buzilgan huquqlarini tiklash uchun choralar ko‘rishi shart.

Konsullikning mansabдор shaxsi O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari, idoralari, korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining konsullik okrugi doirasida turgan vakillariga xizmat majburiyatlarini bajarishida ko‘maklashadi.

Konsullikning mansabдор shaxsi konsullik okrugida vaqtincha turgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini konsullik muassasasi joylashgan davlatning qonunlari va boshqa normativ hujjatlari to‘g‘risida, shuningdek mahalliy urf-odatlar to‘g‘risida xabardor qiladi.

Konsullikning mansabдор shaxsi konsullik okrugida turgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolariga madaniy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazishda ko‘maklashadi.

Konsullikning mansabдор shaxsi konsullik muassasasi joylashgan davlatning muassasalarida, agar ushbu davlatda fuqaro yoki yuridik shaxsning vakili mavjud bo‘lmasa va u ish yuritishni o‘zga shaxsga topshirmagan bo‘lsa yoxud boshqa sabablarga ko‘ra o‘zining qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qodir bo‘lmasa, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolarini va yuridik shaxslari nomidan ishonchnomasiz vakillik qilish huquqiga egadir. Ushbu vakillik O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini yoki yuridik shaxslari o‘z vakillarini tayinlaguniga qadar yoxud o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilishni o‘z zimmasiga olguniga qadar davom etadi.

## **16-modda. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini konsullik hisobiga olish.**

Konsullik muassasasi konsullik okrugi hududida vaqtincha turgan yoki doimiy yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari, qonuniy manfaatlari va xavfsizligini ta’minlash maqsadida ularning hisobi yuritadi.

## **17-modda. Konsullikning O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi bilan bog‘liq funksiyalari.**

Konsullikning mansabдор shaxslari o‘z vakolatlari doirasida:

1) xorijda doimiy yashayotgan shaxslardan O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga doir arizalarni qabul qiladi;

2) O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga doir arizalarni asoslash uchun taqdim etilgan faktlar va hujjatlarni tekshiradi;

3) fuqarolik masalalariga doir arizalarni zarur hujjatlar bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga yuboradi;

4) xorijda doimiy yashayotgan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligini aniqlaydi;

5) xorijda doimiy yashayotgan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo‘qotganligini ro‘yxatdan o‘tkazadi;

6) xorijda doimiy yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining hisobini yuritadi.

Konsullikning mansabдор shaxslari zarur hollarda, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi bilan bog‘liq masalalar yuzasidan qo‘srimcha ma’lumotlarni so‘rab olishi mumkin.

## **18-modda. Konsullikning O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi pasportini hamda fuqaroligi bo‘limgan shaxsning harakatlanish hujjatini rasmiylashtirish, berish va almashtirish yuzasidan funksiyalari.**

Konsullikning mansabдор shaxsi konsullik okrugi hududida doimiy yashayotgan yoki xizmat safari, kontrakt bo‘yicha ish, o‘qish yoxud davolanish maqsadida vaqtinchalik turgan shaxsga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini olgan shaxslarga chet elga chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining biometrik pasportini yoki O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi bo‘limgan shaxsining harakatlanish hujjatini rasmiylashtirish, berish va almashtirish uchun hujjatlarni qabul qiladi.

Konsullikning mansabдор shaxsi O‘zbekiston Respublikasi vakolatli organlarining chet elda doimiy yashashga doir ruxsatnomasini rasmiylashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining hujjatlarini qabul qiladi.

**19-modda. O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida O'zbekiston Respublikasi fuqarosining shaxsini tasdiqllovchi hujjat O'zbekiston Respublikasi fuqarosi tomonidan yo'qotilgan taqdirda konsullikning funksiyalari.**

Agar O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida O'zbekiston Respublikasi fuqarosining shaxsini tasdiqllovchi hujjatni yo'qotsa va bu haqda konsullik muassasasiga murojaat qilsa, konsullikning mansabдор shaxsi arizachi to'g'risidagi ma'lumotlar tekshirilganidan hamda uning O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansubligi tasdiqlanganidan keyin mazkur fuqaroning shaxsini tasdiqllovchi va unga O'zbekiston Respublikasiga kirish (qaytib kelish) huquqini beruvchi vaqtinchalik hujjatni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtiradi hamda beradi.

**20-modda. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi konsullik okrugi hududida yashash uchun mablag'larsiz turgan taqdirda konsullikning funksiyalari.**

Agar konsullik okrugi hududiga vaqtincha kirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi yashash uchun mablag'larsiz qolgan va bu haqda konsullik muassasasiga murojaat qilgan bo'lsa, konsullikning mansabдор shaxsi:

mazkur fuqaroni yuborgan yoki taklif etgan shaxsning yoxud tashkilotning ushbu fuqaroning konsullik okrugi hududida bo'lishi bilan bog'liq xarajatlarning o'rnini qoplashga doir majburiyatları mavjudligini aniqlaydi va ularning bajarilishiga ko'maklashadi;

mazkur fuqaroning o'z oila a'zolari, qarindoshlari yoki boshqa shaxslar bilan aloqalar o'rnatishiga ko'maklashadi.

Agar ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan chora-tadbirlar yetarli bo'lmay qolsa, konsullikning mansabдор shaxsi O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi bilan kelishuvga ko'ra mazkur fuqaroning O'zbekiston Respublikasiga qaytib ketishini ta'minlash maqsadida shunday maqsadlar uchun maxsus ajratilgan mablag'lar hisobiga va ularning doirasida moliyaviy yordam ko'rsatishga haqli.

Moliyaviy yordam ko'rsatilgan taqdirda, konsullik muassasasi bilan fuqaro o'rtasida notarial tasdiqlangan bitimga tenglashtiriladigan shartnomma tuzilib, unda konsullik muassasasidan moliyaviy yordam olgan shaxs olingan moliyaviy mablag'larning o'rnini o'ttiz kunlik muddatda qoplash majburiyatini oladi.

Moliyaviy yordam ko'rsatish tartibi, buning uchun ajratilgan mablag'larning miqdori, shuningdek ularni qaytarish shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Konsullik muassasasi tomonidan ko'rsatilgan moliyaviy yordam summasi belgilangan muddat ichida qaytarilmagan taqdirda, konsullikning mansabдор shaxsi O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga ijro xati yuboradi, ijro xati bo'yicha qarzdorlikni undirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda so'zsiz amalga oshiriladi.

Moliyaviy yordam ko'rsatish quyidagi hollarda rad etilishi mumkin:

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi konsullik okrugi hududiga qonunga xilof ravishda kirgan bo'lsa;

konsullik muassasasi joylashgan davlat sudining (vakolatli organining) bajarilmagan shartnomalar majburiyatlar mavjudligi yoki boshqa asoslar munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarosining chiqib ketishini taqilash to'g'risidagi qarori mavjud bo'lsa;

moliyaviy yordam ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlar yashirilgan yoki bila turib yolg'on ma'lumotlar taqdim etilgan bo'lsa;

ilgari olingan mablag'larning o'rnnini qoplash bo'yicha bajarilmagan majburiyatlar mavjud bo'lgan taqdirda.

Moliyaviy yordam ko'rsatish O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra ham rad etilishi mumkin.

Konsullikning mansabдор shaxsi o'z vakolatlari doirasida boshqa zarur yordam ko'rsatishi mumkin.

### **21-modda. Odam savdosidan jabrlanganlarga yordam ko'rsatish va ko'maklashish yuzasidan konsullikning funksiyalari.**

Konsullikning mansabдор shaxsi o'z vakolatlari doirasida:

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida turgan, odam savdosidan jabrlangan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga yordam ko'rsatish va ularni himoya qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiradi;

odam savdosidan jabrlanganlarning O'zbekiston Respublikasiga qaytishiga ko'maklashadi, ularda shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda esa, ularning shaxsini va O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligini aniqlash bo'yicha o'z vaqtida choralar ko'radi hamda konsullik yig'imlarini va boshqa yig'imlarni undirmasdan ularga O'zbekiston Respublikasiga qaytishi uchun hujjatlarni rasmiylashtiradi;

zarur hollarda, konsullik muassasasi joylashgan davlatning tegishli vakolatli organlariga O'zbekiston Respublikasining odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari haqida ma'lumotlar taqdim etadi;

odam savdosidan jabrlanganlarga ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari haqida axborot taqdim etadi.

**22-modda. Vizalarni rasmiylashtirish va berish yuzasidan konsullikning funksiyalari.**

Konsullikning mansabdor shaxsi chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo'Imagan shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududiga kirish yoki uning hududi orqali tranzit tarzida o'tish uchun vizalarni O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan tartibda rasmiylashtiradi va beradi, bundan elektron vizalar mustasno.

**23-modda. Konsullikning O'zbekiston Respublikasining ushlab turilgan, qamoqqa olingan, ma'muriy qamoqqa olingan va ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan yoxud bedarak yo'qolgan fuqaroliga taalluqli funksiyalari.**

Konsullik muassasasi joylashgan davlat hududida turgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi ushlab turilganligi, qamoqqa olinganligi, ma'muriy qamoqqa olinganligi yoki ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar olingan taqdirda, konsullikning mansabdor shaxsi:

1) konsullik muassasasi joylashgan davlatning vakolatli organlari orqali fuqaro (familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi va joyi, yashash joyi, O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansubligi) to'g'risida, shuningdek ish holatlari haqida axborot oladi;

2) mazkur fakt to'g'risida konsullik muassasasining boshlig'ini, zarur hollarda esa O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasasi joylashgan davlatdagi diplomatik vakolatxonasini xabardor qiladi;

3) O'zbekiston Respublikasi fuqarosini tegishli yuridik yordam bilan ta'minlash bo'yicha choralar ko'radi;

4) O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bilan uchrashish uchun choralar ko'radi;

5) O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga yo'llangan xat-xabarlar va posilkalarning topshirilishiga xalqaro huquq va konsullik muassasasi joylashgan davlatning qonun hujjatlari yo'l qo'yadigan doiralarda ko'maklashadi.

Konsullikning mansabдор shaxsi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bilan shaxsan uchrashuv chog'ida bunday fuqaroga nisbatan xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari va normalariga, O'zbekiston Respublikasi va konsullik muassasasi joylashgan davlat ishtirokchi bo'lган xalqaro shartnomalar qoidalariga hamda konsullik muassasasi joylashgan davlatning qonun hujjatlariga rioya etilayotganligiga ishonch hosil qilishi kerak. Agar ushlab turilgan, qamoqqa olingen, ma'muriy qamoqqa olingen yoki ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan O'zbekiston Respublikasi fuqarosining huquqlari buzilayotgan bo'lsa, konsullikning mansabдор shaxsi xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari hamda normalariga, O'zbekiston Respublikasi va konsullik muassasasi joylashgan davlat ishtirokchi bo'lган xalqaro shartnomalarga muvofiq, o'z vakolatlari doirasida huquqlarni tiklash yuzasidan konsullik muassasasi joylashgan davlatning qonun hujjatlarida yo'l qo'yiladigan choralarmi ko'radi.

Konsullikning mansabдор shaxsi, zarur hollarda va O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlар vazirligi bilan kelishilgan holda, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi qaysi davlatda jazoni o'tayotgan yoki sud qarorining ijro etilishini kutayotgan bo'lsa, o'sha davlatning hokimiyat organlariga avf etish, muddatidan ilgari ozod qilish yoxud sud qarorini ijro etishni to'xtatib turish haqidagi iltimosnoma bilan, agar O'zbekiston Respublikasining mazkur davlat bilan xalqaro shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, murojaat etishi mumkin.

Konsullikning mansabдор shaxsi ushlab turilgan, qamoqqa olingen, ma'muriy qamoqqa olingen yoki ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi nomidan har qanday choralar ko'rishdan, agar mazkur fuqaro bunday choralar ko'rilihiga qarshi e'tiroz bildirsa, tiyilib turadi.

Konsullik muassasasining boshlig'i yoki O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasasi joylashgan davlatdagi diplomatik vakolatxonasi boshlig'i ushlab turilgan, qamoqqa olingen, ma'muriy qamoqqa olingen yoki ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga nisbatan ko'rilgan choralar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlар vazirligini xabardor qiladi.

Konsullikning mansabдор shaxsi O'zbekiston Respublikasining bedarak yo'qolgan, tegishli konsullik okrugi hududida turgan bo'lishi mumkinligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lган fuqarolarini qidirishda yordam ko'rsatilishini so'rab konsullik muassasasi joylashgan davlatning vakolatli organlariga darhol murojaat etadi.

## **24-modda. Konsullikning O‘zbekiston Respublikasi tergov organlarining hamda sudlarining topshiriqlarini bajarishga taalluqli funksiyalari.**

Konsullikning mansabdar shaxsi O‘zbekiston Respublikasi tergov organlarining hamda sudlarining O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari xususidagi topshiriqlarini O‘zbekiston Respublikasi va konsullik muassasasi joylashgan davlat ishtirokchi bo‘lgan xalqaro shartnomalarga muvofiq yoki, agar bunday shartnomalar mavjud bo‘lmasa, konsullik muassasasi joylashgan davlatning qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan har qanday boshqacha tartibda bajaradi.

## **25-modda. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining saylov huquqlarini va O‘zbekiston Respublikasining referendumida ishtirok etish huquqini amalga oshirishda ularga ko‘maklashish yuzasidan konsullikning funksiyalari.**

Konsullik muassasasi joylashgan davlatda O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonasi mavjud bo‘lmagan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga saylov huquqlarini va O‘zbekiston Respublikasining referendumida ishtirok etish huquqini amalga oshirishda ularga ko‘maklashish bo‘yicha funksiyalar konsullik muassasasi tomonidan bajariladi.

Konsullik muassasasidagi saylov uchastkasi (referendum uchastkasi) O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining taqdimnomasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tuziladi. O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tuziladigan saylov uchastkasini (referendum uchastkasini) saylov okrugiga (okrugga) qayd etish to‘g‘risidagi masala O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan hal etiladi.

Konsullik muassasasining boshlig‘i:

uchastka saylov komissiyasi (uchastka komissiyasi) raisining vazifalarini amalga oshiradi;

saylov uchastkasi bo‘yicha saylovchilarining ro‘yxatini (referendum uchastkasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining ro‘yxatini) tuzish uchun ma’lumotlarni taqdim etadi;

saylovchilarining ro‘yxati (ovoz beruvchi fuqarolar ro‘yxati) bilan tanishish joyi va vaqtin haqida saylovchilarini (fuqarolarni) xabardor qiladi;

saylov uchastkasi (referendum uchastkasi) tuzilganligi to‘g‘risida konsullik muassasasi joylashgan davlatning hokimiyat organlarini rasman xabardor qiladi.

## **26-modda. Konsullikning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish yuzasidan funksiyalari.**

Konsullik muassasalari quyidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etadi:

tug‘ilish;

nikoh tuzish;

nikohni bekor qilish;

o‘lim.

Konsullikning mansabdor shaxsi chet elda doimiy yoki vaqtincha yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolaridan, fuqarolik holatini O‘zbekiston Respublikasida qayd etgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslardan dalolatnomalar yozuvlariga o‘zgartishlar, tuzatishlar hamda qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risidagi, dalolatnomalar yozuvlari ni qayta tiklash haqidagi, shuningdek familiyasi, ismi va otasining ismini o‘zgartirish to‘g‘risidagi arizalarni tegishli hujjatlар bilan birga qabul qilib oladi hamda ushbu hujjatlarni ko‘rib chiqish uchun vakolatli organlarga topshiradi.

Konsullikning mansabdor shaxsiga murojaat etgan shaxslardan biri O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, boshqasi esa chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lмаган shaxs bo‘lgan hollarda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish masalalari, basharti fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish konsullik muassasasi faoliyat ko‘rsatayotgan davlatning qonun hujjatlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga zid bo‘lmasa, hal etiladi.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining oila to‘g‘risidagi qonun hujjatlarda nazarda tutilganidan boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

## **27-modda. Konsullikning notarial harakatlarni amalga oshirish yuzasidan funksiyalari.**

Konsullikning notarial harakatlarni amalga oshiruvchi mansabdor shaxsi notarial harakatlarni amalga oshirish siriga rioya etishi shart. Konsullikning notarial harakatlarni amalga oshirish sirining oshkor etilishida

aybdor bo‘lgan mansabdar shaxsi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq javobgar bo‘ladi.

Konsullikning mansabdar shaxsi o‘z nomiga va o‘z nomidan, o‘zining xotini (eri) nomiga va uning nomidan, xotinining (erining) va o‘zining yaqin qarindoshlari nomiga va ularning nomidan notarial harakatlarni amalga oshirishga haqli emas.

Konsullikning mansabdar shaxsi notarial harakatlarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga amal qiladi. Konsullikning mansabdar shaxsi quyidagi hollarda notarial harakatlarni amalga oshirishni rad etadi, agar:

bunday harakatni amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga zid bo‘lsa;

muomalaga layoqatsiz fuqaro yoki zarur vakolatlarga ega bo‘lmagan vakil notarial harakatni amalga oshirish to‘g‘risidagi iltimos bilan murojaat etgan bo‘lsa;

yuridik shaxs nomidan amalga oshiriladigan bitim uning ustavida yoki nizomida ko‘rsatilgan maqsadlarga zid bo‘lsa;

bitim O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining talablariga nomufovifq bo‘lsa;

notarial harakatni amalga oshirish uchun taqdim etiladigan hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga nomuvofiq bo‘lsa.

Agar taqdim etilgan hujjatlardan ularning qalbakilashtirilganligi aniq ko‘rinib turgan bo‘lsa yoki bu haqda shubhalanish uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lsa, notarial harakatlarni amalga oshirish uchun taqdim etilgan hujjatlar O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga nomuvofiq deb hisoblanadi.

Notarial harakatni amalga oshirish rad etilgan taqdirda, notarial harakatni amalga oshirish rad etilganligi to‘g‘risida konsullikning mansabdar shaxsi murojaat etilgan kundan e’tiboran uch kunlik muddatdan kechiktirmay qaror chiqaradi va uni notarial harakatni amalga oshirish uchun murojaat etgan shaxsga beradi.

Konsullikning mansabdar shaxsi quyidagi notarial harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega:

1) bitimlarni (shartnomalar, vasiyatnomalar, ishonchnomalar va boshqalarni) tasdiqlash, bundan O‘zbekiston Respublikasida joylashgan ko‘chmas mol-mulkni boshqa shaxsga o‘tkazish va garovga qo‘yish to‘g‘risidagi shartnomalar mustasno;

- 2) fuqaroning tirik ekanligi faktini tasdiqlash;
- 3) fuqaroning muayyan joyda ekanligi faktini tasdiqlash;
- 4) fuqaroning fotosuratda aks ettirilgan shaxs ekanligini tasdiqlash;
- 5) hujjatlar taqdim etilgan vaqtini tasdiqlash;
- 6) meros qilib qoldirilgan mol-mulkni qo‘riqlash choralarini ko‘rish;
- 7) merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnomalar berish;
- 8) er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g‘risida guvohnomalar berish;
- 9) hujjatlar ko‘chirma nusxalarining va hujjatlardan olingan ko‘chirmalarning to‘g‘riligini shahodatlash;
- 10) hujjatlardagi imzolarning haqiqiyligini shahodatlash;
- 11) hujjatlarning bir tildan boshqa tilga to‘g‘ri tarjima qilinganligini shahodatlash;
- 12) pul summalarini va qimmatli qog‘ozlarni depozitga qabul qilib olish;
- 13) saqlash uchun hujjatlarni qabul qilib olish;
- 14) ijro xatlarini yozish;
- 15) dengiz protestlarini amalga oshirish.

Konsullikning mansabдор shaxsi O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq boshqa notarial harakatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Konsullik muassasasida notarial ish yuritish O‘zbekiston Respublikasining davlat tilida amalga oshiriladi. Zarur hollarda hujjatlar boshqa tillarda ham rasmiylashtirilishi mumkin.

## **28-modda. Chet davlat hujjatlari va dalolatnomalarini konsullik tomonidan legallashtirish yuzasidan konsullikning funksiyalari.**

Chet davlat hujjatlari va dalolatnomalarini konsullik tomonidan legal-lashtirish hujjatlardagi hamda dalolatnomalardagi imzolarning haqiqiyligini, hujjatni yoki dalolatnomani imzolagan shaxsning vakolatlarini, legal-lashtirishga taqdim etilgan hujjatga yoxud dalolatnomaga bositgan muhr yoki shtampning haqiqiyligini hamda bu hujjatlar va dalolatnomalarning konsullik muassasasi joylashgan davlatning qonun hujjatlariga muvofiqligini aniqlash va shahodatlashdan iboratdir. Konsullik tomonidan hujjatlar va dalolatnomalarning legallashtirilishi ularning xalqaro munosabatlardagi qonuniyligini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi muassasalari va tashkilotlari chet davlatning muassasalari hamda tashkilotlaridan jo‘natiladigan hujjatlar va dalolatnomalarni ular konsullik tomonidan legallashtirilgan taqdirdagina, agar

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida yoki O'zbekiston Respublikasi hamda muassasalarini va tashkilotlaridan mazkur hujjatlar va dalolatnomalar jo'natiladigan davlat ishtirokchi bo'lgan xalqaro shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ko'rib chiqish uchun qabul qiladi.

Konsullikning mansabdor shaxsi konsullik okrugidagi hokimiyat organlari vakillari ishtirokida tuzilgan yoki ushbu hokimiyat organlaridan jo'natiladigan hujjatlar va dalolatnomalarini legallashtiradi.

Konsullikning mansabdor shaxsi chet elning rasmiy hujjatini legalashtirishni amalga oshirishi uchun mazkur hujjatning O'zbekiston Respublikasi davlat tilidagi yoki boshqa tillardagi notarial tartibda tasdiqlangan tarjimasini taqdim etishni talab qilishga haqli.

Quyidagi hujjatlar va dalolatnomalar konsullik tomonidan legallashtirilmaydi:

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid bo'lgan hujjatlar va dalolatnomalar;

o'z mazmuniga ko'ra O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan hujjatlar va dalolatnomalar;

noto'g'ri rasmiylashtirilgan hujjatlar va dalolatnomalar;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazadigan ma'lumotlar mayjud bo'lgan hujjatlar va dalolatnomalar.

Agar hujjatga yoki ushbu hujjatga biriktirilgan varaqqa apostil qo'yilgan bo'lsa, bu hujjatni legallashtirish talab etilmaydi.

Konsullikning mansabdor shaxsi apostil qo'yilgan hujjatlarni, agar apostil O'zbekiston Respublikasi bilan munosabatlarda chet elning rasmiy hujjatlarini legalashtirishga doir talabni rad etadigan Konvensiya qo'llaniladigan chet davlatning vakolatli organi tomonidan qo'yilgan bo'lsa, qabul qilishi shart.

## **29-modda. Hujjatlarni talab qilib olish yuzasidan konsullikning funksiyalari.**

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining, chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning arizalari bo'yicha konsullikning mansabdor shaxsi O'zbekiston Respublikasining davlat organlaridan, O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan muassasalar va tashkilotlardan fuqarolik holati dalolatnomalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi, ma'lumoti haqidagi, mehnat stoji to'g'risidagi hamda arizachilarning huquqlari va manfaatlariga taalluqli boshqa hujjatlarni talab qilib oladi.

Konsullikning mansabдор shaxsi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lмаган shaxslarning arizalari, O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan muassasalar hamda tashkilotlarning O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali kelib tushadigan so'rovlari bo'yicha konsullik muassasasi joylashgan davlatning vakolatli organlaridan arizachilarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga taalluqli hujjatlarni talab qilib oladi.

**30-modda. Konsullikning O'zbekiston Respublikasining farzandlikka olingen voyaga yetmagan fuqarolariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasining vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lган fuqarolariga taalluqli funksiyalari.**

Konsullik muassasalari O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashayotgan, ota-onasi homiyligidan mahrum bo'lган voyaga yetmaganlar, O'zbekiston Respublikasining muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan fuqarolari ustidan, shuningdek sog'lig'ining holatiga ko'ra o'z huquqlarini mustaqil ravishda amalga oshirishga hamda o'z majburiyatlarini bajarishga qodir bo'lмаган voyaga yetgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga nisbatan vasiylik yoki homiylik belgilash choralarini ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi hududida yashayotgan voyaga yetmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosini farzandlikka olishni xohlaydigan, konsullik okrugi hududida doimiy yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining, chet el fuqarolarining yoki fuqaroligi bo'lмаган shaxslarning iltimosiga ko'ra konsullikning mansabдор shaxsi ularni farzandlikka olishning O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan sud tartibi to'g'risida xabardor qiladi.

O'zbekiston Respublikasining voyaga yetmagan fuqarosi konsullik okrugi hududida ota-onasi homiyligidan mahrum bo'lib qolganligi to'g'risida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan konsullikning mansabдор shaxsi bu haqda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligini xabardor qildi, O'zbekiston Respublikasining bunday fuqarosi ustidan vasiylik yoki homiylik belgilanishiga ko'maklashadi hamda uning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarini himoya qilish choralarini ko'radi.

**31-modda. Konsullikning O'zbekiston Respublikasi havo, dengiz va daryo kemalariga, shuningdek avtomobil va temir yo'l transporti vositalalarining harakatdagi tarkibiga taalluqli funksiyalari.**

Konsullikning mansabдор shaxsi konsullik muassasasi joylashgan davlatning aeroportlarida O'zbekiston Respublikasi havo kemasining komandiri, ekipaji va yo'lovchilariga konsullik muassasasi joylashgan davlatning qonun hujjalariha hamda O'zbekiston Respublikasi va konsullik muassasasi joylashgan davlat ishtirokchi bo'lган xalqaro shartnomalarga muvofiq huquqlar hamda immunitetlar berilishini kuzatib boradi.

Konsullikning mansabдор shaxsi O'zbekiston Respublikasi havo kemasining komandiri, ekipaji va yo'lovchilariga konsullik muassasasi joylashgan davlatning hokimiyat organlari bilan munosabatlarda yordam ko'rsatishi, shuningdek zarur bo'lган taqdirda havo kemasni, uning ekipaji va yo'lovchilarini O'zbekiston Respublikasiga qaytarish yoki parvozni davom ettirish choralarini ko'rishi kerak.

Konsullikning mansabдор shaxsi quyidagi huquqlarga ega:

havo kemasining aeroportga uchib kelishiga, undan uchib ketishiga va havo kemasining aeroportda turishiga ko'maklashish;

havo kemasida yuz bergen hodisalarning holatlarini aniqlashtirish, havo kemasining komandiridan, ekipaji a'zolaridan va yo'lovchilaridan so'rab-surishtirish;

havo kemasni, undagi yuk va reys to'g'risidagi ma'lumotlarni olish;

zarur bo'lган taqdirda havo kemasni ekipaji a'zolari va yo'lovchilarining davolanishini hamda O'zbekiston Respublikasiga jo'natib yuborilishi ni ta'minlash choralarini ko'rish;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini, pochta va yuklarni O'zbekiston Respublikasi aeroportlariga boradigan O'zbekiston Respublikasi havo kemalarida jo'natib yuborish;

havo kemalariga taalluqli bo'lган, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida yoki qonun hujjalarda nazarda tutilgan deklaratsiyani yoxud boshqa hujjatni olish, tuzish, tasdiqlash.

Konsullik okrugi doirasida havo kemasni falokatga uchragan, qo'nishga majbur bo'lган yoki boshqa hodisa sodir bo'lган taqdirda konsullikning mansabдор shaxsi havo kemasining komandiriga, ekipajiga va yo'lovchilariga zarur yordam ko'rsatadi.

Konsullikning mansabдор shaxsi falokatga uchragan yoki qo'nishga majbur bo'lган havo kemasini, hodisa xususiyatidan dalolat beruvchi yuklar va ashyoviy dalillarni qo'riqlash choralarini ko'radi hamda uchish vaqtida yuz bergen hodisani tekshirishda O'zbekiston Respublikasining mutaxassislariga yordam ko'rsatadi.

Havo kemasining bortida jinoyat sodir etilgan taqdirda konsullikning mansabдор shaxsi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariдан va qonun hujjatlaridan kelib chiqadigan vazifalarni bajarishda havo kemasining komandiriga ko'maklashadi.

Agar konsullikning mansabдор shaxsida mavjud bo'lган ма'lumotlarga ko'ra O'zbekiston Respublikasi havo kemasining muayyan aeroportga kirishi xatarli, nomaqbul bo'lsa yoki mumkin bo'lmasa, konsullikning mansabдор shaxsi havo kemasi komandirini bu haqda ogohlantirishi shart.

Konsullikning mansabдор shaxsi dengiz va daryo kemalariga, avtomobil va temir yo'l transporti vositalarining harakatdagi tarkibiga taalluqli konsullik funksiyalarini bajarish chog'ida ushbu moddaning birinchi – yet-tinchli qismlari qoidalariga amal qiladi.

Dengiz yoki daryo kemasi chet elda olingen taqdirda konsullikning mansabдор shaxsi O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i ostida suzib yurish huquqini beruvchi vaqtinchalik guvohnoma beradi. Mazkur vaqtinchalik guvohnoma berilgan paytdan e'tiboran to dengiz yoki daryo kemasi O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilguniga qadar, lekin berilgan paytdan e'tiboran ko'pi bilan olti oy amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i ostida suzib yurish huquqini beruvchi vaqtinchalik guvohnomati rasmiylashtirish uchun arizachi dengiz yoki daryo kemasi olish asoslariga bog'liq holda hujjatlarni konsullikning mansabдор shaxsiga taqdim etadi.

**32-modda. Konsullik okrugi hududida tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlar, qurolli mojarolar, ommaviy tartibsizliklar vujudga kelganda va terrorchilik harakatlari sodir etilganda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xavfsizligini ta'minlash yuzasidan konsullikning funksiyalari.**

Konsullikning mansabдор shaxsi tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlar, qurolli mojarolar, ommaviy tartibsizliklar vujudga kelgan va terrorchilik harakatlari sodir etilgan zonalarda qolgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek bu zonalardagi vaziyatning rivoji haqida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligini o'z vaqtida xabardor qiladi.

Konsullikning mansabдор shaxsi tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlar, qurolli mojarolar, ommaviy tartibsizliklar vujudga kelganda yoki ularning vujudga kelish xavfi bo'lganda, shuningdek

terorchilik harakatlari sodir etilganda yoki ularning sodir etilish xavfi bo‘lganda konsullik okrugi hududidagi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha choralar ko‘radi.

Konsullikning mansabдор shaxsi, zarur bo‘lgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining yaqin xavfsiz zonaga evakuatsiya qilinishini tashkil etish yoki ularning O‘zbekiston Respublikasiga qaytarilishini ta‘minlash, shuningdek halok bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining tanalarini O‘zbekiston Respublikasiga jo‘natish bo‘yicha choralar ko‘radi.

### **33-modda. Konsullikning sanitар himoya sohasiga oid funksiyalari.**

Konsullik okrugi doirasida karantinli yuqumli kasalliklar paydo bo‘lgan taqdirda konsullikning mansabдор shaxsi kasallik tarqalgan hududning nomini, kasallikka chalinganlar sonini va konsullik muassasasi joylashgan davlatning vakolatli organlari tomonidan amalga oshirilayotgan epidemiya qarshi tadbirlarni ko‘rsatgan holda bu haqda darhol O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga xabar qiladi.

### **34-modda. Konsullikning fitosanitar himoya sohasiga oid funksiyalari.**

Konsullik okrugi doirasida o‘simliklar zararkunandalari, o‘simliklar kasalliklarini qo‘zg‘atuvchilar, karantin ahamiyatiga ega o‘simliklar-begona o‘tlar paydo bo‘lgan taqdirda konsullikning mansabдор shaxsi bu haqda darhol O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga xabar qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari yoki yuridik shaxslari murojaat etgan taqdirda konsullikning mansabдор shaxsi ularni konsullik muassasasi joylashgan davlatga kirish chog‘ida o‘simliklar, o‘simlik mahsulotlari va xomashyosi uchun tegishli fitosanitariya sertifikatlarini, pestitsidlar va (yoki) agroximikatlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomalarni ko‘rsatish zarurligi to‘g‘risida ogohlantiradi, shuningdek manfaatdor shaxslarni tegishli davlatga urug‘liklar, o‘simliklar, ko‘chatlar, yangi meva va sabzavotlarni olib kirish qoidalari to‘g‘risida xabardor qiladi.

### **35-modda. Konsullikning veterinar himoya sohasiga oid funksiyalari.**

Konsullik okrugi doirasida hayvonlarning umumiy kasallikkari tarqalishi xavfi bo‘lgan yoki tarqalgan, shuningdek inson va hayvonlar uchun

umumiyligani kasalliklar tarqalishi xavfi bo‘lgan yoki tarqalgan hollarda konsullikning mansabдор shaxsi bu haqda darhol O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga xabar qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari yoki yuridik shaxslari murojaat etgani taqdirda konsullikning mansabдор shaxsi ularni konsullik muassasasi joylashgan davlatga kirish chog‘ida hayvonlar, chorva mahsulotlari va xomashyosi uchun tegishli veterinariya sertifikatlarini ko‘rsatish zarurligi to‘g‘risida ogohlantiradi, shuningdek manfaatdor shaxslarni tegishli davlatga hayvonlarni olib kirish qoidalari to‘g‘risida xabardor qiladi.

### **36-modda. Konsullikning mansabдор shaxsi funksiyalarining tugatilishi.**

Konsullik mansabдор shaxsining funksiyalari quyidagi hollarda tugatiladi:

- u chaqirib olinganda;
- ekzekvatura bekor qilinganda;
- konsullik muassasasi yopilganda;
- konsullik munosabatlari tugatilganda.

Konsullik mansabдор shaxsining funksiyalari O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq boshqa hollarda ham tugatilishi mumkin.

### **37-modda. Konsullikning mansabдор shaxsi faoliyati samaradorligini baholash mezonlari.**

Konsullikning mansabдор shaxsi faoliyati samaradorligini baholash mezonlari qonun hujjatlarida belgilanadi.

### **38-modda. Ushbu Konsullik ustavi normalarini buzganlik uchun javobgarlik.**

Ushbu Konsullik ustavi normalarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

### **39-modda. Konsullik yig‘imlari va haqiqiy xarajatlarning o‘rnini qoplash hisobidan yig‘imlar.**

Konsullik harakatlarini amalga oshirganlik uchun konsullik yig‘imlari, shuningdek ko‘rsatilgan harakatlar amalga oshirilganligi bilan bog‘liq haqiqiy xarajatlarning o‘rnini qoplash hisobidan yig‘imlar undiriladi.

Konsullik harakatlarini amalga oshirganlik uchun konsullik yig‘imlari va haqiqiy xarajatlarning o‘rnini qoplash hisobidan undiriladigan yig‘imlar O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq foydalaniladi.

Konsullik yig‘imlarining tariflari O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. Konsullik harakatlari amalga oshirilganligi bilan bog‘liq haqiqiy xarajatlarning o‘rnini qoplash hisobidan yig‘imlarning miqdorlari O‘zbekiston Respublikasining konsullik muassasasi joylashgan davlatdagi konsullik muassasasi boshlig‘i yoki diplomatik vakoletxonasi boshlig‘i tomonidan ko‘rsatilgan yig‘imlar stavkalarini hisoblashning O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan yagona uslubiyoti asosida tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi konsullik muassasasining boshlig‘i va diplomatik vakolatxonasining boshlig‘i konsullik yig‘imlarining va konsullik harakatlari amalga oshirilganligi bilan bog‘liq haqiqiy xarajatlar o‘rnini qoplash hisobidan yig‘imlarning stavkalarini pasaytirishga yoki ayrim shaxslarni bunday yig‘imlarni to‘lashdan ularning arizalariga ko‘ra, agar ushbu shaxslar tomonidan ko‘rsatilgan sabablar aniqlansa va uzrli deb topilsa, ozod qilishga haqli.

Konsullik yig‘imlari va konsullik harakatlari amalga oshirilganligi bilan bog‘liq haqiqiy xarajatlarning o‘rnini qoplash hisobidan yig‘imlar O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi va konsullik muassasasi joylashgan davlat ishtirokchi bo‘lgan xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan hollarda undirilmaydi.

### **5-bob. O‘zbekiston Respublikasining faxriy konsuli**

#### **40-modda. O‘zbekiston Respublikasi faxriy konsulining maqomi.**

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi konsullik muassasasi joylashgan davlatning roziligi bilan ayrim konsullik funksiyalarini bajarishni O‘zbekiston Respublikasining faxriy konsuliga (bundan buyon matnda Faxriy konsul deb yuritiladi) topshirishi mumkin.

Konsullik muassasasi joylashgan davlatda munosib ijtimoiy mavqeni egallagan va zarur shaxsiy fazilatlarga ega, shuningdek zimmasiga yuklatilgan konsullik funksiyalarini lozim darajada bajarish imkoniyatiga ega shaxslardan bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi ham, chet el fuqarosi ham Faxriy konsul bo‘lishi mumkin.

Faxriy konsul O‘zbekiston Respublikasining davlat xizmatida turmaydi va o‘z funksiyalarini bajarganlik uchun O‘zbekiston Respublikasidan biron-bir pul mukofoti olmaydi.

Faxriy konsul O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Faxriy konsul o‘z funksiyalarini O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonasi yoki qaysi konsullik okrugi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa, o‘sha konsullik muassasasi joylashgan davlatdagi konsullik muassasasi rahbarligi ostida bajaradi. O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasi mavjud bo‘lmagan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi bunday rahbarlikni Faxriy konsul turgan davlatga qo‘shni yoxud uning o‘zi turgan davlatga yaqin bo‘lgan davlatlardan birida joylashgan O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonasiga yoxud konsullik muassasasiga topshiradi.

Faxriy konsul o‘zi turgan davlat bilan kelishuvga ko‘ra va O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining roziligi bilan bir vaqtning o‘zida boshqa chet davlatning Faxriy konsuli majburiyatlarini bajarishi mumkin.

#### **41-modda. Faxriy konsulning funksiyalari.**

Faxriy konsul quyidagi konsullik funksiyalarini bajarishi mumkin:

konsullik okrugi hududida vaqtinchalik turgan yoki doimiy yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining hisobini yuritishni amalga os-hirish;

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlash;

konsullik okrugi hududida bedarak yo‘qolgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini qidirish bo‘yicha choralar ko‘rish;

konsullik okrugi hududida turgan O‘zbekiston Respublikasi fuqaroliga ularning o‘z saylov huquqlarini va O‘zbekiston Respublikasining referendumlarida ishtirok etishga bo‘lgan huquqini amalga oshirishda konsullik muassasasi bilan kelishuvga ko‘ra ko‘maklashish;

konsullik okrugi hududida doimiy yashayotgan, ustidan vasiylik va homiylik belgilanishi talab qilinadigan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolaringin huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha choralar ko‘rish;

konsullik okrugi hududida turgan O‘zbekiston Respublikasining havo, dengiz va daryo kemalariga, avtomobil hamda temir yo‘l transporsti vositalarining harakatdagi tarkibiga, shuningdek ularning ekipajlari va yo‘lovchilariga zarur yordam ko‘rsatish.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida va O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida Faxriy konsulning boshqa funksiyalari nazarda tutilishi mumkin.

## Foydalaniłgan adabiyotlar

1. Дипломатический словарь. В 3-х томах. Главный ред. А.А. Громыко, А.Г. Ковалев, П.П. Севостьянов, С.П. Тихвинский. – М.: изд. Наука, 1984–86.
2. Konstitutsiyaviy huquq. Ensiklopedik lug‘at. Mas’ul muharritir va mualliflar jamoasining rahbari B.Mustafayev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2006-yil. – 584 bet.
3. O‘zbek sovet ensiklopediyasi, mualliflar jamoasi, O‘SE Bosh tahririyati, Toshkent, 1971–80.
4. O‘zM ensiklopediyasi. Qomus.info. Onlayn ensiklopediya.
5. Yuridik lug‘at. O‘R Milliy huquqiy internet portalı.
6. Ahmedov G., Bektemirov H. Ruscha-o‘zbekcha yuridik atamalar lug‘ati. – Toshkent: “Adolat”, 2002.
7. Дадабаев Х. Старотюркская дипломатическая терминология в XI–XIV вв. Историко-лингвистический анализ лексики старописьменных памятников. – Ташкент: “Фан”, 1994. – С. 4–13.
8. Dadaboyev H., Ogahiy asarlaridagi diplomatiyaga oid terminlar. Lingvist. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2017. – 3–7 b.
9. Muqimov Z., Tursunova O. O‘zbek davlatchiligidagi qo‘llangan tarixiy-huquqiy atamalar. – Samarqand, 2007.
10. Usmon O., Doniyorov R. Ruscha – internatsional so‘zlar izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1972.
11. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, 5 jildli, O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti (sobiq Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti) jamoasi. Toshkent, 2006–2008-yy.
12. Ruscha-o‘zbekcha yuridik tezaurus. Tuzuvchilar: O.R. Sulaymanov, Sh.T. Ziyamuxamedova. – Toshkent, 2011. – 278 b.
13. *Vikipediya materiallari*.
14. *The Palgrave Macmillan Dictionary of Diplomacy. Avt. Djeff Berridji i Lorna Lloyd*.
15. Русско-английский дипломатический словарь. Авторский колл.: Журавченко К.В., Гераскина Н. П., Мелех И.Я. Редактор: Бурнашева В.Ю., Саркисьян С. Г. – М.: Изд.: “Дрофа”, 2006 г.

16. История дипломатии. – Т. I. – М.: Изд. политической литературы, 1959.
17. Англо-русский дипломатический словарь. – М., 2005.
18. Русско-английский дипломатический словарь. – М.: Русский язык, 2001.
19. Abdullayeva L.M., Yuldasheva G. Diplomatik va konsullik huquqi bo'yicha izohli lug'at. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Т.: TDYuI, 2004. – 75 b.
20. Alimardanov R. Ingliz-o'zbekcha-ruscha siyosiy va diplomatik atamalarning qisqacha lug'ati. – Toshkent: JIDU, 2000. – 146 b.
21. G'ozi Yunus. Ruscha-o'zbekcha qisqacha huquqiy va siyosiy lug'at. – Toshkent: "Huquqnashr", 1926. – 33 b.
22. Muxammadjonov O.Z., Voinova M.G. Xalqaro huquqqa oid ruscha-o'zbekcha atama va iboralar lug'ati. – Т.: TDYuI, 1998. – 49 b.
23. O'zbek tilida xalqaro huquq atamalari (Ilmiy munozara materiallari). – Toshkent: JIDU, 1998. – 80 b.

## MUNDARIJA

So‘zboshi .....	3
Lug‘atda ishlatalgan qisqartmalar .....	5
A .....	6
B .....	15
D .....	27
E .....	67
F .....	74
G .....	76
H .....	78
I .....	79
J .....	86
K .....	86
L .....	111
M .....	112
N .....	121
O .....	128
P .....	130
Q .....	135
R .....	137
S .....	139
T .....	142
U .....	151
V .....	151
X .....	158
Y .....	172
O‘ .....	182
SH .....	183
CH .....	188
Ilova .....	189
Hujjatlar .....	190
Foydalaniłgan adabiyotlar .....	221

**I.U. SHAMSIMUXAMEDOV**

**DIPLOMATIK  
TERMINLAR IZOHLI  
LUG‘ATI**

*400 ga yaqin termin, so‘z birikmasi va nom kiritilgan*

Muharrir  
Badiiy muharrir  
Sahifalovchi

I. Ahmedov  
D. Mulla-Axunov  
G. Ahmedova

Nashriyot litsenziyasi AA 0049. 20.03.2020-yil.  
Bosishga 22.11.2021-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/16.  
Bosma tabog‘i 14. Adadi 1000. Buyurtma № 21-13.

**“Donishmand ziyosi” MChJ** nashriyotida nashrga  
tayyorlandi va matbaa bo‘limida chop etildi.  
Toshkent shahar, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.